O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI TUZILMASIDAGI “QATAG‘ON QURBONLARI XOTIRASI” MUZEYI

JADIDCHILIK HARAKATI VA QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY HAQIQAT, VOHA XOTIRASI VA MA`NAVIY MEROS

(Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami)

2026 - yil 14-sentyabr

Qarshi-2026

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-noyabrdagi “2025-2026-yillarda mamlakatimizda qatag‘on qurbonlari xayoti va faoliyatini targ‘ib yetish ishlarini yanada jadallashtirish buyicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘irisida”gi 691-sonli qarori bilan tasdiqlangan 24-1 bandiga asosan Qarshi davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi”da 2026-yil 14-sentyabr kuni “Jadidchilik harakati va qatag‘on qurbonlari: tarixiy haqiqat, voha xotirasi va ma’naviy meros” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga taqdim etilgan maqola va tezislarni o‘z ichiga oladi. Konfrensiya materiallarida jadidchilik harakati va qatag‘on qurbonlari hayoti hamda faoliyatini chuqur o‘rganish, qatag‘on qurbonlarining mamlakat taraqqiyoti, ilm-fan, ta’lim va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasini keng targ‘ib etish kabi masalalari qamrab olingan. To‘plam materiallari soha mutaxassislari professor-o‘qituvchilar, tayanch doktorantlar, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba va magistrlar uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Konfrensiya tashkiliy qo‘mitasi tarkibi:

D.H.Nabiyev – universitet rektori, professor
Sh.R.Davronov – o’quv ishlari prorektori, Phd, dots.
I.R.Bekpulatov – ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor, PhD, dots.
O.Ch.Kuziyev – yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor, PhD, dots.
M.A.Mansurov – moliya-iqtisod ishlari prorektori, DSc, dots.
D.J.Raxmatova – universitet tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi direktori, DSc, dots.

Mas’ul muharrirlar:

Dilnavoz Raxmatova, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Jamlovchi va nashrga tayyorlovchi:

Majiddin Raxmatov, muzey ilmiy xodimi

Taqrizchilar

T.f.d., prof. B.Eshov, t.f.d.N.Xushvaqtov

To`plamga kiritilgan maqolalarning ilmiy-uslubiy sifati, faktlarning haqiqiyligi va ularning talqinlari uchun mualliflar mas`uldir.

To‘plam Qarshi davlat universiteti rektorining ____yil ____dagi №__ _-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining __ yil ___gi № __-sonli buyrug‘i asosida nashrga tavsiya etilgan. To‘plam muzeyshunos, tarixshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

NABIYEV DILMUROD HAMIDULLAYEVICH

Qarshi davlat universiteti rektori,

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Assalomu alaykum hurmatli tadbir ishtirokchilari, mehmonlar!

XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllanib, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan Turkiston ma’rifatparvar ziyolilarini bizga qoldirgan bebaho merosini o‘rganishga bag’ishlangan **“Jadidchilik harakati va qatag‘on qurbonlari: tarixiy haqiqat, voha xotirasi va ma’naviy meros”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasinining ahamiyati juda yuqori deb hisoblaymiz. Mazkur konfrensiya ham jadid ma’rifatparvarlarining hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini o‘rganishga, shuningdek, ularning millatimiz, xalqimiz ozodligi yo’lida chekkan zahmatlari, kurashlari, umuman, barcha xayrli ishlarinini bugungi avlod ongu shuuriga singdirishga katta hissa qo‘shadi deb ishonamiz.

Zero, Davlatimiz rahbarining ko’plab nutqlari, uchrashuv va tadbirlarda tilga olingan quyidagi fikrlari ayni haqiqatdir: **“Agar jadidlarimiz qirg’in qilinmaganda edi, ularning bilimi, ularning ilmi bilan katta kashfiyotlar qilinardi”. “…tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo’lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi”**. Ularning ulug’ maqsadlar yo’lidagi mardona kurashi va fidoyiligi yangi O’zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo’lib xizmat qilishi zarur. Jadid taraqqiyparvarlarining hayoti va faoliyatini chuqur o’rganish va tadqiq etish to‘g‘risidagi mazkur da’vat bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari yanada jadallashishini taqozo etdi. Zero, Jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma`rifatli qilish jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o`tkazish, pirovarida, milliy mustaqillik g’oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadini o`z oldiga qo`ygan harakat sifatida tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi.

Turkiston jadidlari o`zlarining dastlabki faoliyatlarini ma`rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g'oya eng ilg'or qarashli jadid ziyolilarning fikrida bo`lgani holda, mavjud sharoitda unga yetishuv iloji yo`q edi. Unga faqat tinimsiz ma`rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxassislarsiz tasavvur eta olmaganlar. Shu munosabat bilan ular asosiy e`tiborni mahalliy xalq bolalaridan ilg'or fikrli, bilimli kadrlar tayyorlashga qaratganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirish uchun maktab maorif ishlarini yaxshi yo`lga qo`yishni va yosh avlod ta`lim-tarbiyasini birinchi navbatdagi masala, deb bildilar. Turkiston jadidlari ma`rifatni omma orasida keng yoyish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldilar. Maktab-maorif, matbuot, badiiy asarlar, teatr san`ati orqali o`z g'oyalarini targ'ib qildilar. Millatni iqtisodiy, siyosiy maishiy turmush sohasida ma`rifatli qilishga intilib faoliyat olib bordilar. Bugun mamlakatimizda millat qahramonlari bo'lgan jadidlar nomini tiklash, xotirasini abadiylashtirish va ma'naviy-marifiy merosini o'rganishga jidiiy e'tirbor qaratilmoqda. Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.

Shunday ekan bugungi anjuman muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlarining amaliy natijalaridan bir ko‘rinish bo‘lib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi deb bilamiz.

Bugungi anjumanimizga tashrif buyurgan barcha qatnashchilariga yangi ijodiy yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyatlar tilaymiz!

ҚОРИ АҲМАД АКРОМХОН ЎҒЛИ

Рахматова Дилнавоз Журакобиловна
ҚарДУ тузилмасидаги "Қатағон қурбонлари хотираси" музейи директори тарих фанлари доктори (DSc) доцент

Аннотация: Мақолада XX асрнинг биринчи ярмида Қашқадарё вилоятида яшаб ўтган йирик диний ва маърифий арбоб Қори Аҳмад Акромхон ўғлининг ҳаёти, илмий-маърифий фаолияти ҳамда совет тузумининг қатағон сиёсати даврида бошидан кечирган оғир синовлари ёритилган. Унда олимнинг Бухоронинг машҳур Мир Араб мадрасасида таҳсил олгани, Қуръони Карим ва ҳадис илмини мукаммал эгаллагани, шунингдек, диний эътиқоди ҳамда маърифий қарашлари учун 1952 йилда ноҳақ ҳибс қилиниб, Омск вилоятига сургун қилингани архив ва оғзаки тарих манбалари асосида таҳлил этилган. Шу билан бирга, мақолада Қори Аҳмаднинг қамоқ ва сургун йилларида ҳам яширин тарзда маърифий фаолиятни давом эттиргани, мураккаб тарихий шароитда оиласи ва шогирдларига қолдирган маънавий мероси ҳамда мустақиллик йилларида унинг авлодлари томонидан бу анъаналарнинг давом эттирилаётгани кенг ёритилган.

Калит сўзлар: Қори Аҳмад Акромхон ўғли, Мир Араб мадрасаси, Ғузор, совет қатағонлари, сургун, Оқсарой, диний таълим, Қуръони Карим, тафсир, ҳадис, Ахмад Яссавий, маънавий мерос, қатағон қурбонлари.

Аннотация: В статье освещены жизнь крупного религиозного и просветительского деятеля, сына Хори Ахмада Акромхона, который жил в Кашкадарьинской области в первой половине XX века, его научно-просветительская деятельность, а также тяжелые испытания, через которые

он прошел в период репрессий советской власти. В ней анализируется, что ученый учился в знаменитой медресе Мир-Араб в Бухаре, досконально овладел знаниями по Корану и хадисам, а также был несправедливо заключен в 1952 году и сослан в Омскую область за свои религиозные убеждения и просветительские взгляды на основе архивных и устных исторических источников. Кроме того, в статье подробно раскрыто, как Хори Ахмад даже в годы заключения и ссылки тайно продолжал свою просветительскую деятельность, какое духовное наследие он оставил своей семье и ученикам в сложных исторических условиях, и как в годы независимости его потомки продолжают эти традиции.

Ключевые слова: Кори Ахмад Акромхон угли, медресе Мир Араб, Гузор, советские репрессии, ссылка, Аксарой, религиозное образование, Коран, тафсир, хадис, Ахмад Ясавий, духовное наследие, жертвы репрессий.

Abstract: The article sheds light on the life of Qori Ahmad Akromkhon, a prominent religious and educational figure who lived in the Kashkadarya region in the first half of the 20th century, his scholarly and educational activities, and the severe trials he faced during the repressive policies of the Soviet regime. It analyzes, based on archival and oral history sources, how the scholar studied at the famous Mir Arab madrasa in Bukhara, thoroughly mastered the knowledge of the Quran and Hadith, and how, due to his religious beliefs and educational views, he was unjustly arrested in 1952 and exiled to the Omsk region. Additionally, the article extensively covers how Qori Ahmad continued his educational work in secret during his years of imprisonment and exile, the spiritual legacy he left for his family and students in challenging historical circumstances, and how his descendants have continued these traditions during the years of independence.

Keywords: Qori Ahmad Akromkhon o‘g‘li, Mir Arab Madrasa, G‘uzor, Soviet repressions, exile, Oqsaroy, religious education, Quran, tafsir, hadith, Ahmad Yasawi, spiritual heritage, victims of repression.



Қори Аҳмад Акромхон ўғли

Қори Аҳмад Акромхон ўғли 1902 йилда Қашқадарё вилояти Ғузор районининг Авғонбоғ қишлоғида туғилган. Ижтимоий келиб чиқишига кўра деҳқон (колхозчи) бўлган[1]. Маҳаллий аҳоли орасида у “Қори Аҳмад” ёки “Кичик қори” номи билан танилган. Бу атама қишлоқда ёши катта бўлган яна бир қори мавжудлиги билан боғлиқ бўлиб, у “Катта қори”, Қори Аҳмад эса ёшлиги сабаб “Кичик қори” деб аталган.

Қори Аҳмаднинг отаси Акромхўжа, бобоси эса Абдухолиқхўжа бўлиб, оилада диний анъаналар ва маънавий қадриятларга эътибор қаратилгани кузатилади. У ёшлигидан ягона укаси Йўлдошхўжа билан етим қолган. Кейинчалик укаси ҳарбий хизматга чақирилиб, хизмат давомида вафот этган.

Қори Аҳмад Акромхон ўғлининг турмуш ўртоғи Акромова Ҳакима (Ҳалима) бўлиб, у 1917 йилда Шаҳрисабз шаҳрида туғилган. Ҳакима Қори Аҳмадни амакисининг қизи ҳисобланиб, ўша давр урф-одатларига мувофиқ, 13 ёшида Қори Аҳмадга никоҳ қилинган.

Қори Аҳмад оиласида саккиз нафар фарзанд тарбияланган. Улар қуйидагилар:

Ахмедова Зубайда (1936–2020), Ахмедова Муҳтарам (1939 йилда туғилган), Ахмедов Тожиддинхон (1942–1983), Ахмедов Сирожиддинхон (1946 йилда туғилган), Ахмедова Муъаззам (1949 йилда туғилган), Акромов Суюнхон (1953 йилда туғилган), Акромов Луқмонхон (1956 йилда туғилган) ва Акромов Нўъмонхон (1959 йилда туғилган).

Қори Аҳмад Акромхон ўғли ўз даври учун етук диний билимга эга бўлган шахслардан бири ҳисобланади. У дастлаб диний таълимни яқин қариндошлари — амакалари қўлида олган, кейинчалик эса Ғузор ҳудудига келган андижонлик қори раҳбарлигида таҳсилни давом эттирган. 1925–1930

йиллар мобайнида Бухоро шаҳридаги Мир Араб мадрасасида ўқиб, Қуръони Каримни тафсири билан, шунингдек, ҳадис илмини шарҳлари билан мукаммал ўзлаштирган. Манбаларда унинг Қуръон ва ҳадисни ёддан билиши алоҳида таъкидланади.

Таълимни тугатгандан сўнг Қори Аҳмад Акромхон ўғли масжидда имом сифатида фаолият юритган. Унинг маънавий-маърифий дунёқараши кенг бўлиб, шахсий уй кутубхонасида Қуръони Карим, Ахмад Яссавийнинг "Ҳикматлар хазинаси", Алишер Навоий, Мирзо Абдуқодир Бедил асарлари ҳамда бошқа диний ва дунёвий мазмундаги китоблар мавжуд бўлган. Бу ҳолат унинг фақат диний эмас, балки умуммаърифий билимларга ҳам эътибор қаратганини кўрсатади.

Оғзаки тарих манбасига кўра, 1951 йилда Қори Аҳмад Акромхон ўғли ҳибсга олинган. Ўғли Ахмедов Сирожиддинхоннинг гувоҳлик беришича, у отасига ариқ бўйидаги қамишларни ўришни топширган пайтда икки нафар милиция ходими келиб, Қори Аҳмадни олиб кетган. Шу йили унинг уйида саккиз нафар милиция ходими иштирокида тинтув ўтказилиб, Ахмад Яссавийнинг "Ҳикматлар хазинаси" асари топилгани сабабли у қамоққа олинган. Манбаларда қайд этилишича, Қори Аҳмад тергов жараёнида ўн кун давомида тазйиққа учраган. Тергов давомида у Ахмад Яссавий асарларини ўқимаслигини, бироқ ҳар қандай ҳолатда ҳам Қуръони Каримни ўқишдан воз кечмаслигини қатъият билан билдирган[2].

Тергов ишлари Ғузор тўрасида жойлашган "Оқсарой" биносида олиб борилган. Ушбу бинода Давлат сиёсий бошқармасига қарашли идоралар, почта ҳамда ҳарбий комиссариат каби давлат муассасалари фаолият юритган. Дастлаб Қори Аҳмад Ғузор туманидаги маҳаллий қамоқхонада сақланган, кейинчалик эса Қарши шаҳрида жойлашган 5-тергов изоляторига кўчирилган. Ушбу қамоқхона ҳозирги кунда Одена (Одина) масжиди номи билан маълум.

1952 йил сентябрь ойида Қашқадарё вилоятида ўтказилган ёпиқ суд мажлисида Қори Аҳмад Акромхон ўғли Ўзбекистон ССР Жиноят

кодексининг 157-моддаси асосида айбли деб топилиб, уч йил муддатга озодликдан маҳрум этиш жазосига ҳукм қилинган[3]. Суд ҳукмига мувофиқ, у Россия Федерациясининг Омск шаҳрига сургун қилинган.


СССР
МИНИСТЕРСТВО ВНУТРЕННИХ ДЕЛ
8-ВЕ
СПРАВКА
№0005958

Тергов ва ҳибс жараёнларида Қори Аҳмаднинг шахсий уй кутубхонасига ҳам катта зарар етказилган. Манбаларга кўра, унинг уйида сақланган диний ва дунёвий китобларнинг катта қисми милиция ходимлари томонидан мусодара қилиниб, йўқ қилинган. Оила аъзолари томонидан яширинча сақлаб қолинган айрим китоблар қўни-қўшнилар уйларига бериб қўйилган, бироқ қўрқув сабабли улар томонидан ҳам ташлаб юборилган.

1953 йил оқлангандан

Қори Аҳмаднинг иккинчи фарзанди Ахмедов Сирожиддинхоннинг гувоҳлик беришича, қолган китоблар ёғочдан ясалган катта чой қутисига жойланиб, ҳовлининг бир чекка қисмига кўмиб қўйилган. Қамоқдан қайтганидан сўнг, маълум вақт ўтиб, сиёсий вазият бироз юмшагандан кейин китоблар қайта қазиб олинган. Бироқ намлик таъсирида уларнинг катта қисми яроқсиз ҳолга келган. Бу ҳолат Қори Аҳмад учун оғир маънавий зарба бўлгани, у кўз ёши билан бу ҳақда сўзлагани ҳақида фарзандининг хотираларида қайд этилади[4].

1953 йил 20 апрелда И.В. Сталин вафотидан сўнг эълон қилинган амнистия асосида Қори Аҳмад Акромхон ўғли озод этилган ва ўз уйига қайтган. Кейинги йилларда, яъни 1953–1966 йиллар оралиғида у колхозда меҳнат қилган. Шу билан бирга, манбаларда қайд этилишича, у доимий равишда маъмурий босим ва қўрқитишларга дучор этилган, уни қайта қамаш билан таҳдид қилиб келинган.

Ҳозирда Қори Аҳмад Акромхон ўғлининг учинчи фарзанди Акромов Суюнхон истиқомат қилаётган хонадон ўрнида илгари Қори Аҳмаднинг кичик, икки хонали уйи жойлашган бўлган. Ушбу уйда оила аъзолари истиқомат қилган ва колхоз томонидан берилган пилла қуртларини боқиш

билан шуғулланган. Бу ҳақда Суюнхон бобонинг шахсий хотираларида маълумотлар келтирилади[5].

Қори Аҳмад сургунда бўлган даврда унинг турмуш ўртоғи “халқ душманининг хотини” деган тамға билан хомиладор ҳолатига қарамасдан колхоздаги оғир жисмоний меҳнатларга, хусусан, лой қориш ишларига жалб этилган. Қори Аҳмад ҳибсга олинган куннинг эртасигаёқ колхоз бригадаси раҳбари томонидан фарзандларга нисбатан ҳам тазйиқ ўтказилиб, улар “халқ душманининг болалари” сифатида оғир меҳнатга чиқарилган.

Ушбу даврда болаларни тарбиялаш ва оила аъзоларининг кундалик тирикчилигини таъминлаш асосан она зиммасига тушган. Манбаларда қайд этилишича, фарзандлар мактабга бориш жараёнида ҳам доимий назорат остида бўлиб, улардан ҳар куни отасининг диний китоб ўқиган-ўқимагани ҳақида сўраб турилган.

Акромов Суюнхоннинг отаси хотираларига таянишича, Қори Аҳмад 1953 йилда И.В. Сталин вафотига қадар бўлган даврни “ҳаёт эмас” деб баҳолаган. Унинг сўзларига кўра, бу йиллар давомида оила аъзолари доимий қўрқув муҳитида яшаб, айрим пайтларда бошқаларнинг овулхоналари ёки сомонхоналарида яшириниб кун кечиришга мажбур бўлган. Ушбу даврда “эшон”, “мулла” каби диний атамалар салбий маънода ишлатилиб, шу тамғалар орқали диний шахсларни жамиятдан сиқиб чиқариш ва йўқ қилиш сиёсати амалга оширилган[6].

Қори Аҳмад Акромхон ўғли қамоқ даврида Қашқадарё вилоятининг Деҳқонобод туманидан бўлган мулло Файзулла билан бирга сақланган. Ушбу даврда мулло Файзулла тахминан 25 ёшлар атрофида бўлган. Ҳозирда қарийб юз ёшни қаршилаган Файзулла бобо устози Қори Аҳмад билан бирга ўтказган йилларни катта ҳурмат ва изтироб билан эсга олиб, қуйидагиларни таъкидлайди: қамоқда бўлган пайтда Қори Аҳмад ўз фарзандларига араб алифбосида мактублар ёзган, мазкур мактублар мулло Файзулла томонидан кирилл ёзувига таржима қилиниб, фарзандларга етказиб берилган. Бу ҳолат

Қори Аҳмаднинг фарзандлари совет мактабларида таҳсил олгани ва шу сабабли араб ёзувини билмагани билан изоҳланади.

Қори Аҳмад Акромхон ўғлининг тўртинчи фарзанди Акромов Луқмонхоннинг гувоҳлик беришича, отасининг илмий меросини энг кўп даражада айнан у ўзлаштирган. Унинг айтишича, Қори Аҳмад ўз ҳаёти давомида сўфий адабиётга мурожаат қилиб, айниқса, Сўфи Оллоёрнинг қуйидаги фикрини тез-тез такрорлаб келган: *“Мен азиз этган қулни ҳеч ким хор айламас, агар уни хор этсам, ҳар ерда хор этаман”*. Ушбу иқтибос орқали Қори Аҳмад бошидан кечирган таъқиб ва сургунни илоҳий синов сифатида қабул қилганини ифода этган[7].

Акромов Луқмонхоннинг таъкидлашича, Қори Аҳмад айнан диний илмга эгалиги, қори экани ва исломий билимлари сабаб қатағонга учраб, сургун қилинган. Шу билан бирга, у Аллоҳнинг инояти билан қамоқхона шароитида муайян имкониятларга эга бўлганини, ҳатто айрим рус маҳбуслар томонидан намоз ўқиши учун шароит яратиб берилганини эслаб ўтган[8].

Қори Аҳмад қамоқда бўлган пайтида ҳам яширинча маърифий фаолиятини давом эттириб, тахминан йигирма беш нафар шогирдга таълим берган. Уларнинг орасида унинг шогирди ва котиби сифатида мулло Файзулла, шунингдек, Хоразм ҳудудидан бўлган талабалар ҳам мавжуд бўлган. Қори Аҳмаднинг сўзларига кўра, ундан илм олган шогирдларнинг аксар қисми Фарғона, Самарқанд ва Хоразм вилоятларидан бўлган.

Қори Аҳмад Қуръони Каримни тафсири билан мукаммал ёд олган бўлиб, ҳар қандай диний масала ёки мураккаб ҳолат юзасидан Қуръон оятлари ва Пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.) ҳадисларини далил сифатида келтириб, асосланган жавоблар берган. Бу ҳолат унинг чуқур исломий билимга эга бўлган, кенг маърифий салоҳиятли аллома сифатида шаклланганини кўрсатади.

Акромов Луқмонхоннинг сўзлаб беришича 1977-йил армиядан қайтганида ва уч кундан сўнг уни Чироқчи туманига бир шогирдининг тўйига олиб борганини айтди. Ўша ерда аҳли илм вакиллари йиғилишган,

уларнинг орасида энг кам илми саёзи “маслак” ўқийдиган бўлган. Шунда улар отамни кўриш илинжида, суҳбат қилиш мақсадида бир катта хонага йиғилишган. Улар орасида ўттиз йиллар мобайнида Бухоронинг мадрасаларида муддарис бўлган мулла Бозор Охун, Омонхон каби илм вакиллари ҳам бўлишган. Ўша куни отамни ўртага олишиб савол-жавоб қилиша бошлашди ва раҳматли отам ҳар битта саволга ояти билан ҳадиси билан жавоб берди. Шунда мулла Бозор Охун “менинг уйимда икки мингдан ортиқ китоб бор, шуларнинг ҳаммасини варақлаб чиққандай бўлдим” деди. Суҳбат шунчалик қизиб кетганидан шу ердаги аҳли илм хуфтан номозидан бомдод номозигача савол-жавоб қилишган эди. Раҳматли отам бизга шундай дегандилар: нонни қандай истемол қилсанг Қуръонни ҳам шундай ўқи[9].

Қори Аҳмад мазкур учрашув ҳақида кейинчалик фарзандларига мурожаат қилиб, Қуръонни мутолаа қилиш ва уни ҳаётга татбиқ этиш заруриятини қуйидаги ибора орқали ифода этган: “Нонни қандай истеъмол қилсанг, Қуръонни ҳам шундай ўқи”.

Қори Аҳмад Акромхон ўғлининг хонадони доимо очиқ бўлиб, у оғир аҳволда қолганлар, турли мушкулот билан мурожаат қилганлар ва мусофирларни қабул қилиб, уларга ёрдам кўрсатган ҳамда меҳмон қилиб кузатган.

Қори Аҳмад Акромхон ўғли қарийб тўқсон ёшни қаршилаган даврларида ҳам Қуръони Каримнинг бир пораси (жузи)ни 10–15 дақиқа ичида қироат қилиб чиқиш қобилиятини сақлаб қолган. Ўзбекистон мустақиллиги йилларида муфтий Абдулазиз Мансуров томонидан Қори Аҳмадга расмий мактуб юборилиб, диний-маърифий фаолиятда ҳамкорлик қилиш таклиф этилган. Бироқ мазкур таклиф билдирилган пайтда Қори Аҳмад соғлиги анча заифлашган ва жисмоний жиҳатдан ҳолдан тойган ҳолда бўлган.

Қори Аҳмад Акромхон ўғли 1994 йил 19 апрель куни 92 ёшида Қашқадарё вилояти Ғузор тумани Авғонбоғ қишлоғида вафот этган[10].

Қори Аҳмад Акромхон ўғли ўз насабида етти авлод қори ўтганини, бироқ совет давлати томонидан амалга оширилган тазйиқлар натижасида ўз фарзандлари орасидан қори етишиб чиқмаганини кўп бор таъкидлаб, бу ҳолатни афсус билан эслаб келган. Мустақиллик йилларида эса унинг авлодларидан икки нафар набираси қори сифатида фаолият юритмоқда. Жумладан, Шокиров Илёс қори Тошкент вилояти Зангиота туманининг бош имом-хатиби, Акромов Баҳром қори эса Назарбек шаҳарчасида жойлашган "Ҳаракат" жоме масжидининг имом-хатиби ҳисобланади. Шунингдек, унинг яна бир набираси Абдуллаев Асрор Ғузор туманидаги "Мусофир ота" жоме масжидида имом-хатиб лавозимида хизмат қилмоқда. Улар боболаридан мерос бўлиб қолган Қуръони Карим нусхасини мутолаа қилиш орқали унинг маънавий-маърифий йўлини давом эттирмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қатағон қурбонлари. Хотира китоби. Қашқадарё вилояти / Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи. "Шаҳидлар хотираси" жамоат фонди. – Тошкент: "МАТРИХ" нашриёти, 2025. – Б. 166.

2. Қори Ахмад Акромхон ўғлининг тўртинчи фарзанди Ахмедов Сирожиддинхон билан шахсий мулоқат.

3. Қори Ахмад Акромхон ўғлига тегишли ҳужжатлар. // Қарши давлат университети тузилмасидаги "Қатағон қурбонлари хотираси" музейи жорий фонди. KK205/h76.

4. Қори Ахмад Акромхон ўғлининг олтинчи фарзанди Ахмедов Суюнхонхон билан шахсий мулоқат

5. Қори Ахмад Акромхон ўғлининг еттинчи фарзанди Ахмедов Луқмонхон билан шахсий мулоқат

Қашқадарё воҳаси ички ишлар тизимида фаолият олиб борган ходимлар ва уларнинг қатағон этилиши тарихидан

Баҳром Ирзаев

ЎзР ВМ ҳузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи бош илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори,PhD

Аннотация: XX асрнинг бошларида Қашқадарё воҳасида кечган мураккаб тарихий жараёнлар, хусусан, Бухоро Халқ Шўролар Жумҳурияти (БХШЖ) даврида содир бўлган сиёсий ва ҳарбий воқеалар ёритилган. Иқболхўжа Баҳодирхўжа ўғлининг ҳаёт йўли ва фаолияти орқали Қашқадарё милициясининг шаклланиши, совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ҳамда маҳаллий аҳолининг қуролли қаршилик ҳаракатлари батафсил баён қилинган. Шунингдек, жадид раҳбарларининг мустақилликни сақлаб қолиш йўлидаги сиёсий ҳаракатлари, яширин ташкилотлар фаолияти, Анвар пошшо вакиллари ва маҳаллий қўрбошиларнинг исёнлари, шунингдек, совет махсус хизматларининг Бухоро республикаси ички сиёсати ва Афғонистондаги собиқ амирга қарши амалга оширган яширин операциялари кенг очиб берилган.

Калит сўзлар: Қашқадарё воҳаси, Бухоро Халқ Шўролар Жумҳурияти (БХШЖ), Иқболхўжа Баҳодирхўжаев, Жадидлар, Совет ҳокимияти, Қизил армия, Қарши милицияси, Босмачилик ҳаракати (Истиқлолчилик), Дониёрбек, Ато Хўжаев, Усмонхўжа Пўлотхўжаев, Нуриддин Расулев, Майманоқ исёни, Амир Олимхон, Раҳматулла Исломов.

Аннотация: В начале XX века в Кашкадарьинской области происходили сложные исторические события, особенно в период существования Джумхурии Халк Шуро Бухары (БХШЖ), освещены политические и военные события того времени. Через жизнь и деятельность Икболхожа Баходирхожа углина подробно показано формирование милиции Кашкадарьи, установление советской власти и вооружённое сопротивление

местного населения. Также подробно раскрыты политические действия джадидских руководителей по сохранению независимости, деятельность тайных организаций, восстания представителей Анвар-паша и местных бейлербеев, а также секретные операции советских спецслужб по внутренней политике Бухарской республики и против бывшего эмира в Афганистане.

Ключевые слова: Кашкадарьинская оазис, Бухарская Народная Советская Республика (БНСР), Икболхуджа Бахадирхуджаев, Джадиды, Советская власть, Красная армия, Кашкадарьинская милиция, Печатное движение (Независимость), Дониёрбек, Ато Худжаев, Усмонхуджа Полотхуджаев, Нуриддин Расулев, Мятеж Майманака, Амир Олимхан, Рахматулла Исламов.

Abstract: The complex historical events that took place in the Kashkadarya region at the beginning of the 20th century are highlighted, particularly the political and military events during the period of the Bukhara People's Soviet Republic (BPSR). Through the life and activities of Iqbolkhoja Bahodirkhoja’s son, the formation of the Kashkadarya militia, the establishment of Soviet power, and the armed resistance of the local population are described in detail. Additionally, the political actions of Jadid leaders to maintain independence, the activities of underground organizations, the uprisings of Anvar Pasha's representatives and local chiefs, as well as the covert operations carried out by Soviet special services against the internal politics of the Bukhara Republic and the former emir in Afghanistan are extensively revealed.

Keywords: Kashkadarya oasis, Bukhara People's Soviet Republic (BPSR), Iqbolkhoja Bahodirkhojaev, Jadids, Soviet power, Red Army, Karshi militia, Press movement (Independence movement), Doniyorbek, Ato Khojaev, Usmonkhoja Polotkhojaev, Nuriddin Rasulev, Maymanaq uprising, Amir Olimkhan, Rahmatulla Islámov.

Иқболхўжа Баҳодирхўжа ўғли 1884 йил Қашқадарёнинг Командин аминлиги, Лағмон қишлоғида таниқли эшон хонадонида дунёга келган.

Иқболхўжа аввал қишлоқ мактабида, сўнг Қаршидаги мадрасада таҳсил олади. 1916-17 йилларда Бухорода мадрасада Баҳромхўжа Бадалхўжаев билан бирга Нусратулло муфти қўлида ўқиган.

1917 йил Амир Олимхон томонидан амирликни ҳимоя қилиш учун аҳолидан аскар йиғилганида Иқболхўжа Баҳодирхўжаев ҳам аскарликка ёзилади. 1917-20 йиллар давомида амирнинг шахсий қўриқчилари гуруҳида аввал “Шербача”, 1920 йилдан “навкар” унвонида хизмат қилади. 1920 йилнинг кузида амирлик совет қизил аскарлари томонидан ағдарилиб, Амир Олимхон Афғонистон томонга чекинишга мажбур бўлади. Иқболхўжа Баҳодирхўжаев Афғонистон чегарасигача амирни ҳимоя қилиб борган, бироқ Афғонистонга ўтмай ватанга қайтиб келади.

1920 йил сентябрдан амирлик ўрнида Бухоро Халқ Шўролар Жумҳурияти ташкил этилиб, янги давлат вилоятлар, туманлар, кентлар ва қишлоқларга бўлиниб идора этилади. Инқилобий қўмиталар бош бўлган 15 вилоят, жумладан, Қашқадарё ҳудудида Қарши, Шаҳрисабз ва Ғузор вилоятлари эълон қилинади.

Қашқадарё воҳасида совет ҳукуматининг ўрнатилишига қарши курашга айнан Бухоро Халқ Жумҳурияти ҳукумати раҳбарлари, жумладан Мирза Абдуқодир Муҳиддинов, Усмонхўжа Пўлотхўжаев, Ато Хўжаевлар раҳбарлик қилган. Шаҳрисабз қўзғалонидан сўнг Ато Хўжаев Бухорога чақириб олиниб, унинг ўрнига раҳбар бўлиб Аҳмаджон махзум Абдусаидов келади. Яъни, 1920 йил Хўжаназар мирохур Иноятуллаев, Қултой қозоқ мирохур Жумабозор, Денов қишлоқлари оқсоқоллари ва Пандарон қишлоғи оқсоқоли Хушназар оқсоқоллар қизил армия ўқ-дори таъминотида муҳим ўрин тутган Шакаржўйдаги порох ишлаб чиқарувчи корхонага ҳужум қилиб, 11 та рус муҳандиси ўлдирилади, 36 қоп порох ва милтиқлар олиб кетилади. Шундан сўнг воҳада қизил армиянинг хунрезликлари янада авж олиб кетади.

1920 йилда дастлаб 200 га яқин кишидан иборат Қашқадарё вилоят милицияси бошлиғи этиб, Ота Хўжаев томонидан Дониёрбек тайинланади. БХШЖ раҳбари Файзулло Хўжаев томонидан Қаршига ҳарбий нозир

лавозимига тайинланган Нуриддин Расулев Иқболхўжа Баҳодирхўжаевни милицияга ишга олади ва орадан 4 ой ўтиб у Қамаши туман милиция бошлиғи этиб тайинланади.

Бухоро Халқ Жумҳуриятининг раҳбарлари Файзулла Хўжаев, Усмон Хўжаев, Абдуқодир Муҳиддинов, Мухтор Саиджонов, Абдурашид Мукаммилов, Ато Хўжаевлар мамлакат мусатақиллигини асраб қолиш мақсадида барча имкониятларни ишга солди. 1920 йил қишида Қўрғонча қишлоғида Қашқадарё воҳаси ЧК раиси Баҳромхўжа Бадалхўжаевнинг уйида зиёфат ташкил этилади. Унда Қашқадарё вилояти инқилобий қўмитаси раиси ўринбосари Саидаҳмад Муҳаммадхўжаев, ҳарбий нозир Нуриддин Расулев, милиция бошлиғи Жўра Жалолов, маориф мудири Аҳмаджон Абдураҳмонов, сув хўжалиги мудири Мирзо Наврўз Пўлотов ва бошқалар иштирок этадилар. Зиёфатда Бухородан келган ҳукумат вакили Аҳмаджон Абусаидов сўзга чиқиб, Бухоро Халқ Жумҳуриятида ҳукумат жадидлар қўлидан қизил армиянинг қўлига ўтиб кетиши арафасида турганини айтади. Биз амирдан ҳокимиятни қўлга олдик, бироқ энди уни мустаҳкамлашимиз лозим. Бухоро Жумҳуриятининг тўла мустақиллигини ўз қўлимизга олиш учун барчамиз ягона куч бўлиб жипслашувимиз лозим дейди. Шундан сўнг мажлис иштирокчилари “Бухоро истиқлоли”, яна ҳам аниқроғи “Бухоро истиқлолининг ҳимоя қиличи” номли махфий ташкилот ташкил этади ва қўлларини Қуръони карим ҳамда револьверга қўйиб қасамёд қиладилар. Шундан сўнг Қаршидаги Абдулазизбой мадрасаси ҳовлисида Ҳалил афанди деган турк субайи (офицер) ҳарбийлаштирилган жадид мактаби очади. 1921 йил Қарши шаҳрида дастлабки ҳарбий мактаб очилиб, 80 нафар ўқувчи тўпланади. Косонда ҳам мулла Абдужаббор Тоғаев бошчилигида ҳарбий мактаб очилади. Мактаб кейинроқ Қаршидаги “Саёт” мадрасасига кўчирилиб, 1924 йилгача фаолият олиб боради.

Бухоро заминига Анвар пошшо келгани ҳақидаги хабардан сўнг айнан Қашқадарё воҳасида биринчи бўлиб советларга қарши исён байроғи кўтарилди. Бу ҳаракатга ўша кунларда Ато Хўжаев раҳбарлик қилади. 1921

йилда Дониёрбек Усмонхўжа Пўлатхўжаев билан бирга Ҳисорга юриш қилиб, Шарқий Бухородаги амир таъсиридаги ҳокимиятга қарши курашга киришади. Яна ҳам аниқроғи Анварпошонинг Иброҳимбек Лақай томонидан қўлга олиниши жанжалига қатнашадилар. Саккиз ойга яқин Шарқий Бухорода бўлиб, Усмонхўжа Пўлатхўжаев билан бирга қайтадилар. Тахминан бир ойдан сўнг Дониёрбек 200 кишилик отряди билан Ғузорга, гўёки босмачиларга қарши курашиш учун боради. Иккинчи куни Бухородан Усмонхўжа Пўлатхўжаев етиб келиб, улар учрашадилар. Дониёрбек барча одамлари билан истиқлолчилар томонига ўтиб, қўрбоши бўлади. Усмонхўжа Пўлатхўжаев эса Афғонистонга ўтиб кетади. 1922 йил баҳорида Нуриддин Расулов ва 1921-22 йилларда Қарши шаҳар милицияси бошлиғи бўлган Иқболхўжа Баҳодирхўжаевлар ўз ихтиёрида бўлган қуролли кучлар ва ҳарбий мактаблар ўқувчиларини олиб Косонга йўл оладилар. Косон тумани ижроия қўмитаси раиси муовини вазифасида ишлаган Арабхона қишлоғидан Турди тўқсоба Эштўхтар ўғли Косонга яқин Майманоқ тоғида қўл остидаги 600 жигити билан совет ҳокимиятига қарши курашишга қасамёд қилади. Бу ерда Косон милицияси бошлиғи Гул оқсоқол Норов, Косон РИК раиси Баҳромхўжа бойвачча, Даврон оқсоқоллар ва Чимда 1000 киши атрофида одами бўлган Жаббор тўқсаболар қизил армияга қарши ҳужумга ўтади. Вақф бўлимининг бошлиғи Мирзо Наврўз Пўлатов Баҳромбойвачча, Турди тўқсоба, Гул оқсоқол ва бошқа қўрбошиларга ёрдам кўрсатиб совет ҳокимятига қарши ташвиқот олиб боради, босмачилар гуруҳларни тузишда фаол иштирок этади. Ўн кунлик шиддатли амалиётлардан сўнг тиш тирноғи билан қуролланган қизил армия кўплаб маҳаллий йигитларни қириб ташлайди. Бухоро Халқ Жумҳурияти мислсиз қон тўкилишларнинг олдини олиш учун ҳаммани зудлик билан қуролларни ташлаб чекинишга буюради. Орадан 20 кун ўтиб Қаршига келган Иқболхўжа Баҳодирхўжаев Ғузор милициясига бошлиғи этиб тайинланади. Бироқ, советлар исён қатнашчиларини бирин кетин йўқ қилишга киришади. Мамлакатда қизил армия сони кундан кунга ортиб борди. Советлар қизил армия ёрдамида барча жабҳаларда ўз назоратини

мустаҳкамлаб ола бошлайди. Энг сўнгида 1924 йил Қашқадарёнинг обрўли зотларидан Нуриддин оғалиқ эшон Аҳмадхоновни ҳам халққа япон винтовкаларини тарқатган деган айблов билан отиб ташланади...

Шу ўринда яна бир ҳолат муҳим 1921 йил март ойида Бухоро Жумҳурияти Халқ комиссарлар кенгаши томонидан Ҳошим Шойих Афғонистонга элчи қилиб тайинланади. Делегация таркибига Абдувоҳид Бурҳонов ва БХР Молия нозири Носир Ҳакимовлар билан бирга ёрдамчи сифатида БХРнинг Қаршидаги мухтор вакили Раҳматулла Исломов ҳам бор эди. Совет хуфялари "... агар амир тирик бўлса, жадидлар Бухоро халқи ичида асло обрў топа олмайди. Чунки, халқ барибир амирни яхши кўради. Қолаверса, 50 000 нафардан ортиқ Бухоро халқи ҳам амирнинг ортидан Афғонистонга кетиб қолган. Бу ҳам келажакда Бухоро Халқ Жумҳурияти учун каттагина ижтимоий хавфга эга" деб Раҳматулла Исломовга собиқ Бухоро амири Олимхонни ўлдириш вазифаси топширади. Бухоро ҳукумати вакиллари 13 ой давомида Қобулда бўлиб, бирор марта афғон ҳукумати билан жиддий музокара ўтказа олмайди. Боиси, Раҳматулла Исломовнинг ғайри табиий ҳатти-ҳаракати афғон ҳукумати истихборат хизматининг назарига тушиб қолган эди. Бир муддат музокарадан сўнг Афғонистондаги Совет консулхонаси аралашуви билан вазият изга солинади.

Бухоро ҳукумати вакиллари афғон подшосининг инглиз элчиси шарафига берган зиёфатида иштирок этади. Бироқ, БХР ҳукуматининг Афғонистондан қурол сотиб олиш режаси ҳам Раҳматулла Исломовга ўхшаган хоин кимсалар томонидан йўққа чиқарилади. Шундан сўнг, Ҳошим Шойих Афғонистон ҳукумати билан БХР ўртасидаги чегараларни келишиб олиш масаласидаги шартномани имзолашга киришади. Бухоро Халқ Республикаси томонидан шартномани имзолаш советларнинг аралашуви билан Раҳматулла Исломовга топширилади. У эса музокара вақтида бир қанча бандларини имзолашдан воз кечади. Ноқулай вазиятда қолган Ҳошим Шойих унга Қобулдан чиқмасликни буюради. Раҳматулла Исломов эса фош бўлишидан қўрқиб, 1922 йилнинг май ойида яширин йўл билан Бухорога

қайтиб келади. БХР ҳукумати Раҳматулла Исломовни зудлик билан қамоққа олади. Бироқ, Бухородаги Москвага қарашли 13-ҳарбий корпус уни БХР терговчилари қўлидан тортиб олиб, аввал Когонга, ундан сўнг Тошкентга ГПУнинг тергов бўлимига йўллашади. Афтидан Раҳматулла Исломов Тошкентга ўзи билан яна ҳам кўп маълумотларни олиб борган эди. Шундан сўнг Бухоро Халқ Жумҳуриятига Москвадан Я.Э.Рудзутаг бошчилигида катта комиссия юборилади. Рудзутаг БХР ҳукуматининг Ато Хўжаев, Муинжон Аминов, Фитрат, Саттор Хўжаев, Наимжон Ёқубов каби етакчиларни лавозимларидан олиб, улар Бухоро тупроғидан суриб чиқарилади. Ҳукуматга “Ёш бухороликлар”нинг душмани бўлган “сўл коммунистлар” гуруҳи чиқарилади.

Умуман, Қашқадарё воҳаси Бухоро ҳукуматининг советларга қарши кураш жабҳасидаги энг йирик таянч маркази бўлган. Қизил армия Қашқадарё воҳасидаги ўз рақибига нисбатан янада қаттоллик кўрсатди. Муттасил қирғин баротлар натижасида сон саноқсиз миллат фидойилари шафқатсизларча йўқ қилинди. Энг даҳшатлиси уларнинг воқеъликлардан камгина хабардор бўлганлари ҳам тайзиққа олиниб йўқ қилинмагуниа таъқиб тўхтатилмади. Улар Бухоро амирини йўқ қилиш режасини ҳам маҳаллий миллат вакилларининг қўли билан амалга оширмоқчи эдилар. Бироқ, бу режа фош қилингач Афғон амири Амир Олимхоннинг ҳимоясига янада каттароқ эътибор қаратишга мажбур бўлди...

КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ УЧРЕЖДЕНИЯ КАРАКАЛПАКСТАНА И ПОЛИТИЧЕСКИЕ РЕПРЕССИЙ 1930-Х ГОДОВ

КУДИЯРОВ АЛИШЕР РАМАТУЛЛАЕВИЧ

Қорақалпоқ давлат университети хузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи директори, тарих фанлари номзоди

НУРЖАНОВ САБИТ УЗАКБАЕВИЧ

ЎзФА Қорақалпоғистон бўлими Қорақалпоқ гуманитар фанлар илмий-тадқиқот институти тарих фанлари доктори

Аннотация: Джадидлар фаолияти қуйи Амударё аҳолиси турмушига таъсир кўрсатиб, бу ерда маданий-маърифий муассасалари фаолиятини йўлга қўйиш имконини берди. Сўнггра уларнинг мафкуралашуви ва 1930-чи йиллари Қорақалпоғистон зиёлиларининг қатағон қилиниши тарихи ўрганилган.

Abstrac: The activity of the Jadids influenced the life of the population of the lower Amu Darya and contributed to the formation of cultural and educational institutions. The history of their ideologization and repression of the intelligentsia in the 1930s has been studied.

История культуры и культурной жизни Каракалпакстана имеет глубокие корни, которые уходят в глубь тысячелетий мировой цивилизации. Издревле на территории Узбекистана существовали очаги цивилизации, науки и культуры, об этом свидетельствуют многочисленные памятники культуры и архитектуры, устного народного творчества и другие исторические источники. Эволюция человеческой цивилизации на данной территории, несмотря на политические и другие перипетии, показывает, что во все времена большую роль играют институты просвещения и науки.

Из истории можно видеть, что наиболее важной составной частью системы учреждений культуры являлась система образования и просвещения, так как важнейшим показателем состояния культурного и социального развития служит уровень грамотности населения. В начале XX

века данная отрасль переживала некоторые инновации, требовавших совершенно новых подходов и решений. Смена политической и социоэкономической формации, связанных с событиями в России, обусловили новый этап формирования учреждений культуры, и в первую очередь системы образования и просветительства [3, 343].

Характер развития культурной жизни Каракалпакстана изучаемого периода обуславливается своеобразным подходом советской власти к решению культурного роста и распространения новой системы культурных ценностей. Государство, в условиях общества, обескровленного многолетней хозяйственной разрухой, следовательно, культурной отсталости от развитых культур общественного развития, во главе угла своего политического функционирования ставило быстрое и широкоплановое осуществление мер, направленных на изжитие традиционного культурного базиса. В то же время оно видело в организации культурной жизни укрепление своей власти и формирования совершенно новой системы общественных отношений. В период образования Каракалпакской автономной области со всеми отсюда вытекающими обстоятельствами, значительно возрастает социальная роль культуры. Соответственно сложившейся традиции, деятельность в культурной жизни было обозначено понятием «культурная революция». Она стала основным направляющим термином в политико-общественной жизни, вобрав в себя все направления деятельности советской власти в организации культурной жизни Каракалпакстана в 20-х годах XX века.

Само понятие «культурной революции» пришло на замену идей «пролетарской культуры» (пролеткульта), получивших наибольшее распространение в послереволюционный период. Характер социально-экономических и политических тенденций в политике советской власти в начале 1920-х годов показал бесперспективность подобного подхода к организации культурной жизни в национальных окраинах, особенно в Средней Азии. Средняя Азия имела многовековую историю, культуру, своеобразные формы государственности, традиционную структуру общества.

А идеи пролеткульта отрицали преемственность социалистической культуры от духовного и культурного наследия прошлого.

В связи с образованием национальных республик после национально-территориального размежевания Средней Азии в 1924 году советскими идеологами культуры было взято на вооружение понятие «культурная революция». В своих трудах теоретики марксизма-ленинизма указывали, что «культурная революция» – это всеобъемлющая, созидательная работа рассчитанная на длительный период и включавшую все стороны жизнедеятельности общества. Первым этапом этой работы была ликвидация азбучной неграмотности, организации сети школ, больниц, клубов и т.д. [5, 339].

С образованием Каракалпакской автономной области проблемы «культурной революции», в частности в области просвещения, так и оставались нерешенными. С формированием государственных органов советской власти в Каракалпакстане в начале 1925 года учреждения культуры стали в центре их внимания. В основном эти учреждения относились сфере просвещения, здравоохранения и культуры.

Большой вклад внесли в организацию подготовки кадров для народного хозяйства Каракалпакии в довоенные годы Касым Авезов, Абу Кудабаев, Коптлеу Нурмухаммедов, Каллы Айымбетов, Нажим Давкараев и др. Важно отметить, что особенностью системы культурно-просветительных учреждений 20-30-х годов XX века было то, что она была полностью подчинена идеологическим и политическим целям. Советская власть активно разрабатывала и осуществляла меры по их внедрению в массы, при этом используя различные методы, в том числе и репрессивные.

В 1930-е годы жертвами репрессивной политики советской власти стали видные представители советско-партийного аппарата, культуры и искусства, духовенства и других слоев общества. В том числе были А.Досназаров, А.Кудабаев, К.Ауезов, О.Ерманов, К.Нурмухамедов, С.Мажитов, И.Фазылов, М.Бекимбетов, К.Якубов.

Одним из видных представителей был являлся Аллаяр Коразович Досназаров – выдающийся общественно-политический деятель Каракалпакстана, заложивший основу каракалпакской государственности в новых условиях общественно-политического развития в XX веке. Он был арестован в Москве и постановлением Особой тройки НКВД 10 ноября 1937 года он был приговорен к высшей мере наказания.

Коптлеу Нурмухамедов – один из выдающихся деятелей нашей республики первой половины прошлого века. Его вклад в дело обеспечения социально-экономического и культурного развития каракалпакского народа весомый. Он был инициатором организации педагогического института и научного центра в Каракалпакстане, активно участвовал в претворении в жизнь «культурной революции» в республике. Его арестовали 20 сентября 1937 года по приказу наркома внутренних дел ККАССР В.Штейна по делу «контрреволюционной националистической организации» в Каракалпакстане, хотя прямых доказательств его вины не было. 13 октября 1938 года на заседании выездной сессии Военной Коллегии Верховного суда СССР в г. Ташкенте было рассмотрено дело К.Нурмухамедова. Само заседание продолжалось всего 15 минут и Военная коллегия приговорила к высшей мере наказания с конфискацией имущества [2, 111].

Трагичной была судьба Сейфулгабита Маджитова - поэта, прозаика, драматурга, просветителя и педагога. В 1920-х годах его имя олицетворялось с идеями просвещения и грамотности, связывалось с выпуском газеты, просвещением и драматургией. Деятельность С.Маджитова во многом созвучна теми идеями и помыслами, которые выдвигали и осуществляли джадиды начала XX века. Он долго работал в редакции газеты «Еркин қарақалпақ», был одним из первых авторов учебников на каракалпакском языке и латинизированного каракалпакского алфавита, занимался творчеством. Однако, ему не дали довести до конца свое дело: его арестовали в 1930 году как контрреволюционно-националистического писателя, хотя С.Маджитов имел неоспоримый авторитет как среди писателей, так и всей

просвещенной общественности. Во второй раз его арестовали в сентябре 1937 года, когда ему было 72 года и он умер 16 апреля 1938 года в тюрьме [1, 116].

В 1937-1938 годы в Каракалпакстане были арестованы почти все бывшие и действовавшие руководители советско-партийных органов, даже те, кто сам пришел в разгар «выявления врагов народа» (в 1937 году Д.Ризаев в должности секретаря обкома пришел на смену И.Алиева, которого объявил «врагом народа», однако осенью сам был репрессирован). Оперативные работники НКВД в центре и на местах активно осуществляли аресты и вели следствие с задачей любыми средствами обосновать незаконные аресты и показать видимость существования широко разветвленной сети различного рода антисоветских формирований. Массовые избиения и истязания арестованных, изнурительные непрерывные многосуточные допросы, шантаж и провокация бы ли «узаконены» как единственные средства для «разоблачения врагов». Во многих местах начальники заранее определяли, сколько признаний в сутки должен получить каждый следователь и сколько фамилий членов антисоветских формирований должно быть указано в каждом протоколе допроса обвиняемого. В результате подобных действий по Каракалпакстану на 10 декабря 1937 года были арестованы 49 человек руководящего состава, дела которых были обобщены под общим номером №196. В целом же, в 1937-1938 году в республике были арестованы 41 тысяч человек, из них 37 тысяч привлечены к суду, 6920 расстреляны [2, 9].

Мы считаем, что рассмотрение сложнейших процессов репрессий 1930-х годов как в сфере культурно-просветительных учреждений, так и других, важно через исследование судьбы конкретного человека. Как известно, 2024 год в Узбекистане был объявлен Годом поддержки молодёжи и бизнеса, и как отметил Президент Узбекистана Ш.М. Мирзиёев, «наши основные задачи - возвышение чести и достоинства человека, обеспечение интересов населения и построение сильной экономики». В данном контексте, проблема ценности личности приобретает особое значение, ибо жизнь каждого

совокупность знаний, идей и духовности предыдущего поколения, а изучение её обеспечивает непрерывность развития самого общества.

Использованная литература

1. Бабашев Ш. Қарақалпақстанлы зыялылар үстинен сиясий процесс. – Нөкис, 2012.
2. Бабашев Ш. Репрессии. Депортация. Преступления против человечества. – Нукус, 2014.
3. Есбергенов Х., Нуржанов С. Сын Отечества. – Нукус, 2018.
4. Қарақалпақстан жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX әсирдиң екинши ярымынан XXI әсирге шекем. – Нөкис, 2023.
5. Қудияров А. История города Чимбая (XIX – начало XX вв.). – Нукус, 2019.
6. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент, 2019

MUHOJIR JADIDLARNING “YOSH TURKISTON” JURNALI VA MUSTAFO CHO‘QAY

Muslimbek Alijonov,
O’zR VM huzuridagi Qatag’on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi yetakchi ilmiy xodimi tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muhojir jadidlar tomonidan 1929-1939-yillarda Parij shahrida nashr etilgan “Yosh Turkiston” jurnali va ushbu jurnalda chop etilgan Mustafo Cho’qayning maqolalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar Mustafo Cho’qay, Munavvarqori Abdurashidxonov, Turkiston, jadidlar, “Yosh Turkiston” jurnali, Abdurauf Fitrat, Muftiy Sadriddinxon Sharifxo’jayev, Abdulhamid Cho’lpon, Mag’jon Jumaboy, Elbek, Ahmad Hokiy, Abu Nasr Hoji.

Аннотация: В статье анализируется журнал «Ёш Туркестан», издававшийся иммигрантами в Париже в 1929-1939 годах, и статьи Мустафы Чокая, опубликованные в этом журнале.

Ключевые слова Мустафа Чокай, Мунавваркори Абдурашидханов, Туркестан, джадидлар, журнал «Йош Туркестан», Абдурауф Фитрат, муфтий Садриддинхан Шарифходжаев, Абдулхамид Чолпон, Магжон Джумабой, Эльбек, Ахмад Хоки, Абу Наср Хаджи.

Abstract: The article analyzes the "Yosh Turkistan" magazine published by immigrants in Paris in 1929-1939 and Mustafa Chokai's articles published in this magazine.

Key words Mustafa Cho'kai, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Turkistan, jadidlar, "Yosh Turkestan" magazine, Abdurauf Fitrat, mufti Sadriddinkhan Sharifhojaev, Abdulhamid Cholpon, Magjon Jumaboy, Elbek, Ahmad Hoki, Abu Nasr Haji.

Mustafo Cho’qay 1891-yil 7-yanvarda To’rg’ay o’g’li Cho’qayning oilasida, Oqmasjid shahrida dunyoga kelgan [1;75]. Yosh Mustafo 1902-yilda Toshkentga kelib rus gimanaziyasiga o’qishga kirib uni 1910-yilda eng a’lochi bitiruvchilardan biri sifatida tamomlagan. Turkiston general gubernatorining tarjimonlik bo’yicha taklifini rad etgan Mustafo Cho’qay, Sankt-Peterburg universitetining huquqshunoslik fakultetida o’qishni davom ettirdi. Iqtidorli qahramonimiz 1914-yilda huquqshunoslik fakultetini muvaffaqiyatli tamomlab, 1917-yil aprelda Orenburgga keladi. Mustafo Cho’qay Peterburgdan Orenburgga qarab kelar ekan, u turkistonliklarning mustamlakachi hukumat qo’li ostida naqadar xo’rlanayotganligini, huquqsiz qoldirilganligini o’z ko’zi bilan ko’rdi va bu hodisalar kelgusida Mustafo Cho’qayning zehniyatida ulkan evrilishga olib keldi: “Men Peterburgdan Orenburg tomon ketib borayotganimda yo’lda Penza shahrida o’z turkistonliklarimizga duch kelib qoldim. Bu yerda Turkiston ishchilari bilan to’lgan o’nlarcha vagonlar bir chetga chiqarib tashlangan ekanlar. Belgilangan yerga yetisha olmay qoldirib ketilgan, unutilgan turkistonliklar o’zlari ham nima

qilishlarini bilmay o’tirar edilar. Bu bechoralarning holi oqibatlaridan xabar oladigan bir kishi ham yo’q. Shu tarzda unutilgan turkistonliklar nima qilishlarini bilmay nochor ahvolda qolgan edilar…Nihoyat, o’zim borib ishchi askar sho’rosi boshliqlari va viloyat komissari bilan qisqagina bir majlisda bo’lib, ishchilarni Turkistonga qaytarib yuborish qarorini chiqartirdim” [2;16]. Bu hol shubhasiz mustamlakachi hukumatga nisbatan Mustafo Cho’qayning qalbida cheksiz nafrat va kurash tuyg’usini alangalatgani aniq.

1917-yildagi oktyabr inqilobidan keyin bolsheviklar kuchayishi bilan Turkiston musulmonlarining Toshkentdagi siyosiy faoliyati tugatilgach Qo‘qonda O‘rta Osiyo turklari tarixidagi birinchi zamonaviy davlat tuzilmasi Turkiston Muxtoriyati e’lon qilindi. Tashkil etilgan hukumatda Mustafo Cho’qay avval tashqi ishlar vaziri, keyin esa bosh vazir lavozimlarida faoliyat olib bordi. Alohida qayd etish kerakki, Mustafo Cho’qayning Qo’qon Muxtoriyati davridagi faoliyati juda ham murakkabliklar ichida kechdi. Chunki, bolsheviklar hukumati Muxtoriyatni rivojlantirishga, jumladan uni qurol bilan o’zini ta’minlashiga mutlaqo imkon qoldirmadi. O’sha yillarning murakkabliklari to’g’risida Mustafo Cho’qayning o’zi “Turkistonda u vaqt dahshatli ochliq hukm surmakda edi. Mamlakatimizga g’alla yetkazib turgan temiryo’llar butunlay rus askar hukumati va rus ishchilari qo’lida edi. Butun Turkistonda harbiy qurol ishlata oladigan bir nafar ham kishi yo’q edi. Bu og’irliqlar bir tarafda tursin, mamlakat uchun eng muhim bo’lg’on davlat boshqaruvi shakli masalasi ustida turkistonliklarning o’z oralarida yakdil birlik yo’q edi” [3;5] deb ta’kidlagan edi.

1918-yilning fevralida Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgach Mustafo Cho’qay Orenburg, Mang‘ishloq, Boku va Tbilisi shaharlarida bolsheviklar hukmronligiga qarshi siyosiy faoliyatini davom ettiradi. Biroq, bu shaharlar ham birin-ketin bolsheviklar qo‘liga o‘tgach (1921-yilning mart oyida) Rossiyani tark etib Istanbulga boradi. Lekin, Istanbulda ishlash imkoniyatiga ega bo’lolmagach, u yerda bir necha oy qolib xotini bilan Parijga ko’chib ketadi.

Mustafo Cho’qay 1929-yilning dekabr oyida “Yosh Turkiston” jurnalining ilk sonini aynan Parij shahrida tayyorlab nashr ettiradi.

Mustafo Cho’qay jurnal muqovasida aks etgan “Yosh Turkiston” yozuvi ostiga “Turkiston milliy istiqlol fikriga xizmat etuvchi oyliq majmuadir” so’zlarini yozgan. Mustafo Cho’qay 1929-1939-yillar oralig’ida ushbu jurnalning jami bo’lib 117 sonini nashr etishga muvaffaq bo’ldi.

Siyosiy kurashda matbuotning ulkan kuchiga ishongan Mustafo Cho’qay “Yosh Turkiston” jurnali va boshqa jurnallarda jami bo’lib 700 dan ortiq maqolalar e’lon qilgan. Jurnalda eng ko’p maqola yozgan muallif Mustafo Cho’qay bo’lib, uning 230 ta maqolasi nashr etilgan. Bu borada u yaqqol peshqadam hisoblanadi. Mustafo Cho’qay o’z maqolalarini “M”, “M.Ch”, “Ch.M”, “Mustafo” va “Ch” kabi imzolar bilan e’lon qilgan [4;136].

Mustafo Cho’qayning “Yosh Turkiston” jurnalida chop etilgan maqolalariga nazar tashlasak, unda XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va falsafiy muammolari teran fikrlar va tanqid asosida mushtariylarning diqqat e’tibor markaziga olib chiqilganligiga guvoh bo’lamiz. Masalan, u tarixning mohiyati haqida to’xtalar ekan, uni yozishda muarrix adolatli bo’lish kerakligini, tarixdagi voqea va hodisalarga doimo xolislik nuqtayi nazaridan turib baho berish shartligini ta’kidlaydi. Jumladan u: “Tarix yozishning ikki yo’li bor. Birinchi yo’l: muarrix haqiqatda bo’lib o’tgan voqealarni diqqat bilan to’playdir, ularni jarayon etdiklari zamonning sharoit va vaziyatiga qarab tekshiradir, ma’lumot va istihborot manbalarini sinchkovlik bilan tekshiradir, to’plag’on ma’lumotini o’zining ilmiy vijdoni tarozisida tortadir va ma’lumotg’a betaraf (obyektiv) bir qiymat berib ularni tahlil (analiz) etadir. Ilmiy tarix, so’zning haqiqiy ma’nosi bilan, mana shu usul ila yoziladir.

Ikkinchi yo’l: Muarrix istagan natijasini avvaldan belgilab oladi-da u natijaga ko’ra voqealarni tahlil qiladi, hatto maqsadi ro’yobga chiqqan taqdirda, voqealar o’ylab ham topadi, shoyon ishonchligi emasligi oshkor bo’lg’on manbalardan iste’foda etadi. Bunday bir tarixchi yozuvchida betarafona ilmiy tahlil o’rniga faqat firqa yolg’oni hukm suradi. Sovetlar idorasi ostidag’i xalqlarning milliy harakatlari haqida yozuvchi bolshevik muarrixlar bu ikkinchi qism muarrixlaridir” [5;4] deb yozgan holda, bolsheviklar tarixni yozishda o’ta noxolislikka yo’l

qo’yayotganliklarini hamda tarix ularning qo’lida sinfiy kurash quroliga aylantirilganligini qat’iy turib ta’kidlaydi.

Mustafo Cho’qay “Yosh Turkiston” jurnalining 1931-yilgi 18-sonida chop etilgan maqolasida “Milliy ziyoli deganda kimni tushunish kerak?” degan savolni o’rtaga tashlab, bu mavzuda atroflicha o’zining mulohazalarini bildirgan. Mustafo Cho’qayning fikricha, har bir tahsil ko’rgan odamni ziyoli deyish to’g’ri emas. Balki “…gazeta orqasidan yurgan, aniq va yalpi g’oya tevaragida to’plang’on o’qimishlilarnigina ziyoli…” [5;6] deb atash mumkin. Shu bilan birga u milliy ziyolilar qatlamiga o’z xalqining siyosiy, ijtimoiy va ruhoniy yo’lida xizmat etayotgan ziyolilarnigina kiritish mumkin deb hisoblagan.

Mustafo Cho’qay Turkistonning milliy manfaatlari yo’lida taraqqiyparvarlar bilan birgalikda kurash olib bordi, maslakdoshlarining yutuqlaridan sevindi, keyinchalik ularning aksariyati g’addor sovet qatag’on mashinasi tomonidan yanchib tashlangach, butun vujudi o’t bo’lib yondi, cheksiz g’am va anduh Mustafoning qalbini butkul chulg’ab oldi. U tomonidan yozilgan quyidagi so’zlar ana shu g’am-anduhning nechog’lik og’ir ekanligini yaqqol ko’rsatib turibdi: “Qadarning og’ir zarbalarig’a biz anchag’ina sovuqqonliq ila chidashqa o’rganishib qolg’on edik. Vatanimiz qizil jallodlarining qonli diktaturasi ostida… Turkistonda bu kun, Moskov diktaturasina qurbon tushgan bir yo bir necha yaqini uchun qalbida, ruhida motam tutmag’on bir oila yo’qdir. Asablar ham hissizlashib qolg’on va umumiy milliy fojiamizning so’ngsiz teranligi ichinda, hatto eng yaqin odamlarimizning-da ziyoyi sezilmay o’tib ketaturg’on bo’lib qolg’on edi. Faqat, ba’zi ziyolilarda bordirki, bundan og’ir fojialar ichindada insonning yuragini olovlantirib dahshatli yaralar ochadir… Inson bu ziyolilar haqinda xabar olg’oni zamon asablar yangidan avvalgi hassosligini kesib ketadir va butun fojialarni yangidan yashamoqqa boshlaydir… Mana shunday holni biz hozir yashab turibmiz”.

Munavvarqori Abdurashidxonov 1931-yilda “Milliy ittihod” ishi doirasida qamoqqa olinib, keyinchalik Moskvada otib tashlangach, bu to’g’rida o’ziga yetib kelgan xabarga Mustafo Cho’qay dastlab ishonmadi, aniqrog’i ishona olmadi:

“Xususiy muxbirimiz uzoq Hindistondan bizga Munavvarqorining Sovet hukumati tomonidan otib o’ldirilganligi haqinda qisqacha bir xabar yo’llamishdir. Bu xabar bizga dekabr oyining boshlarida kelib yetushgan esa-da, shoyad to’g’ri chiqmas deb ko’nglimizda saqladig’imiz umid ila qo’shimcha ma’lumot kutib turg’on edik. Biz Sovet hukumatining umuman milliy ruhga, xususan turkchilikka qarshi ko’rinishda hech bir jinoyatdan tortinmayoturg’onlig’ini juda yaxshi bilamiz. Buningla barobar biz Munavvardan xayolanda ayrila olmadik. Faqat, birinchi xabarni tasdiqlayturg’on ikkinchi bir maktub ham yetib keldi… Munavvarqori Sovet hukumati tomonidan qatl etilgan” [6;2].

Mustafo Cho’qay Munavvarqorini bolsheviklari nega o’ldirganliklari to’g’risidagi savolga javob izlab o’tirishning hojati yo’qligini, javob shundoq ham aniq ekanligini urg’ulab, bu buyuk siymoning o’ldirilishining birgina sababi “Munavvar” shaxsiyat ekanligidaligini ta’kidladi. Haqiqatdan ham Munavvarqori Turkistonda milliy davlatchilik g’oyasining eng matonatli, sabotli va eng nomusli targ’ibotchilaridan biri edi

Mustafo Cho’qay “Endi mening qurolim so’zdir” degan aqidasiga butun umr sodiq qolgan holda, mafkura olamidagi kurashini Fransiyada o’n besh yil mobaynida davom ettirdi. Biroq, II jahon urushida Germaniya tomonidan Fransiya bosib olingach ko’plab insonlar kabi Mustafo Cho’qay ham qamoqqa olinadi. Jazoni o’tash davrida yuqtirib olingan sil kasalligi, garchi u qamoqdan tez fursatda ozod etilgan bo’lsa ham, uning sog’ligida o’zining salbiy ta’sirini ko’rsatdi. Davlat va jamoat arbobi, noshir va jurnalist, Turkiston xalqining asl farzandlaridan biri bo’lmish Mustafo Cho’qay 1941-yilning 27-dekabrda Berlindagi kasalxonada vafot etdi.

Shu bilan birga jurnal sahifalarida yuqorida faoliyatlari nisbatan batafsil keltirilgan shaxslardan tashqari jami 87 ta muallifning maqolalari chop etilgan. Ularning ichida Turkiston Milliy Birligi (TMB) tashkilotining bosh kotibi sifatida faoliyat olib borgan Majididdin Ahmad (taxallusi “Dalil”) alohida ajralib turadi. Majididdin Ahmad 1927-1931-yillarda turkistonlik muhojir ziyolilar tomonidan Istanbulda chop etilgan “Yangi Turkiston” jurnalini ham boshqargan (1930-1931-

yillar). Mustafo Cho’qay tomonidan “Yosh Turkiston” jurnali tashkil etilgach, Majididdin Ahmad ham bu nashr faoliyatida o’zining maqolalari bilan ishtirok eta boshladi. Umuman olganda Majididdin Dalilning “Yosh Turkiston” jurnalida jami bo’lib 13 ta maqolasi chop etilgan.

Yuqoridagilardan tashqari “Yosh Turkiston jurnalida Abdurauf Fitrat, Muftiy Sadriddinxon Sharifxo’jayev, Abdulhamid Cho’lpon, Mag’jon Jumaboy, Elbek, Ahmad Hokiy, Abu Nasr Hoji va boshqalarning she’rlari, maqolalari va xotiralari chop etilgan.

Xulosa o’rnida ta’kidlash mumkinki, 1929-1939-yillarda chop etilgan “Yosh Turkiston” ning 117 ta sonidagi maqolalar, she’rlar, bolsheviklarning zulmi va istibdodi natijasida ona yurtini tashlab ketishga majbur bo’lgan pokdamon insonlarning achchiq xotiralari, bizni doimo ogohlikka chorlab turishi lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. H.Oraltay. Alaş-Türkistan Türklerinin Milli Istiqlal Parolasi. –Istanbul: 1973.
2. M.Cho’qay. Istiqlol jallodlari. –T.: “Tirilish nashriyoti”. 2023.
3. M.Cho’qay. “Yosh Turkiston” jurnali. 1932-yil yanvar. – №. 26.
4. Tülay Köseoğlu. Sovyetler'in Türkistan'i Dönüştürme Siyasetine Muhalefet: Yaş Türkistan Dergisi (1929-1939). Doktora Tezi. – İstanbul: 2014.
5. M.Cho‘qay. “Yosh Turkiston” jurnali. 1931-yil dekabr. – №. 25.
6. M. Cho‘qay. “Yosh Turkiston” jurnali. 1934-yil yanvar. – №. 50.

Mulla Mirza Muhammad Sharifjon (Sadr Ziyo)

Qarshi davlat universiteti tuzilmasidagi
“Qatag‘on qurbonlari xotirasi”
muzeyi ilmiy xodimlari
T.Eshbo‘riyev, U.Ashirov.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoroda taraqqiyparvarlik harakatlari rivojlanib, jadidlar bilan bir qatorda amir saroyida yuqori lavozimlarda xizmat qilganlar orasida Sharifjon Mahdum Sadr Ziyo kabi ulamo ham islohotchilik g’oyalarini targ’ib qila boshladi. U o’zining serqirra ijodkorligi, tarixnavisligi va hattotligi bilan ajralib turar edi. U davlat va jamiyat haqida o’zining ilg’or g’oyalarini taqdim etdi va Buxoro jadidchilik harakatini qo’llab-quvvatladi.



Sadr Ziyo dastlab maktab, so’ng madrasada tahsil olgach, 1893 yilda Sayyid Abdulahad tomonidan saroyga chaqirilgan va Xayrobod (hozirgi Jondor) tumaniga qozi etib tayinlangan. Bu yerda

6 oy qozilik qilgach, 1893 yilining oktabridan Yangiqo’rg’on bekligida qozilik qila boshlaydi. Bu yerda 19 oy faoliyat olib borgan Sadr Ziyo ushbu beklik raisi (muhtasibi) bo’lgan Hoji Abdulazim Shar’iydan tarixiy kitoblar yozish, tarjima qilish va lug’at tartib berish sirlarini o’rgangan. Sadr Ziyo 1895 yil sentabrda Abdulahad tomonidan Xuftar (hozirgi Peshku)ga qozi etib tayinlangach, o’z vakolati doirasida tumandagi qo’riq va bo’z yerlarga suv chiqartirib, aholining dehqonchilik bilan shug’ullanishi uchun imkoniyat yaratib berdi. U 1897 yil fevralda Xatirchi, 1902 yil mayda Karki bekligi, 1905 yil avgustda Komot (hozirgi Vobkent)



tumani, 1906 yilda ikkinchi bor Xuftar qozisi etib tayinlanadi.

1909 yil fevralda Shahrisabz bekligi qoziligiga o'tkaziladi Buxoro amiri Amir Olimxon farmoniga ko'ra 1911 (xijriy 1329)yilda Mulla Mirza Muhammad Sharifjon Qarshi viloyati qoziligiga o'tkaziladi**{2}**. Shu yili Nasafda diniy mazhablar vakillari o'rtasida sodir bo'lgan qarama-qarshiliklar Sadr Ziyoning sa'y-harakatlari bilan to'xtatiladi.

1912 yil avgust oyida amir Olimxon tomonidan G'ijduvon tumaniga qozi etib tayinlanadi. 1913-1916 yillarda esa Chorjuy qozisi sifatida faoliyat yuritgan. 1916 yil fevral oyi oxirlaridan Qarshi bekligi qozisi lavozimiga o'tkazilgan Sadr Ziyo bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda bosh-qosh bo'lib, Namozgohi va Jilovxona masjidlarini ta'mirlatadi. 1917 yilning 27 martida Sadr Ziyoga Buxoroning qozikaloni vazifasi topshiriladi. "Yosh buxoroliklar"ni qo'llab-quvvatlaganlikda ayblanib, 1917 yil 9 aprelida bor-yo'g'i 14 kun davom etgan qozikalonlik lavozimidan bo'shatiladi.

1918 yil bahorida Turkiston XKS raisi F. Kolesovning Buxoroga bosqini oqibatida amir Olimxon jadidlarni xoinlikda ayblab, jazolashni buyuradi. Qarshida qozilik qilayotgan Sadr Ziyo ham inqilobchilarga xayrixohlikda ayblanib, hibsga olinadi va qo'lyozma asarlari yoqib yuboriladi. 2 oy qamoqda yotgan Sadr Ziyo ozod qilinadi va Shahrisabz qozisi etib tayinlanadi. 1918 yilda Shahrisabz aholisi soliqlardan norozi bo'lib bosh ko'taradi va kengayib boraveradi. Sadr Ziyo 22 kun davomida qo'zg'olonchilar bilan muzokara olib borib, g'alayonni bostirishga muvaffaq bo'ladi.

1919 yil sentabrida Qarshi bekligi qozisi etib tayinlangan Sadr Ziyo bu yerda 1920 yil sentabrigacha, ya'ni amirlik tugatilgunga qadar faoliyat olib bordi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgach, Sadr Ziyo yangi hukumatda vaqf ishlari bo'yicha mas'ul, shariat ishlari bo'yicha boshqarma raisi o'rinbosari, respublika kutubxonasi kitobdori lavozimlarida ishlaydi. Bugungi kunda Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida Sadr Ziyoning 9 ta jildga jamlangan 70 dan ortiq risolalari, tazkiralari va tarixiy asarlari saqlanmoqda.

Sadr Ziyo ilk bor 1924 yilda sovetlarga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblanib, hibs qilinadi va 35 kun qamoqda saqlanadi. Ikkinchi marta 1931-1932 yillarda sovetlar tomonidan aholidan tillo va tillo buyumlar yig'ish jarayonida mulkini yashirganlikda ayblanib, yana hibsga olinadi. Sadr Ziyo qamoqxonada terlama kasalligini yuqtirib, vafot etadi[3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasm Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati muzeyi fondi

2 Buxoro muzey qo'riqxonasi fondi hujjatlar arxivida N13789/11 raqam bilan qayd etilgan.

3 Xalq so'zi 2022 yil 24 fevral ("Marifatparvar arbob yetuk olim va mohir xattot" D. Jamolova O'zRFA tarix instituti)

TURKISTONDA ESKI MAKTABLARNI ISLOH QILINISHI

O'.S.Erbo'tayeva

GulDU tuzilmasidagi qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

H.B.O'rmonov

GulDU tuzilmasidagi qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimi

Annotatsiya: Maqolada Turkistonda eski usulda faoliyat olib borgan maktab hamda shu turdagi ta'lim muassasalarini isloh qilinish masalasi yoritilgan bo'lib, bunda mahalliy aholi tomonidan isloh qilinish jarayonlarini qay tarzda kutib olinganligi, diniy ta'limni tugatishga bo'lgan qarshiliklar tahlil qilinib yoritib berildi.

Kalit so'zlar Maktab, masjidlar, hojixona, islohot, mozorlar, shahar, vaqf, matematika, falsafa, muallimlar, targ'ibot.

Аннотация: В статье освещается вопрос реформирования старой школы и других подобных учебных заведений в Туркестане, как процесс реформирования был принят местным населением, а также на основе источников описываются вопросы сопротивления местного населения прекращению религиозного.

Ключевые слова Школа, мечети, паломничество, реформа, гробницы, город, фундамент, математика, философия, учителя, пропаганда.

Abstract: The article highlights the issue of reforming the old school and other similar educational institutions in Turkestan, how the reform process was accepted by the local population, and also, based on sources, describes the issues of resistance of the local population to the cessation of religion.

Key words School, mosques, pilgrimage, reform, tombs, city, foundation, mathematics, philosophy, teachers, propaganda.

O‘zbekistonda XX asrning 20-yillariga kelib eski usul maktablarining faoliyati davom etdi. Asriy an’analarga ega bo’lgan ushbu maktablar mahalliy aholining xat savodini chiqarish yo’lidagi asosiy bo’g’in hisoblangan. Shubhasiz, diniy e’tiqod va qadriyatlar kuchli bo’lgan musulmon Turkistonida aholi sovetlar targ’ibotiga qaramay, o’z farzandlarini diniy maktablarda tahsil olishiga katta e’tibor berar edi. Shu bois ham sovet davlati bu maktablarni ruslashtirishga oid siyosatni avj oldirdi. Eski maktablarni tezroq tugatish masalasi davlat ma’murlarining doimiy diqqat markazida bo’ldi.

1922 yil 16-21 oktyabrda bo’lib o’tgan konferensiya sovet maktabi oldiga eski maktablarga nisbatan yuqori mavqega ega bo’lish vazifasini qo’ydi. Ushbu vazifani bajarish uchun sovet maktablari har jihatdan qo’llab-quvvatlanib, yaqin yillar ichida eski maktablar har qanday moddiy yordamdan mahrum qilinishi ko’zda tutildi[1:73]. Bu esa biz yuqorida aytib o’tgan fikrlarning dastlabki tasdig’i desak mubolag’a bo’lmaydi.

Turkiston Markaziy Ijroqo’mining 1922 yil 28 dekabrda “Vaqflar to’g’risida” yangi 173-sonli dekretni qabul qildi. Unga ko’ra, oktyabr to’ntarishiga qadar vaqflarga tegishli bo’lgan mulklar, masjidlar, hojixona, qorixona, mozorlar,

shuningdek, xayriya va madaniy-ma’rifiy muassasalar (madrasalar, maktablar, va boshqalar) tegishli muassasalarga foydalanishga beriladi[2:589]. Bu harakatlar joyli xalqlardan milliylikni tortib olish harakatini boshlanishi edi.

Maktablarni qayta tashkil qilishning nozik tomonlari ham mavjud bo’lib, ehtiyotkorlikni talab qilar, aks holda yangi usuldagi maktablarga aholi ishonchsizligi, noroziligi paydo bo’lishi mumkin edi. Islohotlar dastlab Toshkent Eski shahar vaqf bo’limi tomonidan amalga oshirildi. Bosh vaqf boshqarmasining 1923 yil 1 apreldagi ma’lumotlariga ko’ra, Toshkentda 15 ta dastlabki maktab, 4 ta qayta tuzilgan madrasa bo’lgan. Bosh vaqf boshqarmasining ta’kidlashicha, Toshkent Eski shahar vaqf bo’limi tasarrufidagi barcha o’quv muassasalariga sovet maktabi dasturi kiritilgan, qayta tashkil qilingan maktablarda diniy fanlarning o’qitilishi taqiqlab qo’yilgan. Tabiiyki, bu mahalliy xalq noroziligining yangidan paydo bo’lishiga olib kelar edi.

1923 yil 1 sentyabrda Turkiston ASSRda isloh qilingan eski maktablar soni[3:56]

Hudud	Jami ro’yxatga olingan maktablar	Qayta tashkil qilingan maktablar	O’quvchilar soni	Amalda o’qiydiganlar soni
Sirdaryo viloyati	112	6	550	550
Samarqand viloyati	45	13	810	665
Farg’ona viloyati	57	10	570	460
Jami	224	29	1930	1675

Qayta tiklangan, yangidan tashkil bo’lgan, ro’yxatga olingan eski maktablar soni jadvalda qiyosiy berilgan, shuning uchun maktablar soni unchalik aniq emas. Aslida, respublikada ularning soni ancha ko’p bo’lgan. Qayta tiklangan 29 ta

maktab isloh qilishga tayyorlangan bo’lishi mumkin 1923 - 1924 yillarda esa yangi usuldagi madrasalar ancha kamayib ketgan bo’lishi haqiqatga yaqinroq.

Sovet hokimiyati o’rnatilganidan boshlab vaqflar mablag’ining kamayishi va boshqa sabablarga ko’ra eski usul (diniy) maktablari soni keskin kamayib ketdi 1923 yil boshiga kelib o’lka viloyatlarida 20 ga yaqin madrasa va 150 ga yaqin maktab, qorixonalar qolgan bo’lib, undagi o’quvchilar soni ham ancha ozaygan. Madrasalarda o’rtacha 10-15 talaba, maktab va qorixonalarda 8-12 o’quvchi o’qigan[4:18].

Maktablarni isloh qilish dasturiga ko’ra, o’quv jarayoni islohotlariga ehtiyoj bo’lib, asta-sekin o’tish tavsiya etilgan. Dastlabki paytda yangi usulda o’qitish uchun kuniga uch soat ajratish tavsiya etilgan. Bunda o’quvchilar xat-savodga o’rgatilgan, ona tili va riyoziyot (matematika)ning oddiy kursi o’qitilgan. Shu bilan bir qatorda dunyoqarash (falsafa) bo’yicha dastlabki ma’lumotlar berish uchun har kuni 3 soatdan vaqt ajratiladigan bo’ldi.

Islohotlar jarayonida eski maktablarda diniy fanlarning isloh qilinishiga ham e’tibor qaratilgan. Bunda dars berishning yangi metodlari asosida uning axloq-odob darsiga aylantirilishi ko’zda tutildi.

Yurtimiz tarixidan ma’lumki islom an’analari va urf-odatlari katta ahamiyat kasb etgan Buxoroda sovet hokimiyati o’rnatilgandan keyin ham eski maktablar o’z faoliyatini davom ettirdilar. Tabiiyki, ular musulmon aholisi orasida muhim o’rin egallagan. Buxoro inqilobiy qo’mitasining 1921 yil 5 yanvardagi dekreti hamma yerlarni umumxalq mulki deb e’lon qildi. Vaqf yerlari tugatildi, ayrim toifadagi xo’jaliklarning chorva mollari va mulklari musodara etildi, lekin 1921 yil kuzida yerni tortib olish bekor qilindi. Buxoro Markaziy Ijroiya Qo’mitasining umumiy avf to’g’risidagi 1922 yil 25 maydagi dekreti vaqflarni tugatishni to’xtatish, qozixonalar ishini, shariat ko’rsatmalarini tiklash va boshqalarni e’lon qildi. Bu albatta mahalliy aholini ko’p etirozlarini qondirish va milliylikni qayta tiklash bilan bog’liq bo’lgan.

1923 yilning oktyabr oyidagi BXSR Sovetlarining qurultoyida A.Abdusaidovning vaqf to’g’risidagi ma’ruzasi tinglanib, vaqf haqida qaror qabul qilindi[5:1]. Bu qarorda vaqf yerlarini ijaraga olib foydalanayotgan vaqfkor dehqonlardan yetishtirilgan hosilning 10 foizi, ya’ni ushr solig’i olish joriy etilgan. Madaniy-ma’rifiy maqsadlar uchun vasiyat qilingan vaqf mulklarining daromadi faqat quyidagi ehtiyojlar uchun sarflanadigan bo’ldi:

-yangi usul maktab va madrasalarni ta’minlashga;

-muallimlar, tashviqotchilar, maktab tashkilotchilari kurslarini ta’minlash uchun;

-eski maktab, madrasalarni isloh qilish bilan bog’liq bo’lgan xarajatlarga;

-maktab va madrasalarning eski binolarini ta’mirlash va saqlashga.

Yangi usul maktablarida diniy, dunyoviy fanlarning birgalikda o’qitilishi aholining ehtiyojlariga to’la javob berganligi uchun ota-onalar o’z farzandlarini shu maktablarga berishni ma’qul deb bildilar. Hatto davlat himoyasida bo’lgan, byudjetdan doimiy mablag’ bilan ta’minlanuvchi sovet maktablari o’quvchilari ham ko’p hollarda o’z maktablarini tashlab, eski maktablarda o’qishni davom ettirgan.

Xulosa o’rnida shuni aytadigan bo’lsak eski maktablarda olib borilgan islohotlar natijasida yangi usuldagi maktablarga aylantirildi, biroq ularning yagona mehnat maktabi dasturiga o’tkazilishi aslida noto’g’ri qilingan harakat edi. Yangi usul maktablarini tashkil etish ishlari ham to’g’ri olib borilmadi, bu boradagi ishlarning yetarlicha tayyorgarliksiz olib borilishi diniy fanlarni o’quv dasturlari va o’quv jarayonidan siqib chiqarishga qaratilgandi. Bunday tadbirlarni amalga oshirishga musulmon xalqlari tayyor emas hamda diniy maktablarning sovetlashtirilishiga qarshi edilar. Shuning uchun yangi usul maktablarining yopilishi va ularning o’rnida sovet maktablarining ochilishi mahalliy aholida qattiq norozilik tug’dirdi. Bu chora-tadbirlar ma’muriy zo’ravonlik uslubi asosida olib borilgani vaziyatni yanada og’irlashtirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tulenov J. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka. –Toshkent:, “Sharq”. 2000 y.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳарир М.Жўраев. -Тошенти: Шарқ, 2000.
3. Абдуллаев Й. Эски мактабда хат-савод ўргатиш. - Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1960.
4. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: миллий-демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси.-Тошкент: Маънавият, 2000.
5. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чиз-гилар). Даврий тўплам. №1. - Тошкент: Университет, 1999.

ЎЗБЕКИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИКЛАРИДА 1920-1953-ЙИЛЛАРДА СОВЕТ СОЛИҚ СИЁСАТИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ (ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Камолов Азизжон Аминович,
Карши давлат университети, магистр

Аннотация. Мақолада 1920–1953 йилларда Ўзбекистонда амалга оширилган совет қишлоқ хўжалиги сиёсати ва унинг Қашқадарё вилоятидаги ижтимоий-иқтисодий таъсири таҳлил қилинади. Унда коллективлаштириш, ер-сув муносабатларидаги ўзгаришлар ва деҳқон хўжаликларининг қайта ташкил этилиши ёритилади.

Калит сўзлар: Ўзбекистон, Қашқадарё, совет сиёсати, қишлоқ хўжалиги, коллективлаштириш, деҳқон хўжаликлари, ер-сув ислоҳоти.

***Abstract.*:** This article examines Soviet agricultural policies in Uzbekistan between 1920 and 1953, focusing on their socio-economic impact on the

Kashkadarya region. It discusses collectivization, changes in land and water relations, and the transformation of peasant households.

***Keywords*:** Uzbekistan, Kashkadarya, Soviet policy, agriculture, collectivization, peasant households, land and water reform.

Жаҳонда XX асрда давлат томонидан қишлоқ хўжалигини молиявий тартибга солиш, хусусан солиқ сиёсатини иқтисодий ривожланиш ва ижтимоий назорат воситаси сифатида қўллаш амалиёти кенг тарқалди. Айниқса, марказлашган ва режали иқтисодиётга асосланган давлатларда мазкур жараён тизимли ва қатий шаклларда намоён бўлиб, қишлоқ аҳолисининг молиявий мажбуриятлари орқали ресурсларни сафарбар этиш ҳамда аграр соҳани давлат манфаатларига бўйсундириш устувор вазифага айланди. Ўзбекистон ва унинг алоҳида вилоятлари мисолида солиқ сиёсатининг амалий ижроси ва унинг ҳудудий хусусиятлари етарли даражада комплекс ўрганилмаган. Шу боис, 1920–1953 йилларда қишлоқ хўжалигида совет солиқ сиёсатининг ҳудудий жиҳатларини чуқур ва тизимли таҳлил қилиш мавжуд илмий бўшлиқни тўлдириш нуқтаи назаридан алоҳида аҳамият касб этади.

1920–1953 йиллар совет тарихида жамиятнинг барча соҳаларида туб ўзгаришлар ва мафкуравий синовлар даври сифатида тавсифланади. Ушбу даврда амалга оширилган солиқ сиёсати мамлакатни марказлаштириш, сиёсий назоратни мустаҳкамлаш ҳамда иқтисодий ресурсларни давлат ихтиёрига сафарбар этишнинг муҳим воситаларидан бирига айланди. Айниқса, Янги иқтисодий сиёсат (ЯИС), колхозлаштириш, индустриаллаштириш ва уруш иқтисодиёти шароитида солиқлар нафақат давлат бюджети тушумларини таминлаш, балки жамиятни синфий қайта қуриш механизми сифатида ҳам хизмат қилди.

Совет давридаги тарихшуносликда қишлоқ хўжаликларини солиққа тортиш сиёсатига оид тадқиқотлар асосан марксизм-ленинизм назариясига таянилган ҳолда ёзилган. Солиқ сиёсати, айниқса, колхозлаштириш жараёнлари давлат сиёсатига уйғун ҳолда ёритилган.

Биринчидан, солиқ сиёсатининг тубдан ўзгариши бошланган 1920-йилларда “ҳарбий коммунизм” сиёсати тугаб, 1921-йилдан Янги Иқтисодий Сиёсат (ЯИС) жорий этилди[1]. Бу – мажбурий реквизицияларни солиққа алмаштириш, бозор муносабатларига чекланган рухсат берилиши ва деҳқонлар фаолиятига муайян даражада эркинлик берилган даврдир. Шу боис, 1920 йил – янги солиқ сиёсатининг бошланиши сифатида муҳим ҳисобланади[2]. *Иккинчидан,* **Ўзбекистон ССР ташкил топган ва марказлашган бошқарув бошланган–**1920-йил охирида Туркистон АССР таркибидан ажралиб чиқиб, кейинчалик 1924-йилда Ўзбекистон ССР ташкил топди. Бу ўзгаришлар билан бирга, солиқ сиёсати ҳам босқичма-босқич марказлаштирилди. *Учинчидан,* **Қашқадарё ҳудудида тузилган солиқ тизимини ўрганиш учун қўлланма нуқта–**Қашқадарёда ҳам 1920-йилдан бошлаб солиқ йиғиш, давлат учун хўжалик малумотлари тўплаш каби жараёнлар изчиллашган. Бу йил – маҳаллий солиқ сиёсати ва унинг қишлоқ хўжалигига тасирини ўрганиш учун манбага бой ва таҳлилга қулай старт нуқтадир.

В.П. Даниловнинг “Советская налоговая политика в доколхозной деревне” асарида[3] 1917–1927 йиллардаги солиқ сиёсатининг моҳияти, мақсадлари ва ижтимоий тасири атрофлича ёритилган. Муаллиф такидлашича, солиқ сиёсати давлатнинг деҳқон хўжаликларини иқтисодий жиҳатдан бошқариш ва синфий тартибни қайта шакллантириш воситаси бўлган. Асарда, айниқса, янги иқтисодий сиёсат (НЭП) шароитида жорий қилинган натура ва пул солиқлари, уларнинг деҳқонлар фаолиятига тасири, солиқ юкининг турли тоифалар ўртасида тақсимланиши масалалари таҳлил этилган. Данилов фикрича, солиқлар фақат молиявий мақсадларни кўзламаган, балки “кулаклар”ни иқтисодий сустлаштириш ва охир-оқибатда йўқ қилишга хизмат қилган.

1920–1953 йилларда Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида, хусусан Қашқадарё вилоятида совет солиқ сиёсати фақат давлат бюджети даромадларини таминлаш воситаси эмас, балки қишлоқни марказлаштириб

бошқариш ва аҳоли устидан иқтисодий назоратни кучайтириш механизми сифатида амал қилган. ЯИС даврида солиқлар нисбатан мослашувчан характерга эга бўлган бўлса-да, 1930-йилларда коллективлаштириш жараёнлари билан бирга солиқ юки кескин ошган ва синфий ёндашув асосида табақаланиш чуқурлашган, уруш йилларида эса мажбурий тўловлар ва йиғимлар ортиб, деҳқон хўжаликларининг иқтисодий имкониятлари янада чекланган. Марказий режа устуворлиги маҳаллий бошқарув органларининг мустақиллигини чеклаб, солиқ тизимини мамурий-босимли механизмга айлантирган.

Солиқ ставкаларини белгилаш ва хўжаликларни тоифалаш амалиёти кўп ҳолларда ҳуқуқий мезонлардан кўра мамурий органларнинг субъектив баҳоларига асосланган бўлиб, бу жойларда адолатсизлик ва ишончсизлик муҳитини кучайтирди. ВКП(б) Марказий Қўмитасининг 1930 йил 17 мартдаги қарорида қулоқ хўжаликларига нисбатан ишчи ҳайвонлар ажратиш талаби қўйилиши уларнинг ишлаб чиқариш имкониятларини янада чеклаб қўйди.

1941–1953 йилларда Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалигида совет солиқ сиёсати давлат бюджетига барқарор тушумларни таминлаш ва аграр соҳани марказлашган бошқарувга бўйсундиришга хизмат қилди. Солиқ ва мажбурий топшириқлар хўжаликлар зиммасига оғир молиявий юк юклаб, уларнинг иқтисодий барқарорлигини заифлаштирдиНатижада колхозлашув кучайди, аҳоли турмуш даражаси пасайди ва иқтисодий имкониятлар чекланди. Шу билан бирга, солиқ сиёсати меҳнат, маҳсулот ва молиявий муносабатлар устидан давлат назоратини мустаҳкамлади. Демак, мазкур даврда солиқ сиёсати иқтисодий восита билан бир қаторда ижтимоий-сиёсий назорат механизми ҳам бўлган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ушак Н.В. Теория и история налогообложения. Учеб пособ. / Н.В.Ушак. – Москва: Кнорус, 2009. – С.231.

2. Турсунов Х, Бекназаров Н. Ўзбекистон ССР тарихи. – Т., 1982. – Б. 104.
3. Gardner, R. (1984). Power and taxes in a one-party state: The USSR, 1925–1929. International Economic Review, 25(3), 743–755. https://doi.org/10.2307/2526387
4. Данилов В.П. Советская налоговая политика в доколхозной деревне // Октябрь и советское крестьянство. 1917–1927 гг. – Москва, 1977. – 295 с.
5. Тянут с мужика последние жилы…» Налоговая политика в деревне (1928-1937): Сб.документов и метариалов. / Сост. Н.Е.Глущенко, М.М.Кудюкина, Н.А. Ивницкий и др. – Москва: Собрание, 2007. – 638 с.
6. Равшанов П. Кизил салтанат исканжасида. Истибдод. Иккинчи жилд. – Т.: “Шарқ”, 2011. – Б. 221.

СССР Халқ Комиссарлар Совети. (1930). **Постановление от 24 мая 1930 года "О ставках земельного налога"** – М.: Известия СНК СССР.

“MILLIY TURKISTON” JURNALI MUHIM MANBA SIFATIDA

Mashhuraxon Darmonova
tarix fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Sovet hokimiyatining olib borgan qatag’on siyosati natijasida xorijda qolib ketgan vatandoshlarimiz tomonidan siyosiy va madaniy tashkilotlar tuzilgan. Ushbu tashkilotlar sovet hokimiyatining Turkistondagi ta’sirini pasaytirish, milliy ozodlik uchun kurashini matbuot va radio orqali amalga oshirganlar. Maqolada Turkiston milliy birligi qo’mitasining nashri “Milliy Turkiston” jurnali haqida so’z boradi.

Kalit so’zlari: “Milliy turkiston”, Turkiston milliy birligi, Vali Qayumxon, Muctafo Cho’qay, qatag’on siyosati, milliy ozodlik uchun kurash, muhojirlar, tarix.

Аннотация: Со стороны наших соотечественников, оставшихся за рубежом, в результате репрессивной политики советской власти, были созданы политические и культурные организации. Эти организации вели борьбу через печать и радио за уменьшение влияния Советской власти в Туркестане, национальное освобождение. В статье речь идет о журнале «Миллий Туркистон» («Национальный Туркестан»), издании Туркестанского комитета национального единства.

Ключевые слова: Журнал «Миллий Туркистон», национальное единство Туркестана, Вали Каюмхан, Мустафа Чокай, политика репрессий, борьба за национальное освобождение, иммигранты, история.

Abstract: Because of the repression policy of the Soviet authorities, political and cultural organizations were formed by our compatriots who stayed abroad. These organizations kept struggles for national liberation by the means of press and radio in order to reduce the influence of Soviet power in Turkestan. The article is illutrated by the Journal "Milliy Turkiston", a publication of the Turkestan National Unity Committee.

Key words: Journal "Milliy Turkiston", national unity of Turkestan, Vali Qayumkhan, Mustafa Cho'kai, politics of repression, struggle for national liberation, immigrants, history.

1917-yili Chor Rossiyasi qulagandan keyin tashkil etilgan bolsheviklar boshqaruvi ham xuddi shu strategik amaliyotni davom ettirdi. Turkistonni sharq va g’arbga bo’lib, o’zining yangi zo’ravonlik strategiyasi, “Turkiston”ni ruslashtirish siyosatini boshlab yubordi. Shuningdek, siyosiy, ma’naviy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda jamiyat manfaatlariga zid holda amalga oshirilgan o’zgarishlar xalqning keskin qarshiligiga uchragan hamda bu qarshilikni yengish uchun bolsheviklar zo’rlik-zo’ravonlikka asoslangan qatag’on siyosatini amalga oshirgan.

Qaror topgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi va uning rahbar o’zagi kommunistik partiya mo’tadil-ma’muriy tartibda, ruhiy bosim o’tkazish usulini qo’llab, siyosiy qatag’onni kuchaytirib borgan. Bu bosqinni qabul qila olmagan ziyolilarning muhim bir qismi bu holatga qarshi harakat qilgan. Natijada, ko’plab

yozuvchi, jurnalchi va o’qituvchilar qatag’on qurboni bo’lgan, ulardan ko’plari otib tashlangan. Yana bir qismi olis mehnat tuzatish jamloqlariga surgun qilingan, ko’plari esa o’z yurtlarini tark etishga majbur bo’lgan [1].

“Milliy Turkiston” jurnali Berlinda nashr etilgan bo’lib, bugungi kunda Germaniyadagi kutubxona va arxivlarida saqlanib kelinmoqda. Shuningdek, mazkur jurnal Turkiyadagi shaxsiy arxivlarda ham mavjud. Ushbu jurnal o’zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan o’rganilmagan va ilmiy iste’molga kiritilmagan. Turkiyada Ahad Andijon [2], Timur Xo’jao’g’li [3], Chig’atoy Ko’char [4] va Nurgul Uzunel [5] mavzu doirasida tadqiqotlar olib borganlar.

Maqolani yozishda xronologik, diaxron, tarixiy taqqoslash uslublaridan keng foydalanildi. Jumladan, tarixiy taqqoslash uslubi tadqiqotdagi tarixiy jarayon tavsilotlari aniq va ravshan bo’lmaganda uning mohiyatini ochishga, shuningdek, umumiylikni, qonuniylikni, takrorlanuvchanlikni aniqlash hamda umumlashtirishga va tarixiy parallellikni yuzaga chiqarish uchun imkon berdi.

Sovet hokimiyatining qatag’on siyosati natijasida minglab turkistonliklar, ayniqsa Afg’oniston, Eron, Sharqiy Turkiston, Yaqin Sharq mamlakatlari, Turkiya va Yevropa davlatlariga tarqab ketganlar. Dunyoga chiqqan turkistonlik ziyolilar vaqtni boy bermay, sovet hokimiyatining olib borayotgan siyosatiga qarish kurashni chetdan olib borish maqsadida uyushma, jamiyat va shunga o’xshash tashkilotlar tuzganlar. Bu tashkilotlar yordamida ular “Xorijdan eshittirish” harakatini boshlaganlar. Turkiston masalasini tashqi dunyoga tushuntirish, Turkiston haqidagi xalq ovozlarini xabardor qilish bu kurashning eng muhim jihatini tashkil etgan.

Turkistonda hali kurash davom etayotgan bir paytda tashkil etilgan “O’rta Osiyo Milliy Avomi inqilobiy qo’mitalari” dastlab “Turkiston ozodlik jamiyati”ga, keyin esa “Turkiston milliy ittifoqi”ga aylantirilgan. Bundan asosiy maqsad Sovet Ittifoqining asirligida qolgan boshqa millatlar bilan birgalikda Sovet Ittifoqining parchalanishini ta’minlash va o’z mamlakatining mustaqilligiga erishish bo’lgan [6].

Bunga faqat matbuot va radioeshittirish orqali erishish mumkinligini bilib, Istanbulda joylashgan Turkiston milliy birlik (TMB) harakatining ilk tashabbusi bilan “Yangi Turkiston” jurnalining nashr etilishi yo’lga qo’yilgan. 1927-yil iyun oyida nashr qilina boshlangan [7] “Yangi Turkiston” jurnali tez orada Turkiston kurash harakatining tashqi dunyodagi matbuot kotibiga aylangan. Biroq, 1928-yili Turkiya Respublikasi ma’muriyati tomonidan kun tartibiga kiritilgan alifbo inqilobi va lotin alifbosiga o’tish qarori “Yangi Turkiston” jurnalining nashr organi bo’lgan Turkiston milliy birlik harakati faoliyati sohasini ancha qisqartirgan. Jurnal lotin harflarida nashr etilishi bilan Afg’oniston, Hindiston, Eron va arab davlatlarida yashovchi turkistonliklarga yetib borish imkoniyati yo’qolgan. Turkiston milliy birligi rahbariyati vaziyatni baholagan holda jurnalning bosh qarorgohini Yevropaga ko’chirish va uni arab harflarida qayta chop etish bo’yicha tadqiqot boshlagan, ammo bu harakatlar muvaffaqiyatsiz tugagan.

Nihoyat, 1929-yil sentyabrida Istanbulda bo’lib o’tgan Turkiston milliy birligi qurultoyida “Yangi Turkiston” jurnalining Turkiyada nashr etilishini davom ettirish va Berlinda esa arab harflari bilan chop etiladigan boshqa jurnal chiqarishga qaror qilingan. O’zbek shevasida nashr etiladigan jurnal “Yosh Turkiston” deb nomlangan. Mazkur jurnal Turkiston milliy birlik harakatining Yevropadagi vakili Mustafo Cho’qay o’g’li rahbarligida nashr etilishi nazarda tutilgan, lekin 1929-yilgi qurultoy hujjatlari va Turkiston milliy birlik harakati rahbarlarining yozishmalaridan ma’lum bo’lishicha, bu jurnal “Yangi Turkiston” jurnalida bo’lgani kabi Pilsudskiy fondidan, ya’ni “Promete” harakatining mablag’lari hisobidan moliyalashtirilgan [8].

Yuqoridagi ikki jurnal, jumladan, Istanbuldagi “Yangi Turkiston” va Parijdagi “Yosh Turkiston” jurnali nashriyot guruhi tomonidan ikkinchi jahon urushi davrida Berlinda Vali Qayumxon bosh muharrirligi ostida “Milliy Turkiston” jurnali chop etilgan. Majmua 1942-yil 15-iyunda Milliy Turkiston birligi qo’mitasining nashr organi sifatida o’z faoliyatini boshlagan. Jurnal uch davrda nashr etilgan:

1. 1942 – 1945-yillar;
2. 1949 – 1954-yillar;
3. 1962 – 1975-yillar.

1942 – 1975-yillar mobaynida jurnalning 134 ta soni chiqqan. Jurnalning 1942 – 1945-yillardagi sonlari Berlinda, oyda 2 marta nashr etilgan. 1945-yilda urush tugashi bilan, jurnal ham o'z faoliyatini to'xtatgan. 1949 – 1954-yillardagi sonlari Jeneva (Shveysariya)da chop qilingan. 1952 – 1955, 1962 – 1975-yillardagi sonlari esa Dyusseldorfda nashr qilingan [9].

"Milliy Turkiston" sahifalarida e'lon qilingan maqolalar orqali rus muhojirlarining "buyuk, bo'linmas Rusiya" nomi bilan yurgizgan siyosatlarini fosh qilib tashlab, unga qarshi "buyuk, bo'linmas Turkiston" shiorini maydonga chiqargan va kurashgan. Ruslar bilan kelishuv mutloq mumkin emasligini va ular bilan birgalikda ishlash – milliy bir xiyonat ekanligini har doim qat'iy bildirib kelgan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng majmuaning faoliyati yanada keskinlashdi. Dunyoning deyarli butun burchaklariga tarqalgan Turkiston muhojirlari orasida jurnal milliy g'oyani tarqatuvchi birdan-bir qurol sifatida xizmat qilgan va butun muhojirlarni bir milliy bayroq ostiga to'plagan.

"Milliy Turkiston" jurnalini dunyoning har bir mamlakatida o'qishlari uchun bir necha tillarda chiqarib tarqatganlar. Jurnal tili "turkistoniy" deb ko'rsatilgan bo'lib, har bir soni tili va alifbosi bilan farqlanuvchi 4 xil (1 A, 1 B, 1 C, 1 D) nusxada nashr qilingan. A nusxasi – lotin harflarda o'zbek tilida, B nusxasi – lotin harflarda ingliz tilida, C nusxasi – arab harflarida arab tilida va D nusxasi – arab harflarida o'zbek tilida chiqarilgan.

Jurnalning sovet siyosati, biografiyalar, yangiliklar, kitob targ'iboti va o'quvchi maktublari kabi ruknlari bo'lgan. Ushbu ruknlarda sovet hokimiyatining Turkistonni boshqarishda qo'llagan iqtisodiy, milliy, maorif, din va sovet adabiyotini yaratish hamda tarixshunoslikni shakllantirish siyosatini ochib beruvchi maqolalar e'lon qilingan. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida Germaniyada tashkil etilgan siyosiy va madaniy tashkilot bo'lgan Milliy Turkiston

birligi qo’mitasi, Turkiston legionining faoliyati va uning tashkilotchilari Vali Qayumxon, Mustafo Cho’qay o’g’li va Boymirza Hayit maqolalari muntazam chop etilgan.

Bundan tashqari, Turkiston ziyolilarining jurnal va qo’mita bilan bog’liq xotiralari, ularning tarjimai hollari berib borilgan. Jumladan, Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvvarqori Abdurashidxonov, Asadulloh Xo’ja, Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, So’fizoda, Zakiy Validiy To’g’on, Fitrat, Usmon Xo’ja o’g’lining hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlar, ularning ijod namunalari jurnalda nashr etilgan.

Umuman olganda, jurnaldagi maqolalarni o’rganish va tahlil qilish 1942 – 1975 yillar orasida Turkistonda nimalar yuz bergani, sovet hokimiyati Turkistonni qanday shakllantirmoqchi bo’lgani va bu siyosatga turkistonliklarning qarashlarini bilish imkoniga beradi. Qolaversa, sovet hokimiyati yillarida madaniyat, til, mafkura, adabiyot va tarix sohalaridagi kurashlar tarixini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mashhuraxon Darmonova. Ozodlik va ma’rifatchilik uchun ayblanganlar. “O’zbekiston tarixi” jurnali. 2023. 1-son. 120 – 188-betlar.

2. A. Ahat Andican. “Cedidizmden Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi”. İstanbul. 2003. s. 942.

3. Timur Kocaoğlu., “Yaş Türkistan'ın Türkistan Basın Tarihindeki Yeri” Türkistan Millî İstiklal Fikrine Hizmet Eden Aylık Dergi (1929 – 1939). Ayaz Tahir Türkistan İdil-Ural Vakfı. Istanbul. 1997. C. I, s. 14 – 22.

4. Çağatay Koçar. Milli Türkistan Bibliyografyasi. Adana. 2023. s. 296.

5. Nurgül Uzunel. “Milli Türkistan” Türkistanlı Muhacirlerin Avrupa'daki Dergisi 1942 – 1975. Istanbul. 2016. s. 319.

6. A. Ahat Andican. Yaş Türkistan Dergisi ve Türkistan Milli Hareketi. "Yaş Türkistan'dan Seçilmiş Makaleler". İstanbul. 2006. s. 15.

7. ”توركستان يگى . ١٩٢٧ - حزيران - ٥. صانى ١. صهفه ٣٢”.

8. A. Ahat Andican. “Cedidizmden Bağımsızlığa Hariçte Türkistan Mücadelesi”. İstanbul. 2003. s. 329 – 334.
9. “Milliy Turkiston” 10 yoshga to’ldi. “Milliy Turkiston” majmuasi. 1952-yil 5-oktyabr. 79 A-soni. 4 – 6-betlar.

JADIDCHILIK HARAKATIDA GEOGRAFIK QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA QATAG‘ON QURBONLARI ILMIY MEROSI (QASHQADARYO VOHASI MISOLIDA)

Sultonov Shuxrat Adxamovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,
Qahhorova Nilufar Saidmurod qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
Xolboyeva Zarina Qaxramon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi,

Annotatsiya. Maqolada jadidchilik harakatining hozirgacha kam o‘rganilgan qirrasi — geografik (jug‘rofiy) tafakkurning shakllanishi tadqiq etiladi. Muallif jadidlar yaratgan jug‘rofiya darsliklarini Movarounnahrning “masolik va mamolik” an’anasi bilan Yevropa ilmiy geografiyasi o‘rtasidagi ko‘prik sifatida talqin qiladi va “jug‘rofiyai umroniy” atamasining klassik “ilm ul-umron” tushunchasi bilan bog‘liqligini asoslaydi. Jadidlarning jug‘rofiyaga oid asarlari tipologik jadval shaklida tasniflanadi. Qashqadaryo vohasi materiallari asosida xotira geografiyasi yondashuvi qo‘llanib, Mahmudxo‘ja Behbudiyning so‘nggi safari va Qarshi shahrining ramziy xotira markazi sifatidagi mavqeini aks ettiruvchi sxematik xarita taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, jug‘rofiya, Mahmudxo‘ja Behbudiy, jug‘rofiyai umroniy, qatag‘on qurbonlari, Qashqadaryo vohasi, Qarshi, xotira geografiyasi, o‘lkashunoslik, kartografiya.

Аннотация. В статье исследуется малоизученная грань джадидского движения — формирование географического мышления. Автор трактует созданные джадидами учебники географии как мост между традицией «масалик ва мамалик» и европейской научной географией, обосновывая связь термина «джуграфияи умрони» с классическим понятием «илм аль-умран». Географические труды джадидов классифицируются в виде типологической таблицы. На материалах Кашкадарьинского оазиса применён подход географии памяти и представлена схематическая карта последнего пути Махмудходжи Бехбуди.

Ключевые слова: джадидизм, география, Махмудходжа Бехбуди, джуграфияи умрони, жертвы репрессий, Кашкадарьинский оазис, Карши, география памяти, краеведение, картография.

Annotation. The article examines a little-studied dimension of the Jadid movement — the formation of geographical thought. The author interprets the geography textbooks produced by the Jadids as a bridge between the classical “masalik wa mamalik” tradition of Transoxiana and European scientific geography, arguing that the term “jughrafiya-yi umrani” is linked to the classical concept of “ilm al-umran”. The geographical works of the Jadids are classified in a typological table. Applying the geography-of-memory approach to materials from the Qashqadarya oasis, the study presents a schematic map of Mahmudkhoja Behbudi’s final journey and of Qarshi as a symbolic centre of remembrance.

Key words: Jadidism, geography, Mahmudkhoja Behbudi, jughrafiya-yi umrani, victims of repression, Qashqadarya oasis, Qarshi, geography of memory, local studies, cartography.

Kirish. Jadidchilik tarixshunosligida bu harakat asosan adabiyot, matbuot, pedagogika va siyosiy tafakkur nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Ayni paytda jadidlar dunyoqarashining tabiiy-ilmiy qatlami, xususan geografik qarashlari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida deyarli ko‘rib chiqilmagan. Mavjud ishlarda jug‘rofiya darsliklari odatda muallif bibliografiyasining bir qatori sifatida sanab

o‘tiladi, biroq ularning ilmiy mazmuni va genetik ildizlari tahlil qilinmaydi. Tadqiqot muammosi ana shu bo‘shliqdan kelib chiqadi.

Maqolaning maqsadi — jadid ma’rifatparvarligidagi geografik tafakkurning manbalarini va tipologiyasini aniqlash hamda bu merosning qatag‘on natijasida uzilib qolgan jihatlarini Qashqadaryo vohasi misolida ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy-tipologik tahlil, manbashunoslik va hududiy yondashuv usullari, shuningdek zamonaviy gumanitar geografiyaning “xotira makonlari” konsepsiyasi qo‘llanildi.

Uzilgan an’ana va uning tiklanishi. Jadidlar jug‘rofiyani bo‘sh maydonda boshlagani yo‘q. Movarounnahr Muhammad al-Xorazmiyning “Kitob surat al-arz” asaridan, Beruniyning geodezik o‘lchovlaridan, “masolik va mamolik” (yo‘llar va mamlakatlar) janridagi tavsiflardan iborat boy an’anaga ega edi. Biroq bu an’ana XVII–XIX asrlarda tabiiy-ilmiy izlanish sifatida deyarli to‘xtab, madrasa dasturidan siqib chiqarilgan; jug‘rofiya amaliy hisob-kitob va ziyorat yo‘llari tavsifi darajasiga tushib qolgan edi [1; 24].

Jadidlarning tarixiy xizmati aynan shu uzilgan ipni ulashga urinishda ko‘rinadi. Ularning yondashuvi mexanik ko‘chirma emas edi: Yevropa maktab geografiyasining tuzilmasi olinib, unga mahalliy tushuncha apparati singdirildi. Buning eng yorqin dalili — Behbudiy qo‘llagan “jug‘rofiyai umroniy” atamasi. “Umron” Ibn Xaldunning “Muqaddima”sida asoslangan tushuncha bo‘lib, o‘troqlashuv, obodonlashuv va ijtimoiy uyushuvni anglatadi. Demak, muallif hozirgi tilda “aholi geografiyasi” deb ataladigan sohani Yevropa terminologiyasidan emas, klassik islom ijtimoiy fikridan olingan tayanch tushuncha orqali nomlagan. Bu esa jadid ilmiy tafakkurining sintetik tabiatini ko‘rsatadi: yangilik an’anani inkor etish orqali emas, uni davom ettirish orqali joriy etilgan.

Jadid jug‘rofiy adabiyotining tipologiyasi. Jadidlar yaratgan jug‘rofiyaga oid asarlarni mazmuniga ko‘ra bir necha turga ajratish mumkin (1-jadval). Bunday tasnif ularning faoliyati tasodifiy tarjimalar to‘plami emas, balki maqsadli shakllantirilgan o‘quv-ilmiy tizim bo‘lganini ko‘rsatadi.

1-jadval

Jadid ma’rifatparvarlarining jug‘rofiyaga oid asarlari tipologiyasi

№	Muallif / noshir	Asar nomi	Yili	Jug‘rofiy bilim turi
1	Mahmudxo‘ja Behbudiy	“Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy”	1903	Umumiy (fizik) jug‘rofiya
2	Mahmudxo‘ja Behbudiy	“Risolai jug‘rofiyai umroniy”	1905	Aholi va o‘troqlashuv jug‘rofiyasi
3	Mahmudxo‘ja Behbudiy	“Madxali jug‘rofiyai rusiy”	1905	Mintaqaviy (regional) jug‘rofiya
4	“Behbudiya” nashriyoti	Turkiston, Buxoro va Xiva xaritasi	1910-yy.	Kartografiya
5	Abdurauf Fitrat	“Bayonoti sayyohi hindi”	1912	Sayohat-tavsifiy jug‘rofiya
6	Ishoqxon Ibrat	“Tarixi Farg‘ona”	1916	Tarixiy jug‘rofiya, o‘lkashunoslik

Izoh: asarlarning nashr sanalari turli manbalarda farqlanadi (masalan, “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” uchun 1903 va 1906 yillar ko‘rsatiladi), bu masala arxiv nusxalari asosida aniqlashtirishni talab etadi [2; 31].

1-jadvaldan ko‘rinadiki, atigi o‘n besh yil ichida umumiy jug‘rofiyadan tortib kartografiyagacha bo‘lgan bosqichlar bosib o‘tilgan. “Behbudiya” nashriyoti tomonidan Turkiston, Buxoro va Xiva xaritasining chop etilishi alohida ahamiyatga ega [3; 41]: bu mahalliy tashabbus bilan yaratilgan, o‘lkani yaxlit makon sifatida ko‘rsatuvchi ilk milliy kartografik mahsulotlardan biri edi. Xaritaning ma’rifiy vazifasi ortida siyosiy mazmun ham yotardi — o‘z yurtining chegaralarini ko‘rgan kishi uning taqdiri haqida o‘ylay boshlaydi.

Sayohatnoma: qiyosiy makon tafakkuri. Geografik bilim jadidlarda faqat darslik orqali emas, shaxsiy sayohat tajribasi orqali ham tarqaldi. Behbudiyning 1899–1900 yillarda Arabiston, Misr va Turkiyaga, 1903–1904 yillarda Rusiyaning

yirik shaharlariga qilgan safarlari uning qiyosiy nigohini shakllantirdi [4; 8]. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarida esa uslubiy jihatdan nozik yechim qo‘llanadi: voqelik tashqi kuzatuvchi — hind sayyohi nigohi orqali baholanadi. Bu adabiy usul aslida geografik mohiyatga ega, chunki u o‘quvchini o‘z makonidan chiqib, unga chetdan qarashga majbur qiladi. Sayohatnoma shu tariqa taraqqiyot g‘oyasining eng ta’sirchan targ‘ibot shakliga aylandi.

“Turkiston”: geografik atamadan milliy o‘zlikka. Jadid geografik tafakkurining eng nozik nuqtasi — hududiy nomlanish masalasi. Behbudiyning “Sart so‘zi majhuldur” turkumida (1915) mahalliy aholini o‘z nomi bilan atash talabi ilgari surilgan [5; 112]. Zohiran terminologik ko‘ringan bu munozara mohiyatan makon va o‘zlik o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi bahs edi: nom hududni, hudud esa jamoani belgilaydi. Natijada “Turkiston” atamasi ma’muriy birlik doirasidan chiqib, madaniy-tarixiy makon ma’nosini kasb etdi. Aynan shu sababli 1924 yilgi milliy-hududiy chegaralanish jadidlar tasavvuridagi yaxlit makon g‘oyasiga zarba berdi va keyingi o‘n yilliklarda “Turkiston” tushunchasi ilmiy muomaladan siqib chiqarilib, uning o‘rnini neytral “O‘rta Osiyo” atamasi egalladi.

Qashqadaryo vohasi: Qarshi fojiasi va xotira makoni. Qashqadaryo vohasi jadidchilik tarixida alohida, ayni paytda fojiali o‘rin egallaydi. Hoji Muinning guvohligiga ko‘ra, Behbudiy 1919-yil 25-martda hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul bilan safarga chiqqanida qo‘lga olinib, Qarshi shahrida qatl etilgan; qatl haqidagi xabar Samarqandga roppa-rosa bir yildan so‘ng yetib borgan [6; 2]. Ayrim manbalarda hibsga olish joyi sifatida Shahrisabz ko‘rsatiladi [4; 12].

Bu voqeaning geografik talqini muhim. Turkistonda ilk milliy jug‘rofiya darsliklari va xaritasining muallifi o‘z hayotini aynan o‘zi tasvirlagan makonning bir nuqtasida yakunladi. Shu bois Qarshi shahri jadidchilik xotirasi geografiyasida ramziy markazga aylanadi (1-rasm).

Xaritada uch xil xotira nuqtasi ajratilgan: safar boshlangan joy, hibsga olingan joy va qatl etilgan joy. Ularning ketma-ketligi xotirani sanalar zanjiridan makon zanjiriga aylantiradi. Qarshi davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag‘on

qurbonlari xotirasi” muzeyining Odina masjidi binosida joylashgani esa bu makona moddiy timsol maqomini beradi.



1-rasm. Mahmudxo‘ja Behbudiyning so‘nggi safari va Qashqadaryo vohasidagi xotira nuqtalari (sxematik xarita; muallif tomonidan [4; 6] manbalar asosida tuzilgan)

Qatag‘on: shaxs va ilmiy yo‘nalish yo‘qotishlari. Qatag‘on siyosatining geografiya fani uchun oqibatini ikki darajada ko‘rish lozim. Birinchi daraja — shaxsiy: 1930-yillar oxirida Fitrat, Ishoqxon Ibrat va o‘nlab boshqa ziyolilar hayotdan mahrum etildi, ular boshlagan tadqiqotlar yakunlanmay qoldi. Ikkinchi va kamroq muhokama qilinadigan daraja — institutsional: 1920-yillarda jadal

rivojlangan o‘lkashunoslik harakati 1930-yillar o‘rtalariga kelib bosqichma-bosqich cheklandi, mahalliy tarix, toponimika va etnografiyani o‘rganuvchi jamiyatlar tugatildi.

Oqibatda mahalliy geografik bilimning to‘planish mexanizmi buzildi. Toponimlarning kelib chiqishi, sug‘orish tarmoqlarining tarixiy tuzilmasi, qishloqlarning shakllanish xronologiyasi haqidagi ma’lumotlar hujjatlashtirilmay, og‘zaki xotira darajasida qolib ketdi va keyingi avlodlar bilan birga yo‘qoldi. Shu ma’noda qatag‘on nafaqat insonlarni, balki makon haqidagi bilimni ham nobud qildi.

Xotira geografiyasi va zamonaviy usullar. Zamonaviy gumanitar fanlarda “xotira makonlari” yondashuvi keng qo‘llaniladi: tarixiy voqea faqat sanada emas, aniq makonda ro‘y beradi va o‘sha makon jamoaviy xotiraning tayanch nuqtasiga aylanadi. Qatag‘on merosini o‘rganishda bu yondashuv amaliy natija beradi — tug‘ilgan qishloq, faoliyat yuritgan maktab, hibsga olingan joy, surgun yo‘nalishi kartografik tahlil obyekti bo‘la oladi.

Amaliy jihatdan quyidagilarni taklif etamiz: arxiv hujjatlari asosida voha bo‘yicha qatag‘on qurbonlarining geoaxborot tizimi (GAT) asosidagi ko‘p qatlamli raqamli xaritasini yaratish; jadid maktablari joylashuvining tarixiy xaritasini tiklash; muzey ekspozitsiyasiga interaktiv kartografik modul kiritish; talabalar uchun “xotira marshrutlari” dala amaliyotini joriy etish. Bunday mahsulotlar tarixiy xotirani mavhum tushunchadan o‘z yurti bilan bog‘liq aniq tasavvurga aylantiradi.

Xulosa. Tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi.

Birinchidan, jadidlar jug‘rofiyasi Yevropa fanidan oddiy ko‘chirma emas, balki klassik “umron” an’anasi bilan zamonaviy ilmiy geografiyaning sintezi bo‘lib, bu uning o‘ziga xos ilmiy qiymatini belgilaydi.

Ikkinchidan, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek tilidagi jug‘rofiya darsliklari va milliy kartografiya an’anasining asoschisi sifatida baholanishi lozim.

Uchinchidan, qatag‘on shaxslar taqdiri bilan birga o‘lkashunoslik va tarixiy geografiyaning rivojlanish chizig‘ini ham uzib qo‘ydi, bu esa bugungi tadqiqotchi oldiga bo‘shliqni to‘ldirish vazifasini qo‘yadi.

To‘rtinchidan, Qashqadaryo vohasi va Qarshi shahri jadidchilik xotirasining muhim geografik nuqtasi bo‘lib, bu hol mahalliy muzey va universitet oldiga aniq ilmiy vazifa qo‘yadi: voha bo‘yicha raqamli xotira xaritasini yaratish va jadidlar geografik merosini arxiv manbalari asosida to‘liq tavsiflash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimov B. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

2. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet, 2006.

3. Alimova D. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: Universitet, 2000.

4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi B. Qosimov. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

5. Behbudiy M. Sart so‘zi majhuldur // Oyna. – Samarqand, 1915. – № 22–26.

6. Hoji Muin. Mahmudxo‘ja Behbudiy // Zarafshon. – Samarqand, 1923, 25 mart.

7. Ibn Xaldun. Muqaddima (tanlangan asarlar). – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

8. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.

9. Rasulov A. Qashqadaryo vohasi tarixidan lavhalar. – Qarshi, 2019.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-noyabrdagi 691-son qarori.

POLYAKLAR DEPORTATSIYASI (1939-1946 yillar)

Ashirov Ulug‘bek,

Qarshi davlat universiteti

tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari

xotirasi” muzeyi ilmiy xodimi

Anatatsiya: Ushbu maqolada 1939 - 1946 yillarda Polyak xalqining boshiga tushgan mudhish voqealar, ularning o‘z vatanlaridan zo‘rovonlik bilan ko‘chirishlari, butun sobiq sho‘rolar tuzimida avj olgan Stalincha totolitar tuzimning mudxish zo‘rovonligiga uchrashi, surgun qilinganlarning uzoq yurtlarda kechgan azoblari, ushbu kechinmalarda ularga mardonovor o‘zbek xalqining ko‘rsatgan yordamlari haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Sovet Ittifoqi, Polsha, SSSR, Polyaklar, NKVD, deportatsiya, totolitar tuzum, surgun, qizil armiya, maxsus ko‘chirilganlar.

Аннотация: В статье описываются ужасные события, выпавшие на долю польского народа в 1939-1946 годах, его насильственная депортация с Родины, ужасающее насилие сталинского тоталитарного режима, распространившегося на весь бывший Советский Союз, страдания ссыльных в далеких странах и помощь, которую они получили от мужественного узбекского народа во время этих испытаний.

Ключевые слова: Советский Союз, Польша, СССР, поляки, НКВД, депортация, тоталитарная соль, ссылка, Красная Армия, спецпереселенцы.

Abstract: The article describes the terrible events that befell the Polish people in 1939-1946, their forced deportation from their homeland, the horrific violence of the Stalinist totalitarian regime that spread throughout the former Soviet Union, the suffering of exiles in distant countries and the help they received from the courageous Uzbek people during these trials.

Key words: Soviet Union, Poland, USSR, Poles. NKVD, deportation, totalitarian salt, exile, Red Army, special deportees.

1937-1953 yillarda sobiq ittifoqda (SSSR) 100 mingdan ortiq kishi qatag‘onga uchradi hamda surgun qilindi. Ulardan 13 mingga yaqini otib tashlandi[1]. Bir necha xalqlar jabirlandilar va tazyiqga uchradilar. Stalincha totolitar tuzimning mudhish harakatlaridan biri xalqlarning o‘zlari yashab turgan vatanlaridan ommaviy ko‘chirish siyosati edi (keyingi so‘zlarda deportatsiya, maxsus ko‘chirilganlar iboralari ishlatiladi). Bu ayniqsa, butun bir xalqlarga nisbatan zo‘ravonlik va noqonuniy harakatlarning ko‘rinishi edi. Ushbu xalqlardan biri polyaklardir.

Polyak fuqarolarining surgun qilinishi 1939 yildagi Sovet va Polsha munosabatlarining keskinlashuvi bilan bog‘liqdir, 1939 yil 17 sentabrida Polshaning sharqiy hududlari bo‘lgan Sharqiy Ukraina va sharqiy Belorussiyaga Sovet armiya qo‘shinlari kiritildi. Buning sababi 1939 yil avgust oyida SSSR va Germaniya o‘rtasida imzolangan shartnoma asosida amalga oshirildi, bu kelushivni ikki davlat tashqi ishlar vazirlari “Ribbentrop-Molotov” imzolagan edi [2].

Polsha hukumati polyak armiyasi qo‘mondonligiga sovet harbiy qo‘shinlari tomonidan ularni majburan qurolsizlantirishga urinish holatlari bo‘lmasa, Qizil armiya qo‘shinlariga qarshilik ko‘rsatmaslik to‘g‘risida buyruq berildi. Shuning uchun ham harbiy harakatlar vaqtida ko‘plab polyak qo‘shinlari qarshiliksiz Qizil armiya qo‘shinlariga asir tushdilar. Ma’lumotlarga qaraganda ularning soni taxminan 200-250 ming kishini tashkil qilgan [3]. Keyinchalik ularning bir qismi qo‘yib yuborildi, bir qismi esa harbiy asirlar sifatida lagerlarda saqlandi. Afsuski 1940 yil aprel-iyun oylarida Smolenskning Katini o‘rmonida 15 mingga yaqin polyak harbiylari shaxsan Beriyaning ko‘rsatmasi bilan otib tashlandi [4]. Yuqoridagi «tadbirlar” dan keyin 1940 yil 2 noyabrida NKVDga qarashli lagerlarda 18297 nafar polyak asiri qolgan [5]. SSSR XKS farmoniga muvofiq 1939 yil 1-2 noyabrida bo‘lib olingan hududlar Ukraina va Belorussiya bilan “qayta qo‘shilganligi” e’lon qilindi. Farmonga binoan ikki kun ichida ushbu

hududlarda yashagan barcha aholi, shu jumladan Polshaning boshqa hududlaridan fashistlar zulmidan qochib kelganlar ham “sovet ittifoqi aholisiga” aylandilar [6]. 1940 yildan boshlab esa g‘arbiy Ukraina va g‘arbiy Belorussiya hududlaridagi “Polyak burjua hukumatining tarafdorlari, xayrixoxlari” , “shubhali elementlar” kabi yorliqlar asosida ular o‘z yerlaridan Rossiyaning shimoliy-sharqiy va Qozog‘istonning shimoliy viloyatlariga surgun deportatsiya qilina boshlandilar. Bu kabi tadbirlarni sababini “ishonchsiz” va “sovet hokimiyatining sinfiy dushmanlarini” chegara hududlaridan tozalash deb ko‘rsatildi. Surgun qilinganlar tarkibida nafaqat polyaklar, ular orasida yahudiylar, ukrainlar, belaruslar va bir necha xalq vakillari ham bor edi. Polyak fuqarolarini surgun qilish 1940 yilning 10 apreldan boshlanib toki 1941 yilning sentabrigacha davom etdi[7]. Turli manbalarda surgun qilingan polyak fuqarolari soni turlicha keltiriladi. Polyak tarixchilarining asarlarida 1mln 500 ming dan – 1mln 600 ming atrofida deb keltirilgan bo‘lsa, rus tarixchilarining asarlarida 1173170 kishi yoki 312800 oila deb keltiriladi[8]. 1939-1941 yillar maboynida stalincha totolitar tuzumning siyosati natijasida 1 millondan ortiq polyak fuqarolari eshelonlarga joylashtirilib, o‘zlari yashab turgan uy - joylaridan (g‘arbiy Ukraina va g‘arbiy Belarusiya hududlaridan) ko‘chirilib (massiviy deportatsiya) Rossiyaning sharqiy va Qozog‘istonning shimoliy hududlaridagi NKVDga qarashli maxsus manzillarga joylashtrildi. Yashash tarzining sharoiti yo‘qligi va qattiq sovuqlar natijasida maxsus ko‘chirilganlar orasida talofatlar juda ko‘p edi[9].

Ushbu yerlarda sharoit og‘irlgi va ularni bartaraf qilish qiyinligi sababli, urushdan oldin va urush yillarida 80 mingdan ortiq polyak fuqarolari O‘zbekistonga ko‘chirib (surgun qilidi) keltirildi. 1941 yil 1 oktabrdagi hukumat rahbariyati qaroriga ko‘ra O‘zbekiston hududiga dastlab 100 ming polyak fuqarolarini joylashtirish ko‘zda tutildi[10]. Markazdan maxsus ko‘rsatmani kutmasdan respublikaning barcha viloyatlarida maxsus ko‘chirib keltirilayotgan polyak fuqarolarini kutib olish ishlari boshlab yuborildi. Misol uchun Samarqand viloyati ijroiya qo‘mitasining 1941 yil 3 oktabrdagi 30-raqamli “mutlaqo maxfiy” qarorida, viloyat tumanlarida 25000 “evakuatsiya qilingan polyak fuqarolarini”

joylashtirish haqida qat’iy ko‘rsatma berildi. Tuman rahbarlariga ko‘chirib keltirilayotgan polyak fuqarolarini moddiy va turmush sharoitlarini yaxshilash hamda ish bilan ta’minlash majburiyatlari yuklandi.

1941 yil 8 dekabrda SSSR Davlat Mudofaa qo‘mitasining 35 ming polyak fuqarosini O‘zbekiston hududida joylashtirish va ish bilan ta’minlash to‘g‘risida qarori qabul qilindi [11]. Imkoniyatni hisobga olmasdan ko‘plab polyak fuqarolarini yuborilishi joylarda ularni kutib olib joylashtirish va ish bilan ta’minlash yuzasidan ko‘plab muammolarni keltirib chiqardi. Kelganlarni uy - joy bilan ta’minlash, oziq - ovqat yetkazib berish va ularga meditsina yordami bilan ta’minlash qiyinlashdi, chunki respublikaning viloyatlari va tumanlarida meditsinaning ahvoli juda ayanchli holatda edi. Tajribali meditsina xodimlari yetishmasdi. Ko‘chirib keltirilganlar O‘zbekiston iqlimiga moslashmagan va bu polyak fuqarolari o‘rtasida talofatlar kuchaydi. 1941 yilning oxirida polyak fuqarolarining bir qismi Janubiy Qozog‘iston hududlariga ko‘chirildi [12]. Ayni vaqtda bu sohada Polsha elchixonasi va sobiq ittifoq hududida tashkil etilgan Polsha armiyasi (ayrim tarixiy manbalarda “Anders armiyasi” deb yuritiladi) shtabi tomonidan bir muncha ishlar olib borildi. 1942 yilning boshida Anders armiyasi tarkibiga yozilish uchun kelganlarning hisobiga O‘zbekiston hududiga ko‘chib kelayotgan fuqarolarning soni ko‘paydi. 1942 yilda birgina Buxoro viloyatining o‘zida 12 mingdan ziyod polyak fuqarolari kelib joylashgan, respublika bo‘yicha bu raqam 100 ming kishiga yaqinlashgan[13]. Sobiq ittifoq davriga oid hujjatlarda O‘zbekiston hududiga ko‘chirib kelingan polyak fuqarolariga nisbatan “evokuatsiya qilib kelingan aholi” yoki “polyak qochoqlari” iborlari qo‘llanilgan. Aksincha, ushbu polyak fuqarolari ma’lum bir xavf tug‘ilgan joydan ko‘chirilmagan balki ularga nisbatan siyosiy ayb qo‘yilib, o‘zlari yashab turgan hududlaridan majburan ko‘chirilib, ya’ni deportatsiya qilingan edilar.

Urush yillarining og‘ir damlarini o‘z boshidan kechirayotgan o‘zbek xalqi ushbu maxsus ko‘chirib keltirilgan polyak xalqiga katta yordam berib, ularga o‘z uylaridan joy berib so’nggi nonlarini ham baham ko‘rdilar.

Yuk tashish vagonlarining 20-25 kun yo‘l yurishi ko‘chirib keltirilayotgan polyak fuqarolarining boshiga tushgan kulfatini yanada kuchaytirdi. O‘zbekistonga ko‘chirib keltirish chog‘ida faqat yo‘ldayoq 300 dan ortiq polyak fuqarosi nobud bo‘lgan [14]. 1941 oktabr oyida Rossiyaning Kirov viloyatidan 1700 nafar polyak avval Toshkentga, so‘ngra Samarqandga keltirildi. Bu yerda joylashtirishning imkoni yo‘qligi sababli ular Qorqalpog‘istonga jo‘natilgan. Nukusga bir qancha mashaqqat bilan yetib kelgan polyak fuqarolari Orolbo’yi kolxozlariga joylashtiriladi. Bu yerda ular yana bir mudhish vaziyatga duch keladilar. 1941 yil noyabr oyining oxirida Qo‘ng‘irot shahridagi pristanda (kemalar to‘xtash joyi) 2700 polyak o‘zlarini Qoraqalpog‘istoning boshqa tumanlariga olib ketadigan teploxodlarning kelishini kutib, ochiq havoda sovuqdan saqlanish maqsadida Rossiyadan keltirib qo‘yilgan pristandagi 133 kub.m. yog‘ochni o‘tin qilib yoqib, isinishga majbur bo‘ldilar bu esa mahalliy hokimyatning juda katta noroziligiga sabab bo‘ldi [15]. Ko‘chirib keltirilgan polyak fuqarolarini temir yo‘l vokzallari va shahar avtobus bekatlaridan tuman markazlari va kolxozlarga tashishda ham katta qiyinchiliklarga duch kelindi. Markazdan yuborilgan ko‘rsatmada ko‘chirib keltirilgan polyak fuqarolari asosan kolxoz va sovxozlarga joylashtirilishi ko‘zga tutilgandi. Bu qarorlarda respublika Ichki Ishlar Xalq Komissariyati (NKVD),viloyat va tuman militsiya boshqarmalarga o‘z hududlaridagi polyak fuqarolari hisobga olish va hisobga olingan polyak fuqarolarini kolxoz va sovxozlarga teng taqsimlash hamda ularni ish va turar joylar bilan ta’minlashni amalga oshirish va ularni nazorat qilish vazifalari yuklatildi [16]. 1942-1945 yillar ma’lumotiga ko‘ra Namangan va Xorazm viloyatlarining 7 tumanida, Qashqadaryoning - 9, Andijoning – 10, Buxoro va Farg‘onaning – 11, Toshkentning – 13, Samarqadning - 20 tumanida yashaganlar [17]. Birinchidan ikkinchi jahon urushi davrida, urush borayotgan hududning Yevropa qismi ozod qilingan sari ko‘chirib kelingan fuqarolarning vatanlariga qaytishi munosabati bilan shaharlarda polyak fuqarolarining soni ko‘paya bordi. Ma’lumotlarga ko‘ra 1945 yil oxiriga kelib Andijon viloyatidagi 2800 kishidan 1600 nafari, Buxoro vilotidagi 5431 kishidan 3415 nafari, Namangan vilotidagi 1922 kishidan 1264

nafari, Samarqand viloyatidagi 12945 kishidan 6000 nafari, Toshkentdagi 5510 kishidan 3035 nafari, Qashqadaryo vilotidagi 799 kishidan 110 nafari, Farg‘ona viloyatidagi 5379 kishidan 3759 nafari shaharlarda yashashgan. 1944-1945 yilarda O‘zbekiston hududi bo‘yicha polyak fuqarolaridan 21592 kishi shaharlarda yashagan[18]. Ikkinchidan, tezda Polshaning ozod etilishi, polyak fuqarolarining vatanlariga jo‘natish imkoniyatiga ega bo‘lgan markaz tomon intila boshladilar.

Uchinchidan, shaharga kelib ishga joylashish polyak fuqarolarining faqat moddiy ahvolini birmuncha yaxshilanishiga olib kelmasdan, balki ularni polyak diasporosi ichida Polsha xalqi va madaniyatiga daxildor ekanligini xis qilishiga ham imkon tug‘dirardi. Bu esa ular uchun ma’lum ma’noda ma’naviy ozuqa ham edi.

Polyak fuqarolarining kattagina qismini 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil etgan. 1942 yil Anders armiyasi Eronga chiqib ketish arafasida G‘uzor tumandagi polyak aholisining, harbiylardan tashqari 38,8 %ni bolalar va o‘smirlar tashkil qilgan[19].

Manbalarga ko‘ra O‘zbekistonning 7 viloyatida 16 yoshgacha bo‘lgan polyak bolalarining soni 5389 ta bo‘lganligi ko‘rsatiladi. Shundan kelib chiqib, Andijon viloyatida – 431 ta, Buxoro viloyatidan – 1063 ta, Namangan viloyatida – 417 ta, Samarqand viloyatida – 1985 ta, Toshkentda – 826 ta, Qashqadaryo viloyatida – 190 ta, Farg‘ona viloyatida – 477 ta bola bo‘lgan [20]. O‘zbekiston hududidan polyak fuqarolari tashkiliy ravishda vatanlariga jo‘natish 1946 yil aprel oyidan boshlandi. Birinchi bo‘lib bolalar uylaridagi polyak bolalari o‘z yurtlariga qaytdilar. 1946 yil 1 may kuni Toshkentdan maxsus yumshoq o‘rindiqli vagonlari bo‘lgan birinchi eshelon bilan Andijon, Namangan, Qo‘qon bolalar uylari tarbiyalanuvchilari (280 bola) va xizmatchilar (27 kishi) jo‘nab ketdilar.

1946 yil 9 may kuni Toshkentdan Buxoro, Samarqand, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlaridagi 11 ta bolalar uyi tarbiyalanuvchilari (667 bola) xizmatchi va ularning oila a’zolari (332 kishi) ikkinchi eshelon bilan jo‘nab ketdi. [21] 1946 yil iyun oyida yurtmizdagi polyak fuqarolarini o‘z yurtlariga qaytarilishi tugatildi (27159 kishi) [22]. Minglab mahalliy vakillari tomonidan ko‘chirib

keltirilgan polyak fuqarolariga boshpana berilishi, o‘zi kichikroq xonaga ko‘chib o‘tib, kattaroq va issiqrog‘ini ularga bo‘shatib berishi tasodifiy bo‘lmasdan, balki ommaviy tus olganligining o‘ziyoq xalqimizning polyak fuqarolariga bo‘lgan munosabati samimiy bo‘lganligini ko‘rsatadi. Vatanlariga qaytishdan oldin polyak fuqarolari yashagan joylarida xayrlashuv kechalari o‘tkazdilar. Jo‘nab ketayotgan polyaklar o‘zbek xalqiga o‘zlarining samimiy minnatdorchiliklarini izhor etdilar.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, XX asrning 30-40-yillarida aholining 60 dan ko‘proq milliy guruhlariga ana shunday repressiya choralari ko‘rilgan bo‘lsa, ularning 15 tasi to‘la-to‘kis deportatsiya qilingan edi. O‘sha yillarda hammasi bo‘lib 3,5 million kishi deportatsiya qilindi. Ular orasida polyaklar ham bor edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Wielhorski W.Los Polakow w niewoli soieekiej(1939-1956)Londyn 1956
2. Katinskaya drama. M. 1991. S.34
3. Jurnal “Novaya i noveyshaya istoriya”№2.1993.S.60.
4. Polyan Pavel. Ne svoiy vole . Istoriya i geografiya prinudetilnix migratsiy v SSSR. M. 2001. S.90-91
5. Deportacje i przemieszczenia ludnosci polskiej w glqb ZSRR 1939-1945/ Warszawa.1989.S24;Wlelhorski W. Loc Polakow...S.12-17
6. Jurnal “Novaya i noveyshaya istoriya”№2.1993.S.67
7. Dokumenti i materiali … T. VII.1973.S.264
8. Zaron P .Ludnosc Polska w Zwiqzku Radzieckim...S 185
9. O‘zbekiston MDA.F.314.R.1.YJ.122,V52
10. O‘zbekiston Prezidenti devoni arxivi. F .74,R.18,YJ.272,V.138
11. AAN.ZPP.Sugn.1731.K.36; Sugn.36.K.2
12. Bugaj T.Dzieci polskie w ZSRR i ich repatriacja 1939-1952, Jelenia. Gora.1982.S.14
13. Alimova.D.A.,Golavanova.A.A.Uzbekistan v 1917-1990 godi: protivoborstva idey i ideologiy.- Toshkent,2002 .S.59
14. Jurnal “Novaya i noveyshaya istoriya”№2.1993.S.63.

15. W.Los Polakow w niewoli soieekiej(1939-1956)Londyn 1956
16. Katinskaya drama. M. 1991. S.34.
17. Jurnal “Novaya i noveyshaya istoriya”№2.1993.S.60.
18. 6 Jurnal “Novaya i noveyshaya istoriya”№2.1993.S.65.
19. 7 Polyan Pavel. Ne svoiy vole ... Istoriya i geografiya prinudetilnix migratsiy v SSSR. M. 2001. S.90-91.
20. 8 Deportacje i przemieszczenia ludnosci polskiej w glqb ZSRR 1939-1945/ Warszawa.1989.S24;Wlelhorski W. Loc Polakow...S.12-17.
21. 9 Parasadanova V.A. Deportatsiya naselini iz Zapadnoy Ukraini i Zapadnoy Belorussii v 1939-1941 gg// “Novaya i novishaya istoriya” .№2.1989.S 36-41.
22. 10 Jurnal “Novaya i noveyshaya istoriya”№2.1993.S.67.
23. 11 Dokumenti i materiali … T. VII.1973.S.264
24. 12 Zaron P .Ludnosc Polska w Zwiqzku Radzieckim...S 185
25. 13 Zaron P .Ludnosc Polska w Zwiqzku Radzieckim...S 185
26. 14 Zaron P .Ludnosc Polska w Zwiqzku Radzieckim...S 170
27. 15 O‘zbekiston MDA.F.314.R.1.YJ.122,V52
28. 16 O‘zbekiston Prezidenti devoni arxivi. F .74,R.18,YJ.272,V.138
29. 17 O‘zbekiston MDA.F.837.R.31.YJ.12,V88-89
30. 18 AAN.ZPP.Sugn.1731.K.36; Sugn.36.K.2
31. 19 Bugaj T.Dzieci polskie w ZSRR i ich repatriacja 1939-1952, Jelenia. Gora.1982.S.14.
32. 20. AAN.ZPP.Sugn.158.K.41; Sugn.33.K.78; Sugn.1831.K.120; Sugn.36.K.2-3;
33. 21. O‘zbekiston MDA.F94,R.5,YJ.4820,V.10.)
34. 22. O‘zbekiston DA.F837,R.31,YJ.12,V.28.

QATAG‘ON SIYOSATI VA UNING FOJIAVIY OQIBATLARI: ARXIV HUJJATLARI, YANGI MANBALAR VA XOLIS TARIXIY TADQIQOTLAR

Sobir Sidikov
b.f.n.professor
FarDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

Anatatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 20–50-yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan sovet qatag‘on siyosatining mohiyati va fojiaviy oqibatlari tahlil qilinadi. Arxiv hujjatlari, tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida 1937–1938-yillardagi ommaviy repressiyalar, milliy ziyolilar va turli ijtimoiy qatlamlarning ta’qib qilinishi yoritilgan. Shuningdek, qatag‘on qurbonlarini reabilitatsiya qilish, tarixiy xotirani tiklash hamda mavzuni xolis va ilmiy asosda o‘rganish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: qatag‘on siyosati, siyosiy repressiya, Katta terror, arxiv hujjatlari, milliy ziyolilar, reabilitatsiya, tarixiy xotira.

Аннотация: В статье анализируются сущность и трагические последствия советской репрессивной политики в Узбекистане в 1920–1950-е годы. На основе архивных документов, исторических источников и современных исследований рассматриваются массовые репрессии 1937–1938 годов, преследование национальной интеллигенции и других социальных групп. Особое внимание уделяется реабилитации жертв репрессий, восстановлению исторической памяти и объективному изучению данной темы.

Ключевые слова: репрессивная политика, политические репрессии, Большой террор, архивные документы, национальная интеллигенция, реабилитация, историческая память.

Ключевые слова: репрессивная политика, политические репрессии, советский тоталитаризм, Большой террор, НКВД, архивные документы,

национальная интеллигенция, джадиды, жертвы репрессий, реабилитация, историческая память.

Abstract: This article analyzes the nature and tragic consequences of Soviet repressive policy in Uzbekistan during the 1920s–1950s. Based on archival documents, historical sources, and contemporary research, it examines the mass repressions of 1937–1938 and the persecution of the national intelligentsia and other social groups. Particular attention is paid to the rehabilitation of victims, restoration of historical memory, and the objective study of political repression.

Keywords: repressive policy, political repression, Great Terror, archival documents, national intelligentsia, rehabilitation, historical memory.

XX asr O‘zbekiston tarixining eng murakkab va fojiali sahifalaridan biri sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qatag‘on siyosati bilan bog‘liqdir. Mazkur siyosat natijasida davlat va jamoat arboblari, milliy ziyolilar, olimlar, yozuvchi va shoirlar, din vakillari, harbiylar, dehqonlar hamda oddiy fuqarolar turli shakllarda ta’qib qilindi, qamoqqa olindi, surgun qilindi yoki qatl etildi. Qatag‘on siyosati jamiyatning deyarli barcha sohalarini qamrab olib, nafaqat alohida shaxslar, balki butun oilalar va ijtimoiy guruhlar taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu sababli bu jarayonni o‘rganish tarixiy va ma’naviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Sovet qatag‘on siyosati 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarning boshlarida yanada kuchaydi. Bu davrda siyosiy muxolifatni bostirish, milliy ziyolilar faoliyatini cheklash, majburiy kollektivlashtirish va “quloqlashtirish” kabi jarayonlar keng miqyosda amalga oshirildi. Kollektivlashtirish natijasida ko‘plab dehqon xo‘jaliklari tugatilib, mol-mulk musodara qilindi, ayrim oilalar esa boshqa hududlarga majburan ko‘chirildi. Arxiv hujjatlari ushbu siyosat O‘zbekiston hududida ham keng amalga oshirilganini ko‘rsatadi [1].

Qatag‘on siyosatining eng dahshatli bosqichi 1937–1938-yillarga to‘g‘ri keladi. “Katta terror” davrida O‘zbekiston SSR hududida minglab insonlar “xalq

dushmani”, “aksilinqilobchi”, “millatchi” va “josus” kabi ayblovlar bilan hibsga olindi. Ko‘plab ishlar suddan tashqari organlar, xususan, “uchlik”lar tomonidan ko‘rib chiqildi. Bunday sharoitda ayblanuvchilarning o‘zini himoya qilish imkoniyatlari nihoyatda cheklangan bo‘lib, tergov jarayonida bosim va majburlash usullaridan ham foydalanilgan.

Tarixiy manbalarda 1937–1939-yillarda O‘zbekistonda 41 mingdan ortiq kishi hibsga olingani va 6 920 nafari qatl etilgani qayd etiladi [2]. Biroq bu raqamlar qatag‘on qurbonlarining umumiy sonini anglatmaydi. Siyosiy repressiyalar 1937–1938-yillar bilan chegaralanmagan bo‘lib, undan oldin va keyingi davrlarda ham turli shakllarda davom etgan. 1953-yildan keyin ham “sovetlarga qarshi tashviqot” kabi ayblovlar bilan ayrim shaxslarning ta’qib qilingani ma’lum [3].

Qatag‘on siyosatining eng katta zarbalaridan biri milliy ziyolilar qatlamiga berildi. XX asr boshlarida milliy uyg‘onish, ma’rifat va zamonaviy ta’lim g‘oyalarini ilgari surgan jadidlar ham sovet siyosiy tizimi tomonidan ta’qib qilindi. Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir va boshqa ko‘plab ijodkor, olim va jamoat arboblari turli siyosiy ayblovlar bilan qatag‘on qilindi. Ularning ayrimlari qatl etildi, boshqalari qamoq yoki surgunlarga yuborildi. Bu jarayon O‘zbekistonning ilmiy, madaniy va ma’naviy rivojiga katta zarar yetkazdi [4].

Qatag‘on faqat mashhur shaxslar bilan cheklanmagan. Oddiy dehqonlar, ishchilar, hunarmandlar, din vakillari va davlat xizmatchilari ham turli ta’qiblarga uchragan. “Quloq” sifatida belgilangan dehqonlarning mol-mulki musodara qilinib, oilalari majburan ko‘chirilgan. “Xalq dushmani” deb e’lon qilingan shaxslarning oila a’zolari ham davlat nazoratiga tushgan. Natijada jamiyatda qo‘rquv va ishonchsizlik muhiti shakllanib, insonlarning o‘z fikrini erkin ifodalash imkoniyati cheklangan.

Qatag‘on tarixini xolis o‘rganishda arxiv hujjatlari muhim ahamiyatga ega. Bugungi tadqiqotchilar davlat va partiya organlari qarorlari, NKVD materiallari, tergov bayonnomalari, hibsga olish orderlari, sud va suddan tashqari organlar

qarorlari, surgun hujjatlari hamda reabilitatsiya materiallaridan foydalanmoqda [5]. Biroq qatag‘on davrida tuzilgan hujjatlarni tanqidiy tahlil qilish zarur. Masalan, tergov bayonnomasidagi “aybini tan oldi” degan ma’lumot shaxsning haqiqatda jinoyat sodir etganini anglatmasligi mumkin. Shu sababli tergov hujjatlari boshqa arxiv materiallari va keyingi reabilitatsiya hujjatlari bilan qiyosiy o‘rganilishi lozim [6].

Mustaqillikdan keyingi davrda qatag‘on qurbonlari xotirasini tiklash va ularning nomlarini abadiylashtirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Qatag‘on qurbonlarining hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan kitoblar, hujjatlar to‘plamlari va ilmiy tadqiqotlar nashr qilindi. Shaxsiy hujjatlarning ilmiy muomalaga kiritilishi esa tarixni umumiy statistik raqamlardan inson taqdirlari darajasida o‘rganish imkonini berdi [7].

Qatag‘on qurbonlari soni masalasida ham manbaviy aniqlik va xolislik muhimdir. Rasmiy ma’lumotlarda 1937–1953-yillar davomida O‘zbekistonda 100 mingdan ortiq kishi siyosiy qatag‘on qilingani va ularning 13 ming nafari otib tashlangani qayd etilgan [8]. Shu bilan birga, ayrim manbalarda faqat muayyan davrga oid statistik ma’lumotlar keltiriladi. Shuning uchun raqamlarni taqqoslashda ularning qaysi davr, hudud va jazo turini qamrab olganiga e’tibor berish zarur.

Qatag‘on qurbonlarini oqlash jarayoni tarixiy haqiqatni tiklashning muhim qismidir. Mustaqillikdan keyingi davrda qatag‘on qurbonlarini aniqlash va reabilitatsiya qilishga yangicha yondashuv shakllandi. So‘nggi yillarda siyosiy qatag‘on qurbonlarini oqlash va ularning nomlarini tiklash bo‘yicha ishlar yanada faollashdi. Bu jarayon huquqiy adolatni ta’minlash bilan birga, tarixiy xotirani tiklashga ham xizmat qilmoqda [9].

Bugungi kunda qatag‘on tarixini o‘rganishda shaxsiy arxivlar, oilaviy hujjatlar, xatlar, xotiralar, fotosuratlar va og‘zaki tarix materiallaridan ham foydalanilmoqda. Bunday manbalar rasmiy hujjatlarda aks etmagan insoniy kechinmalar va oilaviy fojialarni aniqlash imkonini beradi. Turli manbalarni o‘zaro qiyoslash esa tarixiy voqealarga xolis baho berishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, sovet qatag‘on siyosati O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan murakkab va fojiali hodisadir. Uning oqibatida minglab insonlar hayotidan ayrildi, oilalar parokanda bo‘ldi, milliy ziyolilarning katta qismi yo‘q qilindi, ilm-fan va madaniyat rivojiga jiddiy zarar yetkazildi. Qatag‘on tarixini to‘liq tiklash uchun arxiv hujjatlari, tergov va sud materiallari, shaxsiy xotiralar hamda zamonaviy tadqiqotlarni o‘zaro qiyoslash zarur. Tarixiy haqiqatni xolis o‘rganish va qatag‘on qurbonlari xotirasini asrash nafaqat o‘tmishni anglash, balki kelajak avlodga inson huquqlari, adolat va qonun ustuvorligining ahamiyatini yetkazish uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Choriev Sh. *Archive Documents as a Source for the History of Repressive Policy of the Soviet Authorities*. American Journal of Social Sciences and Humanity Research. 2024. Vol. 4. Issue 2. B. 37–43.

[2] Edgar A. *Tribal Nation: The Making of Soviet Turkmenistan*. Princeton University Press, 2004.

[3] Xomidov D.I. Sovet davlatining 1953–1991-yillardagi qatag‘on siyosati: O‘zbekiston misolida. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. 2026.

[4] *History of Civilizations of Central Asia. Vol. 6: Towards the Contemporary Period*. UNESCO Publishing, 2005.

[5] Shamsutdinov R. *Qatag‘on qurbonlari. 1937-yil 10-avgust – 5-noyabr*. Toshkent: Sharq, 2007.

[6] *Repressiya. 1937–1938 gg.: Dokumenty i materialy*. Toshkent: Sharq, 2005.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi siyosiy qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va ularning merosini o‘rganish bilan bog‘liq hujjatlar va materiallar.

[8] O‘zbekistonda siyosiy qatag‘on qurbonlari to‘g‘risidagi rasmiy statistik ma’lumotlar.

[9] O‘zbekiston Respublikasida siyosiy qatag‘on qurbonlarini oqlash, ularning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda xotirasini abadiylashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar.

Туроббек... Зомин шерюраги-истиқлол курашчиси

Б.С.Эргашева-
ЖДПУ тузилмасидаги
Қатағон қурбонлари хотираси
музейи директори

Аннотация: Мақола Жиззах вилояти Зомин туманида туғилган миллий истиқлол фидоийси Туроббек Тўрабековнинг ҳаёт йўли ва аччиқ қисмати ҳақида.

Калит сўзлар: Туроббек, Аччи қишлоғи, “босмачи”, Эшонжон ҳазрат, қўрбоши.

Аннотация: Статья о жизненном пути и тяжелой судьбе национального борца за независимость Туроббека Турабекова, родившегося в Зоминском районе Джизакской области.

Ключевые слова: Туроббек, деревня Аччи, «босмачи», Эшонджон хазрат, кўрбаши.

Abstract: The article is about the life and tragic fate of Turobbek To‘rabekov, a national independence fighter born in Zomin district of Jizzakh region.

Keywords: Turobbek, Achchi village, “bosmachy”, Eshonjon hazrat, qo‘rboshi.

Туроббек Тўрабеков 1898 йилда Самарқанд вилояти Жиззах уезди Зомин волости Аччи қишлоғи Култепа маҳалласида ўзига тўқ деҳқон оиласида туғилган, миллати ўзбек. Қишлоқ аҳлининг анъанасини давом эттирган Туроббек аввал эски мактабда, сўнгра Зомин волостидаги 5 йиллик

рус – тузем мактабида таълим олган. 1917 йил февралгача Зомин приставига тилмоч бўлиб ишлаган.

2009 йил ёзида маҳалладоши, кекса ўқитувчи Шамсиддин домла Тоштемиров (марҳум) хотирлашича:-Туроббек ёзги таътилда қишлоғига келганда, 1916 йилда Жиззах қўзғолонида иштирок этган қишлоқларни, шу жумладан, Аччи қишлоғини ҳам вайрон қилиш учун келаётган жазо отрядини, бунга қарши чора тополмаётган қишлоқ оқсоқолларига жўяли маслаҳатлар бериб, рус тилини билганлиги учун рус зобитига қандай сўзлар ёқишини билиб, таржимон сифатида намозхон қарияларни “фикру зикри Аллоҳни, Оқ подшо Николай II ҳазратларини олқишламоқда ва шу билан бирга Сиз жаноб отряд командирининг ҳаққига дуо қилишмоқда,” – деб тушунтира олган. Бир ўспирин боланинг рус тилида сўзлаши, вазиятни тўғри баҳолаши, ҳатто душман кўнглига йўл топа олганлиги учун Аччи қишлоғи қонли жазодан қутулиб қолган.

Туроббек Тўрабеков 1921 йил октябрдан Самарқанд Фавқулодда комиссиясига ишга олинган. Шундан сўнг Жиззах ВЧК раҳбарлигига тайинланган. 1922 йил баҳорида Самарқанддан Фарғонага кетаётган турк офицери Савурбей афанди Муҳиддин Хўжаевнинг уйида бир кеча меҳмон бўлади. Шу муносабат билан бўлган йиғинда Савурбей советларнинг қизил мустамлакачилик сиёсати ва Туркистонда “босмачиликка қарши кураш” баҳонасида амалга ошираётган қонли хунрезликлари ҳақида сўзлаб беради. Улар “босмачи” деб аслида миллат ва дин учун Туркистон озодлиги йўлида қизил босқинчиларга қарши чиққан ҳар қандай инсонни йўқ қилаётганини айтади. Ўрта Осиёдаги Бирлашган давлат сиёсий бошқармасининг 1932 йил 14 октябрдаги махсус йиғилиш қарорига кўра, Туроббек Тўрабеков бошчилигидаги 30 кишига Ўзбекистон ССР ЖКнинг (эски таҳрирдаги) 58-моддаси билан айбдор деб топилиб, ўлим жазосига ҳукм ўқилган.

Ўрта Осиёдаги Бирлашган давлат сиёсий бошқармасининг махсус йиғилиш қарорига кўра, Туроббек ва бошқалар 1919 - 1920 йилларда Жиззах шаҳрида “Миллий иттиҳод” аксилинқилобий ташкилот аъзолари бўлиб,

қуролли тўда тузиб, совет ҳудудида қуролли қўзғолон ёки аксилинқилобий мақсадларда ҳаракатларни амалга оширганликда айбланган.

Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори Б. Ирзаев аниқлаган маълумотларга кўра, Туроббек рус–тузем мактабини тугатгандан сўнг, Зомин приставига таржимон сифатида ишга олинади. Россиядаги қонли 1917 йилдаги давлат тўнтаришидан кейин 1919 йилгача Жиззах уездига қарашли Қоратош волость ижроқўми раиси лавозимида ишлайди. 1919 йилдан Жиззах уезд–шаҳар ижроқўмига сайланади. Орадан 4 ой вақт ўтгач, 1919 йил апрель ойидан Жиззах уезд–шаҳар милициясининг биринчи милиция бошлиғи этиб тайинланган. 1921 йил октябрь ойидан Самарқанд ВЧК (Всероссийский черезвучайная комиссия) сига ишга олинган. Орадан бир–икки ой ўтар ўтмас (1922 йил) Жиззах ВЧКси раҳбари этиб тайинланган. 1922 йил май ойида совет ҳукуматининг тили бошқа иши бошқа сиёсатидан норози бўлган Туроббек Тўрабеков Жиззах угормилицияси бошлиғи бўлган Маъмур Йўлдошев, Жиззах волость ижроқўми раиси бўлган Абдукарим Жонсўфиевлар билан биргаликда – жами 10 нафар йигит истиқлол курашчилари сафига ўтиб кетади. Улар Сангзорда Самарқандлик Очилбек билан учрашди. Бу пайтда Зарафшон водийсида Очилбек, Ҳамроқулбек, Матчо беклари ҳамда Ўра тепада Холбўтабеклар қизил аскарларга қарши жанг олиб борар эди. Уларга Анвар пошшонинг йигитларидан Юсуф Зиёбей, Заки Валидий Тўғонлар беш олти нафар татар ҳарбийлари маслаҳатчи эдилар. Бироқ, истиқлолчилар қизил аскарлар билан жангларда муттасил катта қурбонлар бера бошлади. Истиқлол курашининг айрим етакчилари шўролар билан келишиб кафолат хатлари ола бошлайди. Туроббекнинг юборган хатини Холбўтабек ҳам инкор этади. Шундай бир оғир шароитда йигитлар Афғонистонга чекинишга қарор қиладилар. Шу вақтда Тошкентдан Эшонжон ҳазрат “Миллий иттиҳод” ташкилоти номидан Туроббекка хат йўллаб, муфти Садриддинхонни Афғонистонга безарар етказиш вазифасини топширади. Муфти Садриддинхон шогирди таниқли олим Фотиҳ Каримийнинг укаси Ориф Каримий билан келиб қўшилади. Садриддинхон

Афғонистон орқали Ҳиндистонга ўтиб, у ердаги мадрасаларга бориб жойлашишини айтади. Улар муфти Садриддинхон, Сомеъ пошшо, Абдукарим Жонсўфиевлар жами 150 киши Қоратегингача пиёда бориб, ундан Кўлоб томонга йўл оладилар. Туроббек Тўрабеков Кўлоб йўлида уч тўрт кун қолиб, ортидан келаётган акалари ва дўсти Маъмур Йўлдошевларни жами 12 кишини кутиб олди. Улар бир ой деганда Рустак, Хонобод орқали Афғонистонга кириб борадилар. Сомеъ пошшо Афғонистондаги Туркия консуллиги орқали бир миқдор пул олиб ҳамманинг безиён Эронга ўтишига эришади. Туроббек Машҳадга бориб, 1927 йилгача турли ишлар билан машғул бўлди. Муфти Садриддинхоннинг олдига тез тез бориб, унинг аҳволидан хабар олиб туради. Акаси Ҳазратқул Сарахсда Абдулла Сориев деган кишининг хизматига кириб ошпазлик қилади. Туроббек Тўрабеков ватандошлар билан алоқани тиклаш учун шаҳарда этикдўзлик, саҳрода туркман туякашларига ёзарлик (мирзалик) қилади. Хатто, муфти Садриддинхоннинг сўрови билан 1927 йил март ойида махфий тарзда Ватанга қайтиб, бир муддат яшагач яна Эронга боради. Туроббек ўзининг Туркистонда кўрган кечирганларини Заки Валидий Тўғон ҳамда Мустафо Чўқайларга юборади. Унинг ахбороти “Янги Туркистон” газетасининг 1927 йил 5-6 сонида мақола сифатида чоп этилади ва унда советларнинг барча кирдикорлари фош этилган эди. Берлиндан Истамбулга келган Аҳмад Закий Валидий Туроббекка бир неча бор хат йўллаб, Европага бориб Мустафо Чўқай билан Туркистон истиқлоли масаласини Миллатлар лигасига олиб чиқишда ёрдам беришини сўрайди. Бироқ шу кунларда қишлоқдоши мулла Абдураҳмон шайтон Бойқўзиевнинг ёлғон билан тўла хати Туроббек Тўрабековга етиб боради. Унда қизил аскарлар томонидан қанча болалар ва аёл-қизлар қамоққа олингани, агар қишлоққа қайтмаса ҳаммасини қатл этишлари битилган эди. Туроббек дўстлари билан розилашиб, ўзининг Ватанга қайтишини маълум қилади. Дўстларининг: “балки бу ҳийладир” дейишига қарамай, душманнинг нақадар разил ва ваҳшийлигини билгани учун фикридан қайтмайди. Жигарлари Усмонбек, Ҳазратқуллар эса укаси

Туроббекга эргашадилар. 1928 йил августда Туроббек акалари Усмонбек, Ҳазратқуллар билан СССРга қайтиб келади. Маълум бўладики, хат ёлғон ва фақат Туроббекга қидирув белгиланган экан. Усмонбек, Ҳазратқул Тўрабековлар тўғри қишлоққа келиб деҳқончилик билан кун кечира бошлайди. Туроббек бир муддат қишлоқдошлари уста Мансур, Жониқул Шукуров, Ғаллаоролнинг Оқмулла қишлоғида дўсти Мусабек Бекматовларнинг уйларида яшириниб яшайди. Бу вақтда Равотлик дўсти Тошбекбойдан 400 сўм пул олиб, Самарқандга дўсти Муродхон Аълохўжаев, Тошкентга Орифжон Олимжонов, Мирзачўлга Абдусаттор Шукуровларнинг уйига бориб маслаҳатлашади. Мулла Абдураҳмон Бойқўзиевга ҳамон ишониб аёли, синглиси, акасига ёзган хайрлашув хатларини топширади. У бўлса Туроббекнинг омонатини ҳам ҳар бир қадами ҳақидаги хабарларни тинмай тегишли идорага етказиб турган эди:

“Мунглиғ аёлим Бибизилол ва синглим Норгулойларга!

Дунёда энг вафолиғ кўрсатган аёллар бўлса, улар Сизлардирсиз. Бизлар учун кўп жафолар кўрдингиз, вафолар қилдингиз. Жаноби Ҳақ Сизлардан икки дунёда рози бўлсин. Мен Сизлардан розиман. Жавҳарой ва Аноройларга меҳрибон бўларсизлар, тарбия қиларсизлар. Хоҳлаган вафолик қилганларнинг ўғиллари билан белгилаб қўярсизлар. Ҳа, ҳаммаларингизга жуда бахт ва саодатлик кунлар насиб қилсин. ИншааАллоҳ, бу кун бўлмаса тонгла бир биримизни кўрармиз. Асло хафа бўлмайсизлар. Ҳамиша дуоларингиздан умидворман. Мен Сиз ожизларни қутқазмоқ учун ўлим тарафига ўйнаб бораман. Ёш кетти демайсизлар. Мен бу ўлимни ўзим учун бахт биламан. Чунки, мардлик билан тўғри йўлға жон бераман! Жавҳарой ва Аноройларни юзларидан ўпарсиз. Ҳаммаларингизни Худога топширдим. Бийтемир отамизга ва Тавбойға бошқа ҳамма сўроғонларға абадий салом. Рози бўлсунлар. Кулиб туриб сизлара эгилиб салом қолдирган Туроббек Тўрабекуф”. Алвидо / имзо

Васиятнома

Дунёда ягона жонкуярим Ҳазратқули Тўрабек ўғлига

Душманлар сеҳр ва жоду билан кўп оёғимни боғладилар. Мен адолат торозусиға ёш гўдак бегуноҳларнинг бошлари билан ўз бошимни тортдим. У ёш гўдакларнинг бошлари оғир келди. Унинг учун инсоният виждоним мазкурлар учун жонимни қурбон қилишга амр ва фармойиш этди. Шу сабабли ҳақ ва адолат қонуниға итоат қилдим. Буюк шавқ ва ҳаваслар билан умид боғладиғим Ватан муқаддасни тарк охиратга сафар қилишга қарор бердим. Бўйнимга юкланган вазифани тўғрилик билан адо қилдим ҳамда мардлик билан жон бераман. Менинг маслакдошларим ташаббусотсиз деб айб қилмасунлар мен муқаддас ғоя йўлинда жон бердим. Мендан кейинги авлодлар менинг жасадимни босиб ўтсинлар, яъни дунёда ҳар бир нарсадан ортиқ суйган Ватаним ва миллатимнинг истиқлолит учун жон берсунлар. Сизга ва ўртоқларимга абадий салом. Мард ва жасур кишига ярашкан қаҳрамонлик билан курашиб ғолиб келмай ёхуд қўлимдан ҳар бир нарсам кетди ёлғуз номусим қолди деб шонли ва шарафли тариха ниҳоят беринг, йигитнинг вазифасидур. Мен мағлуб бўлсамда номусим қолди. Яшасун келажакдаги Туркистон истиқлоли! Ёш гўдакларни Сизга топшурдим, тарбия қиларсиз. Мендан рози бўлинг. Асло хафа бўлмайсиз. Руҳимни шод қилинг. Алвидо.

Укангиз Туроб Тўрабек ўғли.”

Туроббек учун тушуниксиз кунлар узоқ давом этмади. 1929 йилнинг кузида Мунаввар қори Абдурашидхонов ва унинг “Миллий иттиҳод” ташкилотига қарши очилган сохта жиноий иш доирасида 30 дан ортиқ Жиззахлик зиёлилар қамоққа олинди. Улар йиллаб турманинг қоронғу, заҳ хоналарида мислсиз қийноқларга солинди. “Жиноят ишини” эса ўзлари қандай исташса шундай қилиб битиб ташлашди.

1932 йил 14 октябрь куни ОГПУ Ўрта Осиё бўлими томонидан жами 30 киши Туроббек Тўрабеков билан бирга акалари Усмонбек, Ҳазратқуллар, Муроджон Файзуллин, Муҳиддин Хўжаев, Муродхон Аллохўжаев, Исҳоқ Холмуҳаммедов, Тошбек Дўстбековлар отувга, қолганлари ўн йиллик концлагерларга ноҳақ ҳукм қилинди. Ҳатто ёвузлар билан ҳамкорлик қилган Абдураҳмон Бойқўзиев ҳам эрта бир куни сотиб қўймасин деб отиб ташланди.

Ватан озодлиги йўлида қўлига қурол тутиб, қизил аскарлар билан мардонавор жанг олиб борган Туроббек ва оғалари Усмонбек, Ҳазратқул Тўрабековлар ва дўстлари 2022 йил 19 декабрь куни Ўзбекистон Республикаси Олий суди томонидан оқланди.

Жиззах вилоят архивидаги 1922 йил архив маълумотлари тўплами, фонд № 237, рўйхат № 1, иш № 20, 33-варақда Самарқанд вилоят-шаҳар ЧК раиси Сергеев имзоси билан Жиззах уезд–шаҳар инқилобий қўмитасига йўлланган 227-сонли хизмат телеграммасида сиёсий бюро бошлиғи Тўрабеков уч кун муддат ичида янги иш жойига етиб бормаса, қаттиқ жавобгарликга тортилиши ёзилган.

Бу телеграмманинг ёзилишига сабаб, Самарқанд вилоят – шаҳар комитети ижроия бюроси мажлисининг қароридир. Қарорда бошқалар қатори Т.Тўрабеков ҳам Жиззахдан Ўратепага сиёсий бюро бошлиғи вазифасига ўтказилсин, дейилган.

Ушбу ҳужжатнинг чап томонида пастдан юқори томонга қиялатиб, сиёҳли ручкада “Тўрабековни босмачилар босиб олиб кетганлиги обкомга хабар қилинсин. 11.06.” – деб сана ва уни ёзган кишининг имзоси қўйилган. Демак, Туроббек Тўрабековни Жиззахда масъул лавозимларда ишлаб юрганда босмачилар (истиқлолчилар) мажбуран олиб кетган. Бу жавоб ўзларининг иш усулларини оқлаш, босмачи (истиқлолчи) ларни қоралаш учун, халққа ёмон отлиғ қилиш учун бир восита эди. Туроббек эса ўз ихтиёри билан бир неча йиллардан буён ўйлаб юрган режасини амалга ошириб, истиқлол курашчисига, юрт фидоийсига айланди.

Ўша даврда бутун Туркистон Россия мустамлакаси, амалдорлар асосан, ҳарбийлардан эди. Туркистон бозорлари Россия моллари билан тўлган, ҳунармандлар касодга учраган, халқнинг асосий қисми ночорликда яшар, солиқлар борган сари ошиб борарди.

Туроббек ҳам Самарқанд вилоят Жиззах уездидаги “Миллий иттиҳод” ташкилотига анча вақтдан бери аъзо ва улар кўрсатмаси билан Самарқанд вилоят қўрбошиларининг раҳбари Очилдов (Очилбек) қўл остидаги 10 нафар қўрбошининг бири бўлиб очиқ жангга отланди. Унинг йигитлари 200 нафарча бўлиб, Самарқанд билан Фарғона орасидаги тоғлар унинг қўлида бўлди.

Кунлари суронли жанглар билан тоғу – тошлар орасида, баъзан тўқ, баъзан оч ўтар, фақат Туркистонни ҳур ва озод кўриш орзуси билан ўтарди.

Шу васиятлардан ҳам босмачи (истиқлолчи) ларнинг қанчалик саводхон ва кенг фикрли эканликларини тасаввур қилса бўлади. Биз ҳозирги авлод уларнинг жасоратга тўла ҳаёти билан фахрланамиз, юртини озод кўриш учун жонини фидо қилишдан ҳам қайтмаслигидан ғурурланишимиз, улардай Ватанни севишни ўрганишимиз зарур.

Бугунгача собиқ иттифоқ даврида, уларнинг жасоратга тўла ҳаётини, фидоийликлари ва қаҳрамонликларини тилга олиш таъқиқлаб келинган эди. Аслида, “Кимки юрт озодлиги учун бир соат курашган бўлса ҳам у қаҳрамондир”. Бу эътироф Ўзбекистон мустақиллигидан сўнг кенг миқёсда амалга оширила бошланди. Жумладан, Туроббек Тўрабеков ва унинг сафдошлари ҳам оқланди. Ҳақиқат бир кунмас - бир кун рўёбга чиқар экан.

2022 йил 19 декабр куни Ўзбекистон Республикаси Олий суди Жиноят ишлари бўйича судлов ҳайъати Ҳукм қилади:

Ўрта Осиёдаги Бирлашган давлат сиёсий бошқармасининг 1932 йил 14 октябрдаги махсус йиғилиш қарорининг Тўрабеков Туроббек ва бошқаларга оид қисми бекор қилинсин, улар ҳаракатларида Ўзбекистон ССР (эски таҳрирдаги) ЖКнинг 58-моддасида назарда тутилган жиноят таркиби мавжуд эмаслиги сабабли айбсиз деб топилиб, оқлансин.



Жиззах уезд – шаҳар “Миллий иттиҳод” шўъбаси аъзолари
(Олдинги қатордагилардан чапдагиси Туроббек Тўрабеков)

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ирзаев Б, “Сургун, отув ҳукми, ўттиз йилдан кейинги оқлов-Жиззах “Миллий иттиход” шўъбаси аъзолари қисмати”.oyina.uz (2022-yil 11-mart). 2023-yil 25-sentyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 23-sentabr 2023-yil.


2. Неъматов Ф, „Айбини билмай кетганлар“. Қаралди: 23-сентябрь 2023-йил.

3. И.Бердиев ва А.Шукуровнинг оғзаки хотиралари ва тадқиқотлари асосида ҳам маълумотлар олинди.

ХАЛҚ ОСОЙИШТАЛИГИ ЙЎЛИДА ҚУРБОН БЎЛГАН АДОЛАТ ПОСБОНИ

Азалшоҳ Ҳамроев
БухДУ тузилмасидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи директори, доцент

Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 11.09.2023 йилдаги 40-сонли Фармойишига асосан Қатағон қурбонлари бўлган прокуратура ходимларига бағишланган “Тарихий хотира беқиёс” номли китобини нашрга тайёрлаш жараёнида Бухоро вилояти ишчи гуруҳи томонидан ўнга яқин соҳа вакилларининг ноҳақ қамалганлиги ва “катта қирғин” машинаси гирдобига тушганлигининг гувоҳи бўлдик. Қўл тегмаган архив ҳужжатлари илк маротаба тадқиқот манбаига айланди. Мана шундай халқ осойишталиги йўлида, адолат излаб жонини қурбон қилган ватандошимиз, биринчи прокурорлардан бири Али Ҳамрабаевдир.



Али Хамрабаев

АЛИ (АЛИБОЙ) ҲАМРАБАЕВ – 1898 йил Бухоро вилояти Шофиркон туманининг Кўҳна Вардонзе қишлоғи, Мўғилон қишлоқ фуқаролар йиғинида оддий деҳқон оиласида таваллуд топган. Миллати ўзбек, зиёли. Али Ҳамрабаев ўз даврининг илғор фикрли жадидлар сафида амирлик тузумини ислоҳот йўли билан ўзгартириш тарафдорларидан бўлган. Унинг сафдошлари қаторида Файзулла Хўжаев, Мусо Саиджоновларни алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим. Кейинчалик унинг қизи Марям Мусо Саиджоновнинг кенжа ўғли Салимжонга турмушга чиқади.

1924-1938 йилларда ВКПБ аъзоси. Илгари судланмаган. Ходжар Ҳамробоева (1909 йилда туғилган) билан турмуш қуриб, ҳибсга олинган вақт (1938 й.)да 2 қиз ва 2 нафар ўғил, хусусан Лола (1 ёш), Марям (4 ёш), Икром (6 ёш) ва Қосим (10 ёш) исмли фарзандлари бўлган ҳамда онаси Ўғилой (67

ёш) билан биргаликда меҳнат фаолиятини олиб бораётган Андижон вилояти Ленин (ҳозирги Асака) шаҳрида вақтинча истиқомат қилган.

Али Ҳамрабаев 1922 йилда, яъни 24 ёшида Когон шаҳар милиция бўлими ходими ва кейинчалик бошлиғи сифатида ўз меҳнат фаолиятини бошлайди. 1924-1928 йилларда Бухоро шаҳри ва туманларида совет идораларининг фирқаларида масъул лавозимларда ишлайди. 1929-1931 йилларда Совет ҳуқуқ илмий-текшириш институтида таҳсил олиб, 1932 йилдан Эски Бухоро шаҳар қўмитаси котиби Имомназаровнинг таклифи билан прокуратура соҳасида ишлай бошлаган. 1933-1937 йиллар Андижон вилояти Ленин тумани прокурори вазифасида хизмат қилган.

Андижон шаҳар, Ленин тумани НКВД раҳбари, давлат хавфсизлиги лейтенанти Вишневскийнинг 1938 йил 20 январдаги қарорига кўра, ЎзССР Жиноят кодексининг 57 моддаси I қисми, 63, 64 ҳамда 67 моддаларида кўрсатилган жиноятларда, хусусан аксилинқилобий фаолиятда гумонланиб, 23 январь куни Асака тумани Озод маҳалласига жойлашган хонадонида тинтув ўтказилган ҳамда эҳтиёт чораси сифатида қамоққа олинган ва 14339-сонли жиноят иши қўзғатилган. Шу муносабат билан, Али Ҳамрабаев ишдан бўшатилган ва партия сафидан четлаштирилган. Андижон шаҳридаги тергов ҳибсхонасида сақланган.



Бухоро округи прокуратураси ходимлари.1930 йил



Тинтув натижасида А.Ҳамрабаев хонадонида 50 та турли даражадаги жиноий ишлар йиғма жилди сақланилаётганлиги ва бошқа ашёлар аниқланган ҳамда уларнинг рўйхати тузилган.

1938 йил 3 февралда Вишневский томонидан амалга оширилган дастлабки сўроқда А.Ҳамрабаев ўз айбини қатъий рад этади. Бироқ деярли

бир ой давомида олиб борилган советча тергов усуллари ўз натижасини бера бошлайди. Оқибатда, 1938 йил 1 март куни ўтказилган кўрсатмада эса, Вишневский томонидан ўтказилган босимлар ва ғайри инсоний қийноқлардан сўнг Али Ҳамрабаев берилган саволларга қўйидагича жавоб беради:

СЎРОҚ БАЁННОМАСИДАН КЎЧИРМА

Савол (Вишневский): Тергов давомида сиз Ленин туманида халқ душманлари томонидан тузилган аксилинқилобий буржуа-миллатчилик ташкилотига аъзо бўлганингиз ҳақида маълумотлар аниқланган. Ушбу масала бўйича гувоҳлик беринг?

Ушбу сўроқ баённомаси билан батафсил танишиб чиқиб, шуни хулоса қилиш мумкинки, шубҳасиз совет ҳукуматининг “қатағон машинаси” ҳар қандай иродаси мустаҳкам ва ватанпарвар инсонни ҳам “гапиртириши”, ўзи учун қулай маълумотларни олиши ҳамда керак бўлган шахсларни бировнинг тили орқали ушлаб олиб, кейинчалик унинг устидан турли туҳмат-бўҳтонларни ёғдирган ҳолда жиноий жавобгарликка тортиши ҳамда жисмонан йўқ қилишга қодир эди. Шу сабабли, сўроқ баённомасида исми-шарифи келтирилган шахслар, айнан Али Ҳамрабаевнинг ўз ихтиёри ва ташаббуси тилга олинганлиги албатта шубҳали бўлиб, мазкур жиноий иш холис ўтказилганлигини рад этади. Зеро Али Ҳамрабаев ўз ишини пухта биладиган, юрт ва миллат манфаати учун жон куйдирадиган элпарварлардан бири эди.



Мусо Саиджонов

Али Ҳамрабаев 1938 йилнинг 23 март куни қўшимча сўроққа тортилади. Уларнинг ҳар бирида бўйнига янги айбловлар қўйиб борилади. Хусусан, 1922 йилдан милиция идораларида ишлаган вақтида “Наган”, 1927 йилда “Браунинг” русумли тўппончаларга хизмат юзасидан эгалик қилиб, ўз номига 1933 йилда қонуний расмийлаштирган бўлишига қарамай, асоссиз равишда ўқотар қуролга ноқонуний эгалик қилиш айби қўйилади. Шунингдек, ўз касбининг фидоийси бўлган Али Ҳамрабаев самарали меҳнат фаолиятни ташкил этиш ва ишдан бўш вақтида танишиш учун қисқа муддатга ўз уйига келтирган 50 та тугатилган жиноий ишлар ҳам унинг бошига кулфатлар келтиради.

Али Ҳамрабаев иши доирасида Ленин туманида турли идораларида фаолият юритган ва совет ҳукуматига қарши ҳаракатларни олиб боришда асоссиз равишда айбланган – Мақсум Икромов, Абдуллажон Қобулов, Солижон Иномов, Ҳасан Шаматов, Анорбой Хонтўраев, Олим Игамбердиев, Мухаммадамин Сохибов, Жалол Машраби, Деҳқон Холматов, Тешабой Матёқубов, Тилла Холматов, Узаков Олимжон, Бегмат Маллабоев каби миллий раҳбар кадрлар ҳам 1938 йилнинг март ойида сўроқ қилинадилар ва кейинчалик суд ҳукми билан жазога тортиладилар.

Тергов жараёнига А.Ҳамрабаевнинг ҳатто Бухорода яшаган қўшниси Одинаев Илдан ҳам жалб этилади. Ҳамробоев ҳақида куйидагилар, жумладан, гўёки у исмидаги “бой” қўшимчасини, ўз ижтимоий келиб чиқишини яшириш мақсадида тушириб қолдириб “Али” деб расмий ҳужжатларда юритиб келаётганлиги, Ф.Хўжаев билан яқин алоқада эканлиги, ҳатто унинг Дилкушо гузаридаги 117-уйида 1933 йилнинг ўрталаригача истиқомат қилиб келгани, Файзулла Хўжаевнинг укаси Ибодхўжанинг дафн маросимида иштирок этгани, ўз куёви Шукрулло Фозиловнинг жиноятини яшириб, ўзи прокурорлик қилаётган Асака тумани, “Ўзбекистон” қишлоғи

ҳудудидаги дўконга мудир қилиб қўйишда ҳиссаси борлиги ҳақида нохолис маълумотлар беради.

Шундай қилиб, 1938 йил 13 апрелда А.Ҳамрабаевга нисбатан эълон қилинган, ЎзССР Ички ишлар нозири, давлат хавфсизлиги майори Апресян томонидан тасдиқланган айблов хулосасига кўра: “У Асака туманида Совет Иттифоқининг мудофаа қобилиятини пасайтириш, Совет ҳокимиятини қуролли тарзда ағдариш мақсадида кадрлар тайёрлаш, Ўзбекистонни Совет Иттифоқидан ажратиб, буржуа-демократик кўринишидаги миллий давлат яратиш каби ҳаракатларни кўллаб-кувватлаш, 1937 йилда бир неча бор махфий ташкилотларнинг аксилинқилобий йиғилишларида фаол иштирок этиш, унда Совет ҳокимиятига қарши кураш масалаларини муҳокама қилиш ва кураш усулларини ишлаб чиқиш, халқнинг Совет ҳокимиятига қарши норозилигини келтириб чиқариб, аксилинқилобий ташкилотга янги аъзоларни жалб қилиш, шунингдек, колхозларни тарқатиб юборишга қаратилган ишларни амалга оширганлик, социалистик мулкни ўғирлаш, троцкийчилар алоқадорлик ҳамда бошқа қатор жиноятлар”да айбланган.

1938 йил 9 октябр куни Фарғона вилоят НКВД бошлиғи ўринбосари давлат хавфсизлиги лейтенанти Морозенко, Сталин район НКВД давлат хавфсизлиги лейтенанти Макаренко гумонланувчилар Али Ҳамрабаев ва Иномов Салимжон ўртасида юзлаштириш баённомасини тузишади. А.Ҳамрабаев ўзига қарши Иномов томонидан берилган жавоблар, хусусан “унинг аксилинқилобий ташкилот раҳбарларидан бири эканлиги, бу ташкилот сафини кенгайтиришда ҳиссаси борлиги, илгари 10 йил муддатга озодликдан маҳрум этилганлиги, бироқ Файзулла Хўжаевнинг ёрдами билан жазодан қутулиб қолиб, Ленин туманига прокурор сифатида жўнатилганлиги” тўғрисидаги жавобларни қатъий рад этади. Қизиғи шундаки, худди шундай юзлаштириш Олим Игамбердиев билан ҳам 1938 йил 13 октябрда амалга оширилган. Унда ҳам А.Ҳамрабаев ўзига қарши билдирилган туҳматларни асосли далиллар билан рад этади.

1938 йил 14 октябр куни Тошкент шаҳрида (соат: 14:30) ССР Олий суди (раислик қилувчи: Алексеев, аъзолар: Зайцев, Болдырев) Ҳарбий коллегияси сайёр ёпиқ суд мажлиси ўтказилади. Судда Али Ҳамрабаевнинг шахсан ўзи иштирок этади. Бироқ, иш бўйича ҳатто давлат айбловчиси, ҳимоячи, шунингдек, бирорта ҳам гувоҳлар иштироки таъминланмайди.

Судда Али Ҳамрабаев ўзига эълон қилинган ва илгари терговга берган кўрсатмаларининг барчасини асоссиз ва босим остида, ихтиёрига зид равишда билдиргани учун қатъий рад этади. Икромов, Қобулов, Иномов, Шаматов, Хонтўраев, Игамбердиев, Султонов, Сохибов, Машраби, Маманазаров, Узоковларнинг ўзига қарши кўрсатмаларининг туҳмат эканлигини билдириб, антисовет ташкилотига аъзо бўлмагани ва ҳеч қандай аксилинқилобий иш олиб бормаганлигини даъво қилади ҳамда ишга холисона ёндашишни талаб қилади.

1938 йил 14 октябр куни соат 15:00да суд ўз ҳукмини эълон қилади. Ҳукмга кўра Али Ҳамрабаев ЎзССР Жиноят кодексининг 57 моддаси I-қисми, 63, 64 ҳамда 67 моддаларида кўрсатилган жиноятларда асоссиз айбдор деб топилиб, мол-мулки мусодара қилинган ҳолда отувга ҳукм қилинади. Ҳукм СССР Марказий Ижроия Қўмитасининг 1934 йил 1 декабрдаги қарорига мувофиқ зудлик билан, шу куннинг ўзида Тошкент шаҳрида ижро этилади.

ПРИГОВОР

1767

енем Союза Советских Социалистических Республик

выездная сессия

енной Коллегии Верховного Суда Союза ССР

в составе:

Председательствующего Бригвоенюриста АЛЕКСЕЕВА

Членов: Бригвоенюриста ЗАЙЦЕВА и Военного юриста 1 ранга БОЛДЫРЕВА


При секретаре военном юристе 1 ранга БАТНЕР

В закрытом судебном заседании, в гор. Ташкенте

17. октября 1938 года, рассмотрела дело по обвинению:

ХАМРАБАЕВА Али, 1898г. рождения, быв. Прокурора по Ленинскому району УзССР - в преступлениях, предусмотренных ст.ст. 58, 63, 64 и 67 УК УзССР.

Предварительным и судебным следствием установлено, что Хамрабаев с 1937, имея активным участником а/с буржуазно-националистической повстанческой террористической и вредительско-диверсионной организации, действовавшей на территории Узбекской ССР, ставил своей задачей террористические методы борьбы этой организации в отношении руководителей ВКП(б) и Советского Правительства, неоднократно участвовал на нелегальных сборищах участников организации. Будучи секретарем Ленинского Райкома партии, позднее прокурором того же района, Хамрабаев, будучи а/с организации, проводил подрывную вредительскую направленную на развал работы Комсо-



Шундай қилиб, қонун ҳимояси йўлида, миллий давлатчилигимиз тарихида мураккаб шароит бўлишига қарамасдан адолатпарварлик тамойилига риоя қилиб келган ҳамда эл-юрт манфаати учун курашган миллатнинг яна бир ойдини жисмонан йўқ қилинади.

Али Ҳамрабаев СССР Олий суди ҳарбий коллегиясининг 1958 йил 16 сентябрдаги 4н-3343-сонли қарорига мувофиқ оқланган. Оқлов қарори Али Ҳамрабаевнинг турмуш ўртоғи Ходжар Ҳамрабаевага хабар берилиши белгиланади. Бироқ, унинг яшаш манзили аниқлашнинг имкони

бўлмаганлиги учун, Али Ҳамрабаевнинг турмуш ўртоғи Ходжар ая узоқ йиллар эрининг айнчли тақдиридан хабарсиз қолиб, бу фоний дунёни армон билан тарк этади.



Али Ҳамрабаевнинг қизи Марям Хамрабаева ва невараси Шухрат Саиджонов (2023 йил 20 ноябрь)

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси томонидан тузилган ишчи гуруҳ аъзолари Али Ҳамрабаевнинг қизи, бугунги кунда 91 ёшни қаршилаган Марям Ҳамрабаева холидан хабар олиб, оталарининг ноҳақ қурбон бўлганлиги ва уларининг қилган хизматлари доимо эътиборда бўлиб, номлари оқланганлиги айтилди. Ҳақ жойида қарор топди, адолат излаган инсонлар кўнгли қарийб бир асрлик азоблардан кейин бўлса ҳам, таскин топди. “Болам, буларнинг барчаси мустақиллик шарофатидан, - деди онахон, кўз ёшларини арта туриб. - Илоҳим Президентимиз омон бўлсинлар”, - дея дуо қилиб қолдилар...

XX АСР ҚАТАҒОНЛИК СИЁСАТЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ, СИЁСИЙ, ИЖТИМОИЙ ВА МАЪНАВИЙ ОҚИБАТЛАРИ.

Хуршид Қурбонов
НавДПИ тузилмасидаги
Қатағон қурбонлари хотираси
музейи директори т.ф д., доцент.

Совет даври тарихшунослигида кўп тадқиқ этилган муаммолардан ва айни вақтда бирёқлама ёритилган мавзулардан бири қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш ҳамда деҳқонларнинг энг тадбиркор қисми бўлган бадавлат хўжаликларни зўрлик билан синф сифатида тугатилганлиги масаласи бўлди.

Зўрликка зўр бериб амалга оширилган бу адолатсизлик, инсоний ҳақ-ҳуқуқларнинг қўпол равишда оёқ-ости қилиниши тарихга катта фожеа сифатида кирди ва халқ хотирасида аламли, ювилмас из қолдирди. Чиндан ҳам XX асрнинг 30-йилларида ўтказилган коллективлаштириш ва қулоқларни синф сифатида тугатиш сиёсати ўша давр совет тарихшунослигининг энг етакчи мавзуси бўлган эди.

Ўз ерига, чорвасига, хусусий ва шахсий мулкига эга бўлиш деҳқон учун колхоз ёки колхозга аъзо бўлиб киришдан кўра тушунарлироқ эди. Ҳатто қишлоқларда колхоз тузиш учун ҳукумат томонидан белгиланган маъсул шахсларнинг ҳам колхоз тушунчасига уқуви етиб улгурмаган эди.

1930 йилда Ўзбекистон МИКнинг округ ва район ижроия комитетлари ҳамда жойлардаги қишлоқ советларига йўллаган мактубида қуйидагиларни ўқиш мумкин: “Округларда коллективлаштириш зўравонлик, куч ишлатиш усуллари орқали амалга оширилган, ҳатто қурол кучидан фойдаланилган, маъмурият томонидан деҳқонлар қулоқлаштириш, нон, сувдан, сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш хавфи билан қўрқитилган.”[1;26-80]

Коллективлаштириш сиёсатининг амалга оширилиши натижасида эркин мулкчиликнинг ва бозор иқтисодиёти муносабатларининг ҳамма

кўринишларига барҳам берилди. Хусусий мулкчилик батамом тугатилиб, ўрнига социалистик мулкчилик деб аталган янги кўринишда, яъни давлат ҳамда жамоа мулкчилиги шаклида рўёбга чиқарилди. Бундай кўриниш шаклан бир-биридан фарқ қилса-да, мазмунан фарқ қилмасди. Зеро, жамоа мулкчилиги, ҳатто жамоа хўжалиги ҳам айнан, давлат мулки ҳисобланарди.

Оқибатда, қишлоқларда ижтимоий иқлим кескинлашиб, деҳқонларни оммавий норозиликларининг қўзғолонга айланиб кетишига сабаб бўлди. Чунки, колхозга кирган деҳқон ундан чиқиш ҳуқуқига эга эмаслиги, агар норозилик билдирса маъмурий йўл билан жазоланиши, жарима тўлаши, тутқунликка маҳкум этилиши каби тартиблар жорий қилинганди[1;82].

Коллективлаштириш ҳаракатидаги норозиликларнинг асосий сабаблари раҳбарлар, партия ташкилотларининг камбағал, ўрта ҳол ва батраклар оммасига етарлича тушунтириш ишларининг олиб бормаганлиги билан белгиланади.

Марказдан келган раҳбарлар ва маҳаллий ижрочилар аҳолининг ғоявий-сиёсий савияси, ҳаётий тажрибалари, миллий хусусиятларини ҳисобга олмасдан хатоликларга йўл қўйгандилар. Буни, Каттақўрғон районидаги жамоа хўжалигида уй паррандаларининг, ҳатто тухумларнинг мажбуран умумлаштирилганлиги тўғрисидаги ягона мисол билан ҳам исботлаш мумкин[2].

Очарчилик, ҳосилсизлик, қўрғоқчилик, қулоқлаштириш, сургун, қатағонлар иқтисодий аҳволнинг аянчли инқироз ёқасига олиб келди. Ўт ва ем – ҳашакнинг йўқлиги туфайли чорва моллар ўлиб тугади, аҳоли эса бошқа ерларга кўчиб кетишга мажбур бўлди[3;60]. Улардан қолган уй-жойлар, мол-мулклар, буюмлар таланди, эшик-деразалар ўтин сифатида ишлатилди.

Бундай зўравонлик, қўполлик, қўрқитиш, маъмурий таъқиб-тазйиқ қўллаш орқали жойларда ўтказилган коллективлаштириш ҳолати манзараси республика партия, давлат, ҳукумат раҳбариятига ҳам маълум эди.

Коллективлаштириш ва у билан бирга амалга оширилган қулоқлаштиришда деҳқонларни сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш амалиёти

кенг қўлланилган. Деҳқонларни сайлаш ва сайланиш ҳуқуқидан маҳрум этиш ўзига хос компанияга айланиб кетган. Сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш ва уларни рўйхатларини тузиш, колхозларга кимларни қабул қилиш кераг-у, кимларни киритмаслик кераклигини аниқлаш орқали қулоққа тортиш ва сургун қилиш амалга оширилган. Бошқача қилиб айтганда, деҳқонларни умуман аҳолини сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш учун кураш деҳқонларга нисбатан қулоқлаштиришни қўллаш, уларни қатағон қилиш учун бир босқич, маълум бир тайёргарлик бўлган.

1928 – 1929 йилларда сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш маъмурий буйруқбозлик, зўравонлик билан ўтказилиб, шу даврда Самарқанд округи қишлоқларидан 7591 киши, Самарқанд шаҳрида 8772 киши, Зарафшон округи қишлоқларидан 6992 киши, Бухоро округи қишлоқларидан 15492 киши, Бухоро шаҳрида эса 6987 киши бу ҳуқуқдан маҳрум қилинди.”[4;119].

“Қизил русларнинг низомига кура: савдогарлар, диндорлар, муллолар, эшонлар, бойлар, бой болалари, оталари, намоз ўқиғонлар, муфтий бўлғонлар, қозилар, мактабдор домлалар, аларни ўғуллари ҳаммаси ҳақсиздур. Бу синфлар хар ишдан маҳрумдир” 5;368], – деб ёзганди, Мусо Туркистоний.

ВКП(б) МК Сиёсий бюросининг 1930 йил 30 январдаги “Ёппасига коллективлаштириш районларида қулоқ хўжаликларини тугатиш тадбирлари тўғрисида”ги қарори ҳукуматнинг навбатдаги қатағон сиёсати авж олаётганлигидан дарак берди.

“Қулоқларни тугатиш оқибатида, - дейди проф. Р.Шамсутдинов, - қишлоқ энг тадбиркор, эпчил, ўзига тўқ, мустақил иш кўрувчи, хўжалик юритувчи деҳқонларидан маҳрум бўлди... Ва бу сиёсат бошдан охиригача зўравонлик, жабр-зулм ҳолатида олиб борилди.”[6;64]

Кармана райони Варқ қишлоғида истиқомат қилган, коллективлаштириш даврида хўжалиги қулоқлаштирилган Нурназар Абдуназаровнинг фарзанди Муқим ота Нурназаров шундай эслайди: “Хўжаликда 20 таноб ер, 8 хонали уй, бир неча бош қорамол, от, эшак, қўй-қўзилар бўлган. Отамнинг

айтишича, уйимизга қишлоқ совети раиси билан бирга бегона кишилар келиб, уни идорага олиб кетишган. Ноҳақ ва уйдирма айбловлар натижасида хўжалик қулоқлаштирилган ва район ташқарисига, аниқроғи (ҳозирги Самарқанд вилоятининг) Пахтачи районига сургун қилинган. Аламли томони шундаки, мол-мулклар мусодара қилинаётган вақтда, ҳатто ҳаво совуқ бўлганлига қарамай, менинг эгнимдаги камзўлчани ҳам отамнинг кўз олдида устимдан ечиб олиб кетишган экан.”[13]

Бу даврда халқ бошига тушган оғир синовлар ва зулм сиёсатларидан яна бири коллективлаштиришга, қулоқлаштиришга, советларга, ҳукумат ва раҳбарларга қарши чиққанларни якка ва оммавий тарзда сургун қилиш, отиб юбориш бўлди. Бу жараён ер-сув ислоҳотлари давридан бошланган бўлса-да, 1930 – 1932 йилларга келиб ўзининг энг юқори нуқтасига кўтарилди.

Коллективлаштириш ўзбек қишлоғи тарихи ривожланишининг соғлом жараёнларига тўсқинлик қилди. У деҳқонларнинг давлат томонидан асоратга солишга олиб келди. Колхозларга зўрлик билан ҳайдаб кирилган деҳқонлар барча асосий фуқаролиги, касб фаолиятини танлаш ҳуқуқларидан маҳрум қилинди[7;268-269].

“Жазо органлари қамоққа олинганларни жисмоний қийноқларга дучор қилиш билан бирга руҳий эзиш, иродасини синдириш, инсоний ғурурини камситиш, иззат-нафсини таҳқирлаш йўлидан ҳам борганлар. Бу мақсад йўлида ҳеч нарсадан қайтган эмаслар”[8;31]

Коллективлаштириш сиёсати аҳолининг ижтимоий ҳолатига ҳам беқиёс зарарлар келтирди. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини ёппасига коллективлаштириш, бой-бадавлат, тадбиркор деҳқон хўжаликларини тугатиш билан боғлиқ масалалар, ижтимоий ҳаёт собиқ иттифоқ даврида яратилган манбаларда ўзига хос акс эттирилган. Ўзбекистоннинг у ёки бу райони, вилоятидан бошқа ҳудудларга жўнатилган хўжаликлар “пахта усталари”, “тажрибали деҳқонлар” сифатида тавсифланган. Аслида эса мазкур “қулоқ оилалар”и мажбурий равишда ана шу жойлардаги меҳнат посёлкаларига, лагерларига жойлаштирилган меҳнат кўчкиндилари эдилар.

Кўриниб турибдики, мажбуран ва зўравонлик билан бегона юртларга бадарға қилинган, қатағон қурбони бўлган одамлар силлиққина, беозор ном билан аталган, амалда эса тарихий ҳақиқат бузиб кўрсатилган.

Коллективлаштириш қишлоқ меҳнаткашларининг онгини заҳарлаб, бузиб юборди, улардаги ерга, ишлаб чиқаришга эгалик қилиш туйғусини, асрлар давомида шаклланиб келган меҳнатсеварлик фазилатларини йўққа чиқарилди, улардаги меҳнатга, касб маҳоратига бўлган меҳр-муҳаббатни, ишчанликни, тадбиркорликни якун қилди.

Нарх-наво ўсиб боришдан тўхтамас, иш ҳақи номигагина оширилди, меҳнат нормалари муттасил орттириб борилди. Меҳнаткашларнинг моддий аҳволи иттифоқ марказидагига қараганда бир неча карра ёмон эди. 1931 – 1933 йилларда ёппасига ҳукм сургун очарчилик республиканинг барча ҳудудларини қамраб олди. Унинг бош сабабчиси ва айбдори совет ҳукумати ва компартиянинг республикада олиб борган шовинизм ҳамда мустамлакачиликдан иборат адолатсиз сиёсати эди.

Аҳолининг ҳар томонлама эзилиши, таҳқирланишининг бош сабаби унга маънавий жиҳатдан етказилган навбатдаги зарба эди. Аввало, инсон маънавиятининг бош мезони бўлган, ахлоқ-одоб, таълим-тарбия, ҳаёт мактаби бўлган дин ва диний таълим фаолиятига чек қўйилди.

Аммо, ўтган асрнинг 20 – йиллари бошларида диний муассаса ва ташкилотлар фаолиятига рухсат бериш, вақф мулкларини тиклаш, уларни мамлакат иқтисодий ва маданий ривожланиши асосига айлантириш тўғрисида лойиҳалар ишлаб чиқилган, махсус декретлар қабул қилинган бўлса-да, бу соҳада қабул қилинган қарорлар расмий бўлиб, ҳаётга тадбиқ қилинмасдан, қоғозларда қолиб кетган.

Совет ҳокимиятининг динга муносабати номигагина бўлиб, 30 - йилларда динга, диндорларга узоқ вақт ўзларини ўнглаб ололмасликка, ўлимга, қочиб ёки яшириниб жон сақлашга тўғри келадиган даражада қаттиқ зарба берилди.

Миллий ҳис-туйғулар, ўз-ўзини англаш, ватанпарварлик, ғурурланиш, фаҳрланиш ва бошқа олий инсоний фазилатлар ҳибсга олинди[9;377].

Биргина 1937 йилнинг декабрь ойида “учлик”нинг қарори билан қатағон қилинган 3644 кишидан 353 нафари имомлар, эшонлар, муллалар ва бошқа диний хизматчилар бўлган. Бу эса қатағон қилинганлар умумий сонининг 10 фоиздан ортиғини ташкил қилган.

1929 - 1930 йилларда республикадаги юзлаб масжидлар ёпилган. Муқаддас зиёратгоҳлар, намозгоҳлар ва қадамжолар вайронага айлантирилиб, улардаги ёғоч, ғишт ва бошқа қурилиш материаллари омбор, касалхона, чойхона, клуб ва бошқа иншоотлар қурилишига олиб кетилган. Бу каби қурилишларга, ҳатто қабристондаги ғиштлари ҳам олинган[10;799].

Масжидлар билан бирга вақф мулкларига қарашли уй-жойлар, хонақоҳлар, ҳаммом, тегирмон, дўконлар ҳам ярим вайрона ҳолатига келтирилган, кўпчилиги йўқотиб юборилган. Диндорлар ва диний ташкилотларга тегишли бўлган боғ ва ер майдонлари ташландиқ жойга айланган, вақфкор деҳқонлар эса ярим оч, қашшоқ ҳолда яшаган. Динга ва диндорларга қарши кураш фақатгина диний муассасаларни ёпиш билан эмас, балки худосизликни кенг миқёсда ташвиқ ва тарғиб қилиш билан ҳам олиб борилган. [11;15].

Ушбу ҳолатларни таърифлаган Мусо Туркистоний: “Намоз, рўза ўртадан кўтарилди. Қуръон ўқиш мамнуъ (ман), қурбонлик йўқ, қўй, мол, сўқум суюлмайдур. Қурбонлиқ қилғанни жазоси маҳкамада, 5 йиллик сургунга маҳкум, ҳақиқатда эса, қайтиб келмайдур, деган ҳукмномада ишора (шифра) бордур. Бир киши закот берса, ва ё бошқа диний ибодатлари ила уни диндорлиғи собит бўлса, уни жазоси Сибир, яъни энг совуқ минтақалардин ўрмонликка қарағай дарахтларини кеса-кеса ўлишга маҳкумдир. Халқда диний байрамлар йўқ, жумъа таътиллари йўқ, йўқдур”[5;370], – деб таъкидлайди. Мусулмонларнинг умрида бир марта амалга оширадиган Ҳаж сафарлари ҳам тушга айланган.

Совет тузуми ёш авлодни коммунистик руҳда тарбиялаб боришга мунтазам эътибор қаратди. Ёшларни коммунистик мафкура билан заҳарлаш, уларни жамият аскарларига айлантиришда коммунистик ёшлар иттифоқи ҳам (комсомол) муҳим рол ўйнади.

“Қатағонлик – миллий қадриятларни қийратишга, халқларни қўрқитиб олишга, миллий онги ва ғуруринг ўсишига йўл бермасликка қаратилган давлат сиёсатидир”[12;36], - деб таърифлайди Ж.Тўланов. Демак, бу сиёсат халқнинг миллий ифтиҳори, маънавий-ахлоқий баркамоллик негизи, маънавий покланиш замини, минг йиллик урф-одат, анъаналари бўлган қадриятларга қарши қаратилган зарба ҳам эди.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, совет ҳукуматининг зўрлик билан амалга оширган коллективлаштириш сиёсати аграр соҳа ва аграр ишлаб чиқаришда юқори натижаларни бермади. Аксинча, қишлоқларнинг асл деҳқонлари ўзлаштирилмаган ерларда умр ўтказишларига сабаб бўлди;

- коллективлаштириш ишларида етарли тушунтириш ишларининг олиб борилмаганлиги, халқни нон билан таъминлашдаги нотўғри тақсимот, оммавий равишда сайлов ҳуқуқидан маҳрум қилиш, пахта теримидаги нотуғри солиқлар, турли тўловлар, қулоқларга нисбатан партиянинг нотуғри фаолияти, бойларга қарши инқилобий ҳаракатларнинг олиб борилиши бу жараённинг боришини чигаллаштириб юборди;

- бу сиёсат охир оқибат халқнинг тинка - мадорини қуритди, аҳолига ҳар томонламан, яъни иқтисодий, ижтимоий, моддий ва маънавий талофатлар етказди;

- минг йилик тарих гувоҳлик беришича, бир халқни ўзига тобе қилишни истаган кучлар, аввало уни ўзлигидан, тарихидан, маданиятидан жудо қилишга интилган. Совет ҳукумати ҳам айнан ана шу йўлни танлади ва бирин-кетин халқни-халқлигидан, миллатни-миллатлигидан айирди. Бунинг устига халқларни сургун, мажбурий кўчириш орқали бир-бирига қориштириб ташлади;

- истиқлол йилларида қатағон азобларини бошидан кечирган, империя даврида беписандлик билан “тил-забони йўқ, қиёфасиз кўпчилик” ёки “иккинчи даражали одамлар”, “катта террор” йилларида эса “халқ душмани”, “ёт унсур” деб тилга олинган халқимизнинг онги, тарихий тафаккури янгидан шаклланди, ҳаққоний тарих тикланди, энг аввало миллий ўзликни англаш асосий ўринга кўтарилди.

Шаклланган миллий истиқлол ғояларига садоқат, Ватан ва эл манфаатларига хизмат қилиш, бугунги кунни қадрлаб, келажакка ишонч билан яшаш туйғуси, ирода ва эътиқод нашидалари халқнинг куч-қудрат манбаига айланиб улгурди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. ЎзР МДА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 6327-йиғма жилд,
2. Правда Востока, 27 апреля 1932 г
3. ЎзР МДА, Р.87-фонд, 1-рўйхат, 43-йиғма жилд
4. ЎзР МДА, Р.86-фонд, 1-рўйхат, 5023-йиғма жилд
5. Муҳаммад Мусо Туркистоний. Улуғ Туркистон фожеаси. 1-жузъ
6. Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг амалга оширган қулоқлаштириш сиёсати.
7. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати // Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. – Тошкент, 2002.
8. Шарафиддинов О. Муқаддас зиёратгоҳ // Халқ хотираси олдида бош эгамиз. – Тошкент: Шарқ, 2001
9. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун
10. ЎзР МДА, Р.66-фонд, 1-рўйхат, 5372-йиғма жилд
11. ЎзР МДА, Р.94-фонд, 5-рўйхат, 1423-йиғма жилд
12. Тўланов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998

13. Дала материалларидан. Варқ қишлоғида истиқомат қилган (ҳозирда оламдан ўтган) Муқим ота хотираларидан ёзиб олинди. 2008 йил 18 август. Кармана

QASHQADARYODA JADIDCHILIK HARAKATI VA “ABDULLA GULSHANIYNING” MA`RIFIY-ADABIY FAOLIYATI”

Dilbar Himmatqulova
“Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi Ekskurovodi

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi, xususan Shahrisabzdagi jadidchilik harakati va ma’rifiy muhit yoritilgan. Unda ma’rifatparvar shoir Abdulla Gulshaniyning hayoti, Buxorodagi tahsil yillari va adabiy-ma’rifiy faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Gulshaniyning Shahrisabz yoshlari o‘rtasida jadidchilik g‘oyalarini yoyishi hamda Turkiston jadid ziyolilari bilan ma’rifiy aloqalari manbalar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so`zlar: Jadidchilik harakati, Qashqadaryo vohasi, Shahrisabz adabiy muhiti, Abdulla Gulshaniy, "Tuhfat ul-ahbob", ma’rifatparvarlik.

Аннотация: В статье освещаются джадидское движение и просветительская среда Кашкадарьинского оазиса, в частности Шахрисабза, в конце XIX – начале XX веков. Анализируются жизнь, годы учебы в Бухаре и литературно-просветительская деятельность поэта-просветителя Абдуллы Гульшани. Также на основе источников подчёркивается его роль в распространении идей джадидизма среди молодежи Шахрисабза и связи с просветителями Туркестана.

Ключевые слова: Джадидское движение, Кашкадарьинский оазис, литературная среда Шахрисабза, Абдулла Гульшани, «Тухфат ул-ахбаб», просветительство.

Annotation: The article highlights the Jadid movement and the educational environment in the Kashkadarya oasis, particularly Shakhrisabz, in the late 19th and early 20th centuries. It analyzes the life, Bukhara study period, and literary-educational activities of the enlightened poet Abdulla Gulshani. Furthermore, based on historical sources, it demonstrates his role in spreading Jadid ideas among the youth of Shakhrisabz and his ties with Turkestan intellectuals.

Key words: Jadid movement, Kashkadarya oasis, Shakhrisabz literary environment, Abdulla Gulshani, "Tuhfat ul-ahbab", enlightenment

Jadidchilik harakati dastlab Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona vodiysi kabi yirik madaniy-ma’rifiy markazlarda shakllangan bo‘lsa-da, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib uning g‘oyalari Turkistonning boshqa hududlariga, jumladan, Qashqadaryo vohasiga ham kirib bordi. Bu jarayon hududdagi mavjud ilmiy, adabiy va ma’rifiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda kechdi. Qashqadaryoning Shahrisabz, Qarshi, Kitob va boshqa hududlarida faoliyat yuritgan ziyolilar, ulamolar, shoirlar va ma’rifatparvarlar xalqning ilmiy-madaniy saviyasini yuksaltirishga xizmat qildilar. Shahrisabz qadimdan ko‘plab olim-u fuzalolar, shoirlar, xattotlar va madaniyat namoyandalari yetishib chiqqan maskan sifatida mintaqaning ma’naviy hayotida muhim o‘rin egallagan[1].

Ana shunday ma’rifatparvar va adabiyot ahillaridan biri Abdulla Abdurahmon o‘g‘li Gulshaniy bo‘lgan. U 1898-yilda Shahrisabz shahrining Zingaron mahallasida, ot abzallari tayyorlash bilan shug‘ullangan usta-kosib Abdurahmon Fozil xonadonida tavallud topgan. Yoshligidan zehni o‘tkirligi va ilmga bo‘lgan qiziqishi bilan ajralib turgan Abdulla olti yoshida tog‘asi Meyli qorining maktabida ta’lim ola boshlagan. U diniy bilimlarni puxta egallab, o‘n uch

yoshidayoq Qur’oni Karimni to‘liq yod olgan va “qori” unvoniga sazovor bo‘lgan. Boshlang‘ich ta’limdan so‘ng Abdulla Shahrisabzdagi nufuzli “Moliki ajdar” madrasasida tahsilini davom ettirdi. To‘rt yil davomida madrasa ta’limini olgach, o‘n sakkiz yoshida Buxoroga borib, mashhur Mir Arab madrasasida o‘qishini davom ettirdi. Buxoro ilmiy-madaniy muhiti uning dunyoqarashi va ijodiy salohiyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. U Asvad Maxsumdan mantiq ilmini, Abdullo kotibdan husni xat san’atini, Idris Maxsumdan esa aruz va muammo ilmlarini o‘rgandi[2].

Gulshaniy mumtoz Sharq adabiyotining yirik namoyandalari ijodini chuqur o‘rgandi. Xususan, Fuzuliy, Firdavsiy, Jomiy, Bedil, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Ogahiy kabi shoirlarning asarlarini mutolaa qilib, ularning ijodiy an’analaridan bahramand bo‘ldi. Mumtoz adabiyotga bo‘lgan qiziqishi uning o‘z ijodiy yo‘lini shakllantirishiga zamin yaratdi. Natijada Abdulla “Gulshaniy” taxallusi bilan g‘azallar yoza boshladi. Gulshaniyning adabiy faoliyati faqat shaxsiy ijod bilan cheklanib qolmagan. U o‘z zamondoshlari va ijodkor do‘stlari Voiziy hamda Salimiyning eng sara g‘azallarini jamlab, “Tuhfat ul-ahbob” (“Do‘stlar sovg‘asi”) nomli devonni tuzgan[3]. Mazkur asar Gulshaniyning nafaqat shoir, balki o‘z davrining adabiy merosini to‘plash, saqlash va kelajak avlodga yetkazishga intilgan ma’rifatparvar ziyoli sifatidagi faoliyatini ham ko‘rsatadi.

Gulshaniy jadidchilik g‘oyalarini faqat Buxoro doirasida qabul qilib qolmay, ularni Shahrisabz muhitida yoyishga ham intildi. Madrasa ta’tili vaqtlarida ona shahriga qaytib, do‘stlari va hamfikrlaridan iborat ma’rifiy guruh shakllantirdi. Ushbu guruh orqali Shahrisabz yoshlarini yangicha fikrlash, ilm-ma’rifat va ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalari bilan tanishtirishga harakat qildi. Shahrisabzdagi mazkur guruhning Buxoro va boshqa hududlardagi jadid ziyolilari bilan aloqalari ham yo‘lga qo‘yilgan. Fitrat, Behbudiy va Abdulla Qodiriy kabi ma’rifatparvar adiblar bilan fikr almashib turilgani Gulshaniyning faoliyati keng jadidchilik muhiti bilan bog‘langanini ko‘rsatadi. Jadidlar tomonidan Turkistonda nashr etilgan “Qutilish” gazetasining Shahrisabzga yuborib turilishi esa mahalliy

yoshlarning ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy qarashlarini shakllantirishda muhim vositalardan biri bo‘lgan. Gulshaniy, o‘z navbatida, Shahrisabzdagi guruh faoliyati haqida Buxorodagi hamfikrlariga ma’lumotlar yetkazib turgan. Shu tariqa, XX asr boshlarida Shahrisabzda jadidchilik g‘oyalarining tarqalishida mahalliy ziyolilarning Buxoro va Turkistonning boshqa ma’rifiy markazlari bilan aloqalari muhim omil bo‘ldi. Gulshaniyning faoliyati esa ushbu jarayonning shaxsiy tashabbus va ma’rifiy guruhlar orqali kechganini ko‘rsatuvchi muhim misollardan biridir. Gulshaniyning yangilik, ma’rifat va ijtimoiy o‘zgarishlarni targ‘ib qilishi amirlik hokimiyati tomonidan salbiy qabul qilindi. Ayniqsa, uning eski tartiblar, istibdod va jaholatni qoralovchi, xalqni ilm va ma’rifatga chaqiruvchi ijodi hokimiyat e’tiborini tortdi. 1919 yil bahorida Amir ayg`oqchilari Gulshaniyni otasining uyida qo`lga olib, Shahrisabz begi Said Akromxon to`raning zindoniga tashlaydi. Chunki Gulshaniy satira va yumoristik she`rlar orqali amir va uning amaldorlarini tanqid qila boshlaydi. Chunki u amirga atab quydagi sherni bitgan edi:

Siz birla bizning zikrimiz-siz bir taraf, biz bir taraf, Bir-biriga ziddir fikrimiz- siz bir taraf, biz bir taraf, Siz yangilikka qarshisiz, biz eskilikka qarshimiz Shu ikki maqsad ustida siz bir taraf, biz bir taraf, Har eskilik botil erur, tushunmagan johil erur Har yangilik qobil erur, siz bir taraf, biz bir taraf, Zindon bilan qo`rqitmangiz, urmoq bilan qo`rqitmangiz So`zga kirar deb kutmangiz, siz bir taraf, biz bir taraf, Bizlarga maqsad e`tiqod, mehnat eli bo`lsin ozod Maktabimiz bo`lsin obod, siz bir taraf, biz bir taraf Gulshan aytur sizga bul so`z, buni bilgay elu ramz Sizni yenggay ohi dil so`z, siz bir taraf, biz bir taraf

Mazmunidagi satrlari shoirning ijtimoiy qarashlarini yaqqol ifodalaydi. Unda eski tartib tarafdorlari bilan yangilanish va ma’rifat tarafdorlari o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi. Shoir maktablarning obod bo‘lishi, xalqning savodli va erkin hayot kechirishi, mehnatkashlar manfaatlarining ta’minlanishini taraqqiyotning muhim shartlari sifatida ilgari suradi. Gulshaniyning qamoqqa olinishi uning oilasiga ham katta moddiy va ma’naviy zarar yetkazdi. Taxminan besh oy o‘tgach,

otasi o‘z hovlisini sotib, yetishmagan mablag‘ni qarindoshlaridan qarz oldi va kafillik evaziga o‘g‘lini zindondan chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Mazkur voqea o‘sha davrda ma’rifatparvar ziyolilar boshidan kechirgan tazyiq va ta’qiblarning oilaviy hayotga ham og‘ir ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Gulshaniy 1917 yilda o`zi o`qigan madrasa mudarrisining qiziga uylangan edi, ammo Gulshaniy asrlik paytida uning turmush o`rtog`iga qora niyatli kimsalar *“Abdullani zindonda osib o`ldirishdi”* degan xabarni yetkazishadi. Sevganidan ayrilganini eshitgan 19 yoshli kelinchak zahar ichib joniga qasd qiladi. Keyinchalik bu voqeadan xabar topgan Gulshaniy Hikoyatxonga atab ko`plab g`azallar bitadi. Hokimiyat sho`rolar qo`liga o`tgach Abdulla Shahrisabz hukumati idorasida faoliyatini olib boradi, keyinchalik 1934-1935 yillarda Buxoro viloyati Qorako`l tumani ijroiya qo`mitasida ma`sul kotib, 1935-1937 yillarda shu tumanda nashr qilinadigan “Chorvador” gazetasi bosh muharriri ham bo`ldi, 1937-1939 yillarda esa shu tumanning xalq maorifi bo`limi mudiri bo`lib faoliyat ko`rsatdi. Abdulla Gulshaniy qaysi lavozimda ishlamasin zahmatkash xalq bilan birga bo`ldi, turmush darajasini oshirish uchun kurashdi va doim xalqni savodli qilish uchun jon koyitdi. Abdulla Abdurahmon o`gli Gulshaniy 1939 yilda yangi tashkil etilgan Qamashi tumaniga ishga yuboriladi va u dastlab tuman ijroiya qo`mitasi 1939-1940 yillarda kadrlar bo`limi boshlig`i, so`ng tuman yo`l qurulishi 1940-1941 yillarda boshlig`i sotsial ta`minot bo`limi 1941-1942 yillarda mudiri, Qoratepa qishloq matbuot jamiyati 1942 yil raisi, tuman firqa qo`mitasi va ijroiya qo`mitasining “Chim” jamoa xo`jaligida 1943-1944 yillarda doimiy vakil bo`lib faoliyat olib bordi. 1957 yilda nafaqaga chiqqan Gulshaniy 1962-1963 yillarda O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo`lib ham ishladi. U Abdurahmon Jomiyning “Risolai manzuma” asarini fors tilidan o`zbek tilig tarjima qiladi, Bundan tashqari M.Nishopuriyning “Muammo fani qoidalari haqida” kitobidan 6654 satr, “Muammo qoidalar” risolasidan 1340 satr, “99 nomli muammo” kitobidan 650 satr muammoli she`rni o`zbek tiliga o`girgan. Bu ishlar Gulshaniyning fors-tojik va o‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan, aruz va muammo san’ati bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgan olim va tarjimon sifatidagi salohiyatini namoyon etadi.

Abdulla Abdurahmon o‘g‘li Gulshaniyning hayot yo‘li Qashqadaryoda jadidchilik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining shakllanishi hamda yoyilish jarayonlarini shaxs taqdiri misolida yoritish imkonini beradi. Demak, Qashqadaryoda jadidchilik va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining yoyilishini faqat XX asr boshlarida tashkil etilgan yangi usul maktablari yoki siyosiy-ma’rifiy harakatlar doirasidagina baholash yetarli emas. Bu jarayonning ildizlarini hududda avvaldan shakllangan ilmiy, adabiy va ma’naviy muhit, xususan, madrasa ta’limi, xattotlik, she’riyat va kitobat an’analari bilan bog‘liq holda o‘rganish lozim. Abdulla Gulshaniyning hayoti va faoliyati ana shu tarixiy uzviylikni ko‘rsatuvchi muhim misollardan biridir.Abdulla Gulshaniy 1978-yil 28-dekabrda Qamashi tumanida 80 yoshida vafot etdi. Uning qoldirgan ilmiy-adabiy merosi va ma’rifatparvarlik faoliyati Qashqadaryo tarixining o‘ziga xos sahifalaridan biri sifatida tadqiq etishga loyiq.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yhati:

1. Sulaymonova Nilufar O`tkir qizi.XIX asr oxiri-XX asr boshlarida jadidchilik harakatining Qashqadaryoga kirib kelishi va uning ta`lim tizimiga oid tarixiy-pedagogik ildizlari //Maktabgacha va maktab ta`limi jurnali – N6(5), 2026 y
2. Абдивой Раҳим. “Беназир инсон эди”//Қашқадарё газета. 18.02.1998.
3. Ўролбой Қобил. “Қамашилик жадид бобо”//ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН газета. 7.06.2024.

XX ASRNING 30-YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA SHO‘RO DAVRI QATAG‘ON SIYOSATI: MANBALAR VA TARIXIY TAHLIL

NURALOVA NIGORA MANSUR QIZI
Abu Rayhon Beruniy universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 30-yillarida O‘zbekiston SSR hududida sovet totalitar tuzumi tomonidan amalga oshirilgan siyosiy qatag‘on siyosatining shakllanishi, institutsional mexanizmlari, asosiy nishonlari va

ijtimoiy-madaniy oqibatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sovet hokimiyatining markazlashuvi, “sinfiy dushman” va “aksilinqilobiy element” tushunchalarining siyosiy amaliyotga aylantirilishi, 1937–1938-yillardagi “Katta terror”ning O‘zbekistondagi xususiyatlari, NKVD organlari hamda suddan tashqari repressiv mexanizmlar faoliyati ko‘rib chiqiladi. Jadidlar, milliy ziyolilar, davlat va jamoat arboblari, diniy ulamolar, harbiy xizmatchilar hamda oddiy fuqarolarga qarshi qo‘llangan ayblovlarning mazmuni va ularning huquqiy-siyosiy mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, arxiv hujjatlari, normativ hujjatlar, xotira manbalari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni o‘zaro qiyoslash orqali qatag‘on ko‘lamini baholashning metodologik muammolari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sovet totalitarizmi, siyosiy qatag‘on, repressiya, “Katta terror”, O‘zbekiston SSR, NKVD, “uchliklar”, jadidchilik, milliy ziyolilar, arxiv manbalari, reabilitatsiya, tarixiy xotira.

Аннотация: В этой статье на основе исторических источников анализируются формирование, институциональные механизмы, основные цели и социально-культурные последствия политики политических репрессий, проводимой советским тоталитарным режимом на территории Узбекской ССР в 1930-е годы. В исследовании рассматриваются централизация советской власти, превращение понятий «классовый враг» и «контрреволюционный элемент» в политическую практику, особенности «Большого террора» 1937–1938 годов в Узбекистане, деятельность органов НКВД и внесудебных репрессивных механизмов. Раскрывается содержание обвинений против жадидов, национальной интеллигенции, государственных и общественных деятелей, религиозных ученых, военнослужащих и простых граждан, а также их правово-политическая суть. Также освещаются методологические проблемы оценки масштаба репрессий через сопоставление архивных и нормативных документов, мемуаров и современных научных исследований.

Ключевые слова: советский тоталитаризм, политические репрессии, «Большой террор», Узбекская ССР, НКВД, «тройки», джадидизм, национальная интеллигенция, архивные источники, реабилитация, историческая память.

Abstract: This article analyzes, based on historical sources, the formation, institutional mechanisms, main targets, and socio-cultural consequences of the political repression carried out by the Soviet totalitarian regime in the territory of the Uzbek SSR during the 1930s. The study examines the centralization of Soviet power, how the concepts of 'class enemy' and 'counter-revolutionary element' were turned into political practice, the specific features of the 'Great Terror' in Uzbekistan in 1937–1938, and the activities of the NKVD organs and extra-judicial repressive mechanisms. It also reveals the content of accusations used against Jadid intellectuals, national intelligentsia, state and public figures, religious scholars, military personnel, and ordinary citizens, as well as their legal and political nature. Additionally, by comparing archival documents, regulatory documents, memoir sources, and modern scientific research, the methodological challenges of assessing the scale of repression are discussed.

Keywords: Soviet totalitarianism, political repression, Great Terror, Uzbek SSR, NKVD, troikas, Jadidism, national intelligentsia, archival sources, rehabilitation, historical memory.

XX asrning birinchi yarmi O‘zbekiston tarixida keskin siyosiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, ommaviy zo‘ravonlik va siyosiy ta’qiblarning kuchayishi bilan ham tavsiflanadi. 1917-yildan keyin Turkiston hududida sovet hokimiyati qaror topishi bilan davlat boshqaruvi, iqtisodiy munosabatlar, ta’lim, madaniyat va diniy hayotning deyarli barcha sohalarida markazlashgan siyosat joriy etildi. 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda ushbu tizim tobora repressiv tus olib, siyosiy sadoqatni majburan ta’minlash, muqobil fikr

va mustaqil ijtimoiy tashabbuslarni cheklash hamda “ishonchsiz” deb topilgan guruhlarni jamiyatdan chiqarib tashlash amaliyotiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qatag‘on qurbonlari xotirasiga bag‘ishlangan tadbirlarda ularning millatning ilg‘or vakillari bo‘lganini, ularning taqdirini o‘rganish va nomlarini tiklash tarixiy adolatni qaror toptirishning muhim sharti ekanini ta’kidlagan. Rasmiy ma’lumotlarda 1937–1953-yillarda O‘zbekistonda 100 mingdan ortiq kishi qatag‘on siyosatining qurboni bo‘lgani, ularning 13 ming nafari otib tashlangani qayd etiladi; 1937–1938-yillardagi eng keskin bosqichda qariyb 7 ming kishi otib tashlanganligi ham ko‘rsatiladi [1; 2].

Tadqiqotning asosiy maqsadi XX asrning 30-yillarida O‘zbekiston SSRda sovet qatag‘on siyosatining shakllanishi va amalga oshirilish mexanizmlarini arxiv va nashr etilgan tarixiy manbalar asosida tahlil qilish, uning asosiy yo‘nalishlari hamda ijtimoiy-madaniy oqibatlarini ilmiy jihatdan umumlashtirishdan iborat. Shuningdek 1930-yillargacha bo‘lgan repressiv siyosatning shakllanish omillarini aniqlash, 1937–1938-yillardagi “Katta terror”ning huquqiy va institutsional mexanizmlarini tahlil qilish, O‘zbekiston SSRda siyosiy elita, jadidlar, ziyolilar, ruhoniylar va boshqa guruhlarga qarshi qo‘llangan ayblovlar tizimini ochib berish, qatag‘onning ilmiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy oqibatlarini aniqlash, mustaqillik davrida reabilitatsiya va tarixiy xotirani tiklash siyosatini tahlil qilishdan iboratdir.

Manbalarni tanqidiy o‘rganish qatag‘on tarixining o‘ziga xos muammolaridan biridir. Repressiya davrida tuzilgan tergov bayonnomalari ko‘pincha ayblovning oldindan belgilangan siyosiy sxemasiga moslashtirilgan. Shuning uchun bunday hujjatlarda uchraydigan “iqrorlik” va “guvohlik”larni avtomatik ravishda tarixiy haqiqat sifatida qabul qilish mumkin emas. Ularni boshqa arxiv materiallari, keyingi reabilitatsiya hujjatlari va mustaqil tadqiqotlar bilan solishtirish zarur.

Maqolada “qatag‘on”, “repressiya”, “siyosiy ta’qib” tushunchalari o‘zaro yaqin, biroq bir xil bo‘lmagan hodisalarni ifodalashi hisobga olindi. “Qatag‘on” kengroq tarixiy hodisa sifatida siyosiy ta’qib, qamoq, surgun, mol-mulkdan

mahrum etish, majburiy ko‘chirish va jismoniy yo‘q qilish kabi amaliyotlarni qamrab oladi. “Katta terror” esa, avvalo, 1937–1938-yillarda ommaviy qatag‘onning keskinlashgan bosqichini anglatadi.

Sovet qatag‘on siyosatini 1937–1938-yillar bilan cheklab qo‘yish tarixiy jarayonning dastlabki bosqichlarini nazardan qoldiradi. 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy tizimda markazlashuv kuchayib, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatga qarshi chiqqan yoki muqobil qarash bildirgan guruhlar “sinfiy dushman”, “millatchi”, “aksilinqilobchi” kabi siyosiy tamg‘alar bilan ta’qib qilina boshladi. O‘zbekistonda yer-suv islohoti, kollektivlashtirish va “quloqlarni sinf sifatida tugatish” kampaniyalari qishloq jamiyatidagi an’anaviy ijtimoiy munosabatlarni keskin o‘zgartirdi [3; 4].

Ayni paytda milliy ziyolilar masalasi ham sovet siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jadidchilikning ma’rifat, milliy o‘zlik, zamonaviy ta’lim va milliy davlatchilik haqidagi qarashlari sovet mafkurasi bilan murakkab munosabatda bo‘ldi. Dastlab ayrim jadidlar yangi siyosiy sharoitda davlat va ma’rifat tizimida faoliyat yuritgan bo‘lsalar-da, keyinchalik ularning mustaqil intellektual mavqei va milliy taraqqiyot haqidagi qarashlari “burjua millatchiligi” sifatida talqin qilindi.

1930-yillarning boshlarida “Milliy Istiqlol” kabi guruhlar bo‘yicha ishlar olib borilishi milliy ziyolilarni siyosiy jihatdan ishonchsiz guruh sifatida ko‘rsatishga xizmat qildi. 1931-yilda Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi guruh a’zolariga nisbatan sud jarayoni o‘tkazilib, 15 kishi oliy jazoga hukm qilingan, boshqalar uzoq muddatli jazolarga tortilgan [5]. Bu jarayon 1937–1938-yillardagi keng qamrovli repressiyalarga olib kelgan siyosiy-huquqiy muhitning shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

1937-yil yozidan boshlab siyosiy repressiyalar SSSR miqyosida yangi bosqichga ko‘tarildi. 1937-yil 2-iyuldagi siyosiy qarorlar va 30-iyuldagi SSSR NKVDning 00447-sonli operativ buyrug‘i “sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa aksilsovet elementlar”ga qarshi ommaviy operatsiyani tashkil etishning asosiy hujjatlaridan bo‘ldi [6; 7]. Mazkur buyruq repressiyaga uchraydigan shaxslarni ikki

toifaga ajratishni nazarda tutdi: birinchi toifa bo‘yicha o‘lim jazosi, ikkinchi toifa bo‘yicha esa mehnat-tuzatish lagerlariga yuborish ko‘zda tutilgan.

Buyruqning o‘ziga xos jihati shundaki, repressiya miqdoriy ko‘rsatkichlar, hududiy “limitlar” va tezkor operatsiya tamoyili bilan bog‘landi. Natijada jinoyatni individual isbotlashga asoslangan sud amaliyoti o‘rnini ma’lum ijtimoiy guruhga mansublik yoki siyosiy shubha asosida ommaviy jazolash mexanizmi egalladi. Bu holat totalitar siyosiy tizimning huquqni siyosiy maqsadlarga bo‘ysundirish xususiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

O‘zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston SSRlarida 00447-sonli operatsiyani boshlash sanasi markaziy buyruqda 1937-yil 10-avgust deb belgilangan edi [7]. O‘zbekiston sharoitida NKVD organlari tomonidan tuzilgan tezkor guruhlar, tergov amaliyoti va suddan tashqari ko‘rib chiqish mexanizmlari ommaviy qamoqlarni tezlashtirdi.

“Uchliklar ning faoliyati repressiv tizimning muhim instituti bo‘ldi. Ular tegishli hududdagi NKVD rahbari, prokuratura vakili va partiya rahbari ishtirokidagi maxsus tarkibda ish yuritib, ko‘plab holatlarda sudning odatiy protsessual kafolatlarisiz qarorlar qabul qilgan. 1938-yil noyabrida ommaviy “uchliklar” tizimi tugatilgan bo‘lsa-da, repressiya mexanizmlari bundan keyin ham boshqa shakllarda davom etdi [8].

1937–1938-yillarda O‘zbekiston SSRning yuqori siyosiy va davlat boshqaruvi qatlamlari ham ommaviy ta’qibga uchradi. Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov va boshqa davlat arboblariga nisbatan “millatchilik”, “aksilinqilobiy faoliyat” kabi ayblovlar qo‘yildi. Ularning siyosiy faoliyati sovet hokimiyati tomonidan ilgari qo‘llab-quvvatlangan davrlar bilan keskin qarama-qarshi talqin qilina boshladi. Bu holat totalitar tizimda siyosiy sadoqat mezonining o‘zgaruvchanligini va kechagi hamkorning bugun “xalq dushmani”ga aylantirilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Siyosiy elitaning yo‘q qilinishi mahalliy boshqaruvning tajribali kadrlar qatlamiga kuchli zarba berdi. Repressiya nafaqat alohida shaxslarni, balki ularning professional va ijtimoiy tarmoqlarini ham izdan chiqardi. Natijada davlat

apparatida kadrlar almashinuvi tezlashdi va markaziy nazoratning kuchayishi uchun qulay sharoit yuzaga keldi [3; 9].

Qatag‘on siyosatining eng og‘ir zarbalaridan biri milliy uyg‘onish harakati vakillari va ziyolilar qatlamiga berildi. Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, G‘ozi Yunusov va boshqa ko‘plab ijodkor va olimlar siyosiy ayblovlar bilan ta’qib qilindi. Ularning ilmiy va badiiy merosi ham siyosiy nazorat ostiga olindi. 1938-yil 4-oktyabrda Fitrat, Cho‘lpon va Qodiriy kabi yirik namoyandalar qatl etilgani tarixiy manbalarda qayd etilgan [10; 11].

Jadidlarning ta’qib qilinishi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ldi. Birinchidan, ularning o‘zlari qamoqqa olinib, siyosiy ayblovlar bilan jazolandi. Ikkinchidan, ularning asarlari, ilmiy qarashlari va nomlarini jamoatchilik xotirasidan chiqarishga qaratilgan mafkuraviy siyosat olib borildi. Natijada bir necha avlod davomida milliy intellektual merosning muhim qismi ilmiy va ta’lim muomalasidan chetlashtirildi.

Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Fitratning qatag‘on qilinishi o‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixida chuqur uzilish yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Masalan, Cho‘lponning tarjimonlik, she’riyat va dramaturgiyadagi faoliyati, Qodiriyning roman janrini rivojlantirishdagi roli, Fitratning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va dramaturgiya sohalaridagi izlanishlari bir vaqtning o‘zida siyosiy ta’qibga uchragan [10; 12].

Sovet modernizatsiyasi diniy institutlarni davlat nazoratiga olish va ularning ijtimoiy mavqeini keskin cheklash bilan kechdi. 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda masjidlar, madrasalar va diniy ta’lim tarmoqlariga nisbatan ma’muriy bosim kuchaydi. Diniy ulamolarning bir qismi “aksilinqilobiy”, “diniy fanatizm”, “sovet tuzumiga qarshi targ‘ibot” kabi ayblovlar bilan qamoqqa olindi yoki surgun qilindi. Shu tariqa qatag‘on siyosati diniy bilimning uzatilish mexanizmlariga ham ta’sir ko‘rsatdi.

Repressiya siyosati siyosiy elita va ziyolilar bilan cheklanmagan. Harbiy xizmatchilar, xo‘jalik rahbarlari, kolxozchilar, ishchilar va boshqa ijtimoiy guruhlar ham “ishonchsiz” yoki “aksilsovet” sifatida ta’qib qilingan. Ayrim

hollarda bir shaxsning qarindoshligi, avvalgi ijtimoiy mavqei yoki ma’lum guruhga mansubligi ham shubha uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Bu esa kollektiv javobgarlik tamoyilining kuchayganidan dalolat beradi.

Sovet qatag‘on siyosatini huquqiy jihatdan tahlil qilishda ikki jihatni ajratish zarur. Birinchisi — amaldagi jinoyat-huquqiy normalarning siyosiy talqini; ikkinchisi — suddan tashqari yoki soddalashtirilgan tartiblarning kengayishi. 1937-yilgi 00447-sonli buyruq ana shu ikkinchi jarayonning yaqqol ko‘rinishidir. “Aksilsovet element” tushunchasining nihoyatda keng talqin qilinishi esa turli ijtimoiy guruhlarni yagona siyosiy xavf kategoriyasiga kiritish imkonini berdi [6; 7].

Repressiya tizimining siyosiy mohiyati shundaki, “jinoyat” tushunchasi tobora siyosiy sadoqatsizlik bilan tenglashtirildi. Natijada shaxsning real xatti-harakatidan ko‘ra, uning siyosiy qarashlari, kelib chiqishi, ijtimoiy mavqei yoki boshqa shaxslar bilan aloqasi muhimroq bo‘lib qoldi. Bu totalitar boshqaruvning asosiy belgilaridan biri — huquqni siyosiy maqsadga bo‘ysundirish jarayonini namoyon etadi.

1938-yil repressiya ko‘lamining yuqori darajada saqlanib qolgan davri bo‘ldi. O‘zbekiston SSR hududida davlat arboblari, yozuvchilar, olimlar, harbiylar va boshqa guruhlarga qarshi ishlar ko‘rib chiqildi. 1938-yil 4–7-oktyabr kunlari Toshkentda qator qatag‘on qurbonlari qatl etilgani haqida manbalar mavjud [10; 13]. Xususan, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho‘lpon 4-oktyabrda otib tashlangan.

Bu voqealarning tarixiy ahamiyati shundaki, bir vaqtning o‘zida o‘zbek adabiyoti va ilmiy tafakkurining bir necha yetakchi namoyandalaridan ayrilish milliy madaniyatning tabiiy rivojlanishiga jiddiy zarba berdi. Qatag‘on nafaqat mavjud avlodni yo‘qotdi, balki ularning ilmiy maktablari va shogirdlik an’analarining uzilishiga ham olib keldi. Shuning uchun “intellektual yo‘qotish” tushunchasi qatag‘on oqibatlarini baholashda alohida ilmiy kategoriya sifatida qaralishi lozim.

1938-yilgi qatl va sud jarayonlari qatag‘on siyosatining huquqiy mexanizmlari ham turlicha bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayrim ishlar suddan tashqari “uchliklar” orqali, boshqalari esa SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor sessiyalari orqali ko‘rilgan. Qatag‘on siyosatining eng chuqur oqibatlaridan biri jamiyatda ijtimoiy ishonchning zaiflashuvi bo‘ldi. Odamlar o‘z fikrini ochiq ifodalashdan qo‘rqishi, yaqin kishilarining faoliyati uchun javobgarlikdan xavotirlanishi va davlat organlariga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo‘lishi mumkin edi. Bunday muhit jamiyatning tabiiy tashabbuskorligini susaytirib, davlatga qaramlikni kuchaytirdi.

Ijtimoiy oqibatlar oilaviy darajada ham namoyon bo‘ldi. Qamoqqa olingan yoki qatl etilgan shaxslarning oila a’zolari turli ma’muriy cheklovlarga duch kelishi, “xalq dushmani oilasi” kabi siyosiy tamg‘alar bilan yashashi mumkin edi. Shu sababli qatag‘on tarixini o‘rganishda “jabrlanuvchi” tushunchasini faqat qatl etilgan yoki qamoqqa olingan shaxs bilan cheklamasdan, uning oila va ijtimoiy muhitiga ta’sirini ham hisobga olish lozim.

Qatag‘on tarixining eng muhim manbalari arxivlarda saqlanayotgan tergov, sud, partiya va davlat boshqaruviga oid hujjatlardir. Ular orasida shaxsiy yig‘majildlar, orderlar, so‘roq bayonnomalari, ayblov xulosalari, hukmlar, qamoq va surgun haqidagi ma’lumotlar, xizmat yozishmalari hamda keyingi reabilitatsiya hujjatlari alohida ahamiyatga ega. Biroq har bir manba o‘zining yaratilish sharoiti va maqsadi bilan birgalikda tahlil qilinishi kerak.

Normativ manbalar qatag‘on siyosatining davlat darajasida qanday rejalashtirilganini ko‘rsatadi. Xususan, 00447-sonli buyruq repressiya kategoriyalari, operatsiyaning boshlanish muddati va “uchliklar” faoliyati kabi masalalarni ochib beradi [6; 7]. Bunday hujjatlar repressiyaning tasodifiy emas, balki yuqoridan boshqarilgan siyosiy kampaniya ekanini ko‘rsatishda muhimdir.

Manbashunoslik nuqtayi nazaridan eng samarali yondashuv “uch qatlamli tekshiruv”ni nazarda tutadi: birlamchi hujjat; boshqa mustaqil hujjat bilan qiyoslash; zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan interpretatsiya. Bunday yondashuv

qatag‘on tarixini siyosiy stereotiplardan xoli, dalillarga asoslangan tarzda tiklash imkonini beradi.

Qatag‘on qurbonlari sonini aniqlashda turli davrlar va turli toifadagi jazolarni bir-biridan farqlash zarur. Rasmiy nutq va xotira materiallarida 1937–1953-yillar bo‘yicha 100 mingdan ortiq qatag‘on qurboni va 13 ming otib tashlangan shaxs haqidagi raqamlar keltiriladi [1; 2]. Bu ko‘rsatkichlar qatag‘onning keng tarixiy davrini ifodalaydi va 1937–1938-yillardagi “Katta terror”ning o‘ziga xos statistik ko‘rsatkichlari bilan aynanlashtirilmasligi kerak.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, sovet qatag‘onlari tarixini qayta ko‘rib chiqish va qatag‘on qurbonlari nomlarini tiklash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2001-yilda Toshkentda “Shahidlar xotirasi” majmuasi va Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi tashkil etilishi tarixiy xotirani institutsional darajada mustahkamlashning muhim bosqichi bo‘ldi [14]. Keyingi yillarda muzey faoliyati hududiy bo‘limlar va yangi ekspozitsiyalar bilan kengaytirildi.

Reabilitatsiya jarayoni ham yangi bosqichga ko‘tarildi. 2021–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 1 200 dan ziyod siyosiy qatag‘on qurbonlarining nomlari oqlangani rasmiy ma’lumotlarda qayd etilgan [15]. Bu ko‘rsatkich reabilitatsiya ishlarining davom etayotganini va arxiv materiallarini qayta ko‘rib chiqish orqali tarixiy adolatni tiklashga e’tibor kuchayganini ko‘rsatadi.

2024-yil 19-iyuldagi Prezident qarorida siyosiy qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish, xotirasini abadiylashtirish va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish vazifalari belgilangan [15]. Mazkur yondashuv qatag‘on tarixini faqat xotira marosimi doirasida emas, balki hujjatli, ilmiy va ta’limiy faoliyatning uzviy qismi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Tarixiy adolatni tiklashda shaxslar bo‘yicha biografik ma’lumotlarni raqamlashtirish, arxiv fondlarini ilmiy kataloglashtirish, qatag‘on ishlarini hududiy va ijtimoiy guruhlar kesimida statistik tahlil qilish hamda ochiq ilmiy bazalarni

yaratish kerak. Bunday yondashuv tadqiqotchilar uchun manbalarga kirishni yengillashtiradi va tarixiy xotiraning barqarorligini oshiradi.

Mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularning merosini o‘rganish va siyosiy reabilitatsiya jarayonlarining kengayishi tarixiy adolatni tiklashning muhim bosqichi bo‘ldi. Bugungi vazifa — bu jarayonni ilmiy asosda davom ettirish, arxiv fondlarini raqamlashtirish, shaxslar bo‘yicha biografik ma’lumotlarni tizimlashtirish, qatag‘on geografiyasini o‘rganish va natijalarni ta’lim jarayoniga mas’uliyatli tarzda joriy etishdir.

Shunday qilib, qatag‘on tarixini o‘rganish o‘tmishdagi fojialarni qayd etish bilangina cheklanmaydi. U huquq ustuvorligi, inson qadr-qimmati, tarixiy xotira va ilmiy xolislikning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini anglashga xizmat qiladi. Qatag‘on qurbonlarining hayoti va merosini chuqur tadqiq etish milliy tarixning uzviyligini tiklash va kelajak avlodlar uchun ishonchli tarixiy xotira yaratishning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. “Shavkat Mirziyoyev: Agar ular qatag‘on qilinmaganida, buyuk ishlarni amalga oshirgan bo‘lar edi”. 31.08.2020. Prezident.uz rasmiy sayti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Vatan ozodligi yo‘lida shahid ketganlar xotirasi mangu barhayotdir”. 2023. Prezident.uz rasmiy sayti.
3. Shamsutdinov R. O‘zbekistonda sovetlarning qatag‘onlik siyosati va uning oqibatlari. Toshkent: Sharq, 2012.
4. Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun va qatag‘on. Toshkent: Sharq, 2003.
5. Rajabov Q., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi. 10-sinf darsligi. Toshkent, 2017.
6. Органы ВЧК–ОГПУ–НКВД на защите советской государственности. Сборник документов / под ред. С.В. Степашина. Москва: Прогресс, 2001.

7. Оперативный приказ НКВД СССР № 00447 от 30 июля 1937 г. «Об операции по репрессированию бывших кулаков, уголовников и других антисоветских элементов».
8. Истмат. Из протокола № 51 заседания Политбюро ЦК ВКП(б) и документы о создании «троек» НКВД. Elektron hujjatlar to‘plami.
9. Rajabov Q. Tarix ko‘zgusidagi haqiqat: Fayzulla Xo‘jayev va Akmal Ikromov davri. Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
10. Karimov N. Qatag‘on qurbonlari: Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy. Hujjatli xronika. Toshkent: Adabiyot va san’at, 2007.
11. Abdulla Qodiriy (1894–1938). Ziyouz elektron kutubxonasi. Biografik materiallar.
12. Abdurauf Fitrat (1886–1938). Ziyouz elektron kutubxonasi. Biografik materiallar.
13. 1937–1938-yillardagi Katta qirg‘in tarixining muhim sanalari. Hujjatlar to‘plami.
14. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi va “Shahidlar xotirasi” majmuasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy materiallari.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi siyosiy qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda xotirasini abadiylashtirishga oid qarori. UZA.uz.
16. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi. Ilmiy jurnallarga qo‘yiladigan umumiy talablar va ilmiy maqolalarni nashrga tayyorlash bo‘yicha rasmiy materiallar.
17. Conquest R. The Great Terror: A Reassessment. Oxford University Press, 1990.
18. Getty J. Arch; Naumov O.V. The Road to Terror: Stalin and the Self-Destruction of the Bolsheviks, 1932–1939. Yale University Press, 1999.
19. Werth N. The NKVD Mass Secret Operation No. 00447 (August 1937 – November 1938). Tarixiy tadqiqotlar va hujjatlar asosida.
20. Snyder T. Bloodlands: Europe Between Hitler and Stalin. Basic Books, 2010.

JADIDLARNI ANGLASH O’ZLIKNI ANGLASHDIR

Otabek Maxsudjonov

Is’hoqxon Ibrat – Qatag’on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta’minlash yo’lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag’on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o’rganish hamda targ’ib etish borasida amalga oshirilgan ishlar kabi mavzularni ko’rishimiz mumkin. Shuningdek, Is’hoqxon Ibratning ilmiy faoliyati, qozilik ishlari hamda xotirasini abadiylashtirish haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so’zlar: Jadidlar tarixi, Qatag’on qurbonlari, Is’hoqxon Ibrat, “Is’hoqiya bosmaxonasi”, “Is’hoqxon Ibrat – Qatag’on qurbonlari xotirasi” muzeyi.

Аннотация: В этой статье мы увидим такие темы, как независимость нашей Родины, свобода и неприкосновенность нашего народа, работа по увековечению памяти наших предков, которые отдали свои родные души в мирной борьбе за обеспечение мирной и благополучной жизни будущих поколений, изучение и пропаганда их деятельности и наследия. Также были высказаны мысли об увековечивании памяти Исхак-хана Ибрата, его научной деятельности, казымских делах.

Ключевые слова: история джадидов, жертвы репрессий, Исак Хан Ибрат, “типография Исакия”, музей “Исак Хан Ибрат – память жертв репрессий”.

Abstract: in this article we can see such topics as the immortalization of the memory of our ancestors, the study and promotion of their activities and heritage, which were repressed during the period of the turbulent regime, fought valiantly on the path to the independence of our motherland, freedom and freedom of our people, the peaceful and prosperous life of future generations. It was also thought

about the scientific activities of Isahak Khan Ibrat, the work of qazilik and the perpetuation of his memory.

Keywords: history of the Jadids, victims of repression, is'hoqkhan Ibrat, “is'hoqiya printing house”, “is'hoqkhan Ibrat – memory of victims of repression” Museum.

So’nggi yillarda O’zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari juda ham og’riqli bo’lgan davrlarga yani jadidlar, qatag’on qurbonlari tarixiga bag’ishlangan juda ko’plab konferensiyalar, ilmiy amaliy anjumanlar o’tkazib kelinmoqda. Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta’minlash yo’lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag’on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o’rganish hamda targ’ib etish borasida amalga oshirilgan ishlarni yodga oladigan bo’lsak o’tgan davrda mobaynida ushbu yo’nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag’on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmasida qatag’on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risidagi 2017-yil 22-noyabrdagi 936-son qarori [1;1,2], O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qatag’on qurbonlarining merosini yanada chuqur o’rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2020-yil 8-oktyabrdagi F-5598-sonli farmoyishi [2;1], Yurtimizda 2001-yildan buyon har yili 31-avgust — “Qatag’on qurbonlarini yod etish kuni” sifatida keng nishonlab kelinishi, “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etilishi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Qatag’on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshida uning bo’limlari tashkil etilishi va davlat tomonidan qo’llab quvvatlanayotgan ko’plab loyihalar so’zimiz isbotidir.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari biz uchun judam qayg’uli va fojialarga boy bo’lgan davr hisoblanadi. Jadidlar tarixi o’rganish nimasi bilan

bizga foydali bo’lishi mumkin? Bu tarix bizga o’sha paytlardagi katta xatolar, og’ir kulfatlar, voqea va hodisalarni anglashga ko’maklashadi. Tarixni bilishning xech qanday og’irligi bo’lmaydi aksincha juda ham foydali tomonlari ko’pdir. Tarix bizga o’tmishdagi xatolarni takrorlamaslikni o’rgatadi. Tarix o’tmishdagi shonli davrlar va o’zlikni anglashga ham yordam beradi. Chunki bizning tariximiz faqat fojialardan iborat emas balki, ulug’ davlatlar, nihoyatda qudratli saltanatlar, amirlilar, xonliklar qurgan davlat hisoblanadi

XX asrning boshlarida xalqimizning oldida juda ham og’riqli bo’lgan bir tanlov turar edi. Bir tomondan qotib qolgan ijtimoiy-madaniy hayot vaziyatni isloh qilishni istamas edi. Ikkinchi tomondan o’zligimizni inkor qiluvchi imperiya tomonidan taklif qilingan zamonaviy oqim bizning o’zligimizni saqlashga inkoniyat bermas edi. Mana shunday davrda jadidlar maydonga chiqdilar. Ularning olg’a surgan takliflari islohatlar o’tkazish, zamonaviy davlat qurish, ma’rifat, madaniyat va adabiyotga katta etibor berish orqali milliy uyg’onishni shakllantirishga, yaratishga ular bel bog’lagan edilar.

Jadidlar uchun ularning qo’llaridagi boyliklar ikkinchi darajali vosita edi holos. Ular o’zlarida bor barcha boyliklarini millatning tafakkurini o’zgartirishga, isloh qilishga va Turkistonda juda ham salohiyatli bo’lgan siyosiy harakat yaratishga bel bog’lashgan edi.

Jadidlar o’zliklarimizdan voz kechmagan xolatda o’zligimizni parvarishlash, o’stirish, rivojlantirishga harakat qilganlar. Jadidlar o’zligimiz asosidagi islohot harakati yani zamonaviy yo’lni shakllantirishga intilgan edilar. Lekin bu yondashuvni mahalliy aholi uchun naqadar jozibador ekanligini va imperiya uchun naqadar tahditli ekanligini bilgan o’sha davrdagi chor rossiyasi amaldorlari jadidlarni qatag’on qilgan edi. Bugungi kundagi Toshkent shahri Yunusobod tumani Bo’zsuv kanali bo’yida joylashgan Shahidlar xotirasi yodgorlik majmuasi joylashgan. O’sha paytlarda Toshkentning xilvat chekkasi bo’lgan joyda 3 ta qatlgoxda sho’rolar tomonidan millatning ilg’or vakillari jadid ajdodlarimiz qatl qilingan.

Bugun O’zbekiston xalqi va millati oldida juda muhim bo’lgan vazifalar turibdi bu tariximiz va o’zligimizni anglash vazifasidir. Tariximizni bilish bizga o’tmishdagi xato kamchiliklarimizni to’g’irlash imkoniyatini beradi. Biz kimmiz degan savolga javob beradi. Bizning do’stlarimiz kim ya’ni o’zlik masalasiga to’liq javob beradi. Abdulla Qodiriy tabiri bilan aytganda “moziyga qaytib ish ko’rmoq xayrlidir”. Jadidlarni bilishimiz va bugungi milliy zehnimizga, siyosiy qarashlarimizga o’tmishdagi, o’tmish borasidagi bilimlarimizni joylashimiz, singdirishimiz kelajakdagi o’zimizga bo’lgan ishonchga va bugungi mustaqilligimiz ulug’ ne’mat ekanligini anglashga yordam beradi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida hozirgi O’zbekiston hududidan shunday ulug’ siymolar yetishib chiqdiki, ularning hayoti, ijtimoiy, ma’rifatparvarlik va adabiy faoliyatini o’rganganimiz sayin bu davrning tom ma’noda milliy uyg’onish davri bo’lganiga ishonch hosil qilamiz. Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Buxoroda Fitrat, Samarqandda Mahmudxo’ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Sayid Rizo Alizoda, Abduqodir Shakuriy, Farg’ona vodiysida Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So’fizoda, Ibrohim Davron, Cho’lpon, Ashurali Zohiriy kabi ziyolilarning aynan shu tarixiy davrda maydonga chiqishi mustamlakachilik, jaholat sharoitida yashayotgan xalq taqdirini o’zgartirib yubordi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Milliy uyg’onish davrining yetuk namoyandalaridan biri, noyob iste’dod egasi, ko’plab Sharq va G’arb tillarining bilimdoni, o’lkamizdagi ilk matbaachilardan biri sifatida Vatan taraqqiyoti yo’lida fidokorona xizmat qilgan Is’hoqxon Ibrat nomini abadiylashtirish maqsadida hamda O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil Namangan viloyatida bo’lib o’tgan saylovoldi uchrashuvida ilgari surgan ustuvor vazifalar ijrosi doirasida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi 208-son qarori asosida Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumanida atoqli ma’rifatparvar jadid bobomiz Is’hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasi bunyod etilgan [3;1]. Atoqli ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibrat nomidagi yodgorlik majmuasida “Is’hoqxon Ibrat – Qatag’on qurbonlari xotirasi muzeyi”, “Is’hoqxon

To’ra Ibratga atab zamonaviy bog’, yodgorlik majmuasi hamda xorijiy tillarni o’rganish maktabi tashkil etildi. Is’hoqxon Ibrat muzeyi To’raqo’rg’on tumanidagi madaniy meros obyekti bo’lgan G’oyibnazar Qozi madrasasi negizida tashkil etilgan. Dunyoviy bilimlarni chuqur o’rgangan, yetti tilni mukammal bilgan serqirra ijodkor, olim va shoir, pedagog Ishoqxon Ibratning hayoti va ijodi yoshlar uchun chinakam ibrat maktabidir. Ibrat muzey ochilishida Prezidentimiz allomaning “Olti tilli lug’at”, “Xatlar majmui”, “Tarixi Farg’ona”, “Tarixi madaniyat”, “Zamon tarozusi” singari 14 ta tilshunoslikka oid, ilmiy-tarixiy, badiiy hamda ma’rifiy asarlari haqidagi ma’lumotlar bilan tanisharkan, domlaning ko’plab kitoblari qatag’on yillari yoqib va ko’mib yuborilgani adabiyotimiz uchun katta yo’qotish bo’lganini afsus bilan ta’kidlaganlar.

Darhaqiqat, Ibratning ilk matbaachi, yangi usuldagi maktab asoschisi sifatidagi bemisl xizmatlari tahsinga sazovor. U 1908-yilda Orenburg shahridan litografik mashina xarid qilib ming mashaqqatlar bilan Namanganga olib kelgan va “Is’hoqiya bosmaxonasi”ga asos solgan [4;1]. Mazkur bosmaxonada o’tgan asrning 60 yillariga qadar turli ilmiy-ma’rifiy kitob va risolalar, “Turkiston viloyati gazeti”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg’ona” singari gazetalar chop etilgan.

Shuningdek, Ibrat shoir sifatida ham devon tartib bergan. Ming taassufki, uning “Devoni Ibrat”i bizgacha yetib kelmagan. O’z davrida el orasida yuksak e’tibor topib, qozilik martabasiga erishgan, biroq, ayrim g’alamisliklar bois tazyiqqa uchragan ma’rifatparvar bobomiz 1937-yilda 75 yoshida hibsga olinib, vafot etadi.

Ayni paytda ushbu Ibrat muzeyida buyuk ajdodimizning qo’lyozmalari, risolalari, foydalangan buyumlari, suratlari, liboslari, o’quv qurollari va uy-ro’zg’or jihozlari hamda bir qator qimmatli va nodir manbalar o’rin olgan.

Oqni qoradan ajratish hammaning ham qo’lidan kelaveradigan ish emas. Adolat go’yo tarozi, uning ikki pallasini o’nga ham, chapga ham og’dirmasdan muvozanatda ushlab turishga qodir insonlar hamisha el yurtda obro’ e’tiborga ega bo’lganlar xuddi Ibratdek. Musulmon qavmida shariy va noshariylik tushunchasi adolat mezonining mustahkam poydevoriga aylanganini anglasak, o’tmishdagi

qozilar zimmasida shu ikki narsani juda chuqur va puxta bilish, xukmi ajrimda undan chetga chiqmaslik, birini biriga aralashtirib quymaslik yagona shart edi. Bu kitob ko'rgan, o'qimishli ziyolilarning uncha munchasining qo'lidan kelmaydigan ishga, ko'plab odamlarni ichidan saralab saylash ham, tanlab tayinlash ham qiyindan qiyin masala. Hukm masuliyati kimning yelkasida bo'lsa, o'sha barchasiga javobgar bo'lishi tabiiy. Axir ming-minglab murojatga muhtojlarni qanoatlantirish ma'suliyati qayerdayu, buning o'rniga arzchida norozilik kayfiyatini uyg'otib "qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan" kimsalarga xalq taqdirini topshirish qayoqda. Ibrat yashagan zamonda yuqoridagi ikki toifa qozilar ish yuritganini xech inkor qilib bo'lmaydi. Yaxshilarga yondashib yaxshilarni yanada yaxshilab, yomonlarni yomonlikdan qaytarib janjalli masalalarni janjalsiz hal etilishiga yo'llab, adolat tantanasini taminlashga intilganidanmi Is'hoqxon To'ra To'raqo'rg'on va Xonabodda qozilik lavozimini XX asrning birinchi choragida yigirma yilcha bajardi. Is'hoqxon To'ra eng odil, eng faqirparvar qozi edi. U boyni ham, kanbag'alni ham bir xilda tinglar va hukm chiqarar edi. O'n yillar Is'hoqxon To'raning xizmatida bo'lgan Mulla Iskandar domla Abdulvaxob o'g'lidan yozib olinga ma'lumotda shunday deyiladi; Men o'n yil to'ramning xizmatida bo'lib biron marta pora olganini, boylarga yon bosganini bilmayman, aksincha kambag'al beva bechoralarning mushkulini yengillashtirishga harakat qilardi. To'g'ri poraxo'r qozilarga o'rganib qolgan xalq yuqori talabaqa pul turli tuman narsalar olib kelar edi. Lekin Is'hoqxon to'ra bu narsalarni egasi bilan qaytarib yuborar edi. Shuning uchun ham boylar Is'hoqxonning o'rniga ularga yon bosuvchi Mamatqul xojini qozilikka saylamoqchi bo'ldilar. Lekin ularning so'zi o'tmay qoldi. Natijada, Mamatqul hoji Is'hoqxonga umrining oxirigacha dushman bo'lib yurdi. Is'hoqxon to'ra faqat xalq manfaati uchungina qozilik mansabida ishlagan. Uning uyida qozixonasida rus huquqshunosligiga oid kitoblar ham bo'lib ruscha sud qonun qoidalaridan ham habardor edi.

Shu o'rinda musulmon xalq hayotini nazoratga va tartibga solib turuvchi qozilar sudiga hukmronlikni qo'lga olgan rus ma'murlari tomonidan nega yana yo'l berilgan ekan ? degan savol xayolimizda paydo bo'ladi. "Malumki, O'rta

osiyo chor rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin ham qozilar sudi saqlanib qolindi va shariat qoidalar asosida sud ishlari olib borish imkoniyati eskiligicha qoldirildi, - deya izohlaydi ibratshunos Ulug'bek Dolimov. – bu bilan chorizm yerli xalqqa nisbatan "odil", o'zini yerli xalqlar "panoxi" qilib ko'rsatmoqchi bo'ldi. Lekin davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jinoiy ishlarni qozilar sudida ko'rish man etildi. Qozilik mansabi yuqori tabaqaning boyish manbalaridan biri edi. Qozilar boylar bilan bir yoqadan bosh chiqarib, xalqni talar, bor yug'ini shilib olar, yuqori tabaqa manfaatlarini ko'zlab ish ko'rar, poraxo'rlik bilan kun kechirar edilar.

Ibratning nainki hayotida, ijodida ham dalil va isbotga to'la haqgo'yligi manaman deb turishidan dalolatdir. Bu ikki talabni mahkam ushlagan Ibratning qozilik faoliyatida huquqshunoslikning adolat tig'ini hamisha baland ko'tarishida qo'sh omili bo'lib xizmat qilgani shak shubxasiz.

Albatta, tarixsiz kelajak bo'lmaydi. Aytmoqchimanki, bugungi tinch va osoyishta hayotimizda ajdodarimizning fidoyiligi, Vataniga bo'lgan sadoqati, bu yo'ldagi jasorati hech birimizga sir emas. Bugun kunda Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti tasarrufidagi "Is'hoqxon Ibrat – Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi o'z faoliyatini to'laqonli amalga oshirib kelmoqda. Muzeyning asosiy maqsadi ajdodlarimizning bosib o'tgan yo'llari va ularning mustaqillik va adolat tantanasi yo'lidagi tengsiz jasoratlari xususida yaqindan tanishtirish. Yana bir ahamiyatli jihat qatag'on qilingan jadidlar xotirasini abadiylashtirish, ularning hayot yo'llari va faoliyatini keng jamoatchilikka ayniqsa, yoshlar e'tiboriga asosli va to'laqonli yetkazish bu kabi ma'naviy maskanlarimizdan kutilgan natija sanaladi. Albatta, bunday ajdodlarimiz, Vataniga sadoqat, jasorat ko'rsatganlar doimo bizga o'rnakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://lex.uz/docs/-3422637
2. https://lex.uz/docs/5041012
3. https://lex.uz/uz/docs/-3165600

4. Ibrat I. Ilmi Ibrat. Matbaai Is’hoqiya. To’raqo’rg’on. 1909. O’zR FA ShI. T. Inv. № -9987.

TURKISTON MA’RIFATPARVARLARINING MA’ORIF SOHASIDAGI ISLOHOTLARI VA YANGICHA YONDASHUVDAGI DARSLIKLARNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Nazira Qaxxarova
Qarshi Xalqaro Innovatsion Universiteti
“Pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrasi o’qituvchisi
Umida Toshtemirova
Qarshi Xalqaro Innovatsion Universiteti
Pedagogika va psixologiya yonalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jaddidizm davridagi siyosiy ahvol hamda ta’lim tizimi, ma’rifatparvarlarning maorif sohasidagi harakatlari, yaratgan maktablari va yaratilgan darsliklarning pedagogik asoslari yoritilgan.

Kalit so’zlar ma’orif, tarbiya, ma’rifat, jadid, darsliklar, yangi usul maktablari, pedagog, usullar, kamolot.

Аннотация: В данной статье освещены политическая ситуация и система образования в период джаддидизма, действия просветителей в области образования, созданные ими школы, педагогические основы созданных учебников.

Ключевые слова образование, обучение, просвещение, современность, учебники, новометодные школы, педагог, методика, зрелость.

Abstract: In this article, the political situation and the educational system during the period of Jaddidism, the actions of enlighteners in the field of education, the schools they created, and the pedagogical foundations of the created textbooks are highlighted.

Key words education, training, enlightenment, modernity, textbooks, new method schools, pedagogue, methods, maturity.

Jadidchilik jaddidizm (arabchada jadid-yangi degan ma’noni anglatadi) XIX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston kabi hududlarda yuzaga kelgan. Eng dastlabki jadidchilik harakati qirim hududida vujudga kelgan. Keyinchalik esa Osiyo hududiga tarqalgan. Jadidchilik harakati oqimi vakillari o’z taraqqiyoti uchun kurashish, turk tillarni rivojlantirish hamda adabiyotini boyitish, dunyoviy ilimlarni o’rganish, ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirilgan. Mana shunday tarixiy bir sharoitda Turkistonda ham rivojlaanish uchun qulay bir zaminni topdi. Jadidchilar orasidan buyuk, yetuk olimlar, ziroatchilik sohasining mutaxassislari yetishib chiqdi va vatanlarining mustaqil bo’lishi uchun o’z hissalarini qo’shib kurashdilar. Jadidchilarning Turkiston o’lkasi mustaqilligi uchun bir qator yo’nalishlari ustuvor edi.

Yangi usul maktablarini kengaytirish, har tomonlama bilimga ilmga qobilyatga ega bo’lgan o’quvchilarni chet ellarga o’qishga yuborish hatto teatr turuppalarini shakllantirish gazetalar va jurnallar nashriyotini chop etish, xalqning ongini shakllantirish va yuksaltirish bilan Turkiston o’lkasida milliy demokratik davlatni tuzishdan iborat bo’lgan.

Turkiston o’lkasidagi jadidchilik harakatlari bu bir tasodifiy hodisa bo’libgina qolmay balki bizning hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning mahsuli hamdir. Jadidchilik jamiyati to’ntarish yo’li bilan emas balki islohotlar yo’li bilan rivojlantirishni o’zining asosiy vazifasi deb belgilab oldi.

Turkistondagi jadidlar harakatidagi rivojlanishiga ham G’ozi Yunus ham o’zin ing hissasini qo’shdi. U ham jadidlar qatoriga kiruvchi buyuk tarqqiyparvarlardan bo’lgan M.Behbudiy, A.Fitrat, M.Abdurashidxonov, O.Mahmudov, A.Avloniylar singari jonkuyar jadidlardan biri bo’lgan.

G’ozi Yunus eski maktablar haqida shunday yozadi. - «Ko’z oching Turon eli, biz ilmsiz pomolmiz. ish agar bu yo’lda ketsa ne bo’lur ahvolimiz, bizga lozimdir o’qish ilm olsak yaxshi bo’lg’ay bizning ham af’olimiz, Turkiston harob ilmsizlik orasida bitguvchi islomimiz» [1;129].

Jadidchilarning xalq ma’rifati foydasi uchun kurash dasturida 3 ta asosiy yo’nalishlardan iborat bo’lgan:

1.Yangi usul maktablari tarmog’ini kengaytirish

2.Umidli iqtidorli yoshlarni chet elga o’qishga yuborish

3.Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish, hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Turkiston o’lkasining taraqqiyparvar Munavvarqori Abdurashidxonov 1901-yilda usuli jadid maktabini ochgan va mana shu maktablar uchun maxsus o’quv dasrurlarini tuzgan, darsliklar yozgan. 1903-yildan jadid maktablarini ochgan va dars bergan. Shunday maktablar uchun “Adibi avval” (birinchi adib), 1907-yil alifbe kitobini, “Adibi soniy” (ikkinchi adib) asarlarini yaratish bilan bir qatorda ma’noli va ixcham hikoyalar, mazmuni she’rlar ham yaratgan.

Misralarida inson va jamiyat, axloq, hurriyat, ziyolilik, tashkilot masalalariga alohida e’tibor qaratgan. [2;150].

Munavvarqori Abdurashidxon o’zining ijodiy faoliayti davomida pedagoglik, muharrirlik, adiblik, shoirlik, bilan cheklanibgina qolmay siyosiy faoliyatni ham olib borgan.

1901-1904-yillarda o’zining qirimlik do’sti Rasm Keshod yordamida Toshkentda “Usuli savtiya” nomli maktabini ochadi va ayni vaqtda o’sha maktabda imomlik ham qiladi. Keyinchalik esa 1906-yilda yangi usul maktabi sohasidagi faoliyatini o’z uyining tashqari hovlisida davom ettira boshladi va oaradan ko’p vaqt o’tmay maktabi uchun ikki xonalik qo’shimcha binosini qurdiradi.Qisqa muddat ichida bu maktabning dovrug’i ortib ketadi.2-sinfni bitirgan bolalar o’qishni Munavvarqori hovlisida davom ettiradilar.keyinchalik esa maktabda 5 va 6-sinflar ham ochila boshlaydi.

Munavvarqori farzandlarining taqdiri uchun otalar zimmasida katta mas’uliyat borligi, O’qituvchilar esa o’quvchilarga ortiqcha ta’ziq o’tkazmasdan erkin ta’lim berishi, ta’lim jarayoni dunyoviy bilimlar bilan chamabarchas amalga oshirilishi kabi g’oyalarni ilgari suradi. [3;145].

Yana bir ma’rifatparvar jadidchi bo’lmish Mahmudxo’ja Behbudiy o’z g’oyalarini bayon qilar ekan, -“Ulamo yoki ziyoli taraqqiyparvarlarimiz, boy va

avom xalqimiz birlashib din, millat vatanning rivoji uchun xizmat etsak arziydi” deya bejiz ta’kidlamagan.

Ta’lim va tarbiya yo’lidagi islohotlaariga nazar tashlar ekanmiz millat farzandlarini o’qitish va ilmli qilish maqsadida «usuli jadid» maktablariga asos solidi hamda bu maktablar uchun bir qancha darsliklar yozadi.

Mahmudxo’ja Behbudiyning «usuli jadid» maktabidagi o’qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilar edi: Maktab ikki bosqichdan iborat bo’lib,

Birinchi bosqich - ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to’rt yilbo’lib bu yillar davomida umumiy had savod o’rgatilar, bolalarning bilim salohiyatiga qarab keying bosqichga tavsiya berilar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo’llanma berilardi.

Maktabning ikkinchi bosqichi - rushadiya bo’lib, bu bosqichni tamomlaganlar esa davlat boshqaruvi ishlariga jalb qilingan.

Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi - maktab, barcha ilmning boshi va ibtidosi maktab, saodatning, fozil insonning ma’naviy chashmasi - maktab degan aqidaga amal qilgan. [4;170].

Abdulla Avloniy esa butun faoliyati davomida u o’z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma’naviyatini shakllantirishga alohida e’tibor berdi. Hamda «Usuli jadid maktablari uchun to’rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she’rlar», «Birinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni» kabi darslik va o’qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug’lab, o’z xalqini ilmli, madaniyatli bo’lishga chaqirdi.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib «Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo’lib o’sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo’l uzatmak kabidur», — deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g’oyat katta ahamiyatga ega.

Jadid maktablarining birinchi sinf o’quvchilaridan boshlab 4-sinf o’quvchilariga qadar «Birinchi muallim» keyinchalik esa «Ikkinchi muallim» darsligi bilan tanishtirilar edi. «Birinchi muallim» asari tarkibida aks etgan o’quvchilar uchun alifbo, kichik-kichik hikoyalar, voqealar, rivoyatlar, o’quvchilar qiziqishini uyg’otib, tezda savod chiqarishga sabab bo’lar edi.

Xulosa o’rnida shuni aytadigan bo’lsak ma’rifat yo’lida maktablar ochgan, asarlar yaratgan, xalq ma’rifati va o’zligi uchun bel bog’lab tinmasdan, ortga qaytmasdan kurashgan jadidchilarni haqiqiy xalq qahramonlari desak adashmagan bo’lamiz. Zero ular yaratgan ta’lim islohoti uchun hizmat qilgan asarlar,darsliklar soda va aniqligi asosida shiddat bilan insonlar insonlar ko’nglidan va ongidan joy olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mavlonova R, O. To’rayeva. Pedagogika. T: “O’qituvchi”, 2021.
2. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: “ISHONCHLI HAMKOR”, 2021.
3. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
4. R. Mavlonova, N. Voxidova, N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi T., 2010.
5. w.w.w. pedagog.uz

JADIDLARNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI HAMDA TA’LIM JARAYONIGA QO‘SHGAN HISSASI

Mohinur Karamova

Xalqaro innovatsion universitet o’qituvchisi

Shodiyona Oromova

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar faoliyati hamda ularning yosh avlod tarbiyasida maktab hamda oilaning mas’uliyati haqida so’z yuritilgan. Shuningdek,

mazkur maqolada M.Behbudiy, M.Abdurashidoxonov hamda A.Shakuriyning pedagogik qarashlari o`z aksini topgan.

Kalit so'zlar: jadidlar, pedagogika, fikrlar xilma-xilligi, Turkiston, ijtimoiy hayot, jamiyat, maktab, teatr, o'quvchi, darslik, yosh avlod, madaniyat.

Аннотация: В данной статье говорится о деятельности джадидов и ответственности школы и семьи в воспитании молодого поколения. Также в данной статье отражены педагогические взгляды М. Бехбуди, М. Абдурашидоханова и А. Шакури.

Ключевые слова: современность, педагогика, разнообразие мнений, Туркестан, общественная жизнь, общество, школа, театр, студент, учебник, молодое поколение, культура.

Abstract: This article talks about the activities of the Jadids and the responsibility of the school and the family in the education of the young generation. Also, the pedagogical views of M. Behbudi, M. Abdurashidokhanov and A. Shakuri are reflected in this article.

Key words: modernity, pedagogy, diversity of opinions, Turkestan, social life, society, school, theater, student, textbook, young generation, culture.

Jadidchilik (arabcha jadid-yangi) degan ma'noni anglatadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy ma'rifiy harakat hisoblanadi [1]. Jadidchilik XIX asrning 80 yillarida Qrimda vujudga keladi. XIX asrning 90 yillaridan O'rta Osiyoda tarqaladi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan va taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligini anglash [1:25], jadidlar davrida xalqni ilm-ma'rifatli qilish borasida amalga oshirilgan islohotlarni o'rganish bugungi kunda – ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishda tarixiy merosdan unumli foydalanishdan iborat.

Jadidlar davri haqida so'z yuritilganda birinchi bo'lib, Mahmudxo'ja Behbudiy ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Nima uchun aynan M.Behbudiy

deyishingiz mumkin. Chunki xalqimizni ilm ma’rifatli qilish uchun maktab tashkil qiladi, darslik yaratadi, gazetalar chop etadi. Öqishni bilmaydiganlarga savodsizlik oqibatini yo’qotish uchun drama yozdi va teatr sahnalarida namoyish etdi. Behbudiy yosh avlodni vatanning kelajagi, ravnaqi deb qaraydi, shuning uchun ham bolalar va vatan taqdiri masalasiga alohida e’tibor beradi. Yoshlar tarbiyasi uchun birgina maktab emas, balki ota-onalar mas’ulligini oshirish lozimligini bot-bot ta’kidlaydi. Shu bilan birga Vatanning ahvolidan, kundalik hayotdan ogoh bo’lmoq kerakligini tadbiq etgan.

Munavvarqori Abdurashidxonovning ma’rifiy-pedagogik qarashlari eng dolzarb bo’lgan “Ilm-fan, maorif va madaniyat, ta’lim va tarbiya va yangi maktablar masalalarini birinchi o’ringa qo’yganlar” – yoki, “Ilg’or musulmon ziyolilari mamlakat, taraqqiyot darajasi orqadaligini, ijtimoiy va mustamlaka zulmining asosiy sababini avvalambor xalqning ma’rifatsizligidan qidirdiki, shuning uchun muammolarning hal qilishning eng asosiy yo’li deb maorif va ma’rifat ko’zda tutildi. Buning oqibatida dastlab jadidlar diqqat e’tibori markazida maorifni isloh qilish vazifasi turdi. Munavvarqori Abdurashidxonov bu islohotlarni amalga oshirishning zarur ekanligini nafaqat nazariy jihatdan asoslab berdilar, balki yangi usulda o’qitiladigan maktablar ochib, kutubxonalar, qiroatxonalar barpo etib, o’quv qo’llanmalari yozib, o’z g’oyalarini amalda qo’llash yo’lida ulkan ishlar qildilar” – deydi. Munavvarqori Toshkentda ochilgan jadid maktablari uchun o’zi tuzgan dastur va darsliklarni joriy etdi, ular asosida jamoat oldida ochiq darslar va imtihonlar tashkil qildi. Bundan asosiy maqsad, birinchidan, usuli jadid maktablarini badnom qiluvchi mutaassib qadimchilarning da’volari asossiz ekanligini xalq oldida namoyish etish bo’lsa, ikkinchidan, xalq o’rtasida ilm-ma’rifatga, yangi o’qitish usuliga, zamonaviy turmush tarziga rag’bat uyg’otish edi. Shuning uchun ham Munavvarqori imtihonlarga o’quvchilarning ota-onalaridan tortib, shariat-din peshvolarigacha, hatto o’lkada katta e’tibor qozongan olimu shoirlarni, ma’rifatli boylarni ham taklif qilgan.

Abduqodir Shakuriy yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Yangi usuldagi bu maktabda arifmetika, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o’qitilardi. Shakuriy

o’zi ochgan yangi usuldagi maktabida arab tilining qoidalari va harflarni o’qitishga jiddiy e’tibor bergan holda, o’quvchilarni so’z bo’g’inlari bilan tanishtirar va shu bo’g’inlar asosida bolalar uchun tushunarli sodda so’zlarni tuzardi. Muallim Shakuriy o’z o’quvchilari uchun yilda bir marta umumiy imtihon uyushtirar edi. Imtihonda u ota-onalar, yangi usul maktabining tarafdorlari hamda dushmanlari – mullalar va boylar oldida olti oy davomida o’z o’quvchilari egallagan bilimning natijalarini namoyish qildirar edi. Maktabda tashkil qilingan bu ommaviy imtihonlar «Umumiy sud» shaklini olar edi. Imtihonga odamlar to’da-to’da bo’lib kelar, qisqa muddat ichida bolalarning xat-savodli bo’lishi, hisob, jo’g’rofiya va tabiiyot fanidan ma’lumotga ega bo’lganliklarini ko’rib, hamma hayratlanar edi. Natijada, bu maktab tarafdorlari borgan sari ko’paya bordi. Shakuriyning o’zi bu haqda shunday yozadi:

«Bir kuni shaharning ko’zga ko’ringan ulamo, ag’niyo va a’yonlari hamda o’quvchilarning otalarini bolalarning olti oylik o’qishi bo’yicha o’tkazilgan imtihonga da’vat etdim. Bular oldida o’quvchilar maktabda olgan olti oylik bilimlaridan imtihon berdilar. Odamlar bu o’qitish usulining afzalliklarini ko’rib, mendan mamnun bo’ldilar. Imtihondan so’ng odamlarning qalbida maktabga nisbatan muhabbat paydo bo’lib, chehralari ochildi».

A.Shakuriyning o’qish-o’qitish uslubidagi yangilikning ahamiyati shundaki, birinchidan, u o’sha davrda mavjud bo’lgan eski o’qitish usullari va o’qish kitoblarining hammasini rad qilib, savod chiqarishni engillatish maqsadida dastlab bo’g’in usuli, keyinchalik tovush-harf uslublarini qo’llaydi. Bu o’qitish uslubining qulayligi natijasida o’quvchilar ko’pi bilan 6 oy ichida savodli bo’lardi. Ikkinchidan, maktabda kichik yoshdagi o’g’il va qiz bolalarni birga o’qitish uslubini joriy qildi. Uchinchidan, bolalarni avvalo o’z ona tilisida o’qitishga qat’iy rioya qildi va shu bilan birga bolalarni o’zbek, tojik, arab va rus tillarini ham mukammal o’rganishga da’vat qildi. To’rtinchidan, yangi usul maktablari uchun juda sodda, tushunarli tilda darsliklar tuzib, ularni nashr etdi. Beshinchidan, Shakuriy tomonidan joriy qilingan dastlabki yangilik – Samarqand maktablariga mehnat va musiqa darslarining kiritilishi bo’ldi. U o’z o’quvchilarini qishloq

xo’jaligi va bog’dorchilikka oid ishlar bilan tanishtirishdan tashqari, muqovachilik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o’rgatar, bu mashg’ulotlar uchun maktab dasturidan alohida soatlar ham ajratgan edi.

Shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy madaniy ijtimoiy uyg’onishida va ravnaqida asosiy omil bo’lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarida hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy yo’l bilan yechish yo’llarini jadidlar o’z maqola va asarlarida ko’rsatganlar. Yoshlarni o’qitishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etishga chorlaydi. Jadidlarning o’zlari ham yosh bo’lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g’oyalari, turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin edi. Shuningdek, ularning ta’lim jarayonida qo`shgan hissasi beqiyos hisoblanadi. Chunki ular ta’lim jarayonida demokratik yondashuvni, maktab ta’lim tizimida bir necha tillarni o`rgatishni, dars jarayoniga eng so’nggi yangiliklarni olib kirishni targ`ib qildilar. Jadidlar dastlab buni amaliyotda joriy etib, ularning o`zlari bu borada yorqin namuna bo`ldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov E. Barhayot siymolar. – Toshkent: O’zbekiston, 2012.
2. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz – Toshkent: O’zbekiston, 1999.
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. – Toshkent: Oyna, 1914.
4. Oblomurodov N. Hazratqulov A va boshqalar. O’zbekiston tarixi (öquv qo’llanma). – Toshkent, 2011.

GERMANIYADA TAHSIL OLGAN XOTIN-QIZLARNING QATAG'ON QILINISHI.

Aziza Axrarova

Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi ekspozitsiya bo'limi boshlig'i tarix fanlari bo'yicha PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid namoyondalari tashabbusi bilan Germaniyaga o'qishga borgan xotin-qizlar va ularning ayanchli taqdiri arxiv manbalari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Ko'mak uyushmasi", NKVD, "Germaniya josusi", "Ozod Turkiston" tashkiloti, O'zSSR Jinoyat kodeksi, hukm.

Turkiston o'lkasi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mustamlakachilik siyosati oqibatida siyosiy, madaniy, iqtisodiy tanazzulga yuz tutdi. O'lkaning Turor Risqulov, keyinchalik Fayzulla Xo'jayev kabi rahbarlari, shuningdek, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Fitrat singari maorif va madaniyat fidoyilari, mamlakatni "qizil" mustamlakachilikdan qutulish yo'llarini izlay boshladilar. Buning uchun ular, birinchi navbatda, o'lkani feodal-xonlik va amirlik, shuningdek, chor mustamlakachiligi davrida chuqurlashgan iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutqazish, taraqqiy etgan mamlakatlarning bu sohalardagi tajribalarini o'rganish va shu orqali vatanlarini sekin-asta mustaqillikka olib chiqish rejasini tuzdilar.[4,9 b]

Ular, birinchi navbatda, o'sha davrda G'arbiy Yevropada eng taraqqiy etgan mamlakat – Germaniya erishgan yutuq va tajribalarni o'rganishni zarur, deb hisobladilar. Buning uchun avvalo, mahalliy yoshlarni Germaniyaga, shuningdek, Sharq va G'arbdagi boshqa ilg'or mamlakatlarda erishilgan ilmiy-texnik yutuq va tajribalar bilan tanishish, shu asosda o'lkani iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutqazish mumkin edi. Bu favqulodda muhim va murakkab loyihani amalga oshirish uchun esa, birinchidan, mablag' topish, iste'dodli yosh yigit va qizlarni

tanlash, uchinchidan, bu yigit va qizlarning ota-onalaridan ruxsat olish lozim edi. Turkistondan turli yo'llar (hukumat tarafidan, "Ko'mak" uyushmasi yordamida yoki xususiy yo'llar) bilan xorijga talabalar yuborish harakatlari boshlandi.[4,9]

Turkiston Respublikasi Maorif komissarligi kollegiyasining 1921-yil 7-maydagi majlisida, boshqa masalalar qatori, bu masala ham ko'rilib, xorijga mahalliy millat vakillaridan talabalar yuborishning zarurligi ma'qullanadi va Komissarlar kengashi oldiga o'zbeklardan 10 nafar, qirg'izlardan 10 nafar, turkmanlardan 5 nafar kishini yuborishni so'rash masalasi qo'yiladi. [4,10]

Xorijga talabalar yuborish harakati keyinroq Buxoro Xalq Sovet Respublikasi rahbarlari Fayzulla Xo'jayev maorif noziri Fitrat tomonidan kengroq targ'ib etila boshlandi. Ular hatto bu borada Turkiston Avtonom Sovet Respublikasiga ham yordam ko'rsata boshlaydilar.[4,10]

Darhaqiqat, uzoq kutilgan orzu amalga oshdi. 1922/1923 - o'quv yili boshlanishi bilan yuzlab turkistonlik iqtidorli talabalar Germaniyaning Berlin, Rossiyaning Moskva, Peterburg, Ozarbayjonning Boku, Ganja shaharlariga yo'l oldilar. Ular asosan Fitrat va Fayzulla Xo'jayev ajratgan Buxoro Xalq Respublikasi sarmoyasi, "Ko'mak" tashkiloti tomonidan yig'ilgan pullar, ayrimlari ota-onalarining hisobidan yo'lga chiqdilar.[3,14 b]

Shunday qilib,Turkiston va Buxorodan 1922-yil oxirlarida 70 ga yaqin turli yoshdagi mahalliy yosh yigit va qizlar Germaniyaning turli shaharlaridagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga qishloq xo'jaligi, tekstil sanoati, kimyo, elektrotexnika, konchilik, falsafa, pedagogika, tibbiyot va boshqa muhim sohalar bo'yicha o'qishga yuboriladi. Bular ichida shu davrda Saydali Xo'jayev, Sattor Jabbor, Ahmad Shukriy, Ahmadjon Ibrohimov, Xayrinisa Majidxonova, Maryam Sultonmurodova va boshqalar bor edilar.[3,11 b]

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Germaniyaga o'qishga ketgan Turkiston yoshlari dastlab o'lkadagi jadid taraqqiyparvarlari tomonidan asos solingan yangi usul maktablarida tahsil olib, nemis va rus tillarini o'rganganlar.[1,252 b]

Germaniyada o‘qib mutaxassis bo‘lib qaytgan bu yoshlar beayb, “Germaniya josusi” tamg‘asi bilan qatag‘onga uchradi. Quyida Germaniyada o‘qib, qatag‘onga uchragan ayollarni ba’zilari haqida so‘z yuritiladi.

Xayrinisa Majidxonova1905-yilda Toshkent shahrida, ma’rifatpar oilasida tug’ilgan, o’zbek, 14-sonli ambulatoriyada vrach bo’lib ishlab, Mirobod ko’chasi, 43-uyda yashagan.[5,1 b]

1937-yil 10-sentyabrda DXB NKVD 3-bo’limi komisari Mixaylyans qaroriga muvofiq, Majidxonova Xayrinisa 1922 – 1928 yillarda Germaniyada talaba bo’lib, “Turkiston” josuslik tashkiloti milliy qo’mitasi a’zosi sifatida 1928-yilda josuslik missiyasi bilan SSSRga jo’nab ketgan. SSSRda shu paytgacha Germaniyadan mamlakatga kelgan “Turkiston” tashkiloti a’zolari bilan aloqada bo’lib kelgan va shu sababli, Xayrinisa Majidxonova Jinoyat Kodesining 60 va 67-moddalari bilan aybdor deb topilib, 1937-yil 13-sentyabrda hibsga olindi va NKVD ning ichki qamoqxonasiga olib kelindi. [5,1 b]

Tergov bir yildan ortiq davom etadi va SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasining Alekseev boshchiligidagi sayyor guruhi 1938-yil 9-oktyabrda Xayriniso Majidxonovani O’zSSR Jinoyat Majmuasining 62, 64 va 67-moddalari bo’yicha aybdor hisoblab, oliy jazo - otuvga hukm qiladi. Hukm 1938-yil 9-oktyabrda ijro etildi. [5,45 b]

Sultonmurodova Maryam, 1905-yilda tug’ilgan, O’zbekiston SSR Xorazm viloyati Urganch tumani Chandirqiyot qishloq Sovetida tug’ilgan, o’zbek, SSSR fuqarosi, oliy ma’lumotli. Maryam Sultonmurodova NKVD xodimlari tomonidan 1937-yil 15-sentyabrda hibsga olingan. [5,3 b] 1937-yilda O’zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 57-1, 67-moddalari bilan 10 yil muddatga mehnat lageriga hukm qilingan.

Ma’lumotnomaga ko’ra, Maryam Sultonmurodova 1939-yil 10-martda NKVD Qozon qamoqxonasida jazoni o’tash uchun jo’nab ketgan. [5,5 b]

1947-yilda qamoq jazosini tugatib, Xorazmga qaytganda ham uzoq yurmay, 1949-yili yana qamaldi. Bu safar endi uni Berlinda bo’lgan vaqtida u yerdagi qandaydir “Ozod Turkiston” aksilinqilobiy-millatchilik tashkiloti bilan aloqada

bo’lgan, dugonasi Xayrinisa Majidxonova bilan Parijga borganida sovet davlatining dushmani Mustafo Cho’qayev bilan uchrashgan, Toshkentda ishlaganida esa matbuotda millatchilik fikrlarini o’tkazgan, germaniyalik professor Englyand bilan josuslik maqsadida aloqa o’rnatgan kabi ayblar yuzasidan so’roq qilinadi. [4,108 b]

Maryam Sultonmurodova Stalin vafotidan so’ng ham shubha va gumonlardan tamomila qutula olmaganligi haqida shikoyat bilan SSSR Bosh prokuroriga murojjaat qiladi.

Nihoyat 1956-yilning 13-oktyabr kuni Maryam guvoh tariqasida so’roq qilindi. Yana o’sha avvalgi tanish savollar beriladi. Yustisiya polkovnigi Lixachev raisligida 1957-yil 2-avgustida olib borilgan sud majlisida shunday deyiladi:

"Yangi ma’lum bo’lgan holatlarga ko’ra, SSSR Oliy Sudi 1933-yilning 9-oktyabridagi hukmi va SSSR Davlat Xavfsizligi vazirligi huzuridagi Alohida Majlisning 1943-yilning 3-avgustidagi Maryam Sultonmurodovaga doir qarori bekor qilinsin va uning harakatida jinoyat yo’qligi uchun to’xtatilsin”. Maryam bu ajrim bilan ikki oydan keyingina, 1957-yil 14-oktyabrida tanishtiriladi. [2,148 b]

Ayol ziyolilarni qatag’on qilish avj olgan sharoitda O’zbekistonda yashab o’zbek bo’lmagan millat vakillari bunday jazodan chetda qolmagan. Jumladan, Matqul Basya-1900-yilda Kovnoda (Litva) tug’ilgan, yahudiy, SSSR fuqarosi, xizmatchi, ipak savdogarining qizi, hibsga olingan kunigacha Sanoat Xalq Komissarligi ilmiy-tadqiqot institutida katta ilmiy xodim bo’lib ishlagan. Erining “aksilinqilobiy” faoliyatining Sovet hukumati organlaridan yashirgani uchun jinoyat kodeksining 68-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlikda ayblandi va 1937-yil 21-sentyabrda qamoqqa olinadi. Eri Matqulov Sulton Alibekovich, 35 yosh, 1902-yilda Leninoboda shahrida tug’ilgan, millati tojik, boyning o’g’li, 1922—1930-yillarda Germaniyada o’qigan, hibsga olingunga qadar O’zbekiston Xalq komissarlari Kengashi qoshidagi fanlar qo’mitasi raisining o’rinbosari sifatida xizmat ko’rsatgan. 1937-yil 14-avgustda hibsga olingan, O’zSSR Jinoyat kodeksining 60 va 67-moddalari bilan javobgarlikka tortilgan. [5,5 b]

Oila boshlig'i Matqul Sulton O'zbekiston SSSR NKVD ning 1938-yil 9-oktyabrdagi tergovida ayblanuvchi sifatida otuvga hukm qilingan, hukm 1938-yil 9-sentyabrda ijro etilgan. [5,42]

1939-yil 15-fevralda Matqulova Basya Ovseevnani aybi isbotlanmagani uchun ozod etishga qaror qilinadi. U Toshturmada saqlanayotgan edi. [5,51]

Basya Matqul ozodlikka chiqib, uyiga kelsa, uyini Ya.S. Golinich degan URKM* boshlig'i surbetlarcha egallab olgan edi. Basya Matqulova sovetlarning Toshkentdagi huquq organlarining turli idoralari yelib-yugurib, uyini qaytarishga erishadi. Biroq uning bu quvonchi ham uzoqqa cho'zilmaydi. 1942- yil 6-yanvarda Toshkent shahar ijroiya qo'mitasi Basya Matqulga uning o'zi hamda bolalarining bundan buyon Toshkentda yashashi mumkin emasligi va u faqat O'zbekistonning biror uzoq qishloq rayoniga ketibgina istiqomat qilishi mumkinligi haqida xabar beradi. Noiloj qizalog'i bilan Xo'janddagi erining qarindoshlarinikiga jo'naydi. U yerda ularning yordamida maktabga nemis tili o'qituvchisi bo'lib o'tadi. 1945-yili Toshkentga kelib, uyi, qilgan ilmiy ishlarining oqibati bilan qiziqadi. Uyida hamon o'sha Ya.S.Golinch yashayotganini, uning kimyo institutida olib borgan tadqiqotlarining esa O'zbekiston Fanlar Akademiyasi ilmiy axborotlarida imzosiz bosilganligini biladi. Buning sababini surishtirganida tahririyat xodimlari mazkur maqolalarni uning ism-sharifi bilan bosish mumkin emasligiga ishora qiladilar. Buning ustiga, 1949-yilga kelib, Xo'janddagi pedagogika institutida ham nemis tili uchun ajratilgan soatlar qisqarib, bu yerdan ham ketishga majbur bo'ladi. Axiyri, gazetalarda Udmurtiya pedinstitutida nemis tili kafedrasi o'qituvchiligiga tanlov e'lon qilingani haqidagi xabarni o'qib, u yerga ariza yuboradi. Tanlovdan o'tgach, qizini olib Ijevsk shahriga ketadi va 1953-yilgacha o'sha yerdagi pedagogika institutida nemis tilidan dars beradi. Buni qarangki, u yerda ham "dars soati kamaydi" bahonasi bilan uni o'qituvchilikdan bo'shatadilar. [4,103 b]

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, jadidlar tashabbusi bilan Germaniyada tahsil ko'rgan talabalar o'z vatanlarining iqtisodi, madaniyati rivojlangan mamlakat bo'lishini orzu qilib, shu yo'lda fidokorona mehnat qilgan edilar. Lekin ularning taqdiri ayanchli tugadi. Ularning ko'pchiligi "Germaniya

josusi” sifatida qamoqqa olinib, otuvga hukm qilingan. Bu sovet hukumatining xotin-qizlarga nisbatan olib borgan siyosatining natijasi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Sirojiddin. Qizil mustamlaka: e’lon qilinmagan urush. Katta qirg‘in qomusi. (1929-1950).- Toshkent. Info Capital Books.
2. Axrorova Xolida. Izlaringni izlayman.-T.: Sharq.1998 yil.
3. Irzayev B. O‘zbek yoshlari va xorijiy ta’lim.- Toshkent, “Akademnashr”. 2018 yil.
4. Turdiyev Sh.Ular Germaniyada o‘qigan edilar. T.: Akadem-Xizmat. 2006.
5. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi arxivi ma’lumoti .

ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИ АСАРЛАРИДА ИСЛОМ ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ

Асилбек Хўжаёров
Осиё технологиялар университети катта ўқитувчи

Аннотация. Ушбу мақолада жадид маърифатпарварлари – Абдулла Авлоний ва Абдурауф Фитратларнинг ислом тарихига бағишланган дарсликлари ва уларнинг қисқача мазмуни ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар. Жадид, жадидчилик, маърифатпарвар, Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат, ислом тарихи

Аннотация. В данной статье говорится об учебниках, посвященных истории ислама, и их кратком содержании современных просветителей - Абдуллы Авлани и Абдурауфа Фитрата.

Ключевые слова. Джадид, джадидизм, Просвещение, Абдулла Авлани, Абдурауф Фитрат, история ислама

Abstract. This article talks about the textbooks devoted to the history of Islam and their brief contents of modern enlighteners – Abdulla Awlani and Abdurauf Fitrat.

Key words. Jadid, Jadidism, Enlightenment, Abdullah Awlani, Abdurauf Fitrat, Islamic history

Маълумки, жадидларнинг янги мактаблар учун ёзган дарсликларининг тили, баён услуби, методикаси бир-биридан фарқ қилган. Бунинг асосий сабаби улар ўртасида ҳам эски мадраса тили ва янги ўзбек адабий тилига бўлган муносабатнинг сақланиб қолиш эди. Шу маънода ислом тарихини ўрганишга бағишланган жадид дарсликларининг тиллари ва услубиётида ҳам айрим тавофутлар кузатилади.

Абдурауф Фитратнинг “Мухтасар Ислом тарихи” дарслиги юқорида таъкидлангани каби тили, методикаси ҳозирги давр дарсликларига анча яқин ифодаланган бўлса, Абдулла Авлонийнинг “Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом” дарслиги ўзининг диний истилоҳларининг сақланиб қолгани, эски тил қоидаларининг мавжудлигига кўра бошқача услубга эга ҳисобланади.

Абдулла Авлонийнинг “Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом” ва Абдурауф Фитратнинг “Мухтасар Ислом тарихи” асарларини ислом тарихини ўрганишда муҳим ҳисобланади. Чунки Маҳмудхўжа Беҳбудий (1914), Шокир Сулаймон (1918) каби адибларнинг “Қисқа Ислом тарихи” каби дарсликлари топилмаган. Шу каби Мунавварқори Абдурашидхоновнинг ҳам қисқа ислом тарих яратганлиги хабар қилинса-да, у ўзбек тилида нашр қилинмаган. М.Абдурашидхоновнинг “Ҳавоиж ад-диния” (Дин аҳкомлари) китобини муаллифнинг невараси Исмоилхон ҳожи томонидан сақланади. Ушбу китоб 1912 йилда Қозон шаҳрида нашр этилган.

Абдурауф Фитратнинг “Мухтасар Ислом тарихи” асарининг тузилмаси ҳозирги дарсликлар бир мунча яқин, яъни қисм ва алоҳида мавзулардан иборат. Унинг биринчи қисми “Саодат даври” деб номланади.

Одатда саодат даври дейилганда Пайғамбаримизга ваҳий нозил бўлгандан кейинги давр назарда тутилади. Аммо Фитрат ушбу қисмни ёритишда Пайғамбар алайҳиссаломнинг туғилиши арафасидаги Арабистон саҳросидаги ижтимоий-сиёсий вазият, қўшни давлатларнинг аҳволи ҳақида ҳам тўхталиб ўтади [1].

Масалан, Рум ва Эроннинг Исломдан аввалги аҳволи борасида уларнинг бир бири билан доимий кураши, “бу мамлакатларнинг халқлари бот-бот исён кўтарар, турли диний ихтилофлар баҳонасида подшоҳларини ағдариб ташлаш қасдида бўлар, хуллас, фисқ-фужур, ахлоқсизлик, зўравонлик ва босқинлар бу юртларда кенг тарқалган эди” – деб ёзади[16].

XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошларида Мисрнинг Қоҳира шаҳрида яшаб ўтган аллома Муҳаммад Хузарий ибн шайх Афифий ҳам “Нурил яқин” номли тарихий асари муқаддимасида ислом тарихи китобларининг катта ва зерикарли эканини та]кидлайди: “*Кейинги пайтларда мусулмонлар Расулуллоҳ алайҳиссаломнинг таржимаи ҳоли ва ислом тарихи билан унчалик қизиқмай қўйганларидан қаттиқ изтироб чекардим. Бу мавзуда ёзилган китобларнинг китобларнинг ҳаддан ташқари зерикарли ва катталиги одамларни чўчитар эди. Шу боис мансуралик олим Маҳмудбек Салимнинг маърифат зиёси билан йўғирилган суҳбатлари ҳамда у кишининг далдаси билан бу хайрли ишга қўл уришга жазм этдим*[17]. Ҳузарийнинг эътирофидан келиб чиқсак, одамларга ислом тарихини қисқа равон қилиб етказиб бериш лозим.

Шу маънода жадидларнинг ислом тарихини қисқача қилиб тасниф қилишлари айни муддао бўлган.

Фитрат Авлонийдан фарқли равишда Араб ярим ороли ва у ердаги халқнинг аҳволини алоҳида мавзу остида баён қилади. Унинг яна бир жиҳати дарсликда талабаларнинг баён қилинган воқеа – ҳодисаларни аниқ тасаввур қилиши ва ҳифз қилиши учун воқеа билан боғлиқ географик маълумотлар ҳам келтирилади. “*Уни Араб ярим ороли (Жазират ул-араб), деб атаганлар. Бу ернинг халқи асосан араблардан ташкил топган. Араб*

ярим ороли Рум ва Эрон юртлари каби обод эмас, балки кўп ерлари қумликдан иборат бўлиб, баъзи қитъалардагина обод манзиллар мавжуд эди. Бу қитъалардан энг машҳури ва мубораги Ҳижоздир, чунки бу қитъада Макка билан Мадина жойлашган. Харитага қарасангиз кўрасизки, Ҳижоз қитъасининг бир тарафи Қизил денгиз ва бошқа бир тарафи чўлдир" [2, 6-бет].

Авлоний эса Фитратдан фарқли равишда бу борада географик маълумотлардан кўра, арабларнинг этно-миллий аҳволи, этномаданий тарихига эътибор қаратади. *"Арабистон Осиё қитъасининг ғарби-жанубинда катта ярим ота(орол)дурки, ул ерда аввалдин бери араблар яшамоқдадурлар. Араблар бўлса Ҳазрати Нуҳнинг Сом исмли ўғлининг наслиндин тарқалуб, араби боида, араби ориба, араби мустаъраба исмли уч фирқага бўлунмишлар. Боида араблари Ҳазрати Ҳуд ва Лут замонларидаги Од ва Самуд қавмларидурки, онлардин маълумоти тарихия йўқ кабидур. Ориба араблари эса Бани Қаҳт қабиласиндин бўлуб, эски замонларда Яманда Бани Хамир исмли бир зўр ҳукумат қуруб, Сабо шаҳри пойтахтлари бўлуб, икки минг йилдин ортиқ юрт сўрамишлар. Мустаъраба араблари эса Арабистон қитъасинда Ҳазрати Исмоилнинг Жарҳам қабиласиндин олган хотунларидин тарқалган кишилардур. Бу араблар ҳозирдаги каби савдогар ва қўйчилик ила касб ва маишат қилур эдилар"* [2, 28-бет].

Авлонийнинг арабларни ҳақиқий араб ва араблашган арабларга бўлиб ўрганиши ҳозирда араб мамлакатлари олий ўқув юртларидаги ислом тарихи билан боғлиқ дарсликларда алоҳида мавзулар сифатида келтирилади.

Фитратнинг фикрича, бу жойларни Рум ва Эрон давлатлари кенг саҳро ва одамлари тарқоқ яшагани учун эгаллай олмаганлар. Бу ерда яшовчи халқлар Рум ва Эрон каби ўз ҳукуматларига эга бўлмай, қабила-қабила, яъни тўп-тўп бўлиб яшаган. Барча араблар жоҳил ва бадавий (саҳройи) бўлганлар. Чўпонлик ва қароқчилик билан кун кўрганлар. Бирон йил бўлмаганки, бир қабила иккинчисига ҳужум қилмаган, ўртада қон тўкилмаган бўлсин. Барча қабилаларнинг дини бутпарастлик эди. Макка шаҳридаги Каъба хонасида

360 бут (санам) ўрнатилган бўлиб, ҳар бир қабила ўзига тегишли бутга сиғинар эди.

Фитрат Ҳижоз аҳлининг ижтимоий – маиший аҳволини баён қилар экан, барча тарихчилар таъкидлагани каби, ўша жамиятда қиморбозлик, шаробхўрлик, қиз туғилса, ор қилиб, бегуноҳ гўдакларни тириклайин ерга кўмиш каби одатларини тилга олади. "*Аллоҳ таоло жуда кўп пайғамбарлар юборгандан сўнг, энди ҳақдин билан охирги пайғамбарни юборишга қарор қилди, аммо охир замон пайғамбарини Рум ва Эрон каби буюк давлатлардан танламади, чунки бу давлатлардаги одамлар кўп беахлоқ, беандиша ва беғайрат бўлиб кетган эдилар*". Агар Фитратнинг фикрини таҳлил қилсак, сўнгги пайғамбарнинг эрноий ва румийлар орасидан чиқмагани улардаги ахлоқсизликнинг ҳаддан ортиб кетгани сабабли, араблар улардан кўра яхшироқ аҳволда бўлган. Аммо кўплаб тарихчилар бу каби фикрлардан ўзларини тиядилар ва бу каби шахсий фикрини аниқ баён қилмайди.

Фитрат Ҳазрати Расули акрам алайҳиссаломнинг дунёга келишлари борасида ҳам қисқача маълумот келтиради. Авлоний бу борада Фил воқеасини, Пайғамбар алайҳиссаломнинг насаблари ва туғилишларини алоҳида мавзуларга ажратиб ўрганади. *"...исовий сананинг 570 йили, Рабиъул аввал ойининг 12-сида, душанба куни Аллоҳнинг раҳмати билан бизнинг пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссалом бинни Абдуллоҳ Макка шаҳрида Оминадан дунёга келдилар*" [2, 7-бет].

Авлонийнинг ёзишича, "*Пайғамбаримиз фил йилинда 7 найсон ичинда Рабиъул аввал ойларининг ўн иккисинда душанба кун тонг вақтинда Макка шаҳринда туғулуб, боболари тарафиндин Муҳаммад деб исмландилар. Саллаллоҳу алайҳи васаллам туғулган вақтларинда аноларин дард тутмасдин, заҳмат чекмасдин, суннат қилинған, киндиклари кесилган ҳолда туғилдилар. Орқаларинда кабутарни тухумидек бир аломат бор эди. Буни "муҳри нубувват*" *деб аталур. Шул кун боболари Абдул Муталлиб зўр зиёфат (ақиқа) қилуб, кўб кишиларни сийладилар. Шул вақт бир неча одатдин ташқари ишлар пайдо бўлди. Каъбадаги бутлар йиқилуб, ерга*

тушди. Фил йили ҳижратдин 52 сана муқаддам, милодийнинг 571 санада, фаранги ҳисоб ила 20, руми ва руси ҳисоб ила 17 апрелга тўғри келадур”.

Мана шу ўринда ҳам икки қўлланмада Пайғамбар алайҳиссаломнинг туғилган саналарида икки хил ёндашув мавжуд. Фитрат 570 милодий санани кўрсатса, Авлоний 571 санани кўрсатади. Фитрат бу ўринда Пайғамбаримизнинг туғилган йилларини Хоразмий ва Беруний пайғамбаримиз туғилмасларидан 50 кун олдин бўлган Фил воқеасини чоғиштириб, 570 йил деб кўрсатган.

Пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссаломнинг таваллуд топган сана тарихчилар орасида энг мунозарали мавзулардан биридир. Баъзи тарихчилар 569 ва 577 йилни кўрсатишса, баъзилар 571 йилни пайғамбаримизнинг туғилган йиллари деб исботлашга уринишади. “Олий тарих” китоби муаллифи шундай дейди: “*Расулуллоҳ алайҳиссалом Фил йилида, якшанба куни кечаси, бир ривоятда, Рабиъул аввал ойининг 12-кечаси дунёга ташриф буюрганлар*”. Кўпчилик ислом уламолари мана шу кунни, яъни, Рабиъул аввал ойининг 12-куни, душанбага ўтар кечасини Расулуллоҳ алайҳиссаломнинг ҳақиқий таваллуд топган кунлари деб иттифоқ қилганлар [3, 133-бет].

Фитрат Ҳазрати Пайғамбар алайҳиссаломнинг тарбиялари борасидаги мавзудан олдин у зотнинг болаликларида бўлган айрим воқеаларни айрим жумлалар билан ифодалаб кетган. Масалан, У зотнинг эмизилиши, кўкрак ёрилиши воқеаси ва бошқаларни айтиш мумкин. Шу ўринда Фитрат эмизилиш муддатини бир йил деб кўрсатиши бошқа маълумотларга мос эмас. “*Макка халқининг бир яхши одати бор эдиким, янги туғилган гўдакларни саҳройи энагаларга бериб, шаҳар ташқарисига чиқариб юборар эдилар. Абдул Муталлиб ҳам ул ҳазратни Ҳалима исмли доя га бериб, шаҳардан ташқарига чиқариб юбордилар. Ҳалима бир йил ул ҳазратни тарбия қилди, сўнгра қайтариб топширди*”. Муҳаммад Хузарий ибн шайх Афифий эса бу борада бошқача маълумот беради: Расулуллоҳни

тўрт йилдан ортиқ вақт ичида эмизган Ҳалиманинг оиласига барака ёғилиб турди.

Бу борада Авлонийнинг маълумоти ҳам Муҳаммад Хузарийнинг сўзларини тасдиқлайди. "*Макка халқи аввалдин бери янги туққан болани ҳавоси яхши ерларда бир сут анога беруб, тарбия қилурлар эди. Шул сабабли Фахри олам афандимиз туғулган замон баъдавий араблардин Бани Саъд қабиласиндин Ҳорис бин Абдул Уззо хотуни Ҳалима Аби Дуайб қизи олуб кетди. Баъдавийлар ичинда сут эмизуб, тўрт йил тарбия қилди*" [4, 31-бет].

Фитрат Пайғамбаримизнинг уйланишларига қадар бўлган айрим ҳодисаларни ҳам ташлаб ўтади. Масалан, Расулуллоҳнинг Шомга биринчи сафарлари ва йўлда Буҳайро исмли роҳибнинг башоратини эсга олмайди.

Аммо у иккинчи сафарни тилга олади. Кўпчилик китобларда, жумладан, Авлоний ҳам ҳар икки роҳибнинг башоратини тилга олади. *"Буҳайро лақабли Жиржис исмли насоро роҳиби осмон китобларинда ёзилмиш аломатлар юзасиндин Муҳаммад алайҳиссаломни пайғамбар бўлишлариндин башорат бериб...", деди, "... бу сафар ҳам Бусро шаҳрига кирдилар. Бу вақт Буҳайро вафот бўлуб, ўрнига Настуъро ўтирмиш эди. Настуъро келиб Майсара ила кўрушуб: "Эй, Майсара! Ҳазрати Исо хабар берган охир замон пайғамбари бу зотдурлар*" [4, 33-бет].

Илк мусулмонлар борасида Фитрат тарихчиларга таяниб: "Айтадиларким, энг аввал мусулмон бўлган кимсалар – аёллардан Ҳазрати Хадича, эркаклардан ҳазрати Абу Бакр, гўдаклардан ҳазрати Али мусулмонликни қабул қилганлар. Бундан сўнг ҳазрати Абу Бакрнинг далолати билан Маккaнинг бир неча улуғлари мусулмон бўлдилар" [2, 8-бет] – дейди.

Авлоний Фитрат билан бир фикрда бўлиб, мусулмон бўлган кишиларни араб тарихчиларидан фарқли равишда табақаларига қараб ажратиб кўрсатади: "*Энг аввал хотунлардин Хадича, эрлардин Абу Бакр Сиддиқ, болалардин Ҳазрати Али, озод қуллардин Зайд бин Ҳорис, озод*

чўрилардин Умми Айман мусулмон бўлдилар. Булардин сўнгра Усмон бин Аффон, Зубайр биннул Аввом, Абдураҳмон бин Авф, Саъд бин Абу Ваққос, Талха бин Абдуллоҳ, Абдуллоҳ бин Масъуд ва бошқа бир неча улуғ кишилар дини ислом ила мушарраф бўлдилар" [4, 35-бет].

Бу ўртада Фитрат яширин ва ошкор даъват, шу даврда кечган мусулмонларнинг жафолари ҳақида ҳам жуда кам маълумотларни келтиради. Бундан келиб чиқадиги Фитрат имкон қадар ислом тарихидаги энг ёрқин ва асосий ҳодисаларни тилга олишга ҳаракат қилади. Шунча воқеаларни ташлаб ўтиб, Ҳазрати Ҳамза ва ҳазрати Умарнинг мусулмон бўлишлари борасидаги маълумотларга эътибор қаратади. "*Ҳазратнинг доимий сабот ва саъй-ҳаракатлари натижасида арабларнинг атоқли баҳодирлари жаноби Ҳамза ва Умар мусулмон бўлдилар, бундан мусулмонларнинг диллари қувватланди. Ҳазрати Умарнинг далолати билан Пайғамбар алайҳиссалом ўз ёронлари билан Каъба масжидига бориб ошкора намоз ўқидилар, одамларни мусулмонликка даъват қилдилар, кишилар бирма-бир, аста-секин келиб мусулмон бўлдилар*"[31].

Фитрат бу воқеаларнинг батафсил баёнини келтирмайди, ҳатто воқеаларнинг ҳолатини ҳам тилга олмайди. Фитрат кейинги воқеаларни қуйидагича давом эттиради: "Пайғамбар ёронларининг Ҳабашистонга кетишлари, Хадича ва Абу Толибнинг вафотлари ҳамда муносабатларнинг узилиши, Маккадан Мадинага ҳижрат ва бошқалар. Агар эътибор берилса, Фитрат ҳам, Авлоний ҳам бу борада ўнлаб йирик воқеаларни қолдириб кетганлар. Айниқса, мусулмонларнинг кофирлар томонидан чеккан азиятлари, Ҳабашистонга бўлган биринчи ҳижрат тафсилотлари, уларнинг қайтиб келиши, иккинчи ҳижрат, Расулуллоҳнинг Тоифга қилган ҳижрати, бошқа қабиларларни даъват қилишлари, уйланишлари, биринчи ва иккинчи Ақоба байъати ва шу кабиларни эсга олиш жоиз.

Фитрат юқорида санаб ўтилган воқеаларни бир мавзу остида келтириб ўтади. "*Ҳижрати Пайғамбарнинг ўн тўртинчи йилида, исовий 622-санани мусулмонлар ўз тарих ҳисобининг ибтидоси, деб билурлар, яъни*

ҳижрий йил шу йилдан бошланган”. Авлоний бу санани қуйидагича келтиради: “*Фахри олам афандимиз пайғамбарлик келгандин сўнг Маккада 13 йил умр кечируб, ҳижрат қилғон вақтларинда 53 ёшда эдилар. Санаи милодийнинг 622 йили 11 8 рабби ул-аввалда душанба куни Мадинага яқин Қабо исмли ерга саломатлик ила етдилар. Шул ерда бир неча кун туруб, 12 рабби ул-аввалда жумъа куни Мадинага кирдилар*” [4, 37-бет].

Кейинги воқеалар баёнида Фитрат ва Авлоний ҳам бир-бирига яқин ифода йўлини тутганлар. Фитрат масжид қурилиши ва қибланинг тайин бўлиши, мусулмонларнинг жиҳодга буюрилишини алоҳида мавзу қилиб келтирган бўлса, Авлоний ҳижратдан кейинги Мадина аҳлининг шодлиги сарлавҳаси остида шу даврдаги ҳодисаларни тилга олади. Бу борада Фитратнинг асосий мавзу сифатида илк масжид, қибланинг ўзгариши, жиҳодга буюриш каби мавзуларни келтириши диққатга сазовор ҳисобланади. Чунки бу воқеаларнинг ҳар бири ислом тарихидаги муҳим ҳодисалардан саналади.

Фитрат “Жиҳодга буюриш” мавзусида айрим тарихчилардан фарқли равишда буйруқ-оятни, ҳадисларни келтириб ўтирмай, балки мавзуни аниқлаштиришга доир айрим истилоҳларнинг таърифини келтириб ўтади. Айни шу жиҳат Фитратнинг услубий жиҳатдан айрим жадид педагогларидан устун туришини кўрсатади. “*Пайғамбаримиз иштирок этган ҳар бир жангни* ***ғазот,*** *деб атаганлар ва ўзлари иштирок этмай, лашкар юборган жангларни* ***сарийя*** *деганлар. Мусулмонлар қарийб йигирмата ғазот ва сарийя уюштирганлар. Улардан машҳурлари: Бадр, Уҳуд, Хандақ, Ҳайбар, Маккани фатҳ этилиши*”. Шундан сўнг Фитрат Бадр, Уҳуд, Ҳандақ, Ҳайбар, Ҳунайн, Табуқ ғазотлари, Ҳудайбияҳ сулҳи, Ҳазратнинг элчилар жўнатишлари ва Маккани олинишига оид алоҳида мавзуларда маълумотлар келтиради.

Фитратдан фарқли равишда Авлоний Бадр, Уҳуд, Хандақ, Хайбар ғазотлари, Ҳудайбия (муоҳада) келишувини тилга олади. Авлоний Ҳунайн, Табук ғазотларини футуҳот деб атайди ва Фитрат асарида келтирилгани каби

Пайғамбар алайҳиссалом бу жангларда қатнашмаганлар. Демак Фитрат бу жангларни ғазот деб ўзи ўз фикрига бир оз қарши борган.

Бу даврда, яъни Пайғамбар алайҳиссаломнинг Мадинадаги фаолияти даврида тарихчилар яна кўплаб воқеаларни келтириб ўтадилар. Расули Акрам алайҳиссаломнинг Мадина даври ҳаётлари асосан Ул зотнинг Мадинага қилган ҳижратлари билан (622 йил. 22 сентябрдан) бошланади. Расули Акрамнинг ҳижратлари билан Мадина бир янги паллага кирди; шаҳарда катта ўзгаришлар рўй берди. Маккалик мусулмонлар уй-жойлари, мол-мулкларини ташлаб Мадинага кўчишган, мусулмонликни ёйиш учун эски урф-одатларидан воз кечиб, мадиналик мусулмонларни ҳимоясига келишган, муҳожир бўлишган эди. Авс ва Ҳазраж қабилалари ҳам ўзаро қабилачилик низоларини тўхтатиб, маккаликларга бўлган эски гина кудуратларини унутишди, мухожирларга қулоч очиб. Улардан ҳар турли ёрдамларини аяшмади. Бу яхшиликлари сабабли ҳам улар Ислом тарихида “Ансор” (ёрдамчилар) номини олишди. Айниқса, улар томонидан турли қабилаларнинг бўйсундирилиши, яҳудийлар масаласи, шаръий ҳукмларнинг амалиётга жорий этилиши билан боғлиқ воқеалар ва шу кабилар кенг ва батафсил баён қилиб берилади.

Фитрат видолашув ҳажи мавзусида ҳижратнинг ўнинчи йили Пайғамбар алайҳиссаломнинг ҳаж қилиш ниятларини бутун мусулмонларга эълон қилиб, қирқ минг киши билан Маккага кирганлари ва атрофдаги мусулмонлар ҳам гуруҳ-гуруҳ бўлиб қўшилиб, натижада уларнинг сони юз минг нафарга етганини айтади. “Ҳазрат хутба ўқиб, бу дунёдан ўтишлари яқинлигини башорат қилдилар. Мусулмонларга насиҳат қилиб, сўнг Мадинага қайтдилар. Бу Ҳазратнинг сўнгги ҳажлари бўлиб, тарихда “видолашув ҳажи”, деб аталган” [2; 11-бет].

Авлоний ушбу воқеани қуйидагича баён қилади: “Фахри олам афандимиз 25-зулқаъда ойинда душанба куни қиёмдин сўнг 90000 қадар саҳоба бирла Маккаи мукаррамага қараб юрдилар. Йўл-йўлдин яна ҳисобсиз араблар қўшулуб, тўртинчи зулҳижжада Маккаи мукаррамага етдилар.

Бирин-бирин ҳаж амалларин ҳаммасин адо қилдилар. Тўққузинчи зулҳижжада Арафот тоғига чиқуб, бир хутба сўзлаб, шул хутбаларинда ислом динининг ҳукмларин баён қилдилар [4, 37-бет].

Авлоний Фитратдан фарқли равишда ўз дарслигига Расули акрамнинг умра қилишлари борасида алоҳида мавзу киритади. Бу нарса, яъни ҳижратнинг еттинчи йилидаги ушбу воқеани бошқа тарихчиларнинг асарларида илк умра мавзуси билан қаламга олинади.

Авлоний ва Фитрат Пайғамбар алайҳиссаломнинг дунёдан ўтишлари борасида бир хил сана ва кунни келтирган. *“Рабби ул-аввал ойини ўн иккинчи кунида душанба 17 куни Мадина шаҳринда 63 ёшларинда ажал шарбатини ичуб, дунёдин ўтдилар. Олам кўзини висоли муборакларидин маҳрум қилуб, иккинчи куни кўмилдилар. Қабри шарифлари Мадинаи мунаввара шаҳринда, равзаи мутаҳҳарадаги масжиди шариф ичинда, ҳужраи саодатдадур”* [4, 40-бет].

Хуллас, жадид маърифатпарварлари – Авлоний ва Фитратларнинг мухтасар ислом тарихига бағишланган дарсликлари тузилиш жиҳатидан, воқеаларнинг келтирилиши, мавзуларнинг қўйилишида бир-бирига жуда яқин. Уларнинг биргина фарқли томонида Фитрат ислом халифалигининг тарихини ҳам баён қилса, Авлоний китобини тўрт рошид халифа фаолияти билан якунлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ислом энциклопедия. – Т.: ЎзМЭ ДИН, 2004.

2. Абдурауф Фитрат. Мухтасар Ислом тарихи. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2004.

3. Раҳматуллоҳ қори Обидов. Пайғамбарлар тарихи исломият тарихидир. – Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2005.

4. Абдулла Авлоний. Мухтасар тарихи анбиё ва тарихи ислом. – Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008.

ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ

Шавкат Машарипов
Ш.Рашидов номидаги СамДУ тузилмасидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи ходими.

Аннотация. Ушбу мақолада янги усул мактабларининг очилишига чоризм амалдорлари тиш-тирноқлари билан қаршилик қиладилар. Жадидчилик ҳаракати шу вақтгача ислом дунёсида сира ҳам кўринмаган илғор ва тезкор ўқитиш “Савтия” (товуш) усулига асосланган жадидлар мактаблари ташкил топишидан бошланди. Бу мактабларда болалар бир-икки йилда тўла савод чиқариб, мукаммал ўқиш ва ёзишни ўзлаштиради. Айтиш мумкинки, “Савтия” усулидаги жадид мактаби Ватанимиз тарихида буюк кашфиётлар силсиласини бойитди. Ўзбекистондаги янги усул мактаблари алоҳида ўрганишга арзийди. Бу махсус илмий тадқиқот темасидир.

Калит сўзлар: Жадид, савтия, буржуазия, чор, инспектор, қоида, метод, система, предмет.

Аннотация: В этой статье царские чиновники сопротивляются открытию новых методистских школ. Движение джадидизма началось с создания джадидских школ, основанных на невиданном ранее в исламском мире методе продвинутого и быстрого обучения “Савтия”. В этих школах дети за один-два года становятся полностью грамотными и учатся прекрасно читать и писать. Можно сказать, что современная школа метода “Савтия” обогатила ряд великих открытий в истории нашей страны. Школы новой методики в Узбекистане заслуживают отдельного изучения. Это особая тема исследования.

Ключевые слова: Джадид, савтия, буржуазия, царь, инспектор, коида, метод, система, предмет.

Abstract. In this article, the opening of new method school is resisted by chorizim officials with fangs. The movement of Jadidism began with the establishment of Jadid shools based on the Savtiya (sound) method of advanced and fast teaching, which had not been seen in the Islamic world until now. In these

schools, children become fully literate in one or two years and learn to read and write perfectly. It can be said that the modern school of the Savtiya method enriched the series of great discoveries in the history of our country. The new method school in Uzbekistan are worth studying separately. This is a special research topic.

Key words: Jadid, Savtiya, Bourgeoisie, Tsar, Inspector, Rule, Method System, Pridmet.

Ўрта Осиёнинг Россия иқтисодига ва у орқали жаҳон бозорига тортилиши муносабати билан маҳаллий буржуазиянинг тобора ўсиб борган синфий эҳтиёж ва манфаатлари эски усул мактабларининг замон талабларига жавоб бера олмай қолганлигини айниқса яққол кўрсатди ва эски мактабларнинг таълим-тарбия усулини ислоҳ қилишни зарур қилиб қўйди. Шу тариқа янги турдаги мактаблар очила бошлади. Бу мактаблар янги усул (жадид) мактаби деб аталди.

Жадидчилик ҳаракатининг пайдо бўлиб, ривожланишида асли қримлик Исмоилбек Гаспиринский (1851-1914) ҳиссаси беҳат катта бўлди. У Қримда XIX асрнинг 80-йиллардаёқ, Россия босиб олган мусулмон халқлари орасида биринчи бўлиб жадидчиликка асос солди. Унинг рус ва туркий тилларда чоп этилган “Таржимон” (1883-1914) газетаси, “Россия мусулмонлиги” (1881), “Оврупа маданиятига бир назар мувозини” (1885) ва бошқа асарлари ҳамда жадид мактаби учун ёзган дарслик ва қўлланмалари Туркистонга тез кириб келди.

И.Гаспиринский 1884 йилда ўн иккита болани янги усул – “усули жадид” – савтия (товуш) усули билан ўқитиб, қирқ кунда саводини чиқаради. У 1892 йилда Туркистон генерал-губернатори Н. О. Розенбахга махсус мактуб йўллаб, унда мактабларни ислоҳ қилиш, жадид мактабларини ташкил этиш, мадрасалардан бирини замонавий олий таълимга мослаштиришни таклиф этади. Аммо, бу таклифлар инобатга олинмайди. Шундан сўнг у 1893 йилда Тошкентга келади ва зиёли уламолар билан учрашади. Самарқандда

бўлади.У ердан Бухорага бориб, амирни жадид мактабини очишга кўндиради ва мактабга “Музаффария” деган номни беради. Қисқаси, XIX аср 90-йиллари – XX асрнинг бошларида жадидчилик мунтазам маданий-маърифий ҳаракат сифатида пайдо бўлди.[1]

Ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида янги усул мактаблари, асосан, 1895 йилдан очила бошлаган. Янги усул мактабларида бойларнинг ҳам, камбағалларнинг ҳам болалари ўқиши мумкин эди. Аммо бу мактаблардан биринчи навбатда миллий буржуазия манфаатдор эди. Улар янги усул мактабларини ҳимоя қилиб, ўз ўғилларининг фақат диний илмларни эмас, балки дунёвий илмларни ҳам ўрганиб олишларига қизиқдилар.

Туркистонда янги усул мактабларининг сони 1905 йилги рус инқилобидан кейин майда миллий буржуазия ҳаракатининг ўсиши натижасида тез кўпайди. Чор амалдорлари 1908 йилгача Туркистондаги янги усул мактабларини рўйхатга ҳам олмаган, бирон жойда бундай мактаб очилганини сезиб қолса, уни дарҳол бекитган, чунки подшо ҳукумати “бегона халқ”нинг қисман бўлса ҳам илм-маърифатли бўлишини, дунёвий билимларни ўрганишини истамас эди. 1908 йилга келиб, янги усул мактабларининг сони кўпайиб кетгач, уларнинг ҳаммасини зўрлик билан бекитиб қўйиш мумкин бўлмай қолган. Бир қанча муаллимлар янги усул мактабини расмий очиш учун рухсат сўраб Туркистон Ўқув округи Бош инспектори номига арзнома бера бошлаган. Бироқ арзномалар ўқув маҳкамасида бир қанча вақт ҳеч қандай натижасиз ёта берган, мактаблар эса ишлай берган. Ниҳоят, 1911 йил 6 – 8 июнда Туркистон Ўқув округи Назорат комитети аъзоларининг мажлисида 15 кишининг арзномаси кўрилган ва мажлисда қуйидаги қарор қабул қилинган:

“Назорат комитети мавжуд қонунда мусулмонларнинг фақат диний мактаблари тўғрисида кўрсатма борлигини, янги усул мактаблари эса диний мактаб эмаслигини эътиборга олиб, янги усул мактабларини очиш ҳақида илтимос қилувчиларга мўлжалланган мактабларини очишга рухсат этиш мумкин эмас, деб ҳисоблайди. Шу билан бирга, Комитет бу масалада

Маориф министирлигининг тегишли йўл-йўриқ беришини сўрашга қарор қилди, чунки ўлканинг жаноб Бош бошлиғи орқали 1909 йил март ойида бу масала хусусида топширилган маърузага жавоб олинган эмас”.[2]

Шундай қилиб, 1911 йил охиригача баъзи янги усул мактаби эгаларининг арзномаларига ҳеч қандай жавоб берилмаган, бироита ҳам янги усул мактаби расмий очилмаган, шунга қарамай, янги усул мактабларида болалар ўқишни давом эттирган.

1910 йилда чор амалдорлари янги усул мактабларига нисбатан ҳар қандай жазо қўлланиш барибир уларни батамом йўқ қила олмаслигини, янги усул мактаблари йилдан-йилга кўпайиши табиий ва тарихий зарурият эканлигини англаб етади. Натижада улар янги усул мактабларини зўрлик билан ёпиш эмас, балки уларни қонунга бўйсундириш йўлига ўтдилар. 1909 йилда 3 кишидан иборат махсус комиссия янги усул мактаблари учун 9 моддали “Қоида” тузди, бу “Қоида” чор амалдорлари ўртасида муҳокама қилинди, “Қоида”ни кўриб чиқиб, мулоҳазаларни баён қилиш губернатор маслаҳатчиси А. А. Семёновдан сўралди.

А. А. Семёнов 1911 йил 28 декабрда мулоҳазаларини ёзиб, янги усул мактабларини очишга давлат рухсат берса бўлади, деган хулосани чиқарди. шу билан бирга, “Қоида”нинг ҳар бир моддасига киритилиши керак бўлган ўзгаришларни батафсил кўрсатиб беради.[3]

Янги усул мактаблари учун тузилган “Қоида” 1911 йилнинг охири А. А. Семёнов ва бошқаларнинг мулоҳазалари асосида қайта кўриб чиқилди; 1912 йил 25 январда Туркистон ўлкаси генерал-губернатори генерал Самсоновнинг имзоси билан Сирдарё область халқ мактаблари директори ва Туркистон ўлкаси халқ мактаблари инспекторларига қўлланма ва тўла бажариш учун махфий кўрсатмалар берилди.

Ўрта Осиёнинг Россия таркибида тараққиётнинг буржуача йўлига қадам қўйганлигини англаб олган С. М. Граменицкий эса (1859 – 1918) янги усул мактабларига хайрихоҳлик билдирган. У 1908 йилда Фарғона областига

борганида, Қўқон шаҳридаги бир неча янги усул мактабларини ҳам бориб кўрган эди.

Янги усул мактабининг асосий мақсадларига таянган бир гуруҳ зиёлилар 1916 йил 21 ноябрда С. М. Граменицкийнинг педагогик фаолиятига 35 йил (1881 – 1916) тўлиши муносабати билан ўтказилган тантанали юбилейда янги усул мактаблари муаллимлари номидан ёзилган адресда С. М. Граменицкийнинг янги усул мактабларига хайрихоҳлигини қайд қилиб, миннатдорлик билдиришган эди.[4]

Янги усул мактаблари сони ўз вақтида тўла ҳисобга олинмаган, Ўзбекистондаги архивларда ҳам бу ҳақда аниқ маълумот йўқ. Аммо проф. Қори Ниёзий ёзганидек, “Янги усул мактаблари жуда озгина – бутун Туркистон ўлкаси бўйлаб атиги 40 тагина” [5] эмас, кўп бўлган: Тошкент шаҳар мутасаддиларининг 1911 йил 31 июлда Туркистон генерал-губернатори маҳкамасига берган маълумотига кўра, Тошкентнинг эски шаҳар қисмида 16 та янги усул мактаби бўлган. Кекса кишилардан суриштириб аниқлашимизча, Октябрь инқилоби арафасида Қўқонда 24 та. Андижон шаҳри ҳамда шаҳар атрофидаги қишлоқларда 34 та янги усул мактаби бўлган.

Ўзбекистондаги янги усул мактабларининг ягона ўқув режаси, дастури ва дарсликлари бўлмаган; муаллимлар ўзлари танлаб олган ўқув китобларини ишлата берган, чунончи: Рустамбек Юсуфбек ўғли (1880 – 1950) Тошкентнинг Кўкча даҳасида тобе Подахона маҳалласида очган мактабида болаларни ўқиш ва ёзишга ўзи ёзган “Таълими аввал”, “Таълими соний” каби китобларидан фойдаланиб ўргатган; Абдулла Авлоний (1878 – 1934) Тошкентнинг янги шаҳар қисмида Сапёр ва Миробод кўчалари бурчагидаги янги масжид қошида очган мактабида ўзбек болаларига ўзи ёзган “Биринчи муаллим”, “Иккинчи муаллим” ва бошқа китобларидан фойдаланиб, хат-савод ўргатган; Абдуқодир Абдушакур ўғли – Шакурий (1875 – 1938) Самарқанд шаҳри ёнидаги Ражаб Амин қишлоғида деҳқон болаларига ўзи

ёзган бошланғич синфлари учун “Раҳнамои савод” алифбесини тузиб ва тожикча ўқув китобларини ўқитган ва ҳакозо.

Таълим-тарбия янги усул мактабларида эски мактабдагига нисбатан бирмунча илғор бўлиб, асосан, болаларнинг она тилидаги ўқув китоблари ўқитилган; хат-савод асосан товуш методида ўргатилган, бу методда болаларнинг хат-саводи анча эрта чиққан. Янги усул мактабларида ҳам дин дарси учун кўп вақт ажратилган, аммо уларнинг эски мактаблардан фарқи шу бўлганки, диний ақидалар болаларнинг ўз она тилида ўргатилган.

Жадид мактаблари пуллик эди. Ҳар ойига ота-оналар бахоли қудрат, бир сўмдан уч сўмгача пул тўлаганлар. 35 фоизгача камбағал ва ночорларнинг болалари текин ўқитилган.[6]

Ўзбекистондаги янги усул мактабларида асосан ўғил болалар ўқиган, аммо Тошкент, Қўқон, Каттақўрғон каби шаҳарлардаги баъзи янги усул мактабларда қиз болалар учун махсус синфлар ҳам очилган; баъзи мактабларда қиз болалар билан ўғил болалар бирга ўқиган.

Янги усул мактабларининг одатда алоҳида биноси бўлмаган: мазкур мактаблар, шаҳарларда у ёки бу маҳалладаги бойларнинг маслаҳати билан, қишлоққа кўчиб кетган кишиларнинг ҳовлисида, баъзи кишиларнинг уйларидаги бир-икки хонасида машғулот ўтказган.

Янги усул мактабларида болалар синфларга бўлиб ўқитилган, улар партага ўтирган; дарс системаси жорий қилиниб, машғулотлар дарс жадвали асосида бўлган; дин, она тили, ҳисоб, жуғрофия, тарих, ахлоқ каби ўқув предметлари ўқитилган. 1910 йиллардан баъзи янги усул мактабларида рус тили ҳам ўқитила бошлаган. Жадид мактаблари тўрт (бошланғич) ва етти йиллик эди.[7] Баъзи бир янги усул мактабларда имтиҳон катта тантана тусини олган. Баъзан имтиҳонга 200 – 300 га яқин киши йиғилган. Бунда янги усул мактаби муаллимлари ўзи ўқиган болаларнинг билимини халқ олдида намойиш қилиб, янги усул мактабини ташвиқ қилган, руҳонийларнинг иғвоси пуч эканлигини исботламоқчи бўлган. Муаллим

имтиҳонда ўқув китобларини ўқитиб сўзлатган, ёдлатилган шеърларни айттирган, хат ёздирган, ҳисоб ишлатган, қуръон ўқитган.

Хулоса шуки, Янги усул мактабларининг очилишига рус амалдорлари, мусулмон мутаассиблари қаршилик қиладилар. Жадидлар катта матонат ва фидойилик билан эски мактабларга тегмай намуна сифатида жадид мактабларини ташкил этиб, омма орасида катта обрў қозондилар. Умуман, жадидларнинг жуда катта саъй-ҳаракати билан Туркистонда ўн беш-йигирма йил ичида бутунлай янги, яъни жадид халқ маорифи тизими ва унинг ўзига хос диний-дунёвийликдан иборат таълим-тарбия усуллари тўла шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон тарихи “Янги аср авлоди” Тошкент-2003. 361-362 бетлар.

2. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви, 47-фонд, 1149-дело, 5-бет.

3. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви, 47-фонд, 1149-дело, 13-бет.

4. Граменицкий Сергей Михайлович, к 35-летию педагогической деятельности. Тошкент, 1917, 22-23-бетлар.

5. Т. Н. Қори Ниёзий. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, Тошкент, 1956, 128-бет.

6. Ўзбекистон тарихи II-жилд (XIX аср II ярми – 1991 йил) Toshkent “VNESHINVESTPROM” 2019. 145-бет.

7.Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви, 47-фонд, 926-дело, 106-107 бетлар.

АНСАБ УС САЛОТИН АСАРИ ҲАҚИДА БУЛАТ СОЛИЕВ ФИКР МУЛОҲАЗАЛАРИ

Убайдулла Қувваталиев

Термиз давлат университети тузилмасидаги Қатағон қурбонлари хотираси музейи директори

1929 йилда тарих фанлари бўйича илк ўзбек профессори Булат Солиев томонидан ёзилган “Ўзбекситон тарихи” китоби Ўзбекистон тарихи фанида шу ном билан ёзилган илк асар эди. Олим бу китобни ёзиш асносида Қўқон хонлиги тарихини ёритар экан, “Ансоб ус-Салотин” асаридан асосий манбалардан бири сифатида фойдаланди. Шу билан бирга олим ушбу асар ҳақида 1928-йилда ўша даврдаги етакчи илмий нашрлардан бири бўлган “Аланга” (әләнгә) журналининг 10-11 сонида “Ансоб ус салотин” номли мақоласини эълон қилади. Биз атоқли тарихчи Б.Солиевнинг мазкур мақоласини тадбил қилиш асносида, Қўқон хонлиги тарихи билан шуғулланидан тадқиқотчилар учун жадид тарихшуносларининг минтақа тарихига оид масалаларга ойдинлик қандай тарихий метод ва усуллардан фойдаланганликлари борасидаги қарашларини умумлаштиришга ёрдам беради деган умидда қайта нашр қилиниши жоиз деб топдик .

Фарғона хонлиғиға оид ёзилған бир мунча асарлар бўлса ҳам булар орасидан Ансабуссалотин исмли асар жуда мароқлидир. Бунинг ёзувчиси тошкентлик Мир Олим деган кишидир. Тарихшунослиги билан баравар ўзининг шоирлиги ҳам бор.

Бу одам Худоёрхоннинг намакхўри, шунинг маддоҳидир. Фарғона хонлигининг то бошидан бошлаб то Русия савдо дармоясининг истилосиға қадар ёзадир. Русиянинг истилосидан сўнг хонликда ҳаётнинг қандай ўзгарганлиги, хонликнинг ўлиши билан Русия савдо сармояси нимага киришганлиги ҳақида жуда мароқли ёзади. Русиянинг истилоси олдидан Фарғона хонлигининг аҳволи билан танишиш, истило қилинғачда қандай ўзгаришлар бўлғонлиғин билиш учун бу асар жуда муҳимдир. Янги тартиб, янги низомлар вужудга келганда, савдо сармояси ўзига мувофиқ аппаратлар

қурғонин яхшиғина сўйлайди. Шу хусусларда Мирза Олим қуйдағича сўз бошлайди:

Алқисса замонки шаҳзода Насриддин Якка мулла деган мавзедин сибир қилиб қилиб офтобачи ва бир-неча қирғиз, қипчоқ ва Қўқон калон шавандалари бирла арабаға солиб Тошкент тарафиға юборди. Хотиржам бўлиб рус аскари отланиб шиддат ва сиёсат бирла Қўқон ўрдасига якбара кириб келди. Мусулмонларнинг ҳуш бошидан учиб, ҳайрон ва саросима бўлуб баъзи бир гуруҳ сипоҳлар қочиб чиқиб кетдилар ва бақий мусулмонлар тавба айлаб Худовонди каримга такия айлаб сабир қилиб турдилар. Амин ва оқсоқол бойлар келдилар. Қанд-қурс ва нон неъмат ва меваҳой алвон, алвон тортидилар. Жомий тўра ва Жондор ва губернатур хонасида ўлтуруб таом ейиб бир неча сўз мусулмонларға баён қилди ва айтдики бизларнинг мусулмонларға зиён заҳматимиз йўқдур, шариат жойида барқарор турар, муллалар мадрасада дарсгўйликка масъул бўлсинлар ва эшон халқи ҳонақоҳларида зикр, тасбеҳ ва дуогўйликка машғуллиқ қилсинлар.

Фуқаро осойишталиқ бирла ўз бечаралиқ юмушиға машғул бўлсун. Худоёрхон замонида қандай расим, қайда бўлса шундоғ бўлсун. Қирғиз ва қипчоқ халқи сизларға бузуқчилиқ солибдур, сизлар бир катта подшоҳга ўзларингни солмасанглар, хароб бўласизлар, ул вақт оқ подшоҳдин бўлак катта подшоҳ йўқдур деб либос бериб жавоб берди. Жой-жойларинға боринглар, сизларға меҳрибонлиғимиз кўпдир, деди. Андоқким тўқсан беш ёшға борған Кауфман губернатур маҳрам қўрғонида туриб бир неча аҳднома ёзиб, бир сандуқни хатға тўлдуруб вилоятларға юбарди дейди. Мирзаларни йиғдириб, хирож, таноб, закот, никоҳона, таракалардин тушатурған пулларни алоҳида рўйхат қилдириб олғонин сўйлайди. Мингбошлар, элликбошлар, оқсоқоллар, қозилар тайин қилғонини ёзади. Ерларга таноб тортиб солиқ тайин қилғонини, бу ишга яхши одамларнинг аралашмағонлиғини, бепарҳез одамларғина аралашғанин айтади: “Баъзи бепарҳез мирзалар қабул хизмат қилдилар, занжирчи Ўрусия билан шаҳар ва қишлоқ, дашти биёбон, обод ва

не обод ерларга таноб тортдилар. Ҳар танобға ярим тангадин мир кам икки танга земиска номзод қилди. Жами беш танга бир мири бўлди. Дафтар қилиб мингбошиларға топширди, ва яна ҳар қишлоқи танобини дастхат қилиб жам боғлаб эликбошиға топшурдилар ва яна бир неча мирзаға уруш қўшиб ҳовлиларни хатға олиб дафтар қилди. Бозор, дўконларни хатға олиб шуҳара қилиб туника қоқди. Ҳар дўконга олти сўмдан пул солди ва ҳовли пули солди. Тўрт йиллик пулни элликбошлар йиғиб олиб хазинага жавоб берди. Ва яна закотни берҳам бериб, қизил қоғоз берди. Кўп пулларни олди ва дўкондорларға ва симфурушларға қизил қоғоз бериб олти сўмдан олди ва яна мироблардан кўп пул олдилар ва бир неча нопок кимсалар ҳар вилоятдин эргашиб жам бўлғон экан. Жаҳоноро устидаги сарбозхонани уларга жой қилиб берди ва баъзи номуносиб одамларни амин элликбошиларға уч юз сўм, тўрт юз сўм пора бериб қишлоқға қози бўлдилар" деди. Бундан сўнг янги иморатлар бино қилиб сой бўйиға қадар яхши жойлар, бинолар солғонини ёзади. "Ўрус ва нўғай ўрусча дукан иморат қилиб лабга от қўюб, тола моллар солиб лабкадорлиқ қилдилар Бухоро ва Самарқанд вилоятидаги жуҳуд ва ҳиндилар Қўқонға келиб ҳовли олиб, иморат айлаб, дукан олтуруб, яхши отлар миниб мусулмонларни писанд айламай, поймол қилдилар" дейди. Умуман Мирза Олимнинг ёзишидан хонликда ҳаёт бошқарғонлиғи, феодализмға катта зарба берилғонлиғи сезилиб турилади. Шунинг билан бирга савдо сармоясининг зарбаси сезиларлик даражада бўлғонлиғи кўриниб туради ва бунинг оғирлиғидан додлайди:

Баъзи одам телфак кийиб бўйра бўлди

Отлар чопиб жон дилдан хизмат қилди.

Ҳар ой ичра бир неча сўм ақча олди

Издирас деб ҳар кун салом қилди дўстлар.

Бепарҳез мирзаларни йиғиб олди,

Шаҳар, қишлоқ маҳалладан уй санади,

Эркак заиф гўдакларни хатға олди

Ўлганни ҳам бир дафтар қилди дўстлар.

Отасининг номи бирла хатға олди,

Ҳар қишлоқни алоҳида жам айлади,

Дафтар қилиб хазинага олди дўстлар.

Ҳар қишлоқни пилан қилиб қўлға берди,

Ўлпониға земискасин ҳамроҳ қилди,

Ўлпонидан раиятлар жондан тўйди,

Деҳқон халқи ердан безор бўлди дўстлар

Урусиялар бой халқиға қилди шафқат,

Бой халқи ҳам анга бўлди доим улфат,

Деҳқон халқи ўлпонидан тортди кулфат

Ҳалок бўлуб заҳар заққум ютти дўстлар.

деб фарёд қилади. Уруш савдо сармояси билан маҳаллий буржуазиянинг келишганини, биргалашиб деҳқоннинг елкасига отланғанини очиқ суратда тасвир этади. Мирза Олим хонликдаги курашларни, қирғиз, қипчоқ, талашларини ҳам жуда яхши ёзади. Уруш савдо сармояси истилоси олдида Фарғона аҳволини билиш учун юқорида ёзғанимизча аҳамияти каттадир. Сўнғи давр тарихи билан шуғулланувчлар учун бу асар шубҳа йўқ аҳамиятлидир.

Болат. «Аланга» Журнали 1928 йил 10-11 сони.

Фойдаланилган адабиётлар

1. «Аланга» Журнали 1928 йил 10-11 сони.

2. Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin. T.: Adabiyot va san’at, 1995. – 79-b.
3. Дадабоев Я. Хўқанди латиф маҳаллалари ва кўчаларининг номланиш тарихи. Ф.: Фарғона, 2007. – 131-б.
4. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих. Т.: Фан ва технология, 2014. – 134-б.
5. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. Т.: Фан, 1961. – 220-б.

УРАЛ ҲУДУДЛАРИГА САФАРБАР ЭТИЛГАН “МЕҲНАТ АРМИЯЧИЛАРИ”НИНГ ИЖТИМОИЙ АҲВОЛИ

Каромат Қурбонова,
НавДПИ тузилмасидаги
Қатағон қурбонлари хотираси музейи фонд сақловчиси

Тарихимизнинг ҳам “қонли”, ҳам “шонли” даврида халқимизнинг мардлик, жасорат ва ватанпарварлик фазилатлари ҳақиқий “синовларда” тобланди.

Яъни, XX асрнинг фожеаларидан бири, инсоният тарихида мисли кўрилмаган йўқотишларга сабаб бўлган, ўз даврида тарихни ўзгартириб юборган Иккинчи жаҳон уруши инсоният бошига не-не кулфату, не-не ғамларни солди.

Ҳали юртдошларимиз XX асрнинг 30-йилларидаги машъум воқеалар, мажбурий коллективлаштириш, параллел равишда ўтказилган қулоқлаштириш ва сургун жараёнлари, бу етмагандек 1937-1938 йиллардаги “Катта қирғин” сиёсатларининг фожиали оқибатларини ҳали эсидан чиқариб улгурмаган эди.

Бугунги кунда тадқиқотчилар томонидан Иккинчи жаҳон уруши даври ҳақида кўплаб изланишлар олиб борилиб, тадқиқотлар натижалари юзасидан мақолалар, рисола ва монографиялар чоп этилмоқда.

Президент Ш.Мирзиёев томонидан 2023 йилнинг “Инсонга эътибор ва сифатли таълим” деб номланиши “халқпарвар давлат” яратишди, Янги

Ўзбекистонни тараққий эттиришда Бош ва асосий омил инсон ва унинг қадри эканлиги алоҳида таъкидланди. Шу жумладан, дейди Президентимиз: “Инсон қадрини улуғлаш - юртимизда яшаётган ҳар бир одамнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш демакдир”, деган фикрларига ҳамоҳанг ҳолда, тарихни, айниқса инсон қадри билан боғлиқ тарихни ўрганишда ўзгача ёндашув бўлиши мақсадга мувофиқ.

Тарихда бу давр нуқтаи назаридан ўрганганда, айнан Иккинчи жаҳон уруши йилларида ҳаркатдаги аскар мақомидаги “қуролсиз аскарлар” тарихи ва тақдирини алоҳида масала сифатида тадқиқ қилиш мақсадга мувофиқ.

Ҳарбий йилларда, яъни 1942-1944 йиллар оралиғида Иттифоқ Мудофаа Қўмитасининг 1942 йил 14 октябрдаги “ўта маҳфий” қарори билан Ўрта осиёдан 350 минг кишини Урал ҳудудларидаги ишлаб чиқариш ва саноат корхоналарига ишлаб учун сафарбар этилган. Улар орасида 150 минг киши Ўзбекистондан бўлиб, Урал ҳудудларидаги ўнлаб вилоятлардаги 15 та Халқ комиссарлигига қарашли бўлган 111 та[1] ишлаб чиқариш объектларига оғир меҳнатга сафарбар қилинган.

Аввалги мақолаларимизда “Қуролсиз аскарлар” ким ?, Уларнинг категориялари, ҳудудлар бўйича тақсимоти, саноат ва ишлаб чиқариш корхоналаридаги меҳнат фаолияти билан боғлиқ масалалар бир қисм ёритилган[2].

Ушбу мақолада эса, оғир ва машаққатли меҳнат учун ноқулай шароитлар ва меҳнат унумдорлигининг пасайиш сабаблари ҳақида сўз юритишни маъқул билдик.

Ушбу маълумотлар Россия Федерацияси давлат архиви (ГАРФ), Россия ижтимоий-сиёсий тарихи давлат архиви (ГРАСПИ), Челябинск вилояти бирлашган давлат архив (ОГАЧО) ларининг 30 дан ортиқ фондларида сақланаётган бирламчи архив хужжатлари асосида таҳлил қилинди.

Меҳнат армиячиларининг кутиб олиниши ва жойлаштирилиши

Ўрта осиё ҳарбий округи (ЎОҲО, САВО – рус тилида) меҳнат армиячилари учун Жанубий Уралга келиш ва озиқ-овқат рационидаги

ўзгаришлар жиддий муаммоларга сабаб бўлди. Яъни, Ўрта осиёликлар учун одатий бўлган озиқ-овқатлар таркиби уларга хос бўлмаган овқатланиш рационига ўзгарди. Ўрта осиё аҳолиси учун хос бўлган гуруч, уй нони, пахта мойи, қўй гўшти ва қўй мойи ўрнига, кўк чой, қурутилган мевалар ва миллий носвойнинг бутунлай йўқлиги шароитида картошка, крупа, қора нон, мол гўшти, мол ва чўчқа ёғига ўзгарди.

Шунингдек, иқлимнинг алмашиши ҳам меҳнат армиячиларнинг соғлигига салбий таъсир кўрсатди. Бу эса 1943-1944 йилларда Жанубий Уралдаги меҳнат армиячилари сонининг камайишига олиб келди. 1943 йилнинг март ойида Ўрта Осиё республикаларидан бўлган ишчиларни тиббий кўрикдан ўтказган Челябинск шаҳар соғлиқни сақлаш бўлими меҳнаткашларнинг “касалланишининг асосий сабаблари” сфиатида қуйидаги омиллар асос қилиб кўрсатилган:

- иқлимнинг ўзгариши.

- озиқ-овқат таркиби ва рационнинг ўзгариши (яъни, қуюқ овқатлар, сабзавот ва мевалар кам истеъмол қилинган).

- сув таркибининг ўзгарганлиги (тиббий ташхисларда инсон организмининг қувватсизланганлигини кўрсатган).

- сафарбар қилинганлар орасида 50 дан 60 ёшгача бўлган ишчилар борлиги ва уларнинг мадори етмаганлиги ва бошқа сабабларни келтириш мумкин.[3]

Меҳнат армиячилари учун яшаш тарзи ва шароитларнинг нобоплиги, ҳаётнинг зерикарли ва бир маромдалиги, истиқомат жойларидаги минимал санитария-гигиена ва маиший шароитлари, иш жойларидаги кучайтирилган меҳнат фаолияти, меҳнат сменасидан кейин меъёрий дам олиш имкониятининг амалда йўқлиги, озиқ-овқат ва кийим кечак таъминоти масалаларининг охиригача ҳал қилинмаганлиги ҳам таъкидлаш жоиз.

Бундай ҳолатларда инсонлар ўлими ҳам кўпайган. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, тушликда биринчи ва иккинчи овқат берилган вақтда ўрта осиёлик меҳнат армиячилари колбача, котлет, пишлоқ, айрим балиқ

турларидан тайёрланган овқатларни ейишмаган. Бунда, ислом динида ман қилинган ҳайвон гўштларидан фойдаланилган деган, хулосага келишган эди. Шунинг учун, аксарият меҳнаткашлар иккинчи овқатни сотишган ва пулларини асраб юришган. Мисол учун: “Копейсккўмир” трестида вафот этган шахтёрларнинг биринг чопонига тикилган 15000-20000 сўм пул топилган ва бу ҳолатлар ягона бўлмаган[3].

1943 йилда Жанубий Уралдаги меҳнат армиячиларининг сонининг камайишини қуйидаги жадвалда маълумотларида кўриш мумкин.

ЎОҲО меҳнат армиячилари сонининг Жанубий Уралда қисқариши сабаблари, 1943 йил 31 декабр ҳолати[4]**.**

Кўрсаткичлар/ кетиш сабаблар	**Челябинск вил.**		**Чкалов вилояти**		**Жанубий Урал**	
	Меҳнат армиячилари/ киши и	**Умум. сонига %**	**м/а, киши**	**Умум сонига %**	**м/а, киши**	**Умум сонига %**
Касаллик	4275	47,30	маъ. йўқ	маъ.йўқ	4275	40,7
Дезертирлик	2878	31,84	708	43,46	3586	33,61
Ўлим	1105	12,22	452	27,75	1557	14,60
Уйига жўнатилган	609	6,74	457	28,05	1066	9,99
РККА чақируви	54	0,6	маъ.йўқ	маъ. йўқ	54	0,51
Жиноий жавоб.к	24	0,27	12	0,74	36	0,34

Сабаби кўрсатилмаган	94	1,03	маъ.йўқ	маъ.йўқ	94	0,88
Жами:	**9039**	**100,00**	**1629**	**100,00**	**10668**	**100,00**

Жанубий Уралдаги ЎОҲО меҳнат армиячилари сони қисқаришининг асосий сабаби турли касалликлар (40,07%), дезертирлик (33,61%), ўлим (14,60%) ва Ўрта Осиё аҳолисининг жисмоний ҳолатининг кучсизлиги асосий сабаблиги кўриниб туради.

Буларнинг барчаси биргаликда ўрта осиёлик ишчилар сонининг нафақат қисқаришига балки уларнинг ахлоқий-руҳий ва жисмоний ҳолатининг пасайишига ҳам олиб келди.

ЎОҲО меҳнат армиячиларининг Челябинск ва Чкалов вилоятларидаги сонининг қисқаришида вазият Ўрта Осиё республикаларида яшаб турган ва меҳнат қилаётган ҳудудлар билан ўхшаш эди.

Меҳнат армиячиларини кутиб олиш ҳам турли корхоналарда турлича бўлган. Масалан, Чкалов вилояти Новотроицк шаҳрида ОСМЧ-23 раҳбарияти ЎОҲО меҳнат армиячилари учун тоза ва ёруғ ётоқ жойлар ва кўрпа-тўшак буюмлари қўйилган ётоқхона, яъни жами 16 та уйни тайёрлаганлар. Орск шаҳрида Ўрта Осиёликларни етказиб келган эшелонни кутиб олиш учун Чкалов номидаги нефть ҳайдаш заводи учун сафарбар қилинган меҳнат армиячилари бўлган эшелонни мусиқалар билан кутиб олишган, чой тайёрланган, шу ерда меҳнат армиячиларининг завод ишчилари билан танишуви бўлиб ўтган. Шундан сўнг Ўрта осиёликларни дезинфекцияга, сартарошхона ва ҳаммомга юборилганлар.

Жанубий Урал никель комбинати қурувчилари бўлган ЎОҲО меҳнат армиячилари учун маъмурият томонидан ётоқхоналарда тоза кўрпа-тўшакли ўринлар тайёрланган. Аммо, Миасса шаҳрида эса 1943 йил баҳорида ЎОҲО меҳнат армиячилари келиши арафасида ётоқхоналар тайёр эмас эди. 1944 йил январида бу масалада ўзгариш юз бермади, архив хужжатларида “ўрта осиё

республикаларидан келган ва Сталин номидаги №661 заводда меҳнат қилаётган ишчилар жуда оғир шароитларда яшамоқдалар, ётоқхоналар жиҳозланмаган” деган ёзувлар қайд этилган[5].

1943 йил мартда Куйбишев (ҳозирги Самара) вилояти корхоналарида ўрта осиёдан сафарбар қилинган 6714 меҳнат армиячиси иш бошлаган. №309 (881 нафар) ҳамда ОСМЧ-52 (833 нафар) жами 1714 киши меҳнат қилган. Йил охирига келиб ишлаб чиқаришда атига 1100 киши қолиб, бу кўрсатгич 35,82% камайиб кетган. 1943 йилнинг март-апрел ойларида Куйбишев вилоятида 1979 нафар ишчилар қолган, бу эса сафарбар қилинганларнинг 29,48% ташкил қилган[6].

ЎОҲО меҳнат армиячиларининг Жанубий Уралдаги миқдори ўзгаришининг тўлиқ манзарасини Челябинск ва Челябинск вилоятининг алоҳида хўжалик объектларида 1943 йил январда ОСМУда 2225 нафар Ўрта осиёликлар ишлаган бўлса, бир йилдан кейин корхонада 93 нафар ишчи қолган, холос.[7]

Челябинск вилояти, Миасс шаҳридаги “МАЗИС” автомобиль заводида 1943 йил баҳорида Ўрта Осиё республикаларига 802 киши сафарбар қилинган бўлиб, 1944 йилнинг 1 январида 557 нафарга камайиб 245 нафар киши қолган. Шундан 346 нафар меҳнат армиячилари касаллик, 211 нафар эса жанжал чиқарганликлари учун ортга қатариб юборилга[7].

1944 йилнинг 1 январ ҳолатида Челябинск вилоятининг айрим корхоналарида ЎОҲО меҳнат армиячилари умуман қолмаган. Ҳужжатда қайд этилишича, ишчилар “касаллик, бошқа қурилишлар, армияга юбориш сабабли улар Тошкент шаҳридаги металлургия заводи қурилишига жўнатилган”[7].

Ҳисоботларга кўра 1943 йил Челябинск вилояти корхоналари ва хўжалик субъектларидан 8394 нафар Ўрта Осиёлик меҳнат армиячилари турли сабаблар билан кетиб қолган[8].

ЎОҲО меҳнат армиячиларининг жуда кўпчилиги рус тилини яхши билмасликлари, амалий малака ва ишчи касбларигага эга бўлмаганлиги,

техника хавфсизлиги қоидаларидан тўлиқ таниш бўлмаганликлари туфайли иш фаолиятида мураккабликларни келтириб чиқарган. Шу сабабли, корхоналардаги иш кучи тақимотида сон жиҳтадан тўлиқ, аммо сифат жиҳатдан самара бермаган ҳолатлар ҳам кўп бўлган[8].

1943 йилнинг иккинчи ярмидан Жанубий Уралга янги меҳнат армиячиларининг сафарбар этилишининг тўхтатиш вақти етган эди. Бунинг бир нечта сабаблари бўлиб, асосийси, Давлат мудофаа қўмитасининг 1942 йил 14 октябрдаги №2414-сонли қарорида белгиланган асосий кўрсаткичлар бўйича режа бажарилган эди.

Аммо, хужжатлардан аниқланишича бу ҳолат бўйича меҳнат армиячиларини жалб этиш тўла тугалланмаган эди.

Қолаверса, 1943 йилнинг иккинчи ярмидан бошлаб Ўрта Осиё республикаларининг ўзида ҳам саноат ва ишлаб чиқариш объектларининг янгилари қурилиши, амалдагиларини кенгайтириш жадаллик билан олиб борилди. Бу объектларнинг қурилишини мувафаққиятли якунлаш ва ишга тушириш учун муайян миқдордаги ишчи кучи талаб қилинар эди. Айнан ўша вақтда Ўрта Осиё минтақасида мудофаа саноати корхоналари учун кўрсатилаётган даврда ишчи кучи етишмовчилиги 17 000 кишини ташкил қилар эди[9].

Давлат мудофаа қўмитасининг қарор ва фармойишлари билан Ўрта Осиё республикаларида саноат, қурилишда меҳнат қилиш учун 1943 йилнинг октябридан 1944 йил октябри ойига қадар ЎОҲО ҳарбий мажбуриятлиларидан 24700 киши жалб қилинди.

Бундан ташқари айтилаётган даврда ДМҚ (Давлат мудофаа қўмитаси) томонидан мазкур регионнинг турли масалаларига оид, биринчи навбатда бажарилиши зарур ишчи кучини жалб қилишни талаб қиладиган саноат соҳасида оид 27 ҳужжат қабул қилинди.

Давлат мудофаа қўмитасининг 1943 йил 17 октябрдаги “Ўрта Осиё республикалари ҳарбий мажбуриятлилари ва бошқа аҳолисини республика ҳудудларидан ташқаридаги ишларга сафарбарлик қилмаслик ва мазкур

республикалардан бўлган ишчиларига хизмат кўрсатишни яхшилаш тўғрисида”ги №4348 Қарори қабул қилинганидан кейин ҳам ЎОҲО меҳнат армиячиларини ўз ҳудудидан ташқарида бўлган саноат ва қурилиш ишларига сафарбар қилиш тўхтамади[10]. Жумладан, ИИХК (Ички ишлар халқ комиссарлиги) учун металлургия заводлари бунёд этаётган икки қурилиш бошқармаси – ИИХК ЧМЗ (Челябинск металл заводи) ва “Закавказметаллургстрой” [11]учун ишчи кучини етказиб бериш давом этди.

1944 йил 13 апрелдан 24 сентябргача муддатда Ўрта Осиё республикаларидан 4403 киши Грузиядаги ушбу қурилишга жўнатилган[12]. Шунингдек, 1944 йилда жами бўлиб Ўрта Осиё республикаларидан ИИХК турли ҳудудларда амалга ошираётган саноат объектлари қурилишларига 16 192 киши жўнатилган[12].

Бу даврга келиб ЎОҲО меҳнат армиячиларининг ҳуқуқий мақоми ҳам ўзгарди. 1944 йил октябрда ЧМС ҚБ (Қурилиш бошқармаси) кадрлар бошқармаси бошлиғи ва турар-жой коммунал бўлими бошлиғи уларни “қурилишда келгусида ишлаши учун эркин ёллаш асосида расмийлаштириш ва яхшиланган маиший шароитларни, ётоқхона ва кўрпа-тўшак билан таъминлаш”, белгиланган муддатни ЧМС ҚБ ёки ЧМЗ ишлаб чиқариш цехларида ишлаб беришлари учун “эркин ёлланганлар” тоифасига ўтказиш”, тўғрисида кўрсатма олади[13]. Бу шартларни бажариш учун ҳар бир ходим билан алоҳида меҳнат шартномалари тузилган.

1945 йил январ-май ойларида собиқ ЎОҲО меҳнат армиячиларининг меҳнатга яроқли контингентидан 1000 нафар киши янги мақомга эга бўлди[14].

Жанубий Урал саноат ва қурилиш объектларида ЎОҲО меҳнат армиячиларининг жойлашуви, 1942 йил кузи - 1944 йил ёз фасли

ССР Иттифоқи халқ комиссариати	**объект**	**Вилоят, аҳоли пункти**

1	2	3
Автомобилсозлик	“ЗИС” темирчилик-пресслаш заводи	Челябинск шаҳри
	“Автозапчасть” заводи	Чкалов шаҳри
Автомобилсозлик, ИИХК, қурилиш бўйича	“МАЗИС”Урал автомобиль заводи	Челябинск вилояти, Миасс шаҳри
Ўқ-дорилар	№78 завод	Челябинск шаҳри
Ўқ-дорилар, қурилиш бўйича	№114,№259,№611 заводлар	Челябинск шаҳри
Қурол-яроқ	№24 Қурилиш бошқармаси	Челябинск шаҳри
	№24 завод	Челябинск вилояти, Златоуст шаҳри
Ўрмон саноати	Ёғоч заводи	Челябинск вилояти, Юрюзань шаҳри
	Кусинский ўрмон сан.хўжалиги Няз-Петровский ўрмон са.хўжалиги Саткинский ўрмон сан. Хўжалиги Уфалейский ўрмон сан. хўжалиги	Челябинск вилояти
	Ёғоч заводи	Чкалов вилояти
Машинасозлик, ИИХК	С.Оржоникидзе номидаги завод	Челябинск шаҳри
Нефть саноати	Чкалов номидаги нефтни қайта ҳайдаш заводи	Чкалов вилояти, Орск шаҳри
Қурилиш бўйича	“Аргазистрой” қурилиш	Челябинск

	бошқармаси	вилояти
	256-қурилиш бошқармаси	Чкалов шаҳри
Қурилиш бўйича, ИИХК	Челябинск 1-ИЭЦ	Челябинск шаҳри
	ЧМЗ ИЭЦ	
	Орско-Халиловский металлургия комбинати	Чкалов вилояти, Орск шаҳри
Алоқа йўллари	“Челябинск” т/й станцияси турар-жой дистацияси паровоз бўлими 7 йўл дистанцияси № 20,№24 ҚБ	Челябинск шаҳри
	Баландино т/й станцияси “Картали” т/й станцияси “Троицск” т/й станцияси	Баландино қўрғони Картали шаҳри Троицк шаҳри
	Паровоз таъмирлаш заводи	Чкалов шаҳри
Электростанциялар қурилиши	Орск ИЭЦ	Чкалов вилояти, Орск шаҳри
1	2	3
Электростанциялар қурилиши	Зиёраткўл ГЭС	Челябинск вилояти, Зиёраткўл қўрғони
Танк саноати, ИИХК, қурилиш бўйича	Челябинск Киров заводи	Челябинск шаҳри

Кўмир саноати	“Еманжелисккўмир” трести “Копейсккўмир”трести “Коркинокўмир”трести “Челябкўмир” трести “Камишин” кон бошқармаси “Коркино” кон бошқармаси	Челябинск вилояти, Еманжелинск қўрғони Копейск шаҳри Коркино қўрғони
	“Домбаршахтстрой” “Чкаловкўмир” трести	Чкалов вилояти, Домбаровка қўрғони
Рангли металлургия	Мис эритиш заводи	Карабаш шаҳри
	Механика заводи Оловбардошли маҳсулотлар заводи Электрод заводи	Челябинск вилляти, Киштим шаҳри
	Никель заводи	Челябинск вилояти, Уфалей шаҳри
	Мис-олтингугурт заводи	Чкалов вилояти Медногорск шаҳри
	№1 кон бошқармаси Жанубий –Урал никель комбинати	Чкалов вилояти, Орск шаҳри
Қора металлургия	Металлургия заводи	Челябинск вилояти Златоуст шаҳри Катав-Ивановск шаҳри Сатка шаҳри Чебаркўл қўрғони
	Металлургия комбинати	Челябинск

		вилояти, Магнитогорск шаҳри
	Ворошилов номидаги ферроқотишмалар заводи Трубопрокат заводи	Челябинск шаҳри
	Шамот заводи	Чкалов вилояти, Новотроицк шаҳри
ИИХК, ЧМС	Металлургия заводи	Челябинск шаҳри
	Ғишт заводи	Потанино қўрғони
	Қурилиш бошқармаси	Бакал қўрғони
	Қишлоқ хўжалиги участкалари	Челябинск вилояти: Баландино қишлоғи Тургояк қўрғони Муслимово қўрғони Кунашак қўрғони

ЎОҲО меҳнат армиячилари Жанубий Уралга етиб келгандан сўнг Челябинск ва Чкалов вилоятларининг марказларида бўлган саноат ва қурилиш объектларига, шунингдек Челябинск ва Чкалов вилоятларининг аҳоли пунктларига тақсимот қилинди, у ерда улар тегишли халқ комиссариатларининг ходимлари каби умумий асосларда меҳнат қилишди. Бундан ташқари ЎОҲО меҳнат армиячилари СССР ИИХК назорати остида амалга оширилаётган янги саноат корхоналари ва объектлари қурилишида иштирок этдилар. Бундай ҳолларда Қозоғистон ССР ва Ўрта осиё республикаларидан бўлган ишчилар иккиёқлама ҳолатга тушиб қолдилар. Бир томондан ЎОҲО меҳнат армиячилари эркин ёлланувчилар ҳуқуқида

меҳнат қилиб юридик жиҳатдан мамлакатнинг эркин фуқаролари бўлиб ҳисобланган. Бошқа томондан уларга нисбатан ИИХК ҳуқуқий талаблари жорий этилиб МАТЛ (меҳнат армиячилари тузатув лагери) учун белгиланган яшаш тартиби, меҳнат фаолияти, иш ҳақи тўлови, рағбатлантириш, жазолаш, озиқ-овқат меъёри ва кийим-кечак таъминоти лагерь аҳолисининг бошқа контингентлари (маҳбуслар ва совет немислар меҳнат армиячилари) бир хил эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. ГАРФ (Россия Федерациясининг Давлат архиви). Фонд - 9517, рўйхат - 1, иш-26, 28-31-варақлар.
2. Шамсутдинов Р. Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган буюк ғалабага қўшган ҳиссаси. // Водийнома, 2019. №3 (14). – Б.2-31; Шамсутдинов Р., Қурбонов Х. Меҳнат армиячилари – “Қуролсиз аскарлар”нинг ғалабага қўшган ҳиссасига доир // Водийнома, 2020. №2 (17). – Б.8-25; Шамсутдинов Р., Хошимов С., Қурбонов Х. “Қуролсиз аскарлар” // Водийнома, 2020. №3 (18). – Б.58-62 ва б.
3. ОГАЧО (Челябинск вилояти бирлашган давлат архиви). Фонд - П-297, рўйхат – 2, иш -876, варақ - 8.-33
4. ОГАЧО. Фонд - П-288, рўйхат – 8, иш – 261, варақлар 3-5, 7, 8, 11, 41, 43, 45, 49, 50, 53, 59, 60, 86.
5. ОГАЧО. Фонд – 1025, рўйхат – 1, иш – 32, варақ - 32.
6. РГАСПИ. Фонд – 17, рўйхат – 122, иш – 50, варақлар - 26, 27.
7. ОГАЧО. Фонд - П-288, рўйхат – 8, иш – 261, варақ – 5, 8, 41
8. Ермолов, А.Ю. Танковая промышленность СССР в годы Великой Отечественной войны. М., 2009. - С.115.
9. РГАСПИ. Фонд – 17, рўйхат – 122, иш – 37, варақ – 69
10. РГАСПИ. Фонд – 644, рўйхат – 1, иш – 164, варақ - 92.
11. РГАСПИ. Фонд – 644, рўйхат – 1, иш – 220, варақлар – 226-232.

12. ГАРФ. Фонд - Р-9414, рўйхат – 1, иш – 1222, варақлар - 13, 20, 25, 27, 36, 41, 43, 77.
13. ОГАЧО. Фонд - Р-1619, рўйхат – 2, иш – 19, варақ - 73.
14. ОГАЧО. Фонд - Р-1619, рўйхат – 2, иш – 16, варақлар - 71, 91.

1981-1985-YILLARDA O‘ZBEKISTON SSR KOMMUNAL INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONLARI (ARXIV MATERIALLARI ASOSIDA)

Abdimutadov Jahongir Zayniddin o‘g‘li,
Oriental universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada 1981-1985-yillarda O‘zbekiston SSRda kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va aholini toza ichimlik suvi hamda kommunal xizmatlar bilan ta’minlash borasidagi davlat siyosati arxiv hujjatlari va statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, yangi tuman markazlarini barpo etish, hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish, kanalizatsiya, issiqlik va gaz ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jarayonlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kommunal infratuzilma, modernizatsiya, ichimlik suvi, shaharsozlik, kapital mablag‘lar, kanalizatsiya tarmoqlari, issiqlik ta’minoti, gazlashtirish, arxiv hujjatlari, O‘zbekiston SSR.

Аннотация. В статье на основе архивных документов и статистических данных освещается государственная политика по модернизации коммунальной инфраструктуры, укреплению материально-технической базы и обеспечению населения чистой питьевой водой в Узбекской ССР в 1981-1985 годах. Также раскрыто социально-экономическое значение процессов создания новых районных центров, преодоления территориальных диспропорций и развития систем канализации, тепло- и газоснабжения.

Ключевые слова: коммунальная инфраструктура, модернизация, питьевая вода, градостроительство, капитальные вложения, канализационные сети, теплоснабжение, газификация, архивные документы, Узбекская ССР.

Annotation. Based on archival documents and statistical data, the article examines the state policy aimed at modernizing communal infrastructure, strengthening the material and technical base, and providing the population with clean drinking water and utilities in the Uzbek SSR during 1981–1985. It also highlights the socio-economic significance of establishing new district centers, overcoming regional disparities, and developing sewage, heating, and gas supply systems.

Keywords: communal infrastructure, modernization, drinking water, urban planning, capital investments, sewage networks, heat supply, gasification, archival documents, Uzbek SSR.

1981-1985-yillarda O‘zbekiston SSRda kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash respublika iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi [3]. Ushbu davrda shaharlar va aholi punktlarining jadal o‘sib borishi, shuningdek, sanoat korxonalarining kengayishi hayotiy muhim kommunal tarmoqlarga bo‘lgan talabni keskin oshirib yubordi. Natijada sohani tubdan rivojlantirish hamda uning ko‘lamini kengaytirishga davlat byudjetidan salmoqli mablag‘lar ajratilib, markazlashgan moliyalashtirish mexanizmlari ishga solindi, bu esa o‘z navbatida muhandislik tarmoqlarini yaxshilash uchun keng imkoniyatlar ochdi.

Qayd etilgan besh yillik davrda mazkur tarmoqni rivojlantirish va kengaytirish ishlariga jami 88 million so‘m miqdorida davlat kapital mablag‘lari yo‘naltirildi. Ushbu moliyaviy resurslar hisobidan respublika hududida mutlaqo yangi suv olish inshootlari barpo etildi, yillar davomida eskirib, yaroqsiz holatga kelgan quvurlar hamda muhandislik kommunikatsiyalari bosqichma-bosqich yangilandi, shuningdek, yangi quvurlar o‘tkazish ko‘lami miqyos jihatidan keskin oshirildi [6]. Markaziy suv ta’minoti tarmoqlarining uzluksiz ishlashini ta’minlash

maqsadida texnologik jarayonlarga zamonaviy nasos stansiyalari va tozalash qurilmalari joriy etilib, tarmoqning o‘tkazish quvvati sezilarli darajada kengaytirildi.

Amalga oshirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar natijasida respublika shaharlari va aholi punktlarida kommunal xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash, jumladan, har bir shahar aholisi uchun o‘rtacha kunlik suv iste’moli miqdorini 687 litrga, ichimlik va maishiy ehtiyojlar uchun sarflanadigan qismini esa 460 litrga yetkazish ko‘zda tutilgan edi. Biroq belgilangan rejalarga qaramay, amaliyotda aholi jon boshiga suv iste’moli me’yorlari va real ta’minot o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar turlicha shakllandi. Ayrim yirik sanoat markazlari va markaziy shaharlarda ko‘rsatkichlar yuqori darajaga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, respublikaning ko‘plab kichik shaharlari, tuman markazlari va ishchilar posyolkalarida zamonaviy kanalizatsiya tarmoqlarining butunlay yo‘qligi, markazlashgan issiqlik ta’minotining talab darajasida emasligi hamda hududlar kesimida jiddiy tafovutlar saqlanib qolgani o‘sha davrning eng keskin muhandislik va ijtimoiy-infratuzilma muammolaridan biri bo‘lib qolishda davom etdi [4].

Mazkur hududiy nomutanosibliklar hamda infratuzilmadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tegishli vazirliklar, idoralar va mahalliy ijroiya qo‘mitalari zimmasiga respublikaning olis va yangi tashkil etilayotgan tuman markazlarida ma’muriy binolar, zamonaviy ko‘p qavatli va namunaviy uy-joylar hamda ijtimoiy-madaniy infratuzilma obyektlarini jadal barpo etish, shuningdek, aholiga to‘laqonli, uzluksiz kommunal xizmatlar ko‘rsatishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish vazifasi qat’iy yuklatilgan edi. Ushbu keng ko‘lamli chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash jarayonida markazlashgan rejalashtirish asosida aholi punktlarini joylashtirish va muhandislik tarmoqlarini noldan barpo etish tamoyiliga ustuvor ahamiyat berildi [5].

Keng qamrovli hududiy dasturlar doirasida Qoraqalpog‘iston ASSR, shuningdek, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlarining ilgari o‘zlashtirilmagan, asosan cho‘l va qo‘riq yerlarida yangi tumanlar va shaharchalar kompleks tarzda qad ko‘tardi.

Sovet davrining shaharsozlik yondashuvlariga muvofiq, mazkur yangi tuman markazlarida ilg‘or muhandislik yechimlari tatbiq etilib, markazlashgan ichimlik suvi quvurlari, mahalliy kanalizatsiya tizimlari, zamonaviy qozonxonalar, isitish tarmoqlari, shuningdek, mehmonxonalar, o‘t o‘chirish depolari va kommunal xo‘jaligining mustahkam ishlab chiqarish bazalari barpo etildi [1]. Buning natijasida ilgari infratuzilmadan mahrum bo‘lgan hududlarning umumiy muhandislik-texnik qiyofasi tubdan yaxshilanib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratildi.

Respublika miqyosida kommunal infratuzilmani tubdan modernizatsiya qilish va hududlarning muhandislik-texnik qiyofasini yuksaltirish yo‘lida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, aholining turmush darajasini zamonaviy talablar asosida yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, atrof-muhit musaffoligini saqlash, ekologik va sanitariya sharoitlarini yanada sog‘lomlashtirish maqsadida kanalizatsiya tozalash inshootlarining umumiy quvvatini sutkasiga 653 ming kub metrga yetkazish bo‘yicha ulkan loyihalar hayotga tatbiq etildi, shuningdek, hududlarning muhandislik tarmoqlarini kengaytirish yo‘lida 720 kilometr uzunlikdagi yangi kanalizatsiya kollektorlari va zamonaviy tarmoqlar barpo etilib, foydalanishga topshirildi [1].

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizning yirik shaharlari va sanoat markazlarida markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimini yaxshilash borasida ham sezilarli natijalarga erishilib, yangi isitish qozonxonalari barpo etildi va qo‘shimcha ravishda 1893 Gkal/soat issiqlik energiyasi hamda issiq suv quvvatlari to‘laqonli ishga tushirildi. Mazkur infratuzilma obyektlarini yagona tarmoqqa bog‘lash va issiqlik uzatishdagi yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida 235 kilometr uzunlikdagi magistral va ko‘cha issiqlik tarmoqlari yotqizilib, ko‘p qavatli uylar va ijtimoiy soha obyektlarining barqaror ishlashi ta’minlandi [2].

Aholining tabiiy va suyultirilgan yoqilg‘iga bo‘lgan kunlik ehtiyojini to‘laqonli qondirish, ayniqsa, hududlarni gazlashtirish darajasini keskin oshirish yo‘lida 2190 kilometrlik yangi magistral hamda tarqatuvchi gaz quvurlari tortildi. Ushbu keng miqyosli say-harakatlar natijasida 1981-1985-yillar davomida davlat,

kooperativ tashkilotlari va fuqarolarning shaxsiy mulki bo‘lgan jami 700 mingga yaqin turar joy xonadonlari to‘liq gazlashtirilib, qattiq yoqilg‘idan foydalanish bilan bog‘liq noqulayliklarga barham berildi [2]. Amalga oshirilgan bu kabi tub o‘zgarishlar va keng ko‘lamli infratuzilma loyihalari nafaqat aholi punktlarining muhandislik-texnik qiyofasini zamonaviy talablar darajasida yaxshilabgina qolmay, balki hududlardagi sanitariya-gigiyenik sharoitlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga va insonlarning kundalik turmush madaniyatini yuksaltirishga xizmat qildi.

Infratuzilmani rivojlantirish jarayonida transport va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga ham alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, xususan, Toshkent shahrida 33 km tramvay va 45 km trolleybus liniyalari, boshqa yirik markazlarda esa jami 95 km trolleybus tarmoqlari qurilib, depo va muhandislik bazalari modernizatsiya qilingan. Shuningdek, turizm va mehmonlar oqimining izchil ko‘payishi munosabati bilan respublika bo‘ylab jami 3886 o‘rinlik zamonaviy mehmonxonalar barpo etilgan [4]. Ushbu kompleks chora-tadbirlar o‘sha davrda O‘zbekiston SSR hududida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, shaharchalar va yangi tuman markazlarining infratuzilmasini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarishda muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan.

1981-1985-yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli infratuzilma loyihalari O‘zbekiston SSR hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, aholining turmush va sanitariya-gigiyenik sharoitlarini yaxshilashda muhim tarixiy bosqich bo‘ldi. Garchi ayrim kichik hududlarda muhandislik tarmoqlari yetishmovchiligi kabi muammolar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ajratilgan salmoqli kapital mablag‘lar va yangi tuman markazlarining barpo etilishi respublika muhandislik-texnik qiyofasini tubdan o‘zgartirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘zR MA). P-837-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 564-yig‘majild, 14-varoq.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O‘zR MA). R-2325-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 112-yig‘majild, 11-varoq.

3. Ahmedov E. O‘zbekistonda shaharsozlik va aholi punktlarining rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 1986. – 178 b.

4. O‘zbekiston SSR xalq xo‘jaligi 1984 yilda: Statistika to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 1985. – 304 b.

5. Qodirov A. XX asrning 70-80-yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 210 b.

6. Tursunov S., Pardaev T. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy tarixi (Sovet davri materiallari asosida). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015. – 240 b.

«PAXTA ISHI» QATAG‘ONIDA TA’LIM TIZIMI XODIMLARI TAQDIRI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Nurbek Suyarov,

t.f.f.d. (PhD), dotsent,

Annotatsiya. Maqolada XX asrning 80-yillarida «Paxta ishi» nomi bilan olib borilgan qatag‘on siyosatining Qashqadaryo viloyati ta’lim tizimiga ta’siri o‘rganilgan. Viloyat sudi arxivi hujjatlari asosida Shahrisabz tumanidagi ikki maktab o‘qituvchilarining ishlari tahlil qilinib, ularga qo‘yilgan ayblovlarning mazmuni, sud hukmlari va 1991-yildagi oqlash jarayoni ko‘rsatib berilgan. Muallif o‘qituvchilarning qo‘shib yozish jarayoniga qanday tortilgani va maktab jamoasining o‘z hamkasblarini himoya qilishga urinishi masalasiga alohida e’tibor qaratgan.

Kalit so‘zlar: «Paxta ishi», qatag‘on, Qashqadaryo, ta’lim tizimi, o‘qituvchi, qo‘shib yozish, majburiy mehnat, O‘zSSR JKning 169-moddasi, oqlash, tarixiy xotira.

Аннотация. В статье изучено воздействие репрессивной политики «хлопкового дела» 1980-х годов на систему образования Кашкадарьинской

области. На основе документов архива областного суда проанализированы дела учителей двух школ Шахрисабзского района, раскрыты содержание предъявленных обвинений, судебные приговоры и процесс реабилитации 1991 года. Особое внимание уделено тому, каким образом педагоги вовлекались в приписки, и попытке школьного коллектива защитить своих коллег.

Ключевые слова: «хлопковое дело», репрессии, Кашкадарья, система образования, учитель, приписки, принудительный труд, статья 169 УК УзССР, реабилитация, историческая память.

Annotation. The article examines the impact of the repressive policy known as the “Cotton Affair” of the 1980s on the education system of the Kashkadarya region. Drawing on documents from the regional court archive, it analyses the cases of teachers from two schools in the Shahrisabz district, showing the substance of the charges, the sentences and the rehabilitation process of 1991. Particular attention is paid to how teachers were drawn into the falsification of records and to the attempt of a school staff to defend their colleagues.

Key words: “Cotton Affair”, repression, Kashkadarya, education system, teacher, falsified reports, forced labour, Article 169 of the Criminal Code of the Uzbek SSR, rehabilitation, historical memory.

XX asr o‘zbek xalqi tarixida ikki katta qatag‘on to‘lqini bilan yodda qoldi. Birinchisi 30-yillarda jadid ma’rifatparvarlari va milliy ziyolilarni yo‘q qilishga qaratilgan siyosat bo‘lsa, ikkinchisi 80-yillarda «Paxta ishi» nomi ostida olib borilgan ommaviy jinoiy ta’qib edi. Bu ikki hodisani yarim asr ajratib turadi, ammo ijtimoiy nishon ko‘p jihatdan bir xil bo‘lib chiqdi: har ikkalasida ham qishloq ziyolisi, avvalo o‘qituvchi jabr ko‘rdi.

Tarixshunoslikda «Paxta ishi» qurbonlari odatda xo‘jalik va partiya rahbarlari — kolxoz raislari, sovxoz va paxta tozalash zavodi direktorlari, tuman kotiblari sifatida tavsiflanadi. Bu tavsif asosli, ammo to‘liq emas. Qashqadaryo viloyati sudi arxivi hujjatlari ta’qib doirasi ancha keng bo‘lganini, unga

paxtachilikka bevosita aloqasi bo‘lmagan kasb egalari, jumladan maktab o‘qituvchilari ham tortilganini ko‘rsatadi.

Bu holatni tushunish uchun avvalo ta’lim tizimining paxta ishlab chiqarish zanjiridagi o‘rnini aniqlash lozim. 1982-yilning sentabrida Qashqadaryo viloyatida 720 ta maktab faoliyat ko‘rsatgan, ulardagi o‘quvchilar soni 335 ming nafarni tashkil etgan [3; 10-varaq]. Bu katta ijtimoiy resurs edi va u har yili kuz oylarida paxta dalasiga safarbar qilinardi. Maktab o‘quvchilari terim mavsumida uch-to‘rt oylab qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb etilgan, tog‘oldi hududlaridagi maktablarning o‘quvchilari esa boshqa tumanlarning rejasini bajarishga olib ketilgan.

Bu holat o‘sha davr matbuotida ham tanqid qilingan. 1985-yil 24-oktabrda «Qashqadaryo haqiqati» gazetasida chop etilgan maqolada Usmon Yusupov tumanidagi xo‘jaliklarda paxta terayotgan talaba va o‘quvchilar haqida ma’lumot berilib, qishloq xo‘jalik texnikumining 2880 nafar talabasi, Dehqonobod va Qarshi shahar maktablarining har biridan 3800 nafardan o‘quvchi terimda ishtirok etayotgani qayd etilgan [4]. «Pravda» gazetasi muxbirlarining maqolasida esa o‘quvchilarning to‘qqiz oy o‘qish o‘rniga atigi besh-olti oy o‘qiyotgani tanqid qilingan [5].

Majburiy mehnatning iqtisodiy sababi ham hujjatlarda ochiq ko‘rinadi: qo‘lda terilgan bir tonna paxta uchun 52 so‘m to‘langan bo‘lsa, mashina bilan terilganiga 4 so‘m 40 tiyin belgilangan [5]. Shu bois qo‘l mehnatiga alohida e’tibor qaratilgan va arzon ishchi kuchi sifatida o‘quvchi va talabalar mehnatidan foydalanilgan.

Ta’lim xodimlari qo‘shib yozish jarayoniga aynan shu tartib orqali tortilgan. Jarayonning mexanizmi Shahrisabz tumanidagi «Pravda» kolxozi raisi O‘. Qurbonov va boshqalarning jinoyat ishi materiallarida yaqqol ko‘rinadi. 1982-yilning terim mavsumida Shahrisabz tumanidagi maktablar jamoalari va o‘quvchilari Muborak tumanidagi «Shahrisabz» massivida qahraton qishga qadar, 8-dekabrgacha paxta terimida ishtirok etgan. Terim yakunida kolxoz rahbariyati

o‘qituvchilardan o‘quvchilar nomiga to‘lov ma’lumotnomalarini rasmiylashtirishni so‘ragan.

Maktab jamoasining sudga yo‘llagan talabnomasida bu holat aniq bayon etilgan: 1982-yilgi terim oxirlarida kolxoz rahbarlari o‘qituvchilar H. Rahimov, I. Ismoilov, Sh. Ahmedov va U. Sultonovni idoraga chaqirtirib, 103 tonna paxtani o‘quvchilar nomiga kvitansiya qilib berishni va shu orqali kolxoz rejasini to‘ldirishga ko‘mak berishni so‘rashgan, ular esa bunga rozilik bildirishgan [2; 114-varaq]. Rahbarlar o‘qituvchilarni «sizlar jinoyat qilmayapsizlar, kolxoz, tuman, viloyat va respublika rejasini bajarishga ko‘mak bermoqdasizlar, xolos» degan gap bilan ishontirgan.

Shahrisabz tumanidagi Jdanov nomli 27-son maktab o‘qituvchilari ishi shu tariqa boshlangan. I. Ismoilov 1977-yildan shu maktabda matematika fanidan dars bergan; ayblov xulosasiga ko‘ra u 1982-yilning sentabr va dekabr oylarida kolxoz raisi O‘. Qurbonov, bosh buxgalter B. G‘aniyev, bosh iqtisodchi E. Primov bilan til biriktirib, terimda qatnashgan 200 nafar 7–10-sinf o‘quvchisi nomiga to‘lov va topshirish hujjatlarini tuzishda ishtirok etganlikda ayblangan. Sh. Ahmedov 1971-yildan shu maktabda jismoniy tarbiya fanidan dars bergan, H. Rahimov va U. Sultonov ham shu maktabning o‘qituvchilari edi.

Ayblov xulosalari Qashqadaryo viloyat prokurori, adliya bosh maslahatchisi B. X. Kalonov tomonidan 1984-yil 17-mayda tasdiqlangan. Ayblov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 149-, 155- va 169-moddalari bo‘yicha shakllantirilgan. Qashqadaryo viloyat jinoyat ishlari bo‘yicha sudining 1985-yil 28-may kunidagi hukmi bilan I. Ismoilov, H. Rahimov va Sh. Ahmedov olti oyu yetti kunga ozodlikdan mahrum etilgan, U. Sultonov esa bir yil axloq tuzatish ishlariga jalb qilingan [1; 1–2-varaqlar], [2; 139-varaq].

S. Ayniy nomli maktab xodimlarining ishi ham shu turkumga kiradi. A. Qayumov 1956-yilda Shahrisabz tumanining Namoton qishlog‘ida tug‘ilgan, 1980-yildan shu maktabda rus tili va adabiyoti o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. Hujjatlarga ko‘ra, kolxozning yordamchi buxgalteri K. Rasulov unga uchta paxta

ma’lumotnomasini olib kelib qoldirgan, o‘qituvchi esa hisob varaqasiga o‘quvchilarning imzosini qo‘ydirmasdan saqlab qo‘ygan; keyingi yilning mart oyida buxgalter uning uyiga kelib bo‘sh varaqalarni olib ketgan. Sudda A. Qayumov to‘lov varaqasiga na o‘zi, na o‘quvchilar imzo qo‘ymaganini, imzolar soxtalashtirilganini aytgan [1; 1-varaq]. Shunga qaramay u olti oyu yetti kunga ozodlikdan mahrum etilgan.

Shu maktabning direktor o‘rinbosari M. X. To‘rayev (1939-yilda Bekxo‘ja qishlog‘ida tug‘ilgan) esa 206 196 kilogramm paxtani qo‘shib yozib, 169 885 so‘m zarar yetkazganlikda ayblanib, bir yil axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan.

Bu ishlarning eng diqqatga sazovor jihati — maktab jamoasining o‘z hamkasblarini himoya qilishga urinishi. 1984-yil 12-dekabrda Jdanov nomli maktab jamoasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudga talabnoma yo‘llagan. Unda o‘qituvchilarning o‘n-yigirma yillik pedagogik stajga ega ekani, faoliyati davomida biror marta intizomiy jazo olmagani qayd etilib, maktab direksiyasi, kasaba uyushmasi va komsomol tashkiloti ularni oltmish kishilik jamoaga tarbiyalashga kafillikka berishni so‘ragan [2; 128-varaq]. Talabnoma inobatga olinmagan.

Ta’qib faqat Shahrisabz bilan cheklanmagan. Ulyanov (hozirgi Yakkabog‘) tumanida «XX partiya s’ezdi» sovxozining Qoratepa qishlog‘ida yashagan o‘qituvchi Yu. Jo‘rayev, shuningdek o‘qituvchi X. Davranov — oliy ma’lumotli, to‘qqiz farzandli, ilgari sudlanmagan shaxs — javobgarlikka tortilgan. Qarshi tumanida maktab direktorining tashkiliy-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Sh. Normurodov shu turkum moddalar bo‘yicha ayblangan.

Ishlarning huquqiy taqdiri ularning asossizligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1991-yil 21-iyundagi ajrimiga ko‘ra o‘qituvchilar I. Ismoilov, H. Rahimov, Sh. Ahmedov va U. Sultonovning harakatida jinoyat alomatlari yo‘qligi sababli ular to‘liq oqlangan va ayblovlar bekor qilingan. Shu qaror bilan M. X. To‘rayevga nisbatan ish ham to‘xtatilgan. Qarorda

ayblanuvchilar shaxsiy moddiy manfaat ko‘zlamagani, faqat xo‘jalik rejasini bajarishga ko‘mak berish maqsadida harakat qilgani alohida qayd etilgan.

Keltirilgan materiallar bir necha xulosaga olib keladi. Birinchidan, o‘qituvchining paxta ishlab chiqarishga aloqasi bilvosita bo‘lgan: u terim mavsumida xo‘jalikka biriktirilgan, o‘quvchilar mehnatini tashkil etgan va hisobot hujjatlarini rasmiylashtirishda ishtirok etgan. Rejani bajarish majburiyati butun ijtimoiy tuzilmani qamrab olgan sharoitda maktab ham shu zanjirning bo‘g‘iniga aylantirilgan, kampaniya boshlangach esa zanjirning eng himoyasiz bo‘g‘ini javob bergan.

Ikkinchidan, jazo choralarining nisbatan yengilligi — olti oyu yetti kun qamoq yoki bir yil axloq tuzatish ishlari — ayblovning huquqiy asosi qanchalik zaif bo‘lganini bilvosita ko‘rsatadi. Bu ishlarda maqsad jazolash emas, badnom qilish bo‘lgani ko‘rinib turadi: o‘qituvchi o‘z jamoasi, mahallasi va shogirdlari oldida mulzam qilingan.

Uchinchidan, jamoaviy himoya urinishining natijasiz qolishi tizimning mohiyatini ochadi. Oltmish kishilik pedagoglar jamoasi kafillikka olishni so‘raganda ham hukm o‘zgarmagan — bu kampaniyaning mahalliy ijtimoiy institutlar fikriga umuman tayanmaganini bildiradi.

Nihoyat, tarixiy nuqtai nazardan bu hodisada uzoq davom etgan jarayonning davomi ko‘rinadi. Jadid ma’rifatparvarlari yangi maktab g‘oyasini milliy taraqqiyotning asosi deb bilgan va aynan shu qatlam 30-yillarda birinchi bo‘lib qatag‘on qilingan. 80-yillarga kelib maktab o‘qituvchisi mafkuraviy raqib sifatida emas, xo‘jalik jinoyatining ishtirokchisi sifatida javobgarlikka tortildi. Ayblovning shakli o‘zgardi, qurbonning ijtimoiy o‘rni esa o‘zgarmadi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun uch vazifa dolzarb bo‘lib qolmoqda: ta’lim tizimi xodimlariga oid barcha ishlarni arxiv hujjatlari asosida to‘liq aniqlash; ularning oqlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimlashtirish; tirik guvohlar va oila a’zolari

xotiralarini yozib olish. So‘nggi vazifa kechiktirilmaydi, chunki o‘sha voqealar guvohlarining yoshi yildan-yilga ulg‘aymoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қашқадарё вилоят суди жиноят ишлари бўйича судлов коллегиясининг архиви, Қурбонов Ўроқ ва бошқалар жиноят иши бўйича материаллар тўплами, 18-том.

2. Ўша архив, 24-том.

3. Қашқадарё ВДА, Қарши филиали, 31-фонд, 1-рўйхат, 75-иш.

4. Шодиқулов Т. Ҳашарчилар далада, пахтакорлар панада // Қашқадарё ҳақиқати, 1985 йил, 24 октябрь.

5. Гладков Н., Сомов В. Пахта мавсуми ўқувчилар учун эмас // Қашқадарё ҳақиқати, 1985 йил, 14 март, № 52.

6. Ходжамбердиев Х. Ўзбекистонда “пахта иши”га доир янги маълумотлар (1981–1985 йй.) // Ўтмишга назар, 2021, № 9. – Б. 100.

7. Йўлдошев И. Махфий маҳкама ёхуд қонунсиз қамалганлар қисмати. – Самарқанд: Турон, 2021.

8. Народное хозяйство Узбекской ССР. 1985. – Ташкент: Ўзбекистан, 1986. – С. 308.

9. Suyarov N.R. O‘zbekistonda “Paxta ishi” qatag‘oni siyosati va uning oqibatlari (Qashqadaryo viloyati misolida): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2024.

BIR INSON TAQDIRI — BIR DAVR FOJEASI: USANOV QO‘CHQOR HAYOTI

Islomjon MEYLIYEV

Qardu tuzilmasidagi “Qatag`on qurbonlari xotirasi” muzeyi fond saqlovchisi

Аннотация: XX асрнинг 80-йилларидаги совет тузумининг оғир сиёсати, хусусан, “Пахта иши” қатағонларининг оддий инсонлар тақдиридаги фожиали оқибатлари Қашқадарё вилояти Чироқчи туманидаги “Ленин” номли совхоз раҳбари Қўчқор Усановнинг ҳаёт йўли мисолида очиб берилган. Олий маълумотли агрономдан хўжалик раисигача бўлган меҳнат фаолияти, режаларни бажаришдаги сунъий тўсиқлар ва қўшиб ёзишлар оқибатида ноҳақ қамалиши, Гдлян ва Ивановлар раҳбарлигидаги тергов жараёнларининг адолатсизликлари баён этилган. Шунингдек, қамоқдаги машаққатлар, 1990–1991 йилларда тўлиқ оқланиши, кейинги раҳбарлик ва давлат хизматидаги фаолияти ҳамда унинг матонати кенг ёритилган.

Калит сўзлар: “Пахта иши”, Қўчқор Усанов, Чироқчи тумани, “Ленин” совхози, Совет тузуми ва қатағонлар, Қўшиб ёзишлар, Т. Гдлян ва Н. Иванов, Қамоқ ва оқланиш, Қашқадарё воҳаси, Собиқ Иттифоқ сиёсати.

Аннотация: Тяжелая политика советской системы 1980-х годов, особенно репрессии по «Хлопковому делу» и их трагические последствия для обычных людей, показаны на примере жизненного пути руководителя совхоза «Ленин» в Чирокчинском районе Кашкадарьинской области, Кочкора Уснова. Описана его трудовая деятельность от высококвалифицированного агронома до председателя хозяйства, несправедливые препятствия и подлоги при выполнении планов, а также несправедливости следственных процессов под руководством Гдляна и Иванова. Кроме того, подробно освещены трудности в заключении, полное

оправдание в 1990–1991 годах, последующая руководящая и государственная деятельность, а также его мужество.

Ключевые слова: «Хлопковая работа», Кучкор Усанов, район Чирокчи, совхоз «Ленин», Советская власть и репрессии, добавления, Т. Гдлян и Н. Иванов, тюрьма и оправдание, Кашкадарьинская долина, политика бывшего Советского Союза.

Abstract: The harsh policies of the Soviet regime in the 1980s, particularly the tragic consequences of the "Cotton Case" purges on ordinary people's lives, are illustrated through the life of Qo'chkor Usanov, the head of the Lenin state farm in Chiroqchi district of Qashqadaryo region. His career, from a highly educated agronomist to a farm chairman, the unjust imprisonment due to artificial obstacles and fabricated reports while fulfilling plans, and the injustices of the investigation led by Gdlyan and Ivanov are described. Additionally, the hardships of imprisonment, his full exoneration in 1990–1991, his subsequent leadership and public service activities, and his resilience are also extensively highlighted.

Keywords: "Cotton work," Qo'chqor Usanov, Chiroqchi district, "Lenin" sovkhoz, Soviet regime and repressions, Adding writings, T. Gdlyan and N. Ivanov, Imprisonment and acquittal, Kashkadarya oasis, Former Soviet Union policy.

XX asrning 80-yillari O'zbekiston tarixida murakkab va ziddiyatli davrlardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, "Paxta ishi" nomi bilan tarixga kirgan tergov va sud jarayonlari minglab insonlarning taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Paxta yetishtirish va davlatga topshirish bo'yicha yuqoridan belgilangan, ko'pincha real imkoniyatlarga mos kelmaydigan rejalar bajarilishini ta'minlash maqsadida xo'jalik rahbarlari, mutaxassislar va oddiy mehnatkashlar turli bosimlarga duchor etildi. Ayrim hollarda mavjud bo'lmagan hosilning ham



Q.Usanov

qog‘ozda “yaratilishi”, ya’ni qo‘shib yozish amaliyoti shakllandi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda taqdir sinovlariga duch kelgan insonlardan biri Chiroqchi tumanidagi “Lenin” nomli sovxoz rahbari Usanov Qo‘chqor edi. Uning hayot yo‘li oddiy qishloq mehnatkashidan xo‘jalik rahbarigacha bo‘lgan mashaqqatli yo‘lni, “Paxta ishi” oqibatidagi qatag‘onlarni, qamoq azoblarini, oqlanish jarayonini va keyingi mehnat faoliyatini o‘zida mujassam etadi.

Usanov Qo‘chqor 1947-yilda Chiroqchi tumani Hayitqul qishlog‘ida oilaning to‘ng‘ich farzandi sifatida dunyoga kelgan. Uning bolalik va o‘smirlik yillari qishloq muhitida, mehnat bilan chambarchas bog‘liq holda o‘tdi. Yoshligidan mehnatga ko‘nikkan Qo‘chqor bobo ta’lim olishga ham katta qiziqish bilan qaradi. O‘rta maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, 1965-yilda Samarqand xo‘jalik universitetiga o‘qishga kirdi. 1970-yilda oliy ta’limni tamomlab, agronomlik kasbini egalladi. O‘sha davrda qishloq xo‘jaligi mutaxassislariga ehtiyoj katta bo‘lib, agronom zimmasiga hosildorlikni oshirish, ekinlarni parvarishlash va xo‘jalikdagi ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish kabi muhim vazifalar yuklatilgan edi. 1971-yildan Qo‘chqor Usanov Chiroqchi tumanidagi “Lenin” nomli sovxozda agronom sifatida mehnat faoliyatini boshladi. Uning professional faoliyati, avvalo, paxta yetishtirish bilan bog‘liq bo‘ldi. U hosildorlikni oshirish, yerga ishlov berish, ekinlarni parvarishlash va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash borasida tajriba orttirdi. Mehnatdagi mas’uliyati va erishgan natijalari sababli Qo‘chqor Usanovning lavozimi ham yuksalib bordi. 1982-yilda u agronomlikdan “Lenin” sovxozi raisi lavozimiga tayinlandi. Shu tariqa uning zimmasiga nafaqat agronomik, balki butun xo‘jalik faoliyatini boshqarishdek katta mas’uliyat yuklandi.

Ko‘p yillar davomida sodiq ishlab, unga berilgan paxta planini ortig‘i bilan topshirib kelgan. Ammo, 1980-yillarning boshlariga kelib, paxta ekinlari va yerlarning unumsizlashishi, shuningdek, suvning kamligi, paxta hosilini kamaytirishga olib keldi. Bu vaziyatda, Sovet Ittifoqining qattiq qo‘l siyosati, belgilangan reja bo‘yicha paxta yetkazib berishni yanada oshirishi axvolni yanada og’irlashtiradi . *“O‘sha yillarda majburiyat juda katta bo‘lib, O‘zbekiston 6*

million tonna paxta berishi kerak edi”-, deydi Qo‘chqor bobo. Sobiq Ittifoqning yolg‘on asosga qurilgan siyosati tufayli o‘shanda paxta yo‘q bo‘lsa ham, qo‘shib yozib, qog‘ozda majburiyat bajarilardi. Sovxoz agar belgilangan miqdorda paxtani yetkazib berolmasa, sovxozga nisbatan juda qattiq choralar ko‘rilgan. Qo‘chqor bobo ham o‘sha yilgi kamomadni yopish uchun 132,480 so‘m kolxozning kassasidan olib, unga o‘z yonidan 1,150 so‘m qo‘shib, jami 13,360 so‘m miqdorda pulni Chiroqchi noxiya (tuman) paxta tozalash zavodi qoshidagi paxta tayyorlash punktining 2-zona klassifikatorlari Beknazarov va Normurodovlarga bergan. 1984-yildan boshlab, paxta yetishtirishga oid noto‘g‘ri ma'lumotlar (qo‘shib yozish)bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tergov ishlari boshlanadi. Tergovga Gdlyan va Ivanovlar rahbarlik qilishgan. 1986-yilda esa navbat Chiroqchi tumanidagi “Lenin” nomli sovxozga keladi, sovxoz raisi bo‘lgan Usanov Qo‘chqor ham tergovga olib ketiladi. Qo‘chqor bobo O‘zbekiston SSR JKning 119-1, 149-1 va 155 moddalari hamda 153 moddasining 2-qismi bilan ayblanib 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilib, mol-mulki davlat foydasiga musodara etilgan, modiy va mansabdor lavozimlarda ishlash huquqidan 4 yil muddatga mahrum qilingan.

Qo‘chqor bobo qamoqdagi yillari davomida juda og‘ir sharoitlarda yashadi. U nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham katta bosimlarga duch keldi. Qamoqxonada bo‘lish davrida, u doimiy ravishda adolatsiz ravishda ayblanganligini his qildi. U o‘ziga qo‘yilgan barcha ayblovlarning noto‘g‘riligini isbotlash uchun kurashdi. Biroq, o‘sha davrda Sovet Ittifoqining siyosiy tizimi va qattiq boshqaruvi orqali taqdim etilgan jinoyatlar va notog‘ri ma'lumotlar tufayli, uning ishi to‘liq adolatli tahlil qilinmagan edi.

Qamoqdagi sharoitlar juda qattiq bo‘lib, Qo‘chqor bobo ko‘plab boshqa mahbuslar kabi, psixologik bosimlar va doimiy nazorat ostida bo‘lish uning ruhiyatiga jiddiy ta'sir qildi. Biroq, u hech qachon umidni yo‘qotmadi, aksincha, bu davrda o‘zining haqqoniyligini isbotlash va adolatga erishish uchun kuchli iroda namoyon qildi. Qo‘chqor boboning xarakatlari zoya ketmadi u 1990-yilda O‘zbekiston SSR Oliy sudi tomonidan qisman, 1991-yilda esa to‘liq oqlanganidan so‘ng, u adolat tiklanganini his etdi. Bu qamoqdagi og‘ir yillardan keyin qayta o‘z

faoliyatini boshlash va jamiyatga o‘z hissasini qo‘shish imkonini berdi. Qo‘chqor bobo1992-yildan yana shu “Lelin” nomli kolxozni xo‘jalik raisi bo‘lib ishlaydi. 1996-yilda kolxoz xo‘jalik raisi lavozimidan bo‘shab Qashqadaryo viloyati O‘simliklar Davlat Karantini Inspeksiyasi davlat noziri lavozimida ishlagan. Qo‘chqor bobo 2008-yilda o‘z ish faoliyatini tugatib, nafaqaga chiqdi.

Bugun Qo‘chqor boboning hayot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, uning taqdirida bir davrning butun fojeasini ko‘rish mumkin. Uning hayoti — mehnat, sabr-toqat, matonat va adolatga ishonch timsolidir. Qo‘chqor bobo 5 nafar farzandni tarbiyalab, uyli-joyli qildi. Biroq, qamoqxona yillarida ko‘rgan qiyinchiliklari yuragida bir umr armon bo‘lib qolgan. Qo‘chqor boboning hayoti nafaqat mehnat va fidoyilik, balki insonning ruhiy kuchi va adolatsizlikka qarshi turishining yorqin namunasi hisoblanadi. Sovet Ittifoqining og‘ir yillari, paxta ishlab chiqarishdagi qiyinchiliklar va tergovlar uning qalbida qattiq iz qoldirgan bo‘lsa-da, u hech qachon o‘z prinsiplaridan chekinmagan. Oqlanishi va yana faoliyatini davom ettirishi, uning irodasining naqadar mustahkamligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda, farzandlarini tarbiyalab, o‘z hayotini nurlantirgan Qo‘chqor,bobo o‘zining har bir yutug‘i va kurashlari bilan nafaqat o‘z zamonasiga, balki kelajak avlodlarga ham namuna bo‘lib qoladi.

Tarixni o‘rganishning asl maqsadi ham ana shunda: o‘tgan voqealarni shunchaki sanab o‘tish emas, balki o‘sha voqealar zamiridagi inson taqdirini anglash, nohaqliklardan saboq chiqarish va tarixiy xotirani avlodlarga yetkazishdir. Qo‘chqor Usanovning hayoti esa “Paxta ishi” bilan bog‘liq qatag‘onlar tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

САИД РИЗО АЛИЗОДАНИНГ ЖУРНАЛИСТИК ФАОЛИЯТИ

Юнус Сафаров

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи кичик илмий ходими

Ўтган XX аср бошларида Туркистон ҳудуди Чор Россияси томонидан мустамлака қилингани боис халқимиз маданияти, тарихи, урф-одатлари ва ананаларига тузатиб бўлмас даражада зарар етди. Ҳар қандай босқинчи давлатнинг асосий мақсади, мустамлака қилинган ҳудудни ҳар томонлама ўзининг ажралмас қисмига айлантиришга ҳаракат қилади. Дунё тарихида Англия, Франция каби давлатлар XIX асрда катта мустамлакачи давлатлар бўлган. Улар ҳам маҳаллий ерли аҳолини илмдан айниқса матбуотдан узоқ тутишган. Бироқ Исмоил Ғаспарали томонидан Қримда жадидчилик матбуоти ва таълимига асос солинди. Шу билан бирга "Таржимон", "Бизнинг товуш" каби газеталари инглиз Ҳиндистони, Эрон, Туркия каби давлатларга ҳам кенг тарқалган. Жадид матбуотининг асосий мақсади мусулмон улкалари аҳолисини дунё илм фани янгиликларини маҳаллий халқларга етказиш, аҳоли билиб савиясини кўтариш, фикрлаш доирасини кенгайтириш бўлган. Ўрта Осиёга ҳам жадид матбуоти кириб келди. Бу бизнинг Туркистон маърифатпарларга ҳам катта таъсир ўтқазди. Натижада Маҳмудхўжа Беҳбудий, Фитрат, Чўлпон, Мунаввар Қори каби жадидларимиз томонидан "Ойна", "Хуршид", "Иштирокуюн" каби газета ва журналлар чоп этилиб халқмизга тақдим этилди. Бироқ қисқа муддат ичида Совет давлати уларга ҳар томонлама босимлар қилиб тақиқлаб қуйса бошқа ном билан чиараверишди. Совет давлати парчалиниб кетгунча ҳам матбуот устидан назорат қаттиқ ушлаб турилди.

Юқорида номлари келтирилган жадид маърифатпарлар сирасига самарқандлик Саид Ризо Ализодани ҳам киритиш мумкин. У 1887 йил 15 февралда Самарқанда косиб Мирмахсум Ализода хонадонида туғилган.

Ёшлигидан илм олишга иштиёқ баланд ўғлини таълимни Боғишамолдаги Абулқосим ал-Ганжийнинг жадид мактабида беради. Отаси савдогар бўлиб, унда озроқ муддат савдо билан шуғулланган. Саид Ризо Ализоданинг асосий иштиёқи бу илм олиш ўз замонаси вақтида чиқадиган Қримдаги “Таржимон”, Эронда чиқувчи “Шафақи Сурх” каби газета ва журналларни кўпроқ мутола қилиши натижада унда ўзи ҳам ушбу газеталарда мақолалар бериб борди. Туркистон матбуотда мақолалар чиқариш учун Самарқанд вилоят губернаторга 1914 йил 9 декабрда ариза ёзади:

“*Самарқанд вилояти ҳарбий губернатор жаноби олийларига*
Самарқанд шаҳри, Боғишамол мавзеси
Юнучка-ариқ маҳаллисида яшовчи
Саид Ризо Алиевдан

Ариза

Жаноби олийларидан менга Ғазаров типо-литографиясидан менга ўзбек ва тожик тилларда агентлик телеграммаларида хусусий эълонлар чоп этишимга рухсат беришингизни сўрайман”.

Саид Ризо Ализоданинг мурожаати ижобий ҳал этилди. Ва унга Ғазаров типо-литографиясида “Телеграф хабарлари” номли мажаллада дастлабки кичик мақолаларни чиқаришга рухсат берилди. Унинг асосий мақолалари мазмуни аччиқ сатира ва танқидий характерда эди. Маҳмудхўжа Беҳбудий 1914 йил чет элга сафари олдидан Самарқанд губернаторига ариза ёзиб “Ойна” журнали мудирлигига қуйиши бежиз бўлмаган. Ёш журналист шуролар тизимини аёвсиз танқид қилар, адолатсизларни очиқ матбуотда чоп этиб уларни ғазабини қузғатар эди. “Сайид Ризо Ализода 1917 йил “Ҳуррият” газетасида “Маҳаллий ҳукуматишчи-деҳқонларни алдаяпти” деган мақоласи учун Санкт-Петербургда ички ишлар бошқармасининг 4-бўлимида унга “Самарқандлик ўта хавфли журналист” иш очилади. Чунки Сайид Ризо Ализода очарчилик ҳақида Боғишамолдаги воқеаларни руй рост қаламга

олган эди. Шунга қарамасдан у 1919 йил 10 апрелда ойида Самарқандда “Шулаи инқилоб” журналига асос солди. Бу шу пайтга қадар форс тилида чиқадиган Туркистондаги биринчи журнал эди. У Советлар давлатининг манфур ниятини доимий равишда туркий халқлар келажаги учун таҳдид деб билди. Мустамлака ва қарамлик Туркистонни қандай оқибатларга олиб келишини, "Туркистон-бизнинг Ватанимиз" қуйидагича тушунтиришга ҳаракат қилди. "*Севимли Ватанимиз- Туркистон Россия ҳукумати қўлида эди. Ватанимизни қонхур одамлар хўрласа уни бегоналар оёқ ости қилса, жаллодлар зулмидан азоб чекса, бизни барча нематлардан маҳрум этса, Ватанимиз бегоналар кўз олайтирса, биз унга жим қараб турсак, болалар ва етимлар уволи бизни тутажак. Биз рус давлатига асир ва қарам бўлдик.шуролар бизни Ватанимизни шу қадар хўрладики, уларга хизмат қилувчи хоинлар Ватанимизни бир кун қирғийларга ем қилажак”[1;21].* У ўзидан кейинги авлодларга озодлик ва ҳуррият тушунчалари нақадар буюклигини инсон озод бўлиши кераклиги, Ватанни муттаҳам каззоблар қўлига бериб қуймаслиги учун курашиш кераклигини ўқтиради. Унинг бу ғоялари бошқа жадид сиймоларимиз Абдулла Қодирий, Чўлпон, Фитрат каби буюк жадидлар билан фикрлари ва қарашлари билан бир эди. Манашундай улуғ ишлар кетаётган бир вақтда Туркистон жадидларнинг пешқадам вакили бўлган Махмудхўжа Беҳбудий 1919 йил Қаршида хуфёна қатл этилади. Унинг вафотига бағишлаб Саид Ризо Ализода 1920 йил апрелда “Шулаи инқилоб” журналининг 35-сонида “Шаҳодатнома” (Буюк мотам) деб номлаган мақоласини эълон қилади. “*Маҳмудхўжанинг ўлими биргина Самарқанд аҳолисин эмас, балки 10 миллионли Туркистон аҳолисини ҳам мотамзадо ва мутаасир қилди. Бугун бутун Туркистон миллати бу мотамда иштирок қилиб, қора кейиб, сийнасини чок қилган. Бутун Самарқанд мусулмонлари улкан, бебаҳо хизматлари учун унга бирадарлик ва ҳамдардлик изҳор этиб, ул шаҳиднинг муборак руҳи равонини ўзларидан рози ва шод қилмоқдалар.*

Унинг 30 йиллик хизмати беҳад ва беҳисобдирки, бу қоғозларга сиғмайди ва буни ожиз қалам билан адо этиш мумкин эмас”[2;1-2] . Саид Ризо Ализода ўзи ҳам ушбу воқеадан қаттиқ қайғурган эди. Шундай қилиб жадидчилик асосчиларидан бирининг йўқ қилиниши ҳам халқимизни илм маърифатга чанқоқликдан тўхтата олгани йўқ аксинча бу ҳали қаттол тузумнинг жадидчилар ва умуман барча Туркистон халқларига, уларнинг келажагига ва маъданиятига тажовуз эди. Саид Ризо Ализода “Ҳуррият”, “Камбағаллар товуши”, “Меҳнаткашлар товуши”, “Улуғ Туркистон”, “Машраб” каби газета ва журналларда Коргар, Мулла Жунбул, Бахлул, Бахлулзода, Наштар каби тахаллусларда мақолалар ва шеърларини бериб борди. Саид Ризо Ализода ҳаммаслаклари билан шу ўлуғ йўлдан борди. Ҳамда кўплаб мақолалар ва асарлар ёзди, қаттол совет қатағон машинаси Саид Ризо Ализодани ҳам аяб ўтирмади. Уни 1938 йил 5 февралда уни НКВД буйруғи билан қамоққа олишди. Ҳеч қандай асоссиз равишда ёлғон туҳматлар билан 5 йил қамоққа ҳукм эитлди. Бироқ муддати 1943 йилда тугасада чиқарилмади. Аксинча умрини охири қамоқда тугатди. Шундай булсада биз ундан 23 та асарлари мерос бўлиб қолган Улар Покистонда Лахор шаҳрида утган аср бошларида чоп этилган. Покистон конститутциясини ёзишда унинг “Ислом тарихи” асарларидан кўп фойдаланилган. Хулоса шуки жадид боболаримиз биз учун қимматли ва азиз жонларини ҳам аяшмади. Уларни ижодини ҳозирга авлодлар чуқур англамоғимиз ва чуқурроқ ўрганишимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати

1. Субхон Атабуллаев. Саид Ризо Ализода. Душанбе. Ирфон. 1975.
2. Саид Ризо Ализода, “Шулаи инқилоб” ж. Самарқанд. 1920 йил, 35-сон.

ZULMGA UCHRAGANLAR

Majiddin Raxmatov
Qarshi davlat universiteti tuzilmasidagi
“Qatag’on qurbonlari xotirasi” muzeyi ilmiy xodimi

Annotatsiya: maqolada sovet davlatining olib borgan qatag`on siyosati tahlil etilgan bo’lib, unda oddiy xalq va ma`rifatparvarlarga qo`yilgan soxta ayblovlar va bo`xtonlari tufayli zulm ko`rgan xalqimizning hayoti haqida fikr yuritilgan.

***Kalit so`zlar:*** Sovet davlati, qatag`on, qora bulutlar, Gulag, xalq dushmani, jinoyat kodeksi, jamoa xo`jaligi, dezertirlik, farmon, harbiy sud.

Аннотация: в статье проанализирована политика репрессий советского государства, обсуждается жизнь нашего народа, который страдал из-за ложных обвинений и клеветы, выдвинутых против обычных людей и просветителей.

Ключевые слова: Советское государство, репрессии, чёрные тучи, ГУЛАГ, враг народа, уголовный кодекс, коллективное хозяйство, дезертирство, указ, военный суд.

Annotation: the article analyzes the repressive policies of the Soviet state, discussing the life of our people who suffered because of false accusations and slanders imposed on ordinary people and intellectuals.

Keywords: Soviet state, repression, dark clouds, Gulag, enemy of the people, criminal code, collective farm, desertion, decree, military court.

Qatag`on yillari xalqimizning xotirasida o’sha mash`um kunlar qora tarix bo`lib saqlanib qolgan. Sobiq sovet davlati tomonidan juda ko`plab qatag`on siyosati olib borilgan bo`lib bu zaminimizda yetishib chiqayotgan ilg`or fikrlovchi yoshlarimizning umriga zomin bo`ldi. Shuningdek ularni oila a`zolarining osmonini qora bulutlar qamrab oldi. XX asr boshlaridan 40-yillargacha 450 ming

vatandoshimizga “jinoiy ish” ochilgan. “Jinoiy ish” ochilganlarning 43 mingdan ziyodi qamoqqa olingan, 37 ming vatandoshimiz esa turli muddatga qamoq va surgunlarga hukm qilingan. Birgina 1937 yilda juda ko`plab ulug` ma`rifatparvarlar Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho`lpon, Abdulla Qodiriy singari ajdodlarimiz siyosiy qatag`on qurbonlariga aylanishdi. Bu ma`rifatparvarlar soxta ayblovlar bilan noxaq qatag`on qilindi. Markazning o`tkir shamshiri va po`lat qalqoni hisoblangan Davlat siyosiy boshqarmasi (ГПУ), Ichki ishlar xalq komissarligi (НКВД) kabi jazo organlari va ularning qonxo`r jallodlari uchun ilg`or ma`rifatparvar ziyolilarini, begunoh mazlum xalqni hibsga olish, yo`q ayblarni to`qib chiqarish, uydurmalarni yasash hech gap emas edi. Sovetlarning bu siyosati xalqimizning oddiy aholisi ham soxta ayblovlar bilan qatag`onga uchradi. Mana shular qatorida 1949 yil Sovet davlati Mirzo To`layev va o`g`li Abduraim Mirzayevni ham chetlab o`tmadi. Ota va farzand aynan “xalq dushmani” degan soxta ayblovlar bilan qatag`onga duchor etilgan.

Abduraim Mirzayev (1928-2008) Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani Xushvaqt qishlog`ida tug`ilgan, otasi Mirzo To`layev qishloq masjidida imomlik qilgan. Abduraim Mirzayev “Istiqlol” jamoa xo`jaligida suvchi bo`lib ishlagan. Otasi dindor va uyida arab imlosidagi kitoblar saqlanganligi tufayli NKVD nazoratiga tushgan. 1949 yil otasi qamoqqa olinib O`z SSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-qism (sovetlar hokimyatini yiqitish, qaqshatish va zaiflatishga yoki ayrim kontrrevalyutsion jinoyatlarni qilishga agitatsiya yoki propaganda yurg`izish, o’shandoq shu mazmunda bo`lgan adabiyotni tarqatish yoki tayyorlash yoxud saqlash) bo`yicha ayblangan va bir oydan so`ng Abduraim Mirzayev ham musulmon ruxoniysining o`g`li sifatida O`z SSR Jinoyat kodeksining 125-moddasi “g” bandi hamda “dezertirlik” ayblari qo`yilgan. Abduraim Mirzayev 6 yil, otasi 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan va ota-bola jazoni GULAG-axloq tuzatish mehnat kaloniyalarida o’tashgan[1]. GULAG (Главное управление лагерей) - axloq tuzatish mehnat lagerlari, surgun va qamoqxonalar bosh boshqarmasi ya`ni 1934-1956-yillarda axloq tuzatish lagerlari tizimini boshqargan NKVD bo`limi. Uning maxsus bo`limlari turli joylarda joylashgan, masalan Qarag`anda, Dalstroy,

Slovki, Belomor-Baltika, Vorkuta kabi joylardagi axloq tuzatish lagerlarini birlashtirgan[2]. Sobiq ittifoqning hamma chekka hududlarida mavjud bo`lgan, jumladan O`zbekistondan jazoga mahkum etilgan millionlab mahbuslar sovuq hududlarga, uzoq sharq va boshqa mintaqalarga jo'natilgan va o'sha yerda konlarda, yo`llarda, kanallar qazilishida shu kabi inshootlar qurilishida haq olmasdan mehnat qilishgan. Ochlik, kasallik va juda og`ir majburiy mehnat tufayli juda ko`plab insonlar o`lib ketishgan. Bu qismat ota va farzandning boshiga tushishiga qaramasdan ular o`z uylariga eson-omon qaytib kelishadi. Ular qamoqqa olingunga qadar o`z hayot tashvishlari bilan band bo`lishgan. Abduraim Mirzayev kolxozdagi dalada don tozalayotgan vaqtida otasi esa masjidda qo`lga olingan. Sovetlarning bu shaxslarga qo`ygan ayblovlari haqiqatga to`g`ri kelmaydi. Misol uchun Abduraim Mirzayev "dezertirlik" da ayblangan lekin xizmatni o`tash uchun chaqiriluvchilar ro`yxatida turganligi va hali harbiy xizmatchi bo`lmaganligi misol bo`la oladi.**[3]** Bu shaxslar oddiy qishloq odamlari edi.

Sovet davlati mana shunday nohaq ayblov va bo`xtonlar bilan juda ko`plab xalqimizni qatag`on qilishgan shuningdek ularning oila a`zolariga ham ta`sir o`tkazishgan, taqiqlar qo`yilgan hamda oila a`zolari partiya saflaridan chiqarilgan. Mana shunday iskanja va qo`rquv orqali xalqimizni 70 yil qaramlikda saqlashdi.

Abduraim Mirzayev 1954 yil jazoni o`tab qaytgandan so`ng hayot yo`lida davom etgan, oilasi davrasida bo`lgan. Abduraim Mirzayev jazoni o`tab qaytgandan so`ng ham nazorat ostida bo`lgan. Sovetlar mana shunday jazoni o`tab kelgan, nazorat ostida turganlarni ancha vaqt majburiy mehnatga jalb qilib kelishgan.

Mustaqillikga erishganimizdan so`ng sobiq tuzum inson huquqlariga zid siyosat olib borganligi fosh bo`ldi. Mustaqillik tufayli qatag`on qurbonlariga bo`lgan munosabat o`zgardi. Davlatimiz tomonidan ularning qonli tarixini ochiq oydin o'rganish va nohaq ayblanganlarni oqlash va keng jamoatchilikga ma`lum qilish ishlari olib borildi.

O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2001 yil 1 may PF-2837-son “Qatag`on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to`g`risidagi” farmoni asosida sovet davrida begunoh, nohaq tuhmat va bo`xtonlar bilan qatag`on qilingan yurtdoshlarimizni topish, o’rganish va ularni oqlash ishlari olib borildi. Mustabid tuzim davrida million-million begunoh insonlarning umri xazon bo‘lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo‘lib, qancha-qancha go‘daklar yetim qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hech qachon unutmaydi.[4]

2019 yil 30-aprel kuni O`zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan Abduraim Mirzayev va otasi Mirza To`layev aybsiz va oqlansin deb topildi. Ammo Abduraim Mirzayev ham uning otasi ham bu voqeaga guvoh bo`lishmadi chunki ikkisi ham bu foniy dunyoni tark etishgan edi. Hozirgi kunda Abduraim Mirzayevga tegishli bo`lgan hujjatlarning ko`chirma nusxalari Qarshi davlat univeristeti tuzulmasidagi “Qatag`on qurbonlari xotirasi” muzeyi fondida saqlanmoqda. Shuningdek Abduraim Mirzayevni otasi Mirza To`layevning shaxsiy kutubxonasida qolgan so`ngi kitob Tatar ma`rifatparvar ulamosi Qayum Nosiriyning (Qayum Nosiriy asl ism-sharifi G‘abdulqayum G‘abdennosirovich Nosirov 1825-yil hozirgi Tataristonning Zelenodolsk tumanida tavallud topgan, 1902-yil Qozonda vafot etgan. —tatar yozuvchisi, olim va ma’rifatparvar) [5] 1094-yili Qozonda chop etilgan “Axloq risolasi” asari saqlanmoqda.

Bu insonlar totalitar tuzum tomonidan dushman sifatida ko`rilgan va o`z hayotlarida azob-uqubatni boshidan kechirishgan. Vatan fidoyilari sifatida eslanayotgan qatag`on qurbonlari hozirda mustaqil O`zbekiston Respublikasida xotira va hurmat bilan eslanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. G`ulom Mirzo. Ey Darvish (Zulmni yenggan ma`zlumlar qissasi) Toshkent-2022.

2. O`zbekiston milliy ensiklopidiyasi.

3. G`ulom Mirzo. Ey Darvish (Zulmni yenggan ma`zlumlar qissasi) Toshkent-2022.

4. https://lex.uz/docs/-177497

5. https://uz.wikipedia

TARIXIY XOTIRANI ABADIYLASHTIRISHDA MUZEYLARNING O‘RNI VA QATAG‘ON QURBONLARI HAYOTINI YOSHLAR O‘RTASIDA TARG‘IB ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Nozima Saydaxmedova

FarDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy xotirani abadiylashtirishda muzeylarning o‘rni hamda qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini yoshlar o‘rtasida targ‘ib etishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi. Muzeylarning tarixiy-madaniy merosni asrash, uni kelajak avlodga yetkazish va yoshlarning tarixiy ongini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini yoshlar orasida targ‘ib etishda raqamli texnologiyalar, virtual muzeylar, multimedia, QR-kodlar, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar, qisqa videolar va interaktiv ta’lim usullaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada yoshlarni tarixiy tadqiqotlarga jalb etish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, tarixiy merosga hurmat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy xotira, muzey, qatag‘on qurbonlari, yoshlar, tarixiy meros, milliy o‘zlik, tarixiy ong, raqamli texnologiyalar, virtual muzey, multimedia, QR-kod, ijtimoiy tarmoqlar, vatanparvarlik, tarixiy tadqiqot.

Аннотация: В статье освещается роль музеев в увековечении исторической памяти и рассматриваются современные методы

популяризации жизни и деятельности жертв политических репрессий среди молодежи. Анализируется значение музеев в сохранении историко-культурного наследия, передаче исторической правды будущим поколениям, формировании исторического сознания молодежи и развитии национального самосознания. Особое внимание уделяется возможностям использования цифровых технологий, виртуальных музеев, мультимедийных средств, QR-кодов, социальных сетей, подкастов, коротких видеоматериалов и интерактивных образовательных методов для популяризации истории и наследия жертв политических репрессий среди молодежи. В статье также рассматривается значение вовлечения молодежи в историко-исследовательскую деятельность для формирования патриотизма, уважения к историческому наследию, гражданской ответственности и бережного отношения к исторической памяти.

Ключевые слова: историческая память, музей, жертвы политических репрессий, молодежь, историческое наследие, историческое сознание, национальное самосознание, цифровые технологии, виртуальный музей, мультимедиа, QR-код, социальные сети, историческое исследование, патриотизм.

Abstract: This article examines the role of museums in preserving and perpetuating historical memory and explores modern approaches to promoting the lives and activities of victims of political repression among young people. It analyzes the importance of museums in preserving historical and cultural heritage, transmitting historical truth to future generations, developing historical awareness among youth, and strengthening national identity. Particular attention is paid to the use of digital technologies, virtual museums, multimedia tools, QR codes, social media, podcasts, short videos, and interactive educational methods to promote knowledge about the history and legacy of victims of political repression among young people. The article also highlights the importance of engaging youth in historical research activities as a means of fostering patriotism, respect for

historical heritage, civic responsibility, and a commitment to preserving historical memory.

Keywords: historical memory, museum, victims of political repression, youth, historical heritage, historical awareness, national identity, digital technologies, virtual museum, multimedia, QR code, social media, historical research, patriotism.

Tarixiy xotira har bir xalqning milliy o‘zligini anglashida muhim ma’naviy asoslardan biridir. Xalqning boshidan kechirgan murakkab va fojiali davrlarini o‘rganish, ular haqidagi xolis ma’lumotlarni saqlash va kelajak avlodga yetkazish jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, siyosiy qatag‘onlar davrida ta’qib qilingan, qamalgan, surgun qilingan yoki hayotidan mahrum etilgan insonlarning xotirasini abadiylashtirish tarixiy adolatni qaror toptirishning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Muzeylar ana shu vazifani amalga oshirishda o‘ziga xos ma’naviy-ma’rifiy markaz sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy muzeyni faqat tarixiy buyumlar saqlanadigan maskan sifatida baholash to‘g‘ri emas. Bugungi kunda muzeylar tarixiy bilimlarni saqlash va targ‘ib etish, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, jamiyatda tarixiy ong va xotirani shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-madaniy institutga aylanmoqda. UNESCO tavsiyalarida ham muzeylar moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash bilan birga, ta’lim, madaniy muloqot va jamoatchilik xabardorligini oshirishda muhim institut ekani ta’kidlangan [1].

O‘zbekistonda qatag‘on qurbonlari xotirasini tiklash, ularning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda keng jamoatchilikka yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2025–2026-yillarda qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ‘ib etish ishlarini yanada jadallashtirishga qaratilgan davlat dasturida har yili oktabr oyining birinchi haftasida Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligini o‘tkazish, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish hamda Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi faoliyatini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan [2].

Qatag‘on qurbonlariga bag‘ishlangan muzey ekspozitsiyalarining asosiy ahamiyati shundaki, ular yosh avlodga tarixiy voqealarni quruq raqamlar va sanalar orqali emas, balki aniq insonlar taqdiri orqali anglash imkonini beradi. Arxiv hujjatlari, fotosuratlar, shaxsiy buyumlar, xatlar, qo‘lyozmalar va boshqa ashyoviy dalillar tarixiy voqelikning inson hayoti bilan bog‘liq jihatlarini ochib beradi. Bunday eksponatlar orqali yoshlar o‘z ajdodlarining hayoti, ilmiy va ma’rifiy faoliyati, orzu-intilishlari hamda boshidan kechirgan og‘ir sinovlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar.

Qatag‘on qurbonlari hayotini o‘rganish faqat o‘tmishdagi fojialarni eslash bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon yoshlarda tarixiy ong, inson qadriga hurmat, adolat tuyg‘usi va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishi zarur. O‘zbekistonda keyingi yillarda qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini yoshlar orasida targ‘ib etishga qaratilgan turli tadbirlar o‘tkazilmoqda. Jumladan, davlat dasturida o‘quvchi yoshlar va talabalar ishtirokida qatag‘on qurbonlari tug‘ilgan maskanlarda uchrashuv va davra suhbatlarini tashkil etish nazarda tutilgan [2].

Bugungi yoshlarning axborot qabul qilish madaniyati avvalgi avlodlardan sezilarli darajada farq qiladi. Ular ma’lumotlarni internet, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va mobil qurilmalar orqali tezkor qabul qilmoqda. Shu sababli tarixiy xotirani saqlash va qatag‘on qurbonlari hayotini targ‘ib etishda an’anaviy muzey faoliyatini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzey ekspozitsiyalarini raqamlashtirish, virtual ekskursiyalar tashkil etish, arxiv hujjatlarining elektron nusxalarini yaratish va interaktiv xaritalardan foydalanish yoshlarning tarixiy meros bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, virtual muzeylar geografik jihatdan uzoqda bo‘lgan yoshlarning ham tarixiy ekspozitsiyalardan foydalanishiga sharoit yaratadi. Bunday platformalarda qatag‘on qurbonlarining tarjimayi holi, fotosuratlari, hujjatlari, ilmiy va ijodiy merosi haqidagi ma’lumotlarni bir tizimga jamlash mumkin.

Muzeylarda QR-kodlardan foydalanish ham zamonaviy va samarali usullardan biridir. Har bir muhim eksponat yoki tarixiy shaxsga oid QR-kod orqali

foydalanuvchi smartfon yordamida qo‘shimcha ma’lumot, fotosurat, video, audio yoki arxiv hujjatlariga murojaat qilishi mumkin. Natijada muzeyga tashrif oddiy tomosha jarayonidan interaktiv ta’lim va tadqiqot jarayoniga aylanadi.

Qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini yoshlar orasida targ‘ib etishda ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan ham keng foydalanish lozim. Instagram, YouTube, Telegram va boshqa platformalarda tarixiy shaxslar haqida qisqa va mazmunli videolar, infografikalar, tarixiy fotosuratlar hamda arxiv hujjatlarini taqdim etish yoshlar auditoriyasini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, “Bir inson — bir taqdir”, “Arxivdan bir hujjat”, “Bu suratdagi inson kim?” kabi loyihalar orqali tarixiy shaxslar hayotining muhim jihatlarini qisqa shaklda yoritish mumkin.

Podkast va audiohikoyalar ham yoshlar bilan ishlashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Tarixchilar, arxivshunoslar, muzey xodimlari va tadqiqotchilar ishtirokida tayyorlangan podkastlarda qatag‘on qurbonlarining hayoti, ilmiy va ma’rifiy faoliyati, tarixiy voqealar hamda arxivlarda saqlanayotgan yangi ma’lumotlar haqida suhbatlar tashkil etish mumkin. Audioformatning qulayligi yoshlarning bunday ma’lumotlardan kundalik hayot davomida ham foydalanishiga imkon beradi.

Yoshlarni bevosita tarixiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish esa tarixiy xotirani shakllantirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Talabalarga o‘z hududida yashagan qatag‘on qurbonlari haqida ma’lumot to‘plash, arxiv hujjatlarini o‘rganish, ularning avlodlari bilan suhbatlashish, fotosurat va xotiralarni jamlash kabi topshiriqlar berilishi mumkin. UNESCOning yoshlar va madaniy meros bo‘yicha ta’lim dasturlarida ham yoshlarni tadqiqot, ma’lumot to‘plash va tahlil qilish, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda muzeylarga tashrif kabi faol usullarga jalb etishga alohida e’tibor qaratiladi [3].

Qatag‘on qurbonlari hayotiga oid voqealarni sahnalashtirish, tarixiy rekonstruksiyalar tashkil etish, hujjatli filmlar va videoroliklar yaratish ham yoshlarning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishi mumkin. Biroq bunday usullardan

foydalanishda tarixiy faktlarning haqqoniyligini saqlash, voqealarni asossiz badiiylashtirmaslik va ishonchli manbalarga tayanish muhimdir.

Zamonaviy muzeylar faoliyatida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish ham yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. UNESCOning 2025-yilda muzeylarga bag‘ishlangan yuqori darajadagi forumida muzeylarning sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ham muhokama qilingan [4]. Raqamlashtirilgan arxiv materiallari asosida qidiruv tizimlarini yaratish, virtual gidlar, interaktiv xronologiyalar va tarixiy shaxslarning biografik ma’lumotlar bazasini shakllantirish mumkin.

Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanishda tarixiy ma’lumotlarning ishonchli manbalarga asoslanishi muhim. Qatag‘on qurbonlari kabi tarixiy va ma’naviy jihatdan nozik mavzularni yoritishda tekshirilmagan ma’lumotlar, soxta faktlar yoki tarixiy voqealarni noto‘g‘ri talqin qilishdan ehtiyot bo‘lish zarur.

Muzeylarning maktab, akademik litsey, texnikum va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorligi ham tarixiy xotirani yoshlar orasida shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Muzeyga faqat bir martalik ekskursiya tashkil etish bilan cheklanmasdan, ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. “Mening hududimdagi qatag‘on qurboni”, “Arxivdan tarixga”, “Bir eksponat tarixi”, “Tarixni bobomdan eshitdim” kabi loyihalar yoshlarni faol izlanishga undashi mumkin.

Bunday yondashuv yoshlarni passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. Eng muhimi, tarixiy xotira yoshlarning kundalik hayoti va ma’naviy dunyosining bir qismiga aylanishi lozim. Buning uchun muzeylar zamonaviy texnologiyalar, ijodiy loyihalar va ta’limiy dasturlar orqali yoshlar bilan muntazam ishlashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy xotirani abadiylashtirish — o‘tmishni shunchaki eslash emas, balki undan bugungi va kelajak avlod uchun ma’naviy saboq chiqarish jarayonidir. Muzeylar esa ana shu jarayonning muhim madaniy-ma’rifiy markazi sifatida xizmat qiladi. Qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini yoshlarga yetkazishda muzey ekspozitsiyalari, arxiv hujjatlari va an’anaviy

ekskursiyalar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Virtual muzeylar, QR-kodlar, multimedia, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar, qisqa videolar, interaktiv xaritalar va sun’iy intellekt asosidagi ta’limiy vositalar tarixiy ma’lumotlarni yoshlar uchun yanada qiziqarli va tushunarli shaklda taqdim etish imkonini beradi.

Yoshlarni tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki tarixni o‘rganuvchi va tadqiq qiluvchi subyektga aylantirish lozim. Chunki tarixiy xotira faqat muzey vitrinalari yoki arxiv hujjatlarida saqlanib qolmasdan, yosh avlodning ongi va qalbida yashagan taqdirdagina haqiqiy ma’noda abadiylashadi. Qatag‘on qurbonlari xotirasini asrash, ularning hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish hamda yoshlar orasida keng targ‘ib etish milliy o‘zlikni anglash, tarixiy adolatni qaror toptirish va vatanparvar avlodni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. UNESCO. *Recommendation concerning the protection and promotion of museums and collections, their diversity and their role in society*. Paris, 2015.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati. “2025–2026-yillarda mamlakatimizda qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ‘ib etish ishlarini yanada jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 691-son qaror. 2025-yil 4-noyabr.

3. UNESCO World Heritage Centre. *The KIT: World Heritage in Young Hands*. Yoshlarni madaniy merosni o‘rganish, tadqiqot, ma’lumot tahlili, AKT va interaktiv ta’lim jarayonlariga jalb etish bo‘yicha ta’limiy materiallar.

4. UNESCO. *Third High-Level Forum for Museums (2025)*. Muzeylar, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar hamda muzeylarning ta’limiy vazifalariga bag‘ishlangan materiallar.

РОЛЬ МУЗЕЕВ В УВЕКОВЕЧЕНИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ ЖИЗНИ ЖЕРТВ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕПРЕССИЙ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ

Умиджон Артиков

Сотрудник Музея памяти жертв репрессий при Ферганском государственном университете.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy xotirani abadiylashtirishda muzeylarning o‘rni hamda siyosiy qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini yoshlar o‘rtasida targ‘ib etishning zamonaviy usullari yoritilgan. Muzeylarning tarixiy-madaniy merosni saqlash, tarixiy haqiqatni kelajak avlodga yetkazish va yoshlarning tarixiy ongini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, virtual muzeylar, onlayn ekskursiyalar, QR-kodlar, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar, multimedia vositalari va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada yoshlarni tarixiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish orqali ularda vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, tarixiy merosga hurmat va tarixiy xotirani asrash tuyg‘ularini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy xotira, muzey, siyosiy qatag‘onlar, qatag‘on qurbonlari, yoshlar, tarixiy meros, tarixiy ong, raqamli texnologiyalar, virtual muzey, QR-kod, ijtimoiy tarmoqlar, podkast, tarixiy tadqiqot, vatanparvarlik.

Аннотация: В статье рассматривается роль музеев в увековечении исторической памяти и современные методы популяризации жизни и деятельности жертв политических репрессий среди молодежи. Анализируется значение музеев в сохранении историко-культурного наследия, передаче исторической правды будущим поколениям и формировании исторического сознания молодежи. Особое внимание уделяется использованию виртуальных музеев, онлайн-экскурсий, QR-кодов, социальных сетей, подкастов, мультимедийных средств и цифровых

технологий в популяризации исторического наследия. В статье также рассматривается значение вовлечения молодежи в историко-исследовательскую деятельность как средства формирования патриотизма, гражданской ответственности, уважения к историческому наследию и сохранения исторической памяти.

Ключевые слова: историческая память, музей, политические репрессии, жертвы репрессий, молодежь, историческое наследие, историческое сознание, цифровые технологии, виртуальный музей, QR-код, социальные сети, подкаст, историческое исследование, патриотизм.

Abstract: The article examines the role of museums in preserving and perpetuating historical memory and explores modern methods of promoting the lives and activities of victims of political repression among young people. It analyzes the importance of museums in preserving historical and cultural heritage, transmitting historical truth to future generations, and developing historical awareness among youth. Particular attention is paid to the use of virtual museums, online exhibitions, QR codes, social media, podcasts, multimedia tools, and digital technologies to promote historical heritage. The article also emphasizes the importance of involving young people in historical research activities as a means of fostering patriotism, civic responsibility, respect for historical heritage, and the preservation of historical memory.

Keywords: historical memory, museum, political repression, victims of repression, youth, historical heritage, historical awareness, digital technologies, virtual museum, QR code, social media, podcast, historical research, patriotism.

Историческая память является важной составляющей национального самосознания и духовных ценностей общества. Изучение сложных и трагических страниц прошлого, сохранение достоверных сведений о них и передача этих знаний молодому поколению имеют большое значение. Особенно актуальным является сохранение памяти о людях, подвергшихся

политическим репрессиям, преследованиям, ссылкам и другим формам политического давления. Изучение их жизни и деятельности способствует восстановлению исторической справедливости и воспитанию у молодежи уважения к человеческому достоинству, свободе и справедливости.

В этом процессе особое место занимают музеи. Современный музей является не только местом хранения исторических предметов, но и важным образовательным и культурно-просветительским центром. Согласно рекомендациям ЮНЕСКО, музеи играют значительную роль в сохранении культурного наследия, образовании, культурном диалоге и формировании общественного сознания [1].

Особое значение имеют музейные экспозиции, посвященные жертвам политических репрессий. Архивные документы, фотографии, личные вещи, письма и рукописи позволяют представить историю через судьбы конкретных людей. Благодаря этому молодежь получает возможность глубже понять исторические события и осознать необходимость сохранения памяти о людях, внесших вклад в развитие науки, культуры, образования и общественной жизни.

В Узбекистане в последние годы уделяется большое внимание восстановлению исторической памяти о жертвах репрессий. В рамках государственных мероприятий предусматривается проведение научно-практических конференций, встреч и тематических мероприятий с участием молодежи, а также дальнейшее совершенствование деятельности Государственного музея памяти жертв репрессий [2].

Важным направлением современной музейной работы становится использование цифровых технологий. Современная молодежь активно получает информацию через интернет, социальные сети и мобильные устройства, поэтому традиционные формы музейной деятельности целесообразно дополнять современными цифровыми инструментами.

Одним из перспективных направлений является создание виртуальных музеев и онлайн-экскурсий. Цифровизация музейных фондов позволяет

сделать архивные документы, фотографии и другие исторические материалы доступными широкой аудитории. Виртуальные экспозиции могут включать биографические сведения, видеоматериалы, аудиозаписи и интерактивные карты.

Эффективным инструментом являются также QR-коды. Размещенные рядом с экспонатами, они позволяют посетителям с помощью смартфона получить дополнительную информацию о документе или исторической личности. Это делает посещение музея более интерактивным и повышает интерес молодежи к историческому наследию.

Большие возможности предоставляют социальные сети. Короткие видеоролики, исторические фотографии, инфографика и архивные документы могут быть представлены в формате, привычном для молодежной аудитории. Подобные материалы способны привлечь внимание молодых людей к малоизвестным страницам истории. Однако обязательным условием должна оставаться достоверность информации и опора на проверенные источники.

Перспективным направлением являются тематические подкасты с участием историков, архивистов, музейных работников и исследователей. В доступной форме можно рассказывать о судьбах репрессированных ученых, писателей, педагогов и общественных деятелей, анализировать архивные документы и раскрывать малоизвестные исторические факты.

Особое значение имеет непосредственное участие молодежи в исследовательской деятельности. Студентам можно предложить изучать судьбы репрессированных лиц своего региона, работать с архивными материалами, собирать семейные воспоминания и создавать цифровые проекты. Такой подход развивает исследовательские навыки и формирует личную связь молодежи с историей родного края. В образовательных программах ЮНЕСКО также подчеркивается значение исследовательских и интерактивных методов работы с молодежью в сфере культурного наследия [3].

Современные технологии открывают возможности и для применения искусственного интеллекта в музейной деятельности. Цифровые базы данных, интеллектуальный поиск по архивам, виртуальные экскурсоводы и интерактивные образовательные платформы могут сделать историческую информацию более доступной. Вместе с тем использование искусственного интеллекта требует особой осторожности: материалы о жертвах политических репрессий должны основываться на достоверных архивных и научных источниках. ЮНЕСКО также уделяет внимание вопросам применения цифровых технологий и искусственного интеллекта в современной музейной деятельности [4].

Таким образом, музеи должны выступать не только хранителями исторических предметов, но и активными образовательными и культурными центрами. Сочетание традиционных музейных методов с виртуальными выставками, социальными сетями, подкастами, QR-кодами и другими цифровыми технологиями позволяет сделать историческое знание более доступным и интересным для молодежи.

Сохранение памяти о жертвах политических репрессий является важной частью восстановления исторической справедливости и формирования объективного отношения к прошлому. Особенно важно не просто передавать молодежи готовую информацию, а вовлекать ее в самостоятельное изучение истории. Именно такой подход способствует формированию патриотизма, гражданской ответственности и уважения к историческому наследию.

Историческая память должна сохраняться не только в музейных экспозициях и архивных документах, но и в сознании молодого поколения. Поэтому развитие современных форм музейной работы и активное участие молодежи в изучении истории являются важными условиями сохранения исторической памяти для будущих поколений.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. UNESCO. Рекомендация о защите и содействии развитию музеев и коллекций, их разнообразия и их роли в обществе. — Париж: ЮНЕСКО, 2015.
2. Кабинет Министров Республики Узбекистан. О мерах по дальнейшему усилению работы по популяризации жизни и деятельности жертв репрессий в 2025–2026 годах: постановление № 691 от 4 ноября 2025 года. — Ташкент, 2025.
3. Центр всемирного наследия ЮНЕСКО. Всемирное наследие в руках молодых: образовательная программа по сохранению культурного наследия. — Париж: ЮНЕСКО.
4. UNESCO. Третий форум высокого уровня по вопросам музеев. — Париж: ЮНЕСКО, 2025.
5. Государственный музей памяти жертв репрессий. История политических репрессий в Узбекистане: архивные документы и материалы. — Ташкент.
6. Алимова Д. А. История как история, история как наука. — Ташкент: Узбекистан, 2009.
7. Каримов Н. XX век: репрессии, литература и историческая память. — Ташкент: Фан, 2010.
8. Усманов К., Содиқов М. История Узбекистана. — Ташкент: Шарқ, 2019.
9. Музейное дело и охрана культурного наследия: современные подходы и цифровые технологии. — Москва: ЮНЕСКО.
10. Материалы Государственного музея памяти жертв репрессий Республики Узбекистан по вопросам сохранения исторической памяти и популяризации наследия жертв политических репрессий. — Ташкент.

MUNDARIJA

№	F.I.O.	MAQOLA NOMI	BET
1	**Nabiyev D.X**	TABRIK SO’Z	**3**
2	**Рахматова Д.Ж**	ОЗОДЛИК ЙЎЛИДА ШАҲИД БЎЛГАН ЮРТ ПОСБОНИ	**5**
3	**Ирзаев Б**	ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ ИЧКИ ИШЛАР ТИЗИМИДА ФАОЛИЯТ ОЛИБ БОРГАН ХОДИМЛАР ВА УЛАРНИНГ ҚАТАҒОН ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН	**14**
4	**Кудияров А.Р** **Нуржанов С.У**	КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ УЧРЕЖДЕНИЯ КАРАКАЛПАКСТАНА И ПОЛИТИЧЕСКИЕ РЕПРЕССИЙ 1930-Х ГОДОВ	**21**
5	**Alijonov M**	MUHOJIR JADIDLARNING “YOSH TURKISTON” JURNALI VA MUSTAFO CHO’QAY	**26**
6	**Eshbo‘riyev T,** **Ashirov U.**	Mulla Mirza Muhammad Sharifjon (Sadr Ziyo)	**33**
7	**Erbo‘tayeva O’** **O‘rmonov H**	TURKISTONDA ESKI MAKTABLARNI ISLOH QILINISHI	**35**
8	**Камолов А**	ЎЗБЕКИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИКЛАРИДА 1920-	**40**

		1953-ЙИЛЛАРДА СОВЕТ СОЛИҚ СИЁСАТИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ (ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)	
9	**Darmonova M**	“MILLIY TURKISTON” JURNALI MUHIM MANBA SIFATIDA	**44**
10	**Sultonov Sh, Qahhorova Nilufar, Xolboyeva Z**	JADIDCHILIK HARAKATIDA GEOGRAFIK QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA QATAG‘ON QURBONLARI ILMIY MEROSI (QASHQADARYO VOHASI MISOLIDA)	**50**
11	**Ashirov U**	POLYAKLAR DEPORTATSIYASI (1939-1946 yillar)	**58**
12	**Sidiqov S**	QATAG‘ON SIYOSATI VA UNING FOJIAVIY OQIBATLARI: ARXIV HUJJATLARI, YANGI MANBALAR VA XOLIS TARIXIY TADQIQOTLAR	**66**
13	**Эргашева Б**	ЖИЗЗАХЛИК ЖАДИДЧИЛАР	**71**
14	**Ҳамроев А**	ХАЛҚ ОСОЙИШТАЛИГИ ЙЎЛИДА ҚУРБОН БЎЛГАН АДОЛАТ ПОСБОНИ	**80**
15	**Қурбонов Х**	ХХ АСР ҚАТАҒОНЛИК	**89**

		СИЁСАТЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ, СИЁСИЙ, ИЖТИМОИЙ ВА МАЪНАВИЙ ОҚИБАТЛАРИ	
16	**Himmatqulova D**	QASHQADARYODA JADIDCHILIK HARAKATI VA “ABDULLA GULSHANIYNING” MA`RIFIY-ADABIY FAOLIYATI”	**97**
17	**Nuralova N**	XX ASRNING 30-YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA SHO‘RO DAVRI QATAG‘ON SIYOSATI: MANBALAR VA TARIXIY TAHLIL	**102**
18	**Maxsudjonov O**	JADIDLARNI ANGLASH O’ZLIKNI ANGLASHDIR	**114**
19	**Qaxxarova N** **Toshtemirova U**	TURKISTON MA’RIFATPARVARLARININ G MA’ORIF SOHASIDAGI ISLOHOTLARI VA YANGICHA YONDASHUVDAGI DARSLIKLARNING PEDAGOGIK ASOSLARI	**121**
20	**Karamova M** **Oromova Sh**	JADIDLARNING ILMIY-PEDAGOGIK MEROSI HAMDA TA’LIM JARAYONIGA QO’SHGAN HISSASI	**125**

21	**Axrarova A**	GERMANIYADA TAHSIL OLGAN XOTIN-QIZLARNING QATAG’ON QILINISHI	**130**
22	**Хўжаёров А**	ЖАДИД МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИ АСАРЛАРИДА ИСЛОМ ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	**135**
23	**Машарипов Ш**	ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИ	**146**
24	**Қувваталиев У**	АНСАБ УС САЛОТИН АСАРИ ҲАҚИДА БУЛАТ СОЛИЕВ ФИКР МУЛОҲАЗАЛАРИ	**153**
25	**Қурбонова К**	УРАЛ ҲУДУДЛАРИГА САФАРБАР ЭТИЛГАН “МЕҲНАТ АРМИЯЧИЛАРИ”НИНГ ИЖТИМОИЙ АҲВОЛИ	**157**
26	**Abdimutadov J**	1981-1985-YILLARDA O‘ZBEKISTON SSR KOMMUNAL INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONLARI (ARXIV MATERIALLARI ASOSIDA)	**170**
27	**Suyarov N**	PAXTA ISHI» QATAG‘ONIDA TA’LIM TIZIMI XODIMLARI TAQDIRI (QASHQADARYO	**175**

		VILOYATI MISOLIDA)	
28	**Meyliyev I**	BIR INSON TAQDIRI — BIR DAVR FOJEASI: USANOV QO‘CHQOR HAYOTI	**182**
29	**Сафаров Ю**	САИД РИЗО АЛИЗОДАНИНГ ЖУРНАЛИСТИК ФАОЛИЯТИ	**187**
30	**Raxmatov M**	ZULMGA UCHRAGANLAR	**191**
31	**Saydaxmedova N**	TARIXIY XOTIRANI ABADIYLASHTIRISHDA MUZEYLARNING O‘RNI VA QATAG‘ON QURBONLARI HAYOTINI YOSHLAR O‘RTASIDA TARG‘IB ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI	**195**
32	**Умиджон Артиков**	РОЛЬ МУЗЕЕВ В УВЕКОВЕЧЕНИИ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ ЖИЗНИ ЖЕРТВ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕПРЕССИЙ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ	**202**